

MIL'UY OVA, MA NAVIYAT VA MAFKURA  
SIYOSAT VA HUQQQ ● ISLOHOT VA UTIMOIY HAYOT  
TARIX VA ETHNOGRAFIYA ● TA'LIM ● ADABIYOT VA SAN'AT

NAMANGAN  
DAVLAT  
UNIVERSITETI



# SALOHIYAT MEZONI

ILMIY MAQOLALAR  
TO'PLAMI



NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI

MILLIY G‘OYA,  
MA’NAVIYAT VA HUQUQ  
ASOSLARI KAFEDRASI

SALOHIYAT  
MEZONI

ILMIY MAQOLALAR TO‘PLAMI

7-SON

«Namangan» nashriyoti  
2015

UO'K: 821.512.133-9

KBK: 84 (5 O'zb) 7

N - 54

«SALOHİYAT MEZONI» – ilmiy maqolalar to'plami, 7-son / muharrir Dilmurod Djumabayev, «Namangan» nashriyoti, 2015-yil. – 240 bet.

### Mas'ul muharrir

Falsafa fanlari nomzodi, dotsent S. Norqo'ziyev

Tahrir hay'ati:

t. f. n., dotsent B. Talapov  
f. f. n., dotsent O. Mamatov  
t. f. n. katta o'qituvchi T. Qozoqov  
t. f. n. katta o'qituvchi O. Topildiyev  
s. f. n. dotsent D. Po'latov  
f. f. n. dotsent F. Karimova  
f. f. n. dotsent Q. Sidiqov  
o'qituvchi B. Tillayev  
o'qituvchi R. Zamilova  
o'qituvchi A. Abdullayev

*Mazkur maqolalar to'plami Namangan davlat universiteti Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasining 2014-yil 26-dekabrdagi 4-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.*

*Namangan davlat universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2015-yil 26-yanvar kungi 1-sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va nashrga tavsija qilingan.*

ISBN 978-9943-989-07-8

NG — 1380-4938.0-1791700 — 2015  
1381 - (15.0) - (07)



© Namangan davlat universiteti, 2015

## Ilmiy-tadqiqot va xalqaro aloqalar

*M. Qodirxonov*

*NamDU Ilmiy ishlar bo'yicha prorektori*

Namangan davlat universitetida faoliyat ko'rsatayotgan jami 382 nafar professor-o'qituvchilardan 139 nafari ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega, ular barcha professor-o'qituvchilarning 36, 6 % ni tashkil qiladi. Universitet ilmiy salohiyatini yuksaltirish maqsadida yuqori malakali ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlash masalasiga ham katta e'tibor berib kelinmoqda.

OAK tomonidan tadqiqotchilarning faoliyatiga tegishli me'yoriy hujjatlar bilan tanishtirish va tushuntirish ishlarini olib borish uchun yilning har kvartalida universitet ilmiy bo'limi tomonidan seminar tashkillashtirilgan.

Yetakchi fan doktorlari tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining tavsiya etiladigan mavzulari shakllantirilgan bo'lib, mavzular OTM Kengashida muhokama etilgan.

O'zR VM Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasining saytida 2014-2015-yillarning mavzulari bazasida universitetning 31 nafar tadqiqotchilarining mavzulari qayd etilgan. Ayni vaqtida OAK ning 2014-yil byulletenining 3-4-5 sonlaridan Namangan davlat universiteti tadqiqotchilariga tegishli 23 mavzu doktorlik dissertatsiyasi mavzulari e'lon qilingan.

Universitetda 22 ta kafedrada innovatsion korporativ hamkorliklarni amalga oshiruvchi innovatsion guruh tashkil etilgan. Ushbu guruhlar tomonidan ta'lim yo'nalishlarga mos ravishda 2011-2015-yillar davri uchun turli vazirlik va idoralarga qarashli korxonlar va muassasalar bilan 130 ta hamkorlik shartnomnlari imzolangan.

2012-2014-yillar davomida universitet professor-o'qituvchilari muallifligida 24 ta monografiya (2012-yilda 7 ta, 2013-yilda 6 ta, 2014-yilda 11 ta), 3 ta patent, 1 ta mualliflik guvohnomasi chop etilgan.

2012-2014-yillar davomida xorijiy журнallarda chop etilgan maqolalar soni 135 tani tashkil etib, 2012-yilda – 45 ta, 2013-yilda 33ta, 2014-yilda – 57 tani tashkil etdi.

So'nggi paytlarda NamDUDA xalqaro aloqalarning ko'lami sezilarli darajada oshdi. Xalqaro aloqalarning xorijiy OTMlар bilan talaba va

o'qituvchi almashinuvi, hamkorlik kelishuvlariga erishish, xorijiy investitsiyalarni o'quv jarayoni sifatini oshirishga jalb qilish, xorijiy professor-o'qituvchilarni taklif etish kabi yo'nalishlar bo'yicha ishlar doimiy ravishda olib borilmoqda. Jumladan o'qituvchi va rahbar xodimlar, talabalar Iste'dod jamg'armasi, Malayziyaning MTCP, ITEC, Norvegiyaning SIU, Amerika elchixonasi, Erasmus Mundus, Gyote instituti va boshqa grantlar doirasida xorijiy nufuzli ta'lim muassasalarida malaka oshirib qaytmoqdalar. Masalan 2014-yil davomida 7 nafar professor-o'qituvchi va rahbar xodimlar Malayziyaning MTSP dasturi bo'yicha qisqa muddatli malaka oshirib qaytishdi. AQSh elchixonasi bilan hamkorlikda 1 nafar AQShlik Ingliz tili mutaxassisini Fulbrayt dasturi doirasida 2015-yilning mart oyidan boshlab 6 oy muddatga NamDuga taklif etish bo'yicha kelishuvga ushilgan.

Hozirgi kunda jami 15 ta Yevropa va Osiyoning yetakchi OTMlari bilan anglashuv memorandumlari va hamkorlik shartnomalari imzolangan. Ayniqsa Gollandiyaning Groningen universiteti, Italiyaning Pizu universiteti, Norvegiyaning Oslo Akerssus amaliy fanlar universiteti, Janubiy Koreyaning Inchon universiteti va Malayziyaning bir qator nufuzli universitetlari bilan ilmiy va akademik hamkorlik ishlari keng yo'lga qo'yilgan.

Janubiy Koreyaning KOICA dasturi bilan muntazam aloqalar yo'lga qo'yilgan va hozirda 2 nafar ko'ngilli mutaxassislar Koreys tili va informatsion texnologiyalar sohalarida NamDU talabalariga to'garak shuklida qo'shimcha dars berib kelmoqdalar. Janubiy Koreyaning Vongvang universiteti bilan hamkorlikda NamDUDA hisoblash statistikasi departamenti ochish va matematik statistika sohasidagi moddiy texnik bazani kuchaytirish bo'yicha muzokaralar davom etmoqda.

Tempus dasturi bo'yicha hozirgi kunda NamDU boshchiligidagi Tukahiya (TuCAHEA) loyihasi o'z ishini davom ettirmoqda. Loyihaning maqsadi hamkor oliy talim muassasalarida kompetentsiyaga asoslangan ta'limning xalqaro tajribalarini o'rghanish orqali amaldagi ta'lim kompetentsiyalarini yanada takomillashtirish va moslashtirishdan iborat. Pirovardida, oliy ta'limda yotishib chiqayotgan kadrlarning bilim va kompetentsiyalari jamiyat ehtiyojiga nisbatan mutanosibligiga erishishiga hissa qo'shish.

O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligining 2011-yil 1-noyabrdagi 10/33298-soni xati, 2012-yil 6-dekabrdagi 10/17508-soni xati hamda OO'MTVning 2011-yil 4-apreldagi 87-04-191- sonli xati,

2011-yil 18-iyuldagagi 87-03-02/3-1752-sonli xati asosida universitetimiz Germaniyaning Magdeburg universiteti, Dresden texnika va iqtisodiyot universiteti, Flensburg universiteti bilan doimiy aloqalar o'rnatgan va ikki tomonlama anglashuv memorandumlari imzolangan. Aloqalar asosan ikki tomonlama amaliy tashriflar, hamkorlikdagi ilmiy to'plamlar yaratish, xalqaro loyihalarda qatnashishdan iborat bo'lmoqda. Jumladan 2012-yil sentyabr oyida yuqorida OTM vakillarining 18 nafar professor-o'qituvchi va magistratura talabalari universitetimizga tashrif buyurishgan, Dresden texnika va iqtisodiyot universiteti vakillari esa 2013-yil sentyabr oyida tashrif buyurganlar. Magdeburg universiteti va Dresden texnika va iqtisodiyot universiteti bilan hamkorlikda 2012-, 2014-yillari 2 dona ilmiy to'plam yaratildi va unda NamDUNing 31 nafar professor-o'qituvchilarining ilmiy maqolalari chop etildi.

2015-yilning 18-22-may kunlari "Nemis va Fransuz tillari kafedrasi" bilan uzoq yillik hamkorlik qilib kelayotgan Germaniyaning Maynts universiteti "Til, madaniyat va tarjima" fakulteti dekani, professor Mixail Shrayber (Michael Schreiber) va uning rafiqasi Marga Shrayber (Schreiber Gebriele Marga) NamDUga tashrif buyurdilar. Tashrif mobaynida Mixail Shrayber NamDU talabalari va o'qituvchilariga nemis tarjimashunosligi va G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi tarjimashunoslik fanlari va ularni OTMlarda o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha ma'ruza qildi. NamDU professor o'qituvchilari va talabalari bilan davra suhbatlari o'tkazdi.

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011-yil 29-apreldagi yuborilgan 87-03-96-sonli va O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirligining 2011-yil 14-apreldagi 10/11604-sonli Norvegiyaning oliy ta'limda hamkorlik dasturi grant tanlovlarida qatnashish to'g'risidagi xatlari ijrosi yuzasidan Namangan davlat universitetida bir qator ishlar olib borilmoqda.

Jumladan ushbu dastur doirasida Oslo Akersxus amaliy fanlar universiteti (HiOA) bilan hamkorlikda taqdim etilgan "NamDU va HiOA o'rtasida hamkorlikni davom ettirish(CPEALA-2013/10123 - Sustaining the collaboration between Namangan State University and HiOA)" mavzusidagi loyihasi tanlovdan o'tgan. Ushbu loyihaning umumiyligi qiymati 43 ming AQSh dollarari (250 ming Norvegiya kronasi) bo'lib barcha mablag' HiOA hisobiga o'tkazilgan. Loyihaning asosiy maqsadi NamDU professor-o'qituvchilari uchun chet tillarni o'qitish metodikasi, chet tillarni o'rganishda madaniyatlararo muloqot, malaka oshirish tizimi kabi sohalarda o'quv seminarlari tashkil etishdan iborat.

Loyiha ikki bosqichda amalga oshiriladi. **Birinchi bosqichda** 4 nafar norvegiyalik professor-o'qituvchilar 2015-yilning 24-29 may kunlari NamDUga tashrif buyurib Ingliz tili yo'nalishidagi o'qituvchi va talabalar uchun chet tillarni o'qitish metodikasi, chet tillarni o'rganishda madaniyatlararo muloqot, malaka oshirish tizimi kabi sohalarda seminar o'tkazdilar. **Ikkinci bosqichda** esa 8 nafar NamDU professor-o'qituvchilari Norvegiya oliv ta'lim muassasalaridagi o'qitish tizimi, o'qituvchilarni qayti tayyorlash tizimi, pedagogik faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida 2015-yilning 14-21-iyun kunlari Oslo Akerssus amaliy fanlar universitetiga tashrif buyurishdi.

Loyihani amalga oshirish uchun NamDU tomonidan P. Lutfullayev va HiOA tomonidan Mixail Xarakoz mas'ul hisoblanadi.

Loyihani amalga oshirish O'zR Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2011-yil 20-maydagi PQ-1533-sonli qarorining 2-ilovasi 18-bandining ijrosi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 29-oktyabridagi 290-sonli "Namangan davlat universiteti faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalarning ijrosi uchun muvofiq kelishini ma'lum qilamiz.

Bundan tashqari 2013-yil 16-mayda O'zbekiston Respublikasining Londondagi elchisi va elchixona vakili HiOAgaga tashrif buyurishgan va NamDU bilan olib borilayotgan aloqalar yuqori baholanib qo'llab quvvatlanishi bildirilgan.

Namangan davlat universitetining Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasining respublikadagi boshqa oliv o'quv yurtlari bilan o'rnatilgan ilmiy hamkorlik aloqalar e'tiborga loyiqdир. Kafedra O'zbekiston Milliy universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika universiteti, Andijon Davlat universiteti, Farg'ona davlat universiteti va Qo'qon davlat pedagogika instituti bilan hamkorlikdagi shartnomalar imzolangan.

Mazkur o'zaro hamkorlik shartnomalariga asosan kafedraning katta o'qituvchisi Rimma Zamilova O'zbekiston Milliy universitetida malaka imtihonlarini topshirdi, mustaqil tadqiqotchi sifatida doktorlik dissertatsiyasini yakunlamoqda. Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika universiteti bilan aloqalar doirasida kafedra professor-o'qituvchilaridan B. Tillaev, B. Ibrohimov 2015-yil mart oyida mutaxassislik bo'yicha malaka oshirib qaytdi. 2015-yil 1-30-iyun kunlari B. Talapov mazkur universitetda mutaxassislik bo'yicha malaka

oshiradi. Dotsent B. Talapovning O'zMU professori V. A. Alimasov va boshqa mualliflar bilan hamkorlikda "Ijtimoiy-ma'naviy meros va uning O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi o'rni" nomli monografiyasini nashrdan chiqdi. Kafedraning professor-o'qituvchilari B. Talapov, R. Zamilovalar O'zMU da o'tkazilgan Xalqaro konferensiyada o'z ilmiy maqola va ma'ruzalar bilan qatnashdilar. Ayni vaqtida dots. B. Talapov, katta o'qituvchilar T. Qozoqov, R. Zamilova, o'qituvchi A. Qambarovlarning Urganch davlat universitetida o'tkazilgan ilmiy-nazariy konferentsiyada ilmiy tezislari chop qilindi.

## **Yoshlar tolerantlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning roli**

*Xurshid Mirzaxmedov*

*Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasi o'qituvchisi*

*Umida Boyzaqova*

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi*

Fuqarolik jamiyatining yachevkasi – oilaning benazir nufuzi, ulkan ijtimoiy ahamiyatga molik voqelik ekanligi hech kimda shubha tug'dirmaydi. Oila jamiyatning asosiy hujayrasi va ijtimoiy tayanchidir. Har bir oilaning baxtiyorligi va farovonligi pirovard natijada jamiyatning barqarorligi, gullab-yashnashi hamda farovonligi shartidir. Oila nafaqat inson naslini davom ettirish omili sifatida emas, balki jamiyat a'zolari o'rtasidagi bag'rikenglik muozzanatini ushlab turadigan omil bo'lib, o'sib kelayotgan yosh avlodni bag'rikenglik g'oyasi asosida tarbiyalash maskani sifatida katta ahamiyatga egadir.

Inson shaxsini shakllantirishda tolerantlik madaniyatini o'ziga xos jihatlari xar bir oilada ko'rinadi, shubhasiz, dastlabki bosqich vazifasini o'taydi, ya'ni oilada insonlarning bir-biri bilan, jamiyat va davlatga nisbatan munosabatiga asos solinadi.

Respublikamizda 2012-yilni "Mustahkam oila yili" deb e'lon qilinishi, shundan dalolat beradiki, oila a'zolari o'rtasidagi bag'rikenglikka asoslangan munosabatlar tizimi xar bir oilaning mustahkamlovchi omil hisoblanadi, shuningdek yoshlarimizni yurtga, Vataniga sodiq ruhida tarbiyalashni taqozo etadi.

Har bir jamiyatning negizini uning fuqarolari, bag'rikeng oilasi tashkil etadi. Har bir fuqaroning jamiyatda tutgan o'rni bilan davlatning qudrati belgilanadi. O'sib kelayotgan avlodning yetakchiligi ham, inqirozi ham oiladan boshlanadi. Oilada olingen tarbiya va bilim o'rnnini

hech bir narsa bosa olmaydi. Oilada shaxs bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish bolaning yoshligidan boshlanadi. Shaxs bag'rikenglik madaniyatni shakllantirishda oiladagi munosabatlardigi muozanatga befarq bo'lmaslik lozim.

Oilada yoshlarga bag'rikenglik ruhida tarbiya berish ta'lim tizimining boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Oiladagi muhit farzandlar va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabat shakllangan tarbiya tizimi bolalarda bag'rikenglikka bo'lgan dastlabki qarashlarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarni avvalo oila tarbiyalaydi. Oilaviy muhit o'zaro hurmat, bag'rikenglik, oljanoblik, halollik asosiga qurilgan bo'lsa, oila boshliqlari o'z vazifalariga sidqidildan qarasalar jamiyatning bunday yacheykasidan yaxshi fuqarolar yetishib chiqadi.

Oiladagi sog'lom muhit sog'lom mafkurani shakllantirish manbayidir. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligi, o'zaro hurmat va ahillikni ta'minlash milliy mafkurada ko'zda tutilgan maqsadlarni amalgalash oshirishda tayanch bo'ladi<sup>1</sup>.

Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri, qomusiy bilim sohibi Abu Ali ibn Sino o'zining «Risolatu tadbiri manzil» asarida ota-onalar zimmasiga o'ta murakkab va hayotiy vazifalarni qo'yadi. «Agar oila boshlig'i tajribasizlik, no'noqlik qilsa, u oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va oqibatda yomon natija kelib chiqishi mumkin.

— Oilada yomon tarbiya, - deb uqtiradi olim, - faqat shu oilaning o'ziga salbiy ta'sir qilib qolmasdan, balki atrofdagi boshqa oilalarga ham salbiy ta'sir qilishi mumkin»

Tarbiyaning barcha yo'nalishlarida bo'lGANI kabi bag'rikenglikda ham muntazamlilik, vorisiylik bo'lishi darkor. Bag'rikenglik g'oyasini yoshlikdan olib borish darkor, chunki yoshlik kishining dunyoqarashi, o'z-o'zini anglashi va qadriyatlarini tushunishi, axloqiy siyosiy-huquqiy va boshqa ideallarga mustaqil baho berish qobiliyati tez shakllanib borishi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham oilada o'quv yurtlarida, jamoat tashkilotlarida mehnat jamoalarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarga barchaning diqqat e'tibori qaratilmog'i kerak. Bolalar bog'cha yoshidan boshlab tartibni, turmush qoidalarni hurmat qiladigan bo'lishlariga erishish darkor. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Farobi yagtganidek, har kimki ilm-hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, sog'-salomatligini asrasin axloq va odobli bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlansin, hiyonat, makr va hiyladan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin va barcha qonun qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo'lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan

<sup>1</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamovillar. -Toshkent. O'zbekiston, 2000.-B.66.

mol-dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to'g'risida bilimni egallasin.

Fuqarolik jamiyat sharoitida yoshlar tolerantlik madaniyatini yuksaltirish nafaqat oilada ota-onan zimmasiga mas'uliyatli vazifani yuklaydi. Yoshlarning tolerantlik ongi va tolerantlik madaniyatini yuksaltirishda oila, maxalla va ta'lim tizimida pedagoglarning o'rini kattadir. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida tolerantlik g'oyasining umumiyligi va bag'rikenglikning ochiqligi printsipini ro'yobga chiqarishda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, shu jumladan mahalla institutlarning mavqeい ham beqiyosdir. Shu sababli aholi istiqomat qilayotgan mahallalarda yoshlarning tolerantlik madaniyatni oshirish yuzasidan keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish kutilgan natija berishi shubhasiz. Mahallalarda yoshlar o'rtasida tushuntirishlarni olib borish, suhbat, ma'ruza mashg'ulotlarini o'tkazish yoshlarning bag'rikenglik g'oyasini singdirishga katta yordam beradi.

Mahalla yoshlari tarbiyasi mahalla faoliyati yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan jarayondir. Aholiga eng yaqin bo'lgan hokimiyat bo'g'ini bo'lgan mahalla yoshlar o'rtasida katta tarbiya o'chog'i, tolerantlik markazi bo'lmog'i lozim.

Har yili belgilanayotgan va amalga oshirilayotgan xayrli ishlarning barchasida oila va uning mustahkamligi muammozi umuminsoniy vazifa ekanligi e'tirof etilmoqda.

- Oila, - deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov, - hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i...<sup>2</sup>

Xulosa qilib aytganda, Oilani e'zozlash, uning qadr-qimmatini yuksakka ko'tarish bizning ongimizda mustahkam jo bo'lguvchi omildir. Mamlakatimiz axolisini tarbiyalashda bag'rikenglik g'oyasini o'rni alohidadir. Oila-mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi.

<sup>2</sup> Karimov I. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. - Toshkent: O'zbekiston, 1993 - B.47.

## Diniy ekstremizm va terrorizm – yoshlar kelajagiga tahdid

*Djo'raboyeva Gulshanoy,*

*Namangan tibbiyot kolleji Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rbinbosari*

*Xojiboyeva Muqaddas,*

*Namangan tibbiyot kolleji "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi*

Mamlakatimizda jamiyatni demokratlashtirish, faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida yoshlarning o'rni kuchayib bormoqda. Yoshlarga doir olib borilayotgan davlat siyosati, bu borada mavjud qonunchilik va islohotlarning amalga oshirilishi mustahkam kuchli tayanch bo'lmoqda. Bugungi globallashuv davrida dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysindirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalombor, uni quolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatları, tarixi, ma'naviyatidan judo qilishga intiladi.

Bu kunda yoshlar intellektual rivojiga qarshi ma'naviy tahidilar kuchayib bormoqda. Ma'naviy tahdid – bu tili, dini, e'tiqodidan qat'iy nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarishni ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy xurujdir. Xususan, hozirgi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlari, bir tomonidan, G'arbdagi ba'zi siyosiy doiralarning g'araz manfaatlari aks etgan talqindagi «demokratiyani ilgari siljitish» g'oyalari hamda axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm, boshqa tsivilizatsiya qadriyatlarini nazar-pisand qilmaydigan «ommaviy madaniyat» ekspansiyasiga, ikkinchi tomonidan esa, islam diniga zid radikal diniy ekstremistik mafkura xurujiga duch kelmoqda.

Islomiy shiorlar ostida siyosiy hokimiyatga intilayotgan diniy ekstremistik tashkilotlar Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga salbiy ta'sir o'tkazishni davom ettirishga intilmoqda. Mazkur kuchlar 2005-yili Andijonda, 2006-yili Qirg'iziston va Tojikistonda terrorchilik harakatlari amalga oshirib, begunoh fuqarolarning hayotiga zomin bo'ldi. Mintaqada hozirgi kunda «Turkiston islam harakati», «Hizb-ut-tahrir», «Akromiyalar», «Nurchilar», «Tablig-chilar» kabi diniy ekstremistik va terroristik guruqlar faoliyati kuzatilmoqda.

Diniy-ekstremistik oqimlarning asosiy maqsadi din niqobi ostida konstitutsiyaviy tuzumni ag'darish va siyosiy hokimiyatni egallahshdir.

Diniy-ekstremistik oqimlarning vakillari asosiy e'tiborni aholimizning 64 foizini tashkil etuvchi, hali ongi to'la shakllanib ulgurmagan, hayotiy tajribasiz yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirishga qaratib, ularga bosqichma-bosqich, dastavval, diniy dunyoqarashni, keyinchalik esa, aqidaparast g'oyalarni singdirishga intilmoqda.

Aqidaparast kuchlar terrorchilik bilan xalq ichida qo'rquv uyg'otish va hukumatga tazyiq o'tkazish, qo'poruvchilik bilan iqtisodiyotni izdan chiqarish, ekstremistik mazmundagi adabiyot, video-audio disklarni tarqatish, yashirin guruhlar faoliyatini yo'lga qo'yish, «hujralarda» yoshlarga mutaassib tushunchalarni singdirish, shuningdek, go'yoki respublikamizda «fuqarolarning vijdon erkinligi poymol etililayotgan» haqida ig'vo tarqatish kabi usullardan foydalananmoqda.

Diniy-ekstremistik oqimlar tarqatayotgan mutaassib g'oyalalar sof islom diniga zid bo'lib, ekstremistik guruhlar faoliyatining mudhish oqibatlarini qo'shni Afg'oniston misolida ko'rish mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2007-yili mazkur mamlakatda diniy-ekstremistik va terroristik tashkilotlar har oy 500 dan ziyod terroristik hatti-harakat sodir etgan. Oqibatda 8000 dan ziyod odam hayotdan ko'z yumgan. 160 ta terrorchilik harakati o'z-o'zini portlatish usuli bilan amalga oshirilgan. Jumladan, 2011-yili terrorchilar Afg'onistonda 98 ta maktabni yoqib yuborgan, 147 nafar o'qituvchi va o'quvchilarni o'ldirgan. Yuz minglab o'quvchi bolalar maktabga borishdan mahrum bo'lgan.

Yoshlar turli aqidaparast guruh da'vatchilarining aldoviga uchib qolmasligi, xususan, go'yoki «Qur'on o'rgatish» bahonasida, aslida, mutaassib g'oyalalar targ'ib qilinadigan yashirin «hujra» va yig'lnlarga bormasligi, turli «da'vatchi»lardan noqonuniy diniy mazmundagi disk, adabiyot va kassetalarni olmasligi lozim. Ilgari yot g'oyalarga aldangan ba'zi yoshlarning hozirda oilasidan yiroqda, vatangado bo'lib, begona yurtlarda xor-zor bo'layotgani boshqalarga saboq bo'lishi kerak.

Mamlakatimiz konstitutsiyaga muvofiq dunyoviy, demokratik davlat bo'lib, uning yorqin kelajagini yaratishda yoshlar asosiy kuch hisoblanadi. Respublikamizda din davlatdan ajratilgan bo'lib, amaldagi qonunlarda xususiy tartibda diniy ta'lim berish yoki olish, maxfiy diniy yig'in yoki tashkilotga a'zo bo'lish man etilgan (O'zbekiston Respublikasi Jinoiy kodeksining 216-, 244-moddalari, Ma'muriy kodeksining 202-, 241-moddalari).

O'zbekiston Respublikasida yoshlarni ilm-ma'rifatli, turli sohalarda yetuk mutaxassis. jismonan barkamol inson bo'lib yetishishga keng sharoitlar yaratib berilgan. Mazkur imkoniyatlardan to'la-to'kis

foydalanimish, jamiyat va davlat uchun fidokor shaxs bo'lish har bir yoshning burchidir. Buning uchun esa, ular avvalo, dunyoviy va kasb fanlarini chuqur o'zlashtirish, shuningdek, o'zbek xalqining mehnatsevarlik, oilani muqaddas bilish, insonlarga mehribonlik, do'stlarga sadoqat, vatanparvarlik kabi tarixan e'zozlab kelinayotgan qadriyatlarini o'zida shakllantirishi talab etiladi.

Xulosa qilinadigan bo'lsa, yoshlari uchun mamlaqat suvereniteti, territorial birligi hamda mustaqil siyosat yuritish huquqini mustahkam himoya qiluvchi fuqaro bo'lish, o'zlarida milliy an'ana va xalqimiz mentalitetiga yot g'oyalarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirish ma'suliyatli burch hisoblanadi.

## **Yuksak ma'naviyat – insoniyat haloskorি**

*Umida Boyzaqova*

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va  
huquq ta'limi yo'nalishi talabasi*

Mustaqillik har bir insonga o'zligini va milliy ma'naviyatini anglashi uchun yangi ufqlar ochdi.

Ma'naviyatda insonlarning turli davrlarida shakllangan dunyo va insoniy munosabatlari to'g'risidagi qarashlari, tasavvurlari o'z ifodasini topadi. Ular hilma – hil bo'lib, turli halqlar va millatlarning etirof etish bilan bog'liq ravishda ma'naviy hayotdan o'rinn egallaydi, hamda turmush bilan uyg'unlikka muayyan odatlar, tamoyillar, ananalar tarzida shakillanib, turli halqlar va millatlar ma'naviyatiga aylanib boradi.

Bugun biz g'oyat chigal va ziddiyatli dunyoda yashayapmiz. Bugungi kunda haqiqatni yashirish, uni turli g'arazli manfaatlari yo'lida sohtalashtirishga ishqibozlar ko'payib bormoqda. Buning natijasida yolg'oni rost deb, yomonni yahshi deb uqtiradiganlarning domiga tushib qolganlar yo'q emas. Azaldan bizga malumki, barcha narsaning 2 tomoni bor. Shunday ekan har bir qilinayotgan ishning yahshi tomoni ham bor yomon tomoni ham. Bugungi kunda jahoning geosiyosiy manzarasi shu qadar tez o'zgarmoqdaki, oxir – oqibatda nafaqat bir mamlakatda yashaydigan insonlar bazan bir oila azolari ham sarhadlarning turli taraflarida qolib ketmoqda. Eng yomoni insonning ongu shuurida ham bo'linish paydo bo'lmoqda.

Buni sababi sifatida bizga globallashuv natijasida kirib kelayotgan ma'naviy tahdidlarni olish mumkin. "Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega".

Har qanday siyosiy urushni oldini olish. to'xtatish mumkin, lekin inson ongida bo'linish bo'lsa, bu zararni hech narsa bilan qoplab bo'lmaydi.

Bugungi kunda yopirilb kirib kelayotgan ekistremistik g'oyalar inson ma'naviyatiga hujum qilmioqda, bu esa jamiyatda barqarorlikni izdan chiqaradi. Ma'naviy tahdid qaysi davlat yoki halqqa qarshi qaratilishidan qatiy nazar, butun insoniyatda birdek tashvish va havotir uyg'otmog'i lozim. Bugungi kunda ma'naviy omil nafaqat O'zbekistonda balki butun jahonda ustuvor ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Butun insoniyat taqdiri ma'naviy masalalar bilan uzviy bog'liq.

Lekin hozirgi davrda Yevropa davlatlarida aksariyat hollarda ma'naviy masalalarga, axloqiy meyorlarga etibor sustlashib bormoqda. Ma'naviyat 2-darajaga tushib qoldi. Huquq, huquqiy munosabatlar, demokratiya – bularning barchasi ma'naviyatdan yuqoriyoq ko'rilmuoqda. Ma'naviy tahdidlar, "ommaviy madaniyat" bularning barchasi demokratiya orqali vujudga kelmoqda. Shunday ekan bu demokratiya emas, demokratiyani buzilgan shakli deb hisoblash mumkin.

G'arb demokratiyasi, g'arb erkinligi kabi me'yorlar insoniyatni tubanlikka va halokatga olib boruvchi yo'ldir. Ma'naviyatning halokati bugungi kunda oilani inqiroziga olib kelyapti. Oilaning inqirozi esa, o'z – o'zidan jamiyat inqiroziga yo'ldir.

Toboro kuchayib borayotgan bunday ma'naviy tahdidlarga doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashashimiz zarur.

"Qayerdaki beparvolik bo'lsa, loqaydlik hukm sursa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi"<sup>4</sup>.

Butun insoniyat taqdiri ma'naviy masalalar bilan uzviy ravishda bog'liq shuning uchun ma'naviy masalalarga yondashuvda Sharqona madaniyat ustuvor yo'nalish sifatida qaralishi zarur. Prezidentimiz iboralari bilan aytganda " binobarin, ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z – o'zidan mamlaqat habsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini taminlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir – oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin".<sup>5</sup>

<sup>4</sup> Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008 -B.113.

<sup>5</sup> Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008 -B.116.

<sup>6</sup> Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008.-B 12.

## Beparvolik

S. Norqo'ziyev

Falsaфа fanlari nomzodi, dotsent

Axloqning salbiy me'yorlaridan biri. -(befarqlik, e'tiborsizlik, loqaydlik) – kishidagi o'zgalar hayotiga atrof – voqelikka e'tiborsizlik, loqaydlikni anglatuvchi axloqiy me'yor. Ayniqsa, davlat va jamiyat hayotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'layotgan, vatan taqdiri xal bo'layotgan pallalarda kishilardan yuksak faollik, mas'uliyat talab qilingan sharoitdagи befarqlik nafaqat illat, balki jinoyat xamdir. Bugungi kunda xam O'zbekiston kelajagini g'ayrat-shijoatli irodasi baquvvat, iyomon-e'tiqodi but, Vatan taqdiriga befarq bo'limgan insonlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun I. A. Karimov "Yuksak ma'naviyat -- yengilmas kuch" asarida haqli ravishda ta'kidlaganidek, "Birovning hayotiga, yon-atrofda sodir bo'layotgan voqeа-hodisalarga betaraf va beparvo qarab, shunchaki kuzatuvchi bo'lib yashaydigan odamdan qo'rqish kerak. Ulardan hech qachon yaxshilik chiqmaydi. Chunki ularda na iyomon, na iroda bo'ladi. Ular hatto o'z xalqi va Vatani taqdiriga ham bamisolи begona odamdek qaraydi. Azaldan ma'lumki, beparvo odam dushmandan xam xavfqliroq. Chunki dushmanning kimligi, asl qiyofasi siz uchun oldindan ma'lum bo'ladi. Biroq loqayd va beparvo odamning qiyofasini bordaniga bilib bo'lmaydi. Shuning uchun u ichingizda yurib, sizga qarshi tish qayraydigan dushmanlar uchun imkoniyat yaratib beradi. Mashhur faylasuflardan biri ana shu hayotiy haqiqatni chuqur tahlil etib quyidagi haqqoniy fikrlarni bayon qilgan: "Dushmanlardan qo'rhma – nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rhma – nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamdan qo'rma – ular seni o'ldirmaydi xam. sotmaydi xam, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi". Demak beparvolik irodasi zaif, qatiyatsiz odamlarga xos bo'lib, insonni mas'uliyatdan, umuman insonlik martabasidan mahrum etadigan salbiy axloqiy hodisadir.

## BEODOBLIK

Beodoblik boodoblikka zid bo'lgan axloqiy me'yorlardan biri, axloq-odob qoidalariga zid bo'lgan salbiy axloqiy me'yor, insonning o'z faoliyatida boshqalar bilan bo'lgan munosabatida, iyomon, insof, andisha,

sharmu-xayo, insoniyik kabi axloqiy mezonlar chegarasidan chiqishni anglatuvchi axloqiy xolat. U muayyan maqsad yo'lida va maqsadsiz amalga oshirilishi mumkin. Boshqa bir tasnif bo'yicha beodoblik anglangan va anglanmagan ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Anglangan beodoblikni odam bilib turib yomon niyatda amalga oshiradi. Anglanmagan beodoblikga inson axloqiy majburiyatini noto'g'ri tushunishi sababli yo'l qo'yishi mumkin. Beodoblik me'yori muayyan hatti-harakatning mazmuniga, uning amalga oshirilishidagi shart-sharoitlar, shuningdek, uni shu ishni qilishga majbur qilgan motiv va niyatlarga bog'liq. Beodoblik tug'ma xususiyat emas, balki tarbiyasizlik mahsulidir. Shuning uchun xalqimizda "Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin" degan naql bor. Sukut beodoblik, qo'pollik yoki hasad yuzaga keltirgan har qanday kelishmovchilikka qarshi eng to'g'ri javobdir. Bo'lgan-bo'limgan narsani takror-takror so'rayverish ham beodoblikdir. Biz jamiyatda beodoblikni odoblilik bilan tarbiyalay olsak beodoblikni shuncha kamaytirgan bo'lamiz.

### **DONOLAR DEYDILAR:**

Beodoblik – alohida bir illat emas, balki quruq manmanlik, burch tuyg'usining yo'qligi, tanballik, be'manilik, xayolparishonlik, dimog'dorlik, hasad singari ko'pgina illatlarning oqibatidir.

J. Labryuyer.

Beodoblik – johillik urug'i.

S. Batler

### **Ulug'lik odobi**

*S. Norqo'ziyev*

*Falsafa fanlari nomzodi, dotsent*

Axloqiy me'yorlardan biri. Ulug'lik himmatli odam iltifot va marhamat qo'lini ko'pchilik manfaati tomon ochadi. Agar ro'zg'or xodisalari uning himmat otini bu yo'lida toydirsa, sabru bardosh jilovini qo'ldan chiqarmaydi. El manfaati yo'lida qilgan xizmati uchun biror narsa tama qilmaydi. Ko'rmaysizmi, quyosh yerga nurini har qancha sochsa ham, yerdan buning evaziga hech narsa talab qilmaydi, gul o'z xushbo'yligi bilan xammaning dimog'ini muattar qilsa ham, hech kimdan madad orzusini xotiraga keltirmaydi. Ulug'lik sarmoyasi nasl va kasb bilan emas, balki aql va odob bilandir. Ulug'likka erishish juda qiyin, ammo hasislik, pastkashlikka tushish juda osondir.

Iskandar Zulqarnaynga aytalar:

– Siz juda ulug' podshoh bo'lsangiz ham, ko'p xotin olishga maylingiz yo'q. Agar xotiningiz ko'p bo'lsaydi, ko'p o'g'il-qizga ega bo'lib, shuhratingiz yanada oshardi, vafotingizdan keyin nomingiz xalq og'zida doimo yod etilardi.

Iskandar javob berdi:

– Shuhrat qozonish, shon-sharafga ega bo'lish va o'lgandan keyin ham noming yaxshilik bilan yod etilishi xotin va bola-chaqaning ko'pligi tufayli bo'lmaydi. balki adolatparvar, shafqatli, marhamatli, umuman, axloq – tarbiya egasi bo'lish bilangina hosil bo'ladi.

Insonning ulug'ligi o'z nafsin iroda va tarbiya qilish kuchiga ega bo'lishi bilan bilinadi.

Bir kishi bir mamlaqat podshohining qarindosh-urug'laridan bir nechtasini o'ldirib qochib ketdi. Bir qancha vaqt o'tgandan keyin podshohning yoniga qaytib keldi. Podshoh taajjublanib:

– Ajab dovyurak, qo'rmas, jasoratli kishi ekansan, qarindoshlarimdan bir nechtasini o'ldirib buyuk gunoh qilsang ham qahr-g'azabimdan qo'rqlay yana yonimga qaytim kelding. - degan ekan, u kishi ta'zim qilib:

– Sizning avf va marhamatingizning ulug'ligini yaxshi bilaman. Gunohim buyuk bo'lsa ham, avf, marhamatingiz undan ham ulug'roqdir, - deya javob berdi. Podshohga uning so'zi xush kelib gunohini kechdi, inom-ehson qildi.

Uning yaqin kishilaridan biri:

– Shunday dushmani qo'lga tushirdingiz-u, o'ch olmay uning so'ziga aldanib ozod etdingiz, bu nima qilganingiz? – dedi.

– Ish sening o'ylaganingcha emas, undan o'ch olsam, nafsim shodlanadi, ozod qilsam, uning ko'ngli shodlanib dunyoda nomim yaxshilik bilan yod etiladi. Mana shuni o'ylab uni ozod qildim, - deya javob berdi podshoh.

Bayt:

• *Gar ulug'likni tilar bo'lsang diyonat birla bo'l.* •  
*Kim bulur mulki saodat soriga bormoqqa yo'l.*

## DONOLAR ULUG'LIK HAQIDA SHUNDAY DEMISHLAR:

Mahmud Xudobandi shunday degan edi: "ulug'lik shunday kishiga yarashadiki, u kishi o'z muruvvati bilan ozod kishilarni rom etadi, asir kishilarni esa ozod etadi. Rustami Doston kuch va qudrati bilan dushmanlarni yakson etdi, bechoralarni esa ozodlikka yetkazdi. Bir kishi undan: "Shunday ulug' martabaga va oliy darajaga qanday qilib

yetishding?" – deb so'radi. U esa men hayotda o'zimga shunday deb buyuraman: "Ey, jon mard bo'l, agar jangda botirlik ko'rsatib o'lsang yaxshi degan noming qoladi, yengsang el hurmatini qozonasan, shuning uchun o'limdan qo'rqma, o'limga xaris bo'll!".

She'r:

*O'o'limda dori-yu zaharim bordir.*

*Biri do'stu, biri dushmanim uchun*

Abulbarakot Qodiriy

*Kimki, ulug'roq anga xizmat kerak,*

*Kimki, kichikroq anga shafaqt kerak.*

Navoiy

Ey farzand! Sen hech qachon ulug'lik ketidan quvma! Ulug'likni izlash va barchadan ustun bo'lishni xoxlash chin inson xislati emas. Kiyinish va yasan – tusan bilan obro' topishni o'ylama. Chunki bunday qilish yasama obro' topishga urinishdir.

"Jovidoni Xirod"

*Jahon o'zboshimchalari maydonda obro' qazona olmaydi.*

*Ittifoqla birikkan barmoqlar qilichning ishini qilar.*

Nodira

Aytishlaricha izzat va ulug'likning sabablari beshtadir, ya'ni mazkur beshta sifat kimda bo'lsa, u odam ulug'lik va izzat otiga minadi. Ular quyidagilardir: To'g'ri so'zlik, sirini yashira bilish, va'daga vafo, nasihatni qabul qilish va omonatga hiyonat qilmaslik.

*Davlat uchun ko'ngilni zor etma,*

*Izzat uchun o'zingni xor etma*

Bobur.

Olam ulug' kishilarga boy. Axir har bir qishloq, har bir shahar, har bir o'lka o'z buyuk kishisiga ega emasmi?

K. Bouvi.

Inson ezgulikni va ulug'likni orzu qilishi kerak.

A. Gumboldt.

Odamga buyuklar oldida ta'zim qilishgina emas, balki ulardan o'zib ketishga intilish ham xosdir.

I. Muxina.

Inson dono, odmi, odil, jasur va saxovatli bo'lishi kerak.

K. Paustovskiy

**Yoshlarda milliy armiyaga hurmat ruhini shakllantirish -  
mustaqilligimizning, tinch va osoyishta hayotimizning  
mustahkam kafolatidir**

*Valiyeva Nafisa*

*Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, Falsafa kafedrasi  
o'qituvchisi*

Bugun biz yurtimizda erkin va obod hayot, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish, xalqimiz turmushini hech kimdan kam bo'lmaydigan darajaga ko'tarish, jahon maydonida o'zimizga munosib nufuzli o'rinnegallash yo'lida qo'lga kiritayotgan, xalqaro hamjamiyat tan oladigan yutuqlarimiz haqida mammuniyat bilan gapirishga haqlimiz.

Shu bilan birga, atrofimizda, yaqin va uzoq mintaqalardagi qaramaqarshilik, ziddiyat va nizolar, xalqaro terrorizm kabi dahshatli xavf tobora kuchayib borayotgan murakkab bir vaziyatda el-yurtimizning tinchligi va osoyishtaligini saklash. uni turli balo-qazolardan asrash, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlashni bugungi kundagi o'ta muhim va eng dolzarb vazifamiz tariqasida qabul qilishimiz darkor.

Shu borada zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlangan, ixcham va harakatchan, bugungi kun talablariga to'la javob beradigan Qurolli Kuchlarimizni shakllantirish va shu maqsadda amalga oshirayotgan islohotlarimiz naqadar dolzarb ekanini, ularning ahamiyati va mohiyatini tushunish, anglab yetish qiyin emas.

Milliy qadriyatlarimiz va ajdodlarimizning jangovar an'analariga, shu bilan birga, eng zamonaviy talablar va andozalarga mos keladigan armiyamizni barpo etish haqida gapirar ekanmiz, o'tgan qisqa davr mobaynida ana shu maqsadga erishish yo'lida dastlabki qadamlar qo'yilganini aytish zarur.

Avvalo, mamlakatimizning Mudofaa doktrinasi ishlab chiqilib, shu negizda Qurolli Kuchlarimiz modernizatsiya qilinayotgan bir paytda uning tarkibini mutlaqo yangicha asosda — eng kichik guruxdan tortib brigadagacha qaytadan tuzish, harbiy okruglar, maxsus qism va bo'linmalar tashkil etish, biz yashayotgan Markaziy Osiyodagi mavjud xavf-xatarlar, yurtimizga karshi qaratilgan har qanday xuruj va yurishlarning oldini olish borasidagi islohotlar mintaqamizdag'i harbiy harakatlar maydonining o'ziga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda o'tkazilayotgani shular jumlasidadir.

Yurtimiz xavfsizligi va mamlakatimiz istiqbolini ta'minlashda hal qiluvchi ahmiyatga molik bo'lgan bunday yo'nalishda olib borilayotgan islohotlarni qat'iyatlik bilan oxiriga yetkazish, bir so'z bilan aylganda,

xalqimizning eng ishonchli tayanchi va suvanchi, faxri va iftixori bulmish milliy armiyamizni barpo etish davlatimiz va jamiyatimiz, Vatanimizning taqdiriga befark karamaydigan har kavsi insonning Imuqaddas burchiga aylanishi zarur<sup>b</sup>.

Albatta, o'z Qurolli Kuchlarini qurayotgan va uning kuch-qudratini oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan har qaysi davlat harbiy tuzilmalarni eng zamonaviy, mutlaqo yangi tamoyillar asosida yaratilgan texnika va harbiy uskunalar, qurol-yarog' bilan ta'minlashi darkor. Buni hech kim inkor etolmaydi.

Ammo bunday vazifani hisobga olgan holda Qurolli Kuchlarimizning harbiy mahoratini oshirish, har qanday vaziyatda ham har qanday mashaqqatli sinovdan sharaf bilan chiqish, harbiylardan nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki yuksak akl-idrok, intellektual salohiyat, alohida ruhiy-ma'naviy xususiyat va fazilatlarga ega bo'lishni, eng zamonaviy kurol-yarog'larning sir-asrorini puxta egallashni taqozo etadi.

Bu o'z navbatida Qurolli Kuchlarimizda xizmat qilayotgan insonlarimiz, avvalambor oddiy askar va serjantlar, ofitser va generallarimizning mustahkam irodasi va fidoiyligi, ona yurtga mehr-muhabbat va sadoqatiga so'zsiz bog'liqidir.

Shu ma'noda, armiyamizda sog'lom ma'naviy muqitni yaratishda ta'lim-tarbiva ishlariga alohida e'tibor berish. harbiy tayyorgarlik jarayonini ilg'or texnik va texnologik vositalar, yangicha usul-uslublar asosida tashkil etish, harbiy xizmatning intellektual mezonlari va yo'nalishlarini takomillashtirish yulida boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirishimiz shart.

Ayniqsa, serjantlar tayyorlash maktablari, zamonaviy harbiy poligonlar, ofitser kadrlarni tayyorlash bo'yicha modellashtirish va simulyatsiya markazlari faoliyatini, shuningdek, NATOning "Tinchlik yo'lida hamkorlik" dasturi doirasida amalga oshirilayotgan o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini yuksak boskichga ko'tarishimiz lozim. .

Eng muhimi, harbiy xizmatni o'zining kasbi. Vatan va xalq oldidagi muqaddas burchi deb biladigan, butun hayotini Qurolli Kuchlarimiz safida xizmat qilishga bag'ishlagan o'g'onlarimizning og'ir xizmatini qadrlash, ularning tunu kun, tinim bilmasdan o'z harbiy mahoratini

<sup>b</sup> Karimov I. Milliy armiyamiz-mustaqilligimizning, tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolatidir. –Toshkent: O'zbekiston, 2003.-B-5.

oshirish vo'lida qilavotgan mashaqqatli mehnatini e'zozlash barchamiz uchun ham qarz, ham farzdir<sup>7</sup>.

Bu borada harbiy xizmatchilar va ularning oilalarining ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish, nafaqat serjant va ofitserlar, shartnomakontrakt bo'yicha xizmat qiladigan harbiylarning, ayni vaqtida muddatli xizmatga chaqirilgan oddiy askarlarning ham moliyaviy ta'minotini yanada yaxshilashni maqsad qilib qo'yilgan.

Shunday amaliy maqsadlarga erishish yo'lida Oliy Majlisning yaqinda bo'lib o'tgan X sessiyasida qabul qilingan "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonun alohida o'rinn tutadi. Bu qonunga muvofiq harbiy xizmat muddatini 12 oygacha qisqartirish, yangi turdag'i armiyani shakkantirishga doir huquqiy asoslarning yaratilishi o'z farzandlarini katta orzu-umidlar bilan armiya safiga kuzatayotgan ota-onalarning ko'nglini xotirjam qilishiga, muxtasar qilib aytganda, fuqarolarimiz uchun armiyada xizmat qilishni nafaqat faxrli burch, balki oliv sharafga aylanadi.

Tinch hayotimiz, musaffo osmonimiz, jajji bolalarimizning quvnoq kulgusi, ota-onalarimizning osuda umr kechirishi - Olloho taolo o'zi bizga bergen mana shunday hayotning himoyasi, uni asrab-avaylash, ko'z qorachig'iday saqlash barchamizning vazifamizdir..

Xalqimiz armiya saflarida xizmat qilayotgan o'z farzandlariga hamisha g'urur va iftixor bilan qaraydi, o'z armiyasiga, O'zbekistan Qurolli Kuchlariga ishonadi. Har yili biz Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmat qilayotgan askar va serjantlar, ofitser va generallar, ona yurtimizni himoya qilishdek sharaflı ishga umrini bag'ishlagan barcha hamyurtlarimiz bilan birgalikda 14-yanvar - Vatan himoyachilari kunini nishonlaymiz. Nafaqat poytaxtimiz Toshkentda, balki barcha viloyatlarda shu sanaga atab tantanali tadbirlar o'tkazildi, o'z sohasida ibrat va namuna ko'rsatib kelayotgan eng munosib harbiy xizmatchilar davlatimizning oliy mukofotlari bilan taqdirlanadi. Bir so'z bilan aytganda, Vatan himoyachilari kuni deb nom olgan bayramni butun xalqimiz katta mammuniyat va xursandchilik bilan o'tkazganiga guvoh bo'lyapmiz.

Hammamiz yaxshi tushunamiz, har qanday tantana, bayramona sana zamirida hayotiy, aytish mumkinki, tarixiy bir asos bo'lishi tabiiy. Shu ma'noda, mamlakatimizda Vatan himoyachilari kunini nishonlash tobora qutlug' an'anaga aylanib borayotgani, bu bayramning har yili aynan shu kunda tantanali ravishda o'tkazilishi, albatta, bejiz emas.

<sup>7</sup> Karimov I. Milliy armiyamiz-mustaqilligimizning, tinch va osovishta hayotimizning mustahkam kafolati -Toshkent: O'zbekiston, 2003.-B-6.

Shuning uchun ham 14-yanvar kunini umumxałq bayrami sifatida nishonlar ekanmiz. bu voqeanning tarixiy ildizlari, Qurolli Kuchlarimizning shakllanishi qanday kechgani, bu jarayonlar bilan bog'liq qanday og'ir va murakkab kunlarni boshimizdan o'tkazganimizni yana bir bor eslash o'rinni.

Vaqt o'tishi bilan uzoq va yaqin tarixda ro'y bergan ko'pgina voqeа-hodisalar unutilishi, inson yodidan ko'tarilishi mumkin va bu ham tabiiy hol. Lekin odamning o'zi bevosita ishtirokchi bo'lган, uning qalbi va xayoliga chuqur оrnashib, muhrlanib qolgan shunday kunlar ham bo'ladiki, ular hech qachon xotiradan o'chmaydi.

Bugun biz yakin o'tmishimizni sarhisob kilar ekanmiz, xech ikkilanmasdan milliy armiyamizni barpo etish jarayonlari O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo'lga kiritish tarixi bilan uzviy bog'langan deb aytish zarur. Bu fikrlarni yanada chuqurroq tushunib olish uchun bir savolga javob izlaylik: va ni, bugun umumxałq bayramiga aylanib borayotgan, 14-yanvar — Vatan himoyachilarini kuni deb nom olgan bayramning eski zamonda nishonlab kelingan 23-fevral — Armiya va harbiy-dengiz floti kunitan nima farqi bor?

Ko'pchilik yoshi ulug' odamlar eslasa kerak, sho'ro davrida mamlakatdagi barcha erkaklarning maxsus bayrami sifatida nishonlanadigan bu kun 8 mart — Xotin-qizlar bayramiga go'yo javob tariqasida ta'sis etilgandek taassurot qoldirar edi. Bu kun xuddiki odamlarning hayot-mamotini hal qiladigan o'ta muhim voqeа sifatida talqin etilar, sovet masfurachilar tomonidan "tarix sahifalariga zarhal harflar bilan yoziladigan unutilmas sana" deb ta'riflanar edi.

Aslida, tagini surishtirsangiz, bu bayramga fuqarolar urushi davrida — 1918-yil 23-fevral kuni Narva va Pskov shaharlari ostonasida Qizil askarlarning nemis qo'shinlari bilan bo'lib o'tgan to'qnashuvi asos qilib olingan edi. Bu butun boshli bir davlat tarixida olamshumul iz qoldirgan tom ma'nodagi tarixiy voqeа emas edi, albatta. Lekin hukmron tuzum o'z qo'lida bo'lган turli masfura vositalari yordamida bu kunni ming-minglab odamlarning bayrami, faxr-iftixon ramziga aylantirishni alohida maqsad qilib qo'yganini, chuqurroq qaraganda esa, ushbu sana zamirida, uning ma'no-mazmunida buning uchun hech qanday asos bo'lmanagini anglash qiyin emas.

Sho'ro davridagi barcha bayramlarning ma'nosи mana shu imperiya qo'l ostidagi hamma xalqlarni, shu jumladan, o'zbek xalqini qam sovet xalqining ajralmas bir qismi deb ko'rsatishga, shunday tadbirlar orqali ittifoqtsosh respublikalarda yashaydigan millatlarning go'yoki birligini,

ularning Markazga bo'yusunishi va sadoqatini namoyish etishga qaratilgan edi.

Ammo jiddiy tahlil qiladigan bo'lsak, bu sanalarning birortasi ham sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan xalqdarnint tarixi va taqtsiri, qadri va qadriyatlariga aloqasi yo'kligi, ularning tub manfaatlarini ifoda qilmasligi ayon bo'ladi.

Qisqacha aytganda, bunday bayramlar zamirida faqat kommunistik mafkura mujassam edi, xolos.

Garchi 23-fevral bayrami sobiq sho'ro hududidagi barcha el-elatlarni, armiya safidagi turli millatga mansub yigitlarni yanada jipslashtirishga xizmat qiladi, deb olamga jar solinsa-da, aslida hayotda buning mutlaqo teskarisini kuzatish mumkin edi. Aytaylik, o'sha paytlarda O'zbekistondan armiyaga chaqirilgan askarlarimizning qayerlarda, qanday sharoitlarda xizmat qilganini, ularga munosabat qanday bo'lganini eslasak, bugun ham odamning ko'ngli beixtiyor g'ash tortadi. 1992-yil 24-martda Milliy xavfsizlik xizmati qoshida Chegara qo'shirlari boshqarmasi tashkil etildi va mamlakatimiz hududidagi chegara qo'shirlari bo'linmalari uning tasarrufiga o'tkazildi.

1992-yil 18-maydan e'tiboran esa havo desanti qo'shirlari, harbiy transport aviatsiyasi, razvedka qo'shirlari, ta'minot qismlari, 12-noyabrdan havo xujumiga qarshi harbiy qismlar, 13-noyabrdan esa kimyoiy harbiy qismlar davlatimiz tasarrufiga olindi.

Bu ishlar 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan O'zbekistan Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida"gi tarixiy qonunning 6-moddasiga binoan davlatimiz, xalqaro huquq sub'ekti sifatida, o'z Qurolli Kuchlarini tashkil etish huquqiga ega bo'lgani va bu huquqni izchil amalga oshira boshlaganidan dalolat beradi.

## **Globallashuv davrida jamiyat va zamonaviy yoshlar**

*Xurshid Mirzaxmedov*

*Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasini o'qituvchi  
Boyboyev Dilmurod*

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi*

XX asrning siyosiy jarayonlar tarixiga va uning bugungi kundagi davomiga nazar tashlar ekanmiz, hozirgi davrda mamlakatimiz naqadar murakkab va ma'suliyatli tarixiy davri boshidan kechirayotganligiga yana bir-bor amin bo'lamiz. Shu jihatdan har bir xalq millat doimo o'z taraqqiyot yo'li bilan yangi jamiyat barpo etishga kirishiladi. Yangi

jamiyat buniyod etishga o‘z andozasini ishlab chiqarishga xaraqat qiladi, tabiiyki, bular qatorida ushbu jarayondagi mohiyatini ochib berish nioxyatda muhim ekanligini ta‘kidlash zarurdir<sup>8</sup>.

Liberallashayotgan jamiyatimizni demokratik hususiyati sifatida kechagina bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Parlamentiga saylovlardan yoshlarni ishtirokiga katta e‘tibor berilgani va yoshlarni jamiyatdagi o‘rni masalasi va respublika yoshlarini dunyo yoshlari qatoriga qo‘shilishi va zamon ruhi bilan xamnafas yashashi va o‘z fikri bilan siyosiy hayotda ishtirok etishi zamonaviy yoshlarni shakllanishi imkoniyatini bermoqda.

Prezidentimiz I. A. Karimovning “Kelajak - yoshlar qo‘lida” degan shiori hozirgi zamon yoshlarni dunyoga chiqishiga va O‘zbekistonni dunyodagi maqomini yanada yuksak darajada ko‘tarishga imkon yaratib bermoqda.

Juda ko‘p murakkablik va ziddiyatlarga an’naviy ijtimoy-siyosiy institutlarga munosabati qay darajada uyg‘un bo‘lmoqda, mustaqil jamiyat, suveren davlatning yosh fuqarolari nima bilan yashayapti, nafas olyapti, ularning dunyoqarashi, tafakkuri qaysi qadriyatlar hisobiga tom ma’noda boyitilmoxda, yoki to‘ldirishi zarur.

Bugungi globallahuv davri ko‘p jihatdan yoshlarning dunyoqarash tafakkuri, ongi va salohiyatiga benihoya katta ta’sir ko‘rsatadi.

Xususan, bu davrda zamonaviy yoshlarning jamiyat taraqqiyotiga qo‘sheyotgan hissalari sezilarli darajada o‘sib bormokda.

Hayotimizning deyarli barcha sohalarida jumladan, adabiyot, san’at, sport yoki qaysidir kashfiyot va yaratuvchanlik yo‘nalishi bo‘yicha yoshlarning jahon hamjamiyatiga qo‘sghan hissasi bugun juda kattadir.

Globallahuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqr kirib kelayotganining asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni ob‘ektiv tan olish kerak bugungi kunda xar qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo‘snilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqaga va hududlar bilan shunday chambarchas bog‘lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobjiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas.

Shu ma’noda globallahuv bu - avvalo hayot suratlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir<sup>9</sup>.

Ayni paytda hayot haqiqati shuni, ko‘rsatadiki, har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki hil maqsadda – ezgulik va yovuzlik yo‘lida foydalanish mumkin. Agarki bashariyat tarixini, uning tafakkur rivojini

<sup>8</sup> To‘raev Sh. Demokratik jarayonlar va milliy g‘oya. –Toshkent: Ma‘naviyat. 2008.-B.17.

Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat - vengilmas kuch. -Toshkent: O‘zbekiston, 2008.-B. 54.

tadrijiy ravishda ko'zdan kechiradigan bo'lsak, hayotda insonni kamolotga yuksak marralarga chorlaydigan ezgu g'oya va ta'limotlar bilan yovuz va zararli g'oyalar o'rtasida azaldan kurash bugun ham davom etayotganini ko'ramiz.

Darhaqiqat, bizning bugungi jamiyatimiz ko'p jihatdan o'zgarib yoshlarning dunyoqarashida ham yuzaga chiqyapti. Bu ayniqsa ularning madaniy ko'rinishlarida namoyon bo'lmokda. Yoshlarning hayotda ijtimoiylashuvi tubdan o'zgarib bormokda.

Bu jarayon G'arb mamlakatlardan kirib kelgan «Ommaviy madaniyat» deb atalmish murakkab hodisa bilan bevosta aloqadordir.

«Ommaviy madaniyat» xar-xil ko'rinishlarda yoshlar ongi va dunyoqarashini o'zgartirib yuborishi, bugunning salbiy oqibati sifatida talqin etishimiz mumkin.

Bugun milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimizni yanada yoshlar ongiga singdirish orqali ma'naviyatlarimizni saqlab qolishimiz va shu bilan bir qatorda o'zligimizni anglashda va tarixni o'rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kerak deb o'ylayman. Bugungi kun yoshlarini zamon ruhi bilan hamnafas holda tarbiyalash va ularga ota-bobolar o'gitlari, pand-nasihatlariga amal qilgan holda, ijtimoiy hayotni barcha sohalarida ishtirok etishlariga imkon yaratish lozim.

## Axborotlashayotgan jamiyat

*Xurshid Mirzaxmedov*

*Namangan davlat universiteti o'qituvchisi*

*Gulmira Abdusalomova*

*Namangan davlat universiteti talabasi*

Bugungi kunda barchamiz mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi tutgan o'rnining mustahkamlanib borishida yoshlarimizning sa'yi-harakatlarining salmog'i tobora oshib borayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Yoshlarimizning puxta bilim egallashlari va jahon arenalariga chiqib, yurtimiz sha'nini munosib himoya qilishlari, mammalakatimiz barqaror rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan kadrlar bo'lib yetishib chiqishlari o'z o'rnda va vaqtida ularga qaratilgan e'tibor va yaratilgan imkoniyatlarning mantiqiy natijasidir.

Albatta, hukumatimiz tomonidan yoshlar huquq va manfaatlari, ularning qiziqishlarini inobatga olgan holda iqtidor va intilishlarini ro'yogha chiqarishlari va rivojlantirishlari uchun ulkan imkoniyatlar va sharoitlar yaratilgan va bugungi kunda o'zini davlatimizning asl farzandi deb bilgan har bir o'g'il-qiz mavjud sharoitlardan unumli foydalanib o'z orzu va maqsadlari sari olg'a intilishca hamda jamiyat hayotidagi o'rnni mustahkamlashda samarali ishlarni amalga oshirishda davom etmoqdalar. Lekin shu bilan bir qatorda bu imkoniyatlarni tushunmayotgan, undan noo'rin va unumsiz foydalanayotgan tengdoshlarimiz ham oramizda yo'q emas. Xususan, internet tarmog'i va unga yoshlarning munosabati fikrimizning yorqin namunasi bo'lishi mumkin. Zamon rivoji bilan ko'chalarimizda kun sayin ko'payib borayotgan internet kafelar kecha-yu kunduz yoshlar bilan gayjum. Ular o'z mablag'larini, kuch-quvvatini va asosiysi, vaqtlarini nimaga sarflashayotganini nazorat qilisharmikan, o'zlarining vijdonlari oldida hisobot berisharmikan?

Bugun XXI asr axborot texnologiyalari va globallashuv asri sifatida e'tirof etilmoqda. Dunyoning hech bir nuqtasi yo'qliki, axborot yetib bormagan yoxud fath etmagan. Demakki, hech bir inson, oila, davlat yoki jamiyat turli salbiy axborot oqimlari kirib kelishi va hujumlaridan sug'urtalanmagan. Sug'urtalanishning eng samarali yo'li bu, ongimizdag'i ma'naviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, mustaqil va ob'yektiv fikrlarni hamda keng va global dunyoqarashni shakllantirishdir. Shunday ekan, zamonaviy texnologiyalar, xususan, internet, kompyuter, telefon vositalaridan ustamon foydalanmoqda, deb farzandlarimiz bilan faxlanishimiz emas, balki sergak tortib, oz bo'lsa ham ular qabul qilayotgan ma'lumotlar mazmunidan boxabar bo'lishimiz, ularga to'g'ri yo'nalish berib turmog'imiz darkor.

Globallashuv asrida biron bir faoliyat sohasini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan bayon etilgan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida davlat va jamiyat qurilishi tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish, shuningdek, milliy axborot makonini jadal rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish lozimligi alohida ta'kidlangan.

O'zbekistonda xalqaro huquq me'yorlarini hisobga olgan holda, AKT sohasidagi milliy qonunchilik muntazam takomillashtirilayotgani va bu ayni paytda mualliflik hamda boshqa turdosh huquqlar, elektron

imzo, tijorat, to'lovlari, hujjat aylanishi borasidagi munosabatlarni tartibga solayotgani qayd etildi. Axborot xavfsizligini ta'minlash iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishning milliy ustuvor yo'nalishlarini hurmat qilish tamoyillariga asoslangan ochiq axborot jamiyatini tashkil etishda muhim masala hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasining "Elektron raqamli imzo to'g'risida", "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida" va "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunlari, shuningdek, yangi tahrirdagi "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi.

XXI asr nafaqat mobil aloqa va axborot asri, balki voqealar yashin tezligida sodir bo'ladijan asrdir. O'zgarishlar ham, xoh ijobjiy, xoh salbiy bo'lsin, zamonaviy axborot yordamida yashin tezligida sodir bo'lmoqda. Axborot so'nggi kommunikatsiya vositalari yordamida, yuqumli kasalliklardan ham tezroq ommaga yetib bormoqda. Shunday ekan, O'zbekiston sharoitida qanday qilib, ham uzlusiz rivojlanib, taraqqiy eta borib, ham milliy qadriyatlarni saqlab qolish mumkin? Ralf Pitersning fikriga ko'ra, «Madaniyatları erkinlikni qabul qilgan ilg'or mamlakatlar ko'p ma'noda g'oyalarga to'la keng bozordir. Mazkur davlatlarning fuqarolari avlodlar, balki asrlar mobaynida o'zları duch kelayotgan axborotlar bo'ronidan omon chiqadigan ichki kompasga egadirlar. Inson kundalik hayotida o'ta samarali iqtisodiy, axloqiy-ruhiy va madaniy hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Sodda qilib aytganda, yaxshi fuqaroga har kuni to'g'ri-noto'g'ri testlardan o'tishga madaniy tomondan saboq berilgandir. U qaysi bir vaziyat eng yaxshi ekanligini tanlashga qodir va u uni bundan ham manfaatli qila oladi. Internetning jamiyat rivoji uchun muhim omil bo'lib, unga uzlusiz ilmiy-amaliy salohiyat va moliyaviy madad lozim. Barcha sohalar, ayniqsa, me'morchilik sohasida ham loyihalar kompyuter yordamida modellashtirilmoqda. Ayniqsa, kutubxonada saqlanayotgan kitob va turli adabiyotlarning elektron ko'rinishlarini yaratish, elektron izlash tizimlarini yaratish ham o'quv faoliyatini osonlashtiradi. Hozir juda ko'p axborotni, shu jumladan, ta'limga oid ma'lumotlarni internet orqali olish mumkinligi sir emas. Masalan, hozirgi kunda ko'p savollarga javobni [www.google.com](http://www.google.com) da topishimiz mumkin. «Google» da bir kunda jahon bo'ylab 200 million izlash amalga oshiriladi. Garchand internet turli aldov va tuturiqsiz sahifalarga to'la bo'lsada. shu bilan birga, u yuz minglab ommabop kitoblar va ilmiy hujjatlarning bepul arxiviga aylangan.

1948-yil 10-dekabrda imzolangan hamda O'zbekiston tasdiqlagan Umumjahon inson huquqlari bayonotining 19-moddasida shunday

deyiladi: «Har bir inson fikr va uni izbor qilish erkinligi huquqiga ega. Ushbu huquq fikrga aralashishsiz ega bo'lish, axborot va g'oyalarni istagan vosita va hech qanday chegarasiz izlash, qabul qilish va tarqatishni o'z ichiga oladi». Xalqaro huquqiy me'yorlardan kelib chiqqan holda, har bir kishi istagan axborotni olishga haqlidir. Lekin bu qator muammolarga ham olib kelishi mumkin. Salbiy tomonlari turmush tarzining yolg'iz internetga «tobe» bo'lib qolishi, axborotning xolisligi, kishilarning mustaqilligini himoya qilishda qator muammolarga olib kelishi mumkin. Bular asosan uchta «T» da — tadqiqot, ta'lim va tijoratda sodir bo'ladi. Tadqiqotda noxolis axborotlarning ayj olishi, tijoratda kredit pullarining o'g'irlanishi sodir bo'ladi. Kompyuterlar taklif etayotgan osonlik jamiyatdagi har bir kishining zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish malakasiga bog'liq ekani ma'lum bo'lib qoldi. Chunki kompyuter albatta yaxshi va qulay uskuna, lekin undan oqilona foydalanish va so'nggi dasturiy ta'minotlar bo'lmasa, qimmatbaho qutiga aylanishi hech gap emas. Bu borada internetdagи resurslardan foydalanish uslublarini ommaviy axborot vositalarida yoritib borish mumkin.

Internetdan tegishli axborotlarni ola bilish, o'zaro xususiy elektron pochta maktublarini yozish qobiliyati insonning yangi muomala madaniyatiga aylanib bormoqda. Internetning yana bir ahamiyat shundan iboratki, unda jamiyatdagi har bir shaxs nafaqat axborotlarni hazm qiluvchisiga, balki axborotlarni tarqata oluvchisiga ham aylandi. Albatta kuch-qudrat mas'uliyatni his qilish bilan birgalikda haqiqiydir. Axborot oluvchi har bir shaxs o'zgalarning mualliflik huquqlarini hurmat qilishi, virtual olam qonun-qoidalariga rioya etishi lozim. Hozirda yetakchi industrial davlatlarda nafaqat axborotlashtirish jarayonining ahamiyati, balki bu jarayonda jamiyatning axborot xavfsizligi, axborot urushi, axborot notengligi, axborotning iqtisodiy, siyosiy, harbiy, ekologik, ruhiy va inson savdosi masalalari qizg'in bahsmunozara qilinmoqda. Chunki jinoyatchilik real hayotimizdan virtual hayotimizga ko'chib o'tib, moliya-bank, xavfsizlik va boshqa sohalarda xakerlik<sup>10</sup> atamasи bilan nom qozondi. Istagan yetakchi axborot agentligi misolida ko'rishimiz mumkinki, axborot bu — mahsulotdir. Masalan, «Assosiated Press» agentligi tarqatgan axborotni kuniga 1 milliard kishi o'qiydi, tinglaydi va yohud tomosha qiladi. Agentliklar tarqatgan axborotlar yordamida jahonning aksariyat kishilarining ongi-shuuri boshqarilishi yoki manipulyatsiya qilinishi mumkin. Bunday kuch-

<sup>10</sup> Xakerlik — Iste'moldagi ma'lumotlarga zarar keltirish maqsadida begona dasturlarni ishdan chiqaruvchi dasturchilarga nisbatan ishlataladi.

qudrat oldida albatta fuqarolarning axborot immunitetlarini shakllantirish, ularga ma'naviy oziqa berish masalalari juda ham dolzarb masaladir. Masalaning jiddiyligi shundan iboratki, axborotlar yordamida yot bo'lgan «Ommaviy madaniyat» va o'zga urf-odatlar kirishi va o'rashib qolishi mumkin. Oddiy misol, axborot ekspansiyasi tufayli qator davlatlarda «Muqaddas Valentin», «Xellouin» bayramlari nishonlanadigan bo'lib qolmoqda. Axborot jamiyatda tinchlik-osoysishtalik o'rnatishda, xalqlar va elatlar orasida totuvlikni qaror toptirishda, davlatning me'yorda faoliyat ko'rsatishi uchun o'ta muhimdir. Har bir internet sahifasi o'z mafkurasi nuqtai nazaridan masalani yoritadi. Axborotlashtirish jarayonida fikr va g'oyalari ham konstruktiv, ham destruktiv kuchga egadir. Bir tomondan, konstruktiv axborotlar kishilarning bilimini oshirsa, ikkinchi tomondan xalqlar, elatlar va dinlar orasiga nifoq urug'ini ham sochishga sabab bo'lmoqda. Sanoati rivojlanmagan davlatlarda eng asosiy resurs xom-ashyo, sanoati rivojlangan davlatlarda energiya, axborot davrda esa asosiy omil — bu ilm-fan va yuksak texnologiyalar bo'lib ulgurdi. AQSh va Yaponiyada jamiyat butunlay axborotlashtiriladi. Yanada ko'plab kishilar uydan chiqmay turib, internet orqali «bozor» qilishlari, ishlashlari, masofadan turib, saboq olish kurslarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bularning barchasi insoniyatni yangi cho'qqilarni kashf etishga undaydi, uni yangi taraqqiyot bosqichiga ko'taradi. Axborotlashtirish jarayoni agar istak bo'lsa, inson bilimlarini keskin ravishda oshirib borsada, shu bilan birga, uning odamiylik hissiyotlarini tobora so'ndirib, pirovardida insonning o'zini robotga aylantirishi ham mumkin.

Mamlakat o'z jamiyatni va shaxslarining axborotlashtirish jarayoniga jalb qilmoqchi ekan, turfa xil axborotlarni xoh tanqidiy, xoh maqtov ohangida yetkazib borishi lozim. Turli axborotlarning erkin mavjud bo'lishi to'g'ri qaror chiqarishga asos bo'lib xizmat qiladi. Aks holda, jamiyat bu bilan o'z fuqarolari oldida samimiyligini yo'qotishi, bu esa unga bo'lgan ishonchni susaytirishga olib kelishi mumkin. Yuqorida zikr etilganidek, internet rivoji jarayonida jahon lingistik xaritasi ham o'zgarib ketadi. Buning natijasida, kam ommabop bo'lgan tillar va ayniqsa, elektronlashtirilmayotgan tillar jahon sahnasidan yo'qolib borish ehtimoli yo'q emas. Buning uchun tegishli majmuaviy choratadbirlarni ko'rish vaqtি yetib keldi.

Xulosa, qilib aytganda, so'nggi yillarda axborot texnologiyalari, chunonchi kompyuterlar taklif etayotgan qulaylik jamiyatdagi har bir kishining zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish malakasiga bog'liq ekani ma'lum bo'lib qoldi. Chunki kompyuter albatta yaxshi va

qulay uskuma, lekin undan oqilona foydalanish va so'nggi dasturiy ta'minotlar bo'lmasa qimmatbaho qutiga aylanishi hech gap emas. Axborot quroldan ham kuchli, kishilarning qalam'i qilichdan ham o'tkir, ma'lumotlar kishi shu'urini o'zgartira oluvchi omilga aylandi. Axborotlashtirishda kishilarning intellektual salohiyati oshadi va fuqarolarning bilimga chanqoqligi va ijodkorligi keskin ravishda o'sib borishi kutilmoqda. Mamlakatimizda axborot texnologiyalari sohasida qator ijobjiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shu bilan bir qatorda, yaqin istiqbolda O'zbekiston o'z fuqarolarini zamonaviy axborot texnologiyalari orqali tushib qolishi mumkin bo'lgan turli intellektual qopqonlardan xalos etishga, ularni muhofaza qilish va doimiy ravishda ilmiy-ma'rifiy hamda ma'naviy sohada talay ishlarni amalga oshirishda, ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganishga yanada o'z e'tiborini qaratadi. Axborotlashtirish jarayonining ham ijobjiy, ham salbiy tomonlari mavjud. Nima bo'lmasin, mazkur kuch-qudratdan mas'uliyat va yaratuvchanlik bilan bahramand bo'lmoq lozim.

## **Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida milliy dunyoqarashni tarbiyalashda milliy qadriyatlarini o'rni**

*D. Asqarova*

*NamDU Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasи o'qituvchisi*

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida milliy dunyoqarashni shakkantirishda milliy ma'naviyatimizning sarchashmalari boshqa xalqlarning eng yuksak qadriyatlarini ijodiy o'zlashtirish an'analari bilan bog'lanadi. Agar ma'naviyatimiz va madaniyatimiz tarixiga shu nuqtayi nazardan yondashadigan bo'lsak, o'zbek milliy san'ati, she'riyati, ilmi o'tmishda arab, fors, hatto yunon madaniyatidan bahra olganligiga guvoh bo'lamiz.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida milliy dunyoqarashni shakkantirishda, milliy va umuminsoniy ma'naviyat to'g'risida gapirish uchun yetarli asoslar mavjud. Milliy va umuminsoniy ma'naviyat o'rtaсидagi munosabat masalasi mazkur muammoni chuqurroq bilishga yordam beradi.

Bu masala ayrimlik va umumiylukka xos belgilar ifodalанининг alohida bir sohasi hisoblanadi. Umumiyluk narsa-hodisalarining eng muhim, mushtarak aloqalarini aks ettiradi va u faqat ayrimlik orqali

namoyon bo'ladi. xususiylik shakliga kiradi. Boshqa tomondan, har qanday ayrimlik ma'lum ma'noda umumiyligidir. binobarin, alohidaning tomoni yoki mohiyatidir.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida milliy dunyoqarashni shakllantirishda, milliy va umuminsoniy ma'naviyat haqida so'z borganda ham ana shu jihatlar birligini ko'ramiz. Milliy ma'naviyat muayyan elat, xalq va millatga daxldorlikdir. Har bir elat va millatning faqat o'zigagina xos bo'lgan, uning milliy ruhiyati, yashash tarzi, tarixiy an'analari va likrlash qobiliyatlari tabiatini ifodalaydigan ma'naviyati mavjud. Chunki umumiy, abstrakt narsa-hodisa, shu jumladan, ma'naviyat ham yo'qdir. Ma'naviyatning milliyligi masalasi, tabiiyki, uning tarixan shakllanganligi, milliy mazmun, koloritga egaligidir.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida milliy dunyoqarashni shakllantirishda, o'zbek xalqining milliy ma'naviyatini xarakterlaydigan, uning o'ziga xosligini ko'rsatadigan xususiyatlар quyidagilar: yuksak insonparvarlik, bag'rikenglik, mehmono'stlik, hamma millat va elat vakillariga izzat-hurmat ko'rsatish, kattalarga izzat-ikrom, mulohazalilik, sharm-hayolilik, hamdardlik, mahalladoshlik, bolajonlik, halollik va h. k. Bularni yanada umumlashtiradigan bo'lsak, ma'naviyatning xilma-xil jihat va qirralari shaklida namoyon bo'ladi: Hayo va Andisha, Vafo va Sadoqat, O'ktamlik va Tashabbuskorlik, Himmat va Saxovat, Jur'at va Shijoat, Oriyat va Hokisorlik, Bosiqlik va Hilm, Farosat va Zakovat, Balog'at va Fasohat, Mardonaliq va Mas'uliyat va boshqalar.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida milliy dunyoqarashni shakllantirishda, ma'naviyat milliy ong, ijtimoiy ong, mafkura, milliy madaniyat, e'tiqod, imon, milliy g'urur, iftixon kabi tushunchalar bilan yaqin turadi. Biroq ular o'rtaida katta farq bor.

Ma'naviyat shaxsning o'z-o'zini, o'z huquqini anglashi va belgilashi hamdir. Millatning ma'naviy qiyofasi uning milliy ongi va ruhiyatida ifodalanadi. Har bir millatning ma'naviy qiyofasi jamiyatning moddiy, ijtimoiy-tarixiy sharoitlariga qarab boyib borishi qonuniy hodisadir.

Ma'naviyatning muhim unsuri bo'lgan milliy ong nisbiy mustaqildir, u jamiyatning moddiy va ma'naviy qiyofasini tubdan o'zgartirishga faol ta'sir qilishi mumkin.

Milliy ong va uning shakllanishi, eng avvalo, milliy uyg'onish zamirida sodir bo'ladi. Milliy ong va uni anglash har bir odamdan o'zining qaysi millatga mansubligini, o'z milliy tarixi, madaniyati, micosi, urf-odatlari, tilini to'g'ri, har taraflama chuqur bilishni lalab etadi. Agar milliy mansublik va uning barcha tomonlari kishilar tasavvurida ilmiy asoslangan bo'lsa, milliy o'z-o'zini anglash

bi oblanadi. Milliy o'zligini anglash ilmiy-siyosiy tus olsa va ijtimoiy harakat uchun qo'llanma darajasiga ko'tarilsa, u. sluibhasiz, milliy mafkuraga aylanadi. Milliy mafkura esa milliy madaniyat, qadriyat va ma'naviyat manfaatlarini himoya qiluvchi asosiy quroq bo'lib xizmat qiladi.

Milliy ma'naviyat millatchilik bilan kelisha olmaydi. Millatchilik ma'naviy qashshoqlik alomati, milliy ongning qusuridir. Millatchilik o'zga millatlarga, qolaversa, o'z millatiga xiyonat qilishdir. O'zga millat manfaatini inkor etish, ularning qadriyatini mensimaslik, ularni kamsitish bo'lib, ijtimoiy adovat tug'diradigan illatdir. Shu ma'noda Prezidentimiz ma'naviyatimiz ifodasi bo'lgan «milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o'xshash unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlardan mutlaqo xoli» bo'lishini alohida ta'kidlaydi.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida milliy dunyoqarashni shakllantirishda, milliy ma'naviyatning negizini milliy madaniyat tashkil etadi. Milliy ma'naviyat -jamiyatning moddiy hayotini aks ettiradi. Uning paydo bo'lishi ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq. Shu ma'noda ma'naviyatning paydo bo'lishi kishilik jamiyatining eng qadimiy davrlariga borib taqaladi. Insonning har bir qadami madaniyatning rivoji bilan bog'liq. Madaniyatning rivojlanishi ma'naviy jihatdan qanchalik rivoj topganligini bildiradi.

Ma'naviyat kishilik jamiyatining har bir harakatida, faoliyatida ko'rindi. Milliy ma'naviyat - ma'naviyati yuksak, vatanparvar, donishmand shaxslar faoliyati bilan yaratiladi. Ma'naviyatni yaratishda ziyorolar bilan bir qatorda tadbirkorlar, diplomatlar, siyosiy arboblar, rahbarlar, olimlar, bastakorlar, shoir va yozuvchilar, nazariyotchilar, xullas. xalq ommasi katta rol o'yinaydi. Dunyo tafakkuri qaymog'i alohida shaxslar tafakkorida jamlanadi va u yana shu shaxslar fao'liyati orqali tarqaladi.

Har qanday jamiyat taraqqiyoti xalq dunyoqarashini hisobga oлган holda, uning manfaat va ehtiyojlarini ravnaq toptirish negizida rivojlanadi. «Mustaqil O'zbekistonning kuchqudrati manbai xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidadir, - deb yozadi I. A. Karimov, - xalqimiz adolat, tenglik, ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar bo'yи asrab-avaylab kelmoqda. O'zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an'analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur bo'lgan shart-sharoit yaratishdir».

Milliy va umuminsoniy ma'naviyatlar o'zaro bog'langan. Ular bir-biriga ta'sir etib turadi.

Umuminsoniy ma'naviyat milliy ma'naviyatdan o'sib chiqadi, shunga qaramay, u mazmun jihatdan chuqur va boydir. Umuminsoniy ma'naviyat barcha millatlar, elatlari va xalqlarning maqsad va intilishlari birligini va umumiyligini ifodalaydi.

Umuminsoniy ma'naviyatbarcha xalq va elatlarga xos bo'lgan, ularning insoniy fazilatlarini ifodalaydigan an'analar, urf-odatlar, intilishlar, g'oyalar, sog'lom fikr, yuksak did bilan baholash qobiliyati, shu asosda qilinadigan harakat va faoliyat va h. k. bo'lib, undan unumli foydalinish umumbashariy muammolarni to'g'ri hal qilishga ko'p jihatdan ijobjiy ta'sir etadi. Insonning omon qolishi, ularning huquq va erkinliklari, xalqlarning har tomonlama hamkorligi, ekologik va energetik muammolar, umuminsoniy boy tarixiy meros, umuminsoniy fazilatlar, hozirgi dunyoning yaxlitligi, o'zaro bog'liqligi va boshqalar ana shunday.

## **Ma'naviy barkamollikda milliy qadriyatlarning o'rni**

**Z. Botirova**

*NamDU Filologiya fakulteti ingliz tili va adabiyoti o'qituvchisi*

Ma'naviyat shaxs va jamiyat faoliyatida turli kurinishda namayon bo'лади. Jumladan, ma'naviyat, madaniyat, ma'naviy kamolat, ananaviy meros, ma'naviy extiyoj, ma'naviy sog'lomlik va boshqalar.

Ma'naviyat bu taqdirning ixsoni yoki insoning tug'ma xususiyati emas. balki u insonga xos xususiyat bo'lib, uning jamiyatdagi hayotiy jarayonida shakllanadi.

Sotsiologik tadqiqotlar natijasidan malumki, insonda ma'naviyatni egallashga, uni rivojlantirishga imkon beradigan tug'ma estedod va imkoniyatlar mavjud, lekin bu irsiy imkoniyatlar tarbiya, mexnat, hayot tajribalari va jamoatchilik bilan aloqalari asosiда sayqal topadi, nixoyat etiqodga, ruhiy mohiyatga aylanadi va inson ongida o'rnashadi. Demak, yuksak ma'naviyat o'z moddiy kurtaklarini hayot tajribasi, avlodlar merosi, axloq va odob hamda ijodiy tafakkurdan oladi. Yurtboshimiz aytganlaridek, ma'naviyat faqat insonga xos bo'lgan ichki ruhiy zamin bo'lmay, balki jamiyat, davlat, millat, shaxs, tarqqiyot va kamolatining asosiy omili xamdir.

Binobarin insoniyat jamiyatni taraqqiyoti taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk insonlar hal qiladi. Ta'kidlash joizki, yuqorida qayd etilgan barcha

ma'naviy omillar avvalo insonning ijodiy tafakkurida shakllanadi, so'ngra ijtimoiy hayotga yo'nalish oladi. Pirovard natijada, ma'naviyat insonlarni xamkorlikka, hamjihatlikka, axillikka, muloqatga chorlaydi. Bir so'z bilan aytganda u insonga barqarorlik bag'ishlaydi va uning irodasini mustahkamlaydi.

Yuksak ma'naviyatning ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydigan omillaridan yana biri shaxs va jamiyatning ma'naviy kamolatidir. Binobarin, shaxs va jamiyatning yuksak ma'naviyatini shakllantirish bugungi kunning muhim nazariy muammosidir. Shuni alohida takidlash kerakki, shaxs ma'naviy kamolati avvalo, jamiyat a'zolari urtasidagi kup kirrali munosabatlar, sungra jamiyat hayotidagi sharoitlar va imkoniyatlar zamini asosida shakllanadi. Ma'naviy kamolotni yuksalishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iktisodiy, siyosiy, ma'naviy va ma'rifiy isloxatlar bilan bog'liqdir. Isloxatda ta'kidlangan barcha maqsadlar ommaning ongiga singmasa, uning amaliy faoliyatiga dasturiyal bulmasa, isloxat o'z natijalarini bermaydi. Xullas, anglangan ongli faoliyat asosida amalga oshiriladigan isloxatlar omma ma'naviy kamolatining yuksalishi shakllanayotgan milliy kadriyatlar darajasi Bilan chambarchas bog'liqdir. Chunonchi milliy kadriyatlar ma'naviyatning tarkibiy qismidir.

Mamlakatimiz prezidenti I. A. Karimov ma'naviyat va iktisodiy isloxat bir-birini kuvvatlab, o'zaro ta'sirlanib rivojlanib boradi. Ijtimoiy barqarorlikning yuksak yuli xam mana shu, deb alohida kayd etgan edi.

Yuksak ma'naviyatimiz kamol topishida milliy kadriyatlar, an'analarimiz muhim ahamiyatga ega. Uning afzallik tomonlaridan biri shundaki, uning g'oyalari, insonning ichki dunyosi, ichki kayfiyati, ma'naviyatini shakllantirishiga yaratilgandir. Shaxs va jamiyat ma'naviy kamolatini yanada yuksalishida ta'lim-tarbiyaning ahamiyati bekiyosdir. Ma'naviyat xalqning, shaxsning axlokiy, odobi barcha va ma'suliyat tuyg'usi, ilmi, amaliy mexnati va ijod manbasi, iste'dod va kobiliyati, dunyoviy iymoni, e'tiqodi, vijdoni, dunyoqarashi, mafkuraviy karashlari tizimning yaxlit birligidir. Ma'naviy yuksalish shaxs uchun xam, jamiyat uchun xam xavo, xam suvdek zarurdir.

Prezidentimiz I. A. Karimovning asarlari, risolalari va nutklarida ijtimoiy barqarorlikning muhim omillarini belgilashda inson va uning kamoloti masalalari, milliy kadriyatlarning milliy o'zlikni anglashdag'i hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyati asosiy mezon kilib olingen.

Faqat ana shunday asosda yoshlarni o'z fikriga ega, turli ma'naviy xurujlarga karshi tura oladigan irodali, fidoiy va vatanparvar insonlar

etib tarbiyalashga erishish mumkin. Bu borada ma'naviy- ma'rifiy targibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamонавиy infarmatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chikish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va qo'llanimalarni tayyorlash bugungi kunda muhim vazifamizga aylanib borayotganini chuqur tushunib olishimiz zarur.

## **Diniy ekstremizm va terrorizm – vayronkor g'oyalarga to'yingan illat**

*Saidakbar Mutalov*

*NamDU filologiya fakulteti talabasi*

Xalqimizning tabiatiga mutlaqo yot bo'lgan siyosiy, diniy ekstremizm, aqidaparastlik va boshqa yovuz oqimlarning mintaqamizga kirib kelishi va tarqalishi tinchlik va osoyishtalikka, farzandlarimizning kelajagiga katta xavf tug'dirishini odamlar ongiga chuqur singdirib borish kerak. Xalqimiz tafakkurida yuksak axloqiy, ma'naviy qadriyatlarni qaror toptirish va mustahkamlash orqali ularni yovuz kuchlarga qarshi kurashga safarbar etish zarur.

**Islom Karimov**

Yangilanishlar, rivojlanishlar, fan-texnika taraqqiyoti dunyo hamjamiyati va insonlar uchun yangicha hayot tarzini, o'zgacha dunyoqarash va turfa xil foydali imkoniyatlar majmuini taqdim qilmoqda. Tanganing ikkinchi tomoni bo'lgani kabi, bu yangi hayot tarzining ham, taraqqiyotning ham o'ziga yarasha salbiy jihat, boshqacha qilib aytganda, jiddiy mulohaza va hushyorlik talab qiladigan tomonlari bisyor. "Bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz"<sup>11</sup> – deydi Muhtaram Yurtboshimiz o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida.

Darhaqiqat, hozirgi kunda turli vayronkor va buzg'unchi g'oyalari, xalqaro terrorizm mafkurasi, axborot xurujlari, diniy aqidaparastlik va ekstremizmning, insoniyatning tinch va osuda hayotiga, farovon turmushiga soya solib turgani sir emas. Bu ijtimoiy-siyosiy ofatlar qanday ko'rinishda bo'lmasin, uning nomi ham, ayanchli oqibatlari ham

<sup>11</sup> Карапп: Ислом Каримов. Юксак мабтаувият – сингилмас кун. · Тошкент: Матнавият. 2008. 110-бет.

o'ta sovuq holatlarni o'zida aks ettiradi. Shu o'rinda bir savol: Bushariyat istiqboliga tahdid solayotgan terrorizm va diniy ekstremizm balolari qaerden kelib chiqdi, ularning asl muddaoси nima? Manbalarda keltirilishicha. "Ekstremizm – (lotin. "aql bovar qilmas darajada", "haddan oshish") o'z maqsadi yo'lida turli haddan ortiq keskin tadbir-choralar ko'rishga tarafdarlik, jamiyatda qabul qilingan qonun qoidalarga zid bo'lgan keskin radikal qarashlar."<sup>12</sup> Terrorizm esa aynan yuqoridagi tarifda aytilgan holatlarni inkor etmagan holda ana shunday keskin xattি-harakatlarning avj nuqtasi deyish mumkin. Binobarin, "Terrorizm – (lotin. "qo'rqtish", "vahimaga solish") jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish. aholining keng qatlamlarida vahima va qo'rquv uyg'otishga qaratilgan siyosiy kurashning o'ziga xos usulidir."<sup>13</sup>

Turgan-bitgani xavf-xatar bo'lgan diniy ekstremizm va terrorizmning mafkurasi umuminsoniy manfaatlarga zid, milliy qadriyatlargan va sof insoniy his-tuyg'ularga begonadir. Bu kabi jirkanch ishlar rahnamolari faoliyatining asl mohiyati, o'zgalar ustidan hukmronlikka yoki mavjud siyosiy-mafkuraviy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka qarshi zo'ravonlik, dahshatga solish, jismoniy kuch ishlatish orqali o'zlarining g'arazli maqsadlariga erishish, uning ortidan harom boylik orttirish va eng yomoni bu yo'lida qanchadan-qanda begunoh insonlarning qonini to'kishida ko'rindi.

Achinarlisi, bunday nomaqbul ishlarning kelib chiqishiga muqaddas islom dinini yovuz va manfur kimsalar qo'lida dasturulamal bo'lishidir. Shuningdek, dunyoviy va diniy bilimlarning sayozligi, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmaslik mutaassiblik, aqidaparastlik kabi g'oyalarning tarqalishiga sabab bulishi, buning natijasida ongi zaharlangan va mutaassibga aylangan kishilar o'zları qilayotgan nomaqbul ishlarni to'g'ri deb hisoblab, har qanday yovuzliklardan ham bosh tortmaydilar.

Demak, diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiy sababi mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo'lishidir. Mutaassiblik diniy ekstremizm va terrorizmni yuzaga kelishiga zamin tayyorlaydi. Mutaassiblikning jirkanch basharasi dunyoning turli nuqtalarida sodir etilayotgan qo'poruvchilik va xunrezlik voqealarida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. qolaversa, diniy ekstremizm va terrorizm o'zaro bir-

<sup>12</sup> Диний экстремизм ва терроризмга карши курашнинг маънавий-маърифий асослари. "Тошкент ислом университети" нашириёт-матбоя бирлашмаси, Тошкент. 2013. 237-бет.

<sup>13</sup> Диний экстремизм ва терроризмга карши курашнинг маънавий-маърифий асослари. "Тошкент ислом университети" нашириёт-матбоя бирлашмаси, Тошкент. 2013. 94-бет.

biridan kuch olib, yoyinki bir-biriga qorishib ketgan holda, avval avtganimizdek qora kuchlarning hayotda yoki din sohasida hali hech narsaga tushunmaydigan, tabiatan hamma narsaga qiziquvchan “g’o’r” yoshlarni turli shior va chaqiriqlar bilan chalg’itib, ongiga putur etkazishga harakat qilmoqda. Shu orqali ularni mo’may pul evaziga sotib olib, yolg`on va’dalarga ishontirib, qo’poruvchilik harakatlariga, turli faxsh va buzg`unchi ishlarga giriftor qilishmoqda.

Ko`rinib turibdiki, diniy ekstremizm va terrorizm birinchi navbatda insonga g’oyaviy ta’sir va mafkuraviy tazyiq o’tkazish orqali o’z qora niyatini amalga oshirishga urinadi. Buning uchun ekstremist va terrorchi kuchlarning rahnamolari g’oyaviy manipulyatsiya qilish asnosida muddaosiga erishadi. “Bunda yovuz, vayronkor g’oyalar “da’vatchi”si shaxsga nisbatan zo’rlik qilmaydi va kuch ishlatmaydi, asl maqsadlarini pinhon tutadi. Aynan shu sababga ko’ra “islom dini niqobida” degan ibora ishlatiladi. g’oyaviy manipulyatsiya odamni u yoki bu ishni qilishga emas (targ’ibot-tashviqotdan farqli o’laroq), balki shu ishni qilishga hohish, istak uyg’otishga xizmat qiladi. Avvalo, da’vatchi o’zi ta’sir o’tkazmoqchi bo’lgan odam tasavvurlarini o’zgartirishga olib keluvchi bilim bera bera boshlaydi. Natijada, shaxs dunyoqarashi qadriyatları tizimida da’vatchi kutayotgan tartib paydo bo’ladi va etakchilik qila boshlaydi. Bu esa shaxsning xulq-atvoriga ta’sir ko’rsatadi, lekin uning o’zi xarakteridagi o’zgarishlarni sezmay qolishi mumkin.”<sup>14</sup>

Mana shunday g’oyaviy tajovuzlar, axloqiy tubanlik illatlari domiga tushganlarning ko’pchiligini jamiyatdagи ayrim beqaror, hali o’zini anglab etmagan, ezgu maqsad va hayotiy qadriyatlarini yaxshi tushunmaydigan, davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, “...tajovuz va qo’poruvchilik xurujlarini tashkil qilish niyati bilan yurgan kuchlarning tuzog’iga tushganlarning aksariyati birinchi navbatda oilada ham, maktabda ham jiddiy ta’lim-tarbiya olmagan yoshlardir. Ular ijobjiy ma’nodagi vorislik, ya’ni ajdodlardan avlodlarga o’tib boradigan ibratli an’analardan yiroq, muhitni nosog’lom bo’lgan oilalarda o’sgan, omadi yurishmagan, hayotda o’z o’rnini topmagan. jamiyat e’tiboridan chetda qolgan o’smirlardir. Ularning ko’pchiligini hatto o’rta maktabni bitirishga ham aql-idroki, kuchi etmagan kimsalar tashkil qiladi”.

G’oyaviy qaramlik negizida, oxir-oqibat ma’naviyati tuban, iymon-e’tiqodi sust, jamiyatdagи mavjud ijtimoiy muhitni noto’g’ri idrok etadigan, mafkurasi zaharlangan, jamiyat va xalqqa yot bo’lgan buzuq

<sup>14</sup> Бахтиер Исоков. Жамият тараккнёти асоси. - Наманган. 2007. 69-бет

aqidalar girdobida radikal kayfiyatdagи “zombi” (manqurt)lar vujudga keladi. Bular esa ayni ekstremistik, aqidaparast, mutaassib oqimlar va terrorchi guruhlarning jaholat urug’ini sepa boshlaydilar.

Bugungi kunga qadar dunyoning ko’plab davlatlari ana shunday jaholat ta’siridan chetda qolmayotgani, terrorizm va diniy ekstremizmning qonli oqibatlaridan jabr chekkani va afsuski bu holat hali ham davom etayotgani kishini havotirga solmay qo’ymaydi.

Insoniyat bugungacha juda ko’p terrorchilik va ekstremistik harakatlarning guvohi bo’lgan. Mavjud ma'lumotlarga ko’ra, 2000-2006-yillar orasida dunyoning 112 mamlakatida 14 ming 934 ta terrorchilik amaliyoti sodir etilgan. BMT ma'lumotlariga qaraganda, birgina 2009-yilning o’zida dunyoning 83 mamlakatida amalga oshirilgan teraktlarda 15 700 nafar inson hayotdan bevaqt ko’z yumgan. Yoki 2011-yilda boshlangan ba’zi arab mamlakatlarida ro'y berayotgan qonli to’qnashuvlar tufayli Tunisda 300 nafar, Misrda 800 nafar, Liviyada 14 ming nafar, Suriyada 70 ming nafarga yaqin kishilarning halok bo’lishi ham ekstremist va terrorchilar jinoyatlarining natijasidir. Soha mutaxassislari va ayrim tadqiqotchilarning fikricha, bugungi kunda faoliyat ko’rsatayotgan qariyb 150 ta nohukumat islomiy tashkilotlar jangarilik amaliyotlarini moliyalashtirishda gumon qilinayotgani ta’kidlangan. Shuningdek, terrorchilik tashkilotlari soni dunyo bo'yicha 500 ga yaqin ekani ayttilmoqda.<sup>15</sup> Ayniqsa, bugunning xatarli voqelegiga aylangan, islomni o’ziga niqob qilib olgan buzg’unchi toifa “ISHID” (Iraq Shom Islom Davlati) ning diniy-ekstremistik jangarilarning xunrezliklari jahon hamjamiyatiga jiddiy xavf tug’dirmoqda. Agar ma'lumotlarga yuzlanadigan bo’lsak, bu kabi raqamlarni ko’plab keltirish mumkin.

Yomonni shundaki, dunyoning turli davlatlarida bo’lgani kabi bizning mamlakatimizda ham mustaqil taraqqiyot davrida ayrim kishilarning turli ekstremistik, aqidaparast va mutaassib oqimlar hamda terrorchi guruhlarning botil aqidalariga ergashib, zalolat botqog’iga botib qolganliklari kishini ranjitudi va ularga nisbatan chuqur achinish hissini yuzaga keltiradi. Kasalni davolashdan ko’ra, uning oldini olgan afzal degan gap bor. Shu bois ham, yoshlarimiz, umuman olganda odamlar ongida vayronkor va buzg’unchi g’oyalarga joy qoldirmaslik, g’oyaviy bo’shilqni milliy va umuminsoniy, bunyodkorlik g’oyalari va vatanparvarlik tuyg’ulari bilan to’ldirish, ularning qalbida milliy

<sup>15</sup> Бу хакда каранг: Диний экстремизм ва терроризмга карши курашининг маънавий-чаърифий язмаси. “Тошкент ислом университети” нашриёт-матбода бирзаличиси. Тошкент, 2013.

tafakkur va sog'лом dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, har qanday vaziyatda ham ma'naviy xurujlarga qarshi o`z irodasi ila sobit tura oladigan, bir so`z bilan aytganda “fikrga qarshi fikr, g`oyaga qarshi g`oya, jaholatga qarshi ma'rifat” bilan yondasha oladigan inson sifatida shakllantirish ko`zlangan ezgu maqsadga erishishni ta'minlaydi.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, diniy ekstremizm va terrorizm tom ma'noda jaholatdir. Tinch va osuda hayotga, xalqimizning ming yillik ma'naviy-axloqiy udumlariga, muqaddas diniy qadriyatlariga, farovon turmush sharoitiga nisbatan noshukurlik deb talqin qilish o`rinli.

Shunday ekan, XXI asr balosi deya baholangan xatarli tahdidni bartaraf etish har bir insoning eng muhim vazifasi bo`lishi lozim. Chunki, tinch va farovon ertangi kunimiz, yosh avlodning porloq kelajagi uchun milliy ma'naviyatimizga zid bo`lgan illatlardan voz kechish, ulardan ogoh bo`lish, turli tahdid va xurujlardan himoyalanish bugungi kunning muhim shartidir.

## SIYOSAT VA HUQUQ

### O'zbekiston Respublikasida "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunni takomillashtirish mohiyati

*O. Chuboeva, Huquqshunos*

*I. Ismonov, NamDU talabasi*

Yoshlarni yosh jihatdan tasniflanishi turli mamlakatlarda turlicha. Masalan, O'zbekistonda yoshlar 14 yoshdan 30 yoshgacha deb belgilangan bo'lsa, Angliya va Gollandiyada yoshlar alohida guruhga ajratilmasada, bolalar bilan birlishtirilib, bola tug'ilgandan 25 yoshgacha yoshlar deb belgilangan. Ispaniyada bu chegara 32-34 yoshgacha suriladi.<sup>16</sup>

Chunki aynan shu yoshda, yosh ispanlar erkin iqtisodiy mustaqil hayot kechirishni boshlaydi. Xalqaro hujjatlarda va qonunlarimizda yoshlarga oid turli atamalar jumladan, voyaga yetmaganlar, ya'ni bola tushunchasi huquqiy asoslantirildi.

Jumladan, xalqaro inson huquqlarini himoya qiluvchi tashkilot Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1989-yilda qabul qilingan Bola huquqlari Konventsiyasida ham bu huquqiy asoslantirilgan, "Ushbu Konventsianing maqsadlari uchun 18 yoshga to'lmagan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan qo'llaniladigan qonun bo'yicha u ertaroq bolag'atga yetmagan bo'lsa, bola hisoblanadi"<sup>17</sup>, deb belgilangan. Yoshlar masalasi bo'yicha BMT alohida qo'mitalarni shakllantirdi va a'zo davlatlar uchun majburiy xarakterga ega bo'lган bola huquqlarini himoya qiluvchi organlarni shakllantirish vazifalarini belgiladi. Jumladan, voyaga yetmaganlar uchun odil sudlov BMT ning tadqiqot markazi, uning qo'mitalari va ekspert guruqlari ro'yxatiga kiritildi. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, ularni sudlarda himoya qilish muammolari bilan BMT Vena markazi, BMT bolalar markazi (YuNISEF) shug'ullana boshladi.

Yoshlar masalasi bo'yicha statistik tahlillar amalga oshirildi.

2007-yilda qabul qilingan Bola huquqlari kafolatlari to'g'risidagi qonunda bola tushunchasiga doir bir qancha atamalarga alohida huquqiy izoh berilgan. Qonun 3-moddasida shunday belgilangan. Ushbu

<sup>16</sup> Subhanov N. Yoshlarni ijtimoiylashivi //Yosh kuch.-2008.-№4.-B-3-4.

<sup>17</sup> Bo'lu huquqlari to'g'risida Konventsiv. Toshkent. O'zbekiston Bolalar janggamasi. 2013-yil

Qonunda **bola** (bolalar) — o'n sakkiz yoshga to'lunga (voyaga yetgunga) qadar bo'lgan shaxs (shaxslar)<sup>18</sup>, deb asoslanrilgan.

O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 20 noyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi Qonuni yoshlarga oida qonun hujjatlari asosini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi ushbu Qonun orqali 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan fuqarolarga taalluqli yoshlarga oid davlat siyosatining asosi negizini belgilab beradi va uni tegishli qonunlarni rivojlantirish hamda tizimga solish uchun asos deb e'tirof etadi<sup>19</sup>.

Davlatimiz tomonidan yoshlarni huquqlarini muhofaza qilish borasida qonunlar va qonunosti hujjatlarini varatilyapganligi jamiyat taraqqiyotini belgilaydigan asosiy hususiyatlardan biridir..

O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lganlar o'smirlar hisoblanadi. Bu davrdagi o'smirlar mustaqil kasb tanlay oladilar va kasb xunar kollejlari va litseylarda kelajaklarini yaratish uchun taxsil, bilim, tarbiya ko'nikma olish qobiliyatiga ega hisoblanadilar. Davlatimiz tomonidan bu yoshdagilarni bolalikdan katta yoshga o'tish yoshidagilar sifatida yoshlar safiga qo'shganliklari asoslidir. Garchand voyaga yetmagan o'smirlar deb hisoblanishsada, bu yoshdagilar o'z xarakatlari oqibati uchun javob bera oladigan ijtimoiy ongga ega bo'lib, psixologik jihatdan yetuk hisoblanadilar. Ular davlatimiz tomonidan qabul qilingan qonun hujjatlariga ko'ra huquqiy munosabatlarning subektlari-shaxslar hisoblanadilar. Jamiyat ravnaqi yo'lida o'zlarining xizmatlarini amalga oshira oladilar. Ushbu yoshdagi shaxslar fuqarolik huquqiy munosabatlarda, mehnat munosabatlarda, oilaviy munosabatlarda, jinoyat qonunchiligidagi subektlar deb huquqiy asoslanrilgan. 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarimiz esa insonlikning kuchga to'lgan, anglash darajasi quvvatga kirayotgan insoniylikning kamolotiga erishgan davr hisoblanadi.

Biz yoshlarga oida masalalarda bola huquqlari va yoshlar huquqlari doim bir-birini to'ldirib borishi, lekin o'ziga xosligi haqida tushuncha berishimiz lozim.

Mamlakatimizning 22 yillik mustaqillik davrida mamlaktni modernizatsiya qilish va jamiyatni tubdan isloq qilish xarakati amalga oshirildi. Xalq xo'jaligi barcha sohalarida, iqtisodiy -ijtimoiy, madaniy -ma'rifiy, huquqiy va boshqa sohalarda islohotlar bosqichma bosqich va izchillik bilan amalga oshirildi. Yoshlarga oid davlat siyosati ham

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi "Bola huquqlari kafolotlari tug'risida" Qonuni.

<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 20 noyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi Qonuni. 4-modda.

kamolotga erishib bormoqda. Yoshlar tarbiyasi, ma'rifiy yuksalishi, jamiyatda o'zlariga xos o'ren tutishi uchun davlatimiz rahbari alohida ahamiyat bermoqda.

Hozirgi davr yoshlarining intellektual saloxiyati va tafakkuri, ularning texnika taraqqiyoti va tsivilizatsiya jarayonidagi yuksak salohiyatini to'g'ri baholash lozim.

Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Prezidenti tomonidan amalag oshirilgan tadbirlar yoshlarga bo'lgan ishonchning yana bir namunasi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2014-yil 6 fevral kuni "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-2124-sonli Qarorga imzo chekdi. Mazkur Qaror asosida maxsus Davlat dasturi tasdiqlandi.

Dastur ijrosini to'laqonli hamda sifatli amalga oshirish, belgilangan vazifalarni o'z muddatida samarali bajarish maqsadida O'zbekiston Respublikasida 2014-yilda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar dasturini amalga oshirish harakat rejasi ishlab chiqildi.

Mazkur harakat rejasi 7 bo'lim, 76 banddan iborat bo'lib, o'zida turli yo'nalishlarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni qamrab olgan.

1. Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarida ularning faolligini oshirish yo'nalishi;
2. Yuksak ma'naviyatlari, mustaqil fikrlovchi, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimlarga ega bo'lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, ularda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish yo'nalishi;
3. Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, zamonaviy kasb-hunarlarini puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish yo'nalishi;
4. Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ijodiy va intellektual salohiyatni ro'yobga chiqarishga qaratilgan ishlarni tizimli yo'lga qo'yish yo'nalishi;
5. Yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish yo'nalishi;
6. Voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbazarlik va jinoyatlar sodir etilishini oldini olish yo'nalishi;

7. Barkamol avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish yo‘nalishi.

Shuningdek, Haraqat rejasida “Kamolot” YoIH faoliyatini yanada yaxshilash, samarali tashkil qilish, YoIHni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida ham bir qator bandlar nazarda tutilgan<sup>20</sup>.

Hozirda mamlakatimiz kamolotga erishgan har bir a’zosi kelajagimiz bo‘lgan yoshlarni huquqiy muhofaza qilishda ana shu qonun tahlili, uning kelajak yoshlari uchun huquqiy tayanch bo‘lishi uchun tahlil etishmoqda. NamDU ijtimoiy –iqtisodiy fakulteti professor-o‘qituvchilari ham ushbu qonun yangi taxriri loyixasi bo‘yicha taklif muloxazalar ustida ish olib bormoqdalar.

Olib borilgan tahlillarda «Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida»gi Qonuni 4 –moddasiga o‘zgartish kiritish, O‘zbekistondagi yoshlarni 18-30 yoki 18-35 yoshdagilar yoshlar deb belgilanishi haqida fikrlar bildirishdi.

Lekin bu fikr to‘g‘ri deb hisoblamaymiz. Bizni mentalitetimizga xos xususiyat shundan iboratki, o‘zbek o‘g‘lonlari imonli etib tarbiyalanadilar, ular iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va boshqa sohalardagi mas’uliyatni ertaroq zimmalariga ola-olishadi. Mushohada qilish darajasi boshqa millatlarga qaraganda o‘tkir va chuqurroq, tafakkuri keng insonlardir. Ularning qobiliyati va psixologik holatini e’tiborga olib o‘z xarakatlarining oqibatlariga javob bera olish jihatlarini e’tiborga olinsa, xatto 14 yoshdan avvalroq huquqiy munosabatlarga kirishi olishini kuzatish mumkin, ayniqsa shahar hududida va xunarmandchilik bilan shug‘ullanuvchi joylarda yashayotgan o‘smirlar xunar o‘rganish qobiliyatları bo‘yicha 14 yoshdan avvalroq mehnat munosabatlarga kirishishi mumkinligini kuzatilsa, qishloq hududidagi yoshlarimiz ham yozgi kanikulda og‘zaki shartnomaga asosida qishloq xo‘jaligida yoki tarbirkorlarga yordam berishda, fermer xo‘jaliklariga yordam berayotganligi, yangi o‘quv yili uchun o‘zlagi kiyim-kechak va maktab o‘quv qurollari uchun mablag‘ jamg‘ara olishlarini kuzatish mumkin.

Yoshlarni huquqiy holatlarini tahlil etishda ayrim qonunlarimizdagи yoshga doir tushunchalarni izohlashga harakat qilamiz.

Huquqiy munosabatlarda ishtirok eta olish insonga –shaxs maqomini beradi. Fuqarolik kodeksida shaxsning mulkiy va nomulkiy, shaxsiy munosabatlar subekti sifatida ishtiroki huquqiy asoslantirilgan. Jumladan, kodeksning 27- muddasi<sup>21</sup> o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlarning muomala layoqati

<sup>20</sup> <http://jurshidbek.uz> author 24.02.14

to‘rtisida tushuncha beradi. Unda “O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar, ushbu moddaning ikkinchi qismida sanab o‘tilganlardan tashqari, bitimlarni o‘z ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki homiyalarining yozma roziligi bilan tuzadilar. Bunday voyaga yetmagan shaxs tomonidan tuzilgan bitim kevinchaliq shaxsning ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki homiysi yozma ravishda ma’qullaganidan so‘ng, u ham haqiqiy hisoblanadi, deb ko‘rsatilgan.

O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar ota-onalari, farzandlikka oluvchilar va homiyalarining roziligesiz quyidagilarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqli:

1) o‘z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini tasarruf etish;

2) fan, adabiyot yoki san‘at asarining, ixtironing yoxud o‘z intellektual faoliyatining qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa natijasi muallifi huquqini amalga oshirish;

3) qonunga muvofiq kredit muassasalariga omonatlar qo‘yish va ularni tasarruf etish;

4) Fuqarolik kodeksi 29-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan mayda maishiy bitimlarni hamda boshqa bitimlarni tuzish.

O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar FK 29-moddasining birinchi va ikkinchi qismlariga muvofiq o‘zları tuzgan bitimlar bo‘yicha mustaqil ravishda mulkiy javobgar bo‘ladilar. Bunday voyaga yetmaganlar o‘zları yetkazgan zarar uchun Fuqarolik kodeksiga muvofiq javobgar bo‘ladilar”-deb belgilangan. Fuqarolik kodeksi 28-moddasida “Emansipatsiya” tushunchasi berilgan. Bu huquqiy holat tushunchasiga ko‘ra, “O‘n olti yoshga to‘lgan voyaga yetmagan shaxs mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlayotgan bo‘lsa yoki ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoxud homiysining roziligiga binoan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan bo‘lsa, u to‘la muomalaga layoqatli deb e‘lon qilinishi mumkin.

Voyaga yetmagan shaxsni to‘la muomalaga layoqatli deb e‘lon qilish (emansipatsiya) ota-onaning, farzandlikka oluvchilarning yoki homiyning roziligi bilan vasiylik va homiylik organining qaroriga muvofiq yoxud, bunday rozilik bo‘lmasan taqdirda, sudning qarori bilan amalga oshiriladi.

Ota-on, farzandlikka oluvchilar va homiy emansipatsiya qilingan voyaga yetmaganning majburiyatları bo‘yicha, xususan, u yetkazgan zarar oqibatida kelib chiqqan majburiyatlar bo‘yicha javobgar

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.-Toshkent: Adolat, 2013 yil.

bo‘lmaydilar”-degan qoida mustahkamlangan bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu yoshdagilar mustaqil iqtisodiy va huquqiy munosabtlarda ishtirok etadilar va jamiyatdagi yangi kuchga aylanadilar. Shuningdek, 14 yoshdagilar mulkiy javobgarligi ayrim jarayonlari bo‘yicha Fuqarolik kodeksi 29-moddasida tushuntirish berilgan.

Oilaviy munosabatlarda ham oila kodeksi 15modda<sup>22</sup>-sida “Nikox yoshi erkaklar uchun o‘n sakkiz yosh, ayollar uchun o‘n yetti yosh etib belgilanadi.

Uzrli sabablar bo‘lganida, alohida xollarda nikoxga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko‘ra nikox davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan joydagi tuman, shaxar hokimi nikox yoshini ko‘pi bilan bir yilga kamaytirish mumkin”-deb belgilangan.

Jinoyat kodeksi 17 -moddasida jinoyat subektlari yoshi masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib qasddan odam o‘ldirish jinoyati sodir etilganda, O‘z. R. JKning 97-moddasi 2-qismi bo‘yicha 13 yoshdan javobgarlikka tortilishi belgilangan.

Mehnat kodeksi 77-moddasida ishga qabul qilishga yo‘l qo‘yiladigan yosh belgilangan. Unda, <sup>23</sup> Ishga qabul qilishga o‘n olti yoshdan yo‘l qo‘yiladi. O‘n besh yoshga to‘lgan shaxslar ota-onasidan birining yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxsning yozma ravishdagi roziligi bilan ishga qabul qilinishi mumkin.

Yoshlarni mehnatga tayyorlash maqsadida umumta’lim maktablari, hunar-texnika bilim yurtlari va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining o‘quvchilarini o‘n to‘rt yoshga to‘lganlardan keyin ota-onasidan birining yoki ular o‘rnini bosuvchi shaxsning roziligi bilan bolalarning sog‘lig‘iga va kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan va ta’lim olish jarayonini buzmaydigan yengil ishlarni o‘qishdan bo‘sh vaqtlarida bajarish uchun ishga qabul qilishga yo‘l qo‘yiladi” deb belgilangan.

O‘n sakkiz yoshga to‘Imagan shaxslarni ishga qabul qilish ushbu Kodeksning 241-moddasida nazarda tutilgan talablarga rioya etilgan holda amalga oshiriladi<sup>23</sup>.

Bundan xulosa qilish mumkinki, 14 yoshdan xarakati oqibati uchun javob berishi va huquqiy munosabatlар ishtirokchisi sifatida xaraqat qilishini e’tiborga olish va yoshlar jamiyatimizdagi 14 yoshdan 35 yoshgacha bo‘lgan insonlar deb belgilanishi maqsadga muvofiq.

<sup>22</sup> O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi -Toshkent: Adolat, 2013.

<sup>23</sup> O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. 21.12.1995 y.161-1-son Qonuni bilan tasdiqlangan 01.04.1996 y. dan kuchga kirgan. Toshkent: Adolat. 2013

Bundan tashqari, keyingi paytlarda o'g'il bolalar va qiz bolalar o'ttasida ayrim huquqiy imtiyozlardan foydalanishda tengsizlik mavjud. Xususan, harbiy xizmatga jalb etilgan yoshlarga oliv o'quv yurtlariga kuch huquqini beradigan harbiy imtiyozlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Qonunda ushbu o'g'il bolalarga berilayotgan imtiyozga mutanosib, ayol yoshlari imizga ham alohida imtiyolar berilishi lozim.

«Yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi Qonuni vanei taxrirda qabul qilinishi yoshlarga bo'lgan e'tiborni znada kuchhaytiradi deb hisoblaymiz. Qonunda intellektual saloxiyatlari yoshlarga imtiyozlar ko'proq huquqiy asoslantirilishi maqsadga muvofiq.

## Selektsiya yutug'i muallifining huquq va majburiyatları

*Akayeva Marapat Abduxaliquovna*

*Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasini katta o'qituvchisi  
yu. f. n.*

Hozirgi kunda Respublikamizning amaldagi qonun hujjalariiga nazar tashlaydigan bo'lsak, fuqarolik huquqiy munosabatlari yanada takomillashayotganligining guvohi bo'lish mumkin.

Har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishida hamda jahon davlatlari qatorida bir xil mavqe'i va obro'-e'tibor qozonishi uchun mamlakatda sodir bo'layotgan ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar katta ahamiyatga ega. Bu esa intellektual mulk ob'ektlarining ixtiro etilishi hamda bu ixtirolarning keng jamoat e'tiboriga havola etilishiga har jihatdan bog'liqdir. Butun jahon hamjamiyati tomonidan sanoat mulki hamda unga bog'liq munosabatlarni tartibga solish muammolari o'rganilayotgan bir davrda bu mavzu juda muhim masalalardan biridir.

Barcha intellektual mulk ob'ektlarining muallifi bo'lgani singari, selektsiya yutuqlarining ham o'z yaratuvchisi ham, muallifi bo'lishligi tabiiy hol albatta. Odatta, huquqiy muhofazaning shakllantirilganligi, biologik va zoologik yutuqqa mualliflik masalasining qanday hal qilinganligiga bog'liq bo'ladi<sup>24</sup>. Bu masalaga O'zbekiston Respublikasining «Selektsiya yutuqlari to'g'risida»gi qonuning 4-moddasida javob berilgan. Unga ko'ra, o'zining ijodiy mehnati bilan o'simlik navi va hayvon zotini yaratgan (aniqlagan yoki chiqargan) jismoniy shaxs o'simlik yoki hayvon zotining selektsiya yutug'i muallifi deb hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining istalgan fuqarosi yoshi

<sup>24</sup> Imonov N. Intellektual mulk huquqi. –Toshkent: TDYul. 2007. -B. 64.

va muomala layoqatidan qat'i nazar selektsiya yutug'ining muallifi bo'lishi mumkin. Mualliflik huquqlari vujudga kelishining asosi muomalaga layoqatliligi selektsiya natijasida yutuqning ob'ektiv faktliligi hisoblanadi. Yaratilgan selektsiya yutug'iga huquqmy muhofaza hujjati berilgandan so'ng, uning muallifi selektsiya yutug'lariga nisbatan huquq sub'ekti sifatida e'tirof etiladi. Voyaga yetmagan va muomalaga layoqatsiz shaxslarning mualliflik huquqlari ularning qonuniy vakillari orqali amalga oshiriladi.

Qonunda chet el fuqarolari selektsiya yutuqlarining muallifi bo'lishligi yoki ular huquqlarining muhofazasi haqida so'z yuritilmagan. Lekin, «Selektsiya yutuqlariga talabnomalar tuzish. va topshirishning vaqtinchalik qoidalari»da xorijiy fuqarolar va yuridik shaxslar talabnomani O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga ko'ra yoki o'zaro do'stlik tamoyili asosida beradilar, - degan qoida mustahkamlangan. Ushbu me'yor chet el fuqarolari va yuridik shaxslarining O'zbekiston Respublikasida selektsiya yutuqlarining to'laqonli sub'ekti bo'la olmasalarda, ular ham xalqaro shartnomalar va do'stlik tamoyili asosida selektsiya yutug'iga nisbatan huquqlar sub'ektlar bo'la olishlari mumkinligini ko'rsatadi.

Bir necha shaxslarning ijodiy faoliyatları natijasida selektsiya yutuqlari yaratilgan bo'lsa, unda bunday selektsiya yutug'iga nisbatan hammualliflik belgilanadi. Selektsiya yutug'ini yaratishda o'zining ijodiy mehnati bilan qatnashgan shaxslarning barchasi selektsiya yutug'i muallifi deb e'tirof etiladi. Selektsiya sohasida hammualliflik masalasi juda dolzarb hisoblanadi. Chunki, birinchidan, yangi nav va hayvon zotlarining katta qismi yakka selektsiya yutug'i muallifi tomonidan emas, butun bir ijodkorlar tomonidan yaratilmoqda; ikkinchidan, selektsiya inson faoliyatining maxsus sohasi bo'lib, ijodiy faoliyatning boshqa turlaridan o'zining bir necha xususiyatlari bilan ajralib turadi. Hozirgi vaqtida selektsiya kompleks fan sifatida turli xil mutaxassislar-genetiklar, fiziologlar, bioximiklar, fitopatologlar, tsitologlar va boshqalarning sa'y-harakatlari majmui hisoblanadi<sup>22</sup>.

Darhaqiqat, sanab o'tilgan mutaxassislarning barchasi nafaqat o'z oldiga qo'yilgan masalani yechishi, ya'ni yangi navni u yoki bu foydali tomoni va sifatini aniqlashi lozim. Balki, selektsiya natijasining himoyaga layoqatlilik mezonlarining yuzaga keltirishdagi umumiy muammoni hal qilishga harakat qilishlari kerak. Shu bilan birga, yangi nav yoki zot yaratilishining ancha uzoq muddat davom etishini, ba'zi holatlarda bu ishda insonlarning bir necha avlodlari almashinishini

<sup>22</sup> Sergeev A.P. Pravo intellektual'snov sobstvennosti v RF. –Moskva: Prospekt. 2000. –S. 708

hisobga olish lozim bo'ladi. Va nihoyat, selektsiya ishida boshqa sohalardan farq qilib selektsiya yutug'i mualliflarga dastlabki materiallarni saralash, urug'likni ko'paytirishda texnik operatsiyalarni bajaruvchi shaxslarning ko'magi muhim ahamiyat kasb etishini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, hammuallif sifatida selektsiya ishida o'zining ijodiy mehnati bilan qatnashgan shaxslar tan olinishini ta'kidlab o'tish lozim.

Selektsiya yutug'i muallifining mualliflik huquqi-shaxsiy nomulkiy huquq bo'lib, boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkin emas. Muallifning shaxsiy nomulkiy huquqlarini amalga oshirishdan voz kechish to'g'risida biron-bir shaxs bilan kelishuv va muallifning bu haqdagi arizasi o'z-o'zidan haqiqiy emas, ya'ni muallifning bunday harakati hech qanday yuridik oqibatlar vujudga keltirmaydi<sup>26</sup>. Patent huquqidan farqli ravishda mualliflik huquqi muddatsiz himoya qilinadi.

Respublikamiz qonunchiligi selektsiya yutuqlari mualliflariga ular xizmatining jamiyat tomonidan tan olinishi va ijodiy faoliyatlarining manfatdorligini ta'minlovchi bir qator huquqlar belgilaydi. Ushbu huquqlarning asosiyları, «Selektsiya yutuqlari to'g'risida»gi qonunning I-bo'limida berilgan. Selektsiya yutug'i muallifining huquqlari bu qonunda qat'iy tartibda sanab ko'rsatilmagan bo'lsa-da, lekin turli normalarda bayon etilgan. Ba'zi huquqlar esa qonunda o'z aksini topmagan bo'lsa-da, ularni qonunchilik mazmunidan anglab olish mumkin.

A. P. Sergeevning fikricha, selektsiya yutug'i muallifilar sub'ektiv fuqarolik huquqlari tizimini quyidagi uchta guruhga bo'lib, o'rganish mumkin:

a) selektsiyaviy faoliyat natijasida erishilgan yutuqqa bog'liq ravishda vujudga keladigan huquqlar;

b) selektsiya yutug'ini rasmiy ravishda himoyaga layoqatli deb to'pilishi bilan bog'liq huquqlar;

v) selektsiya yutug'idan foydalanish bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan huquqlar<sup>27</sup>.

Aynan mana shu uchta guruhdagi huquqlar selektsiya yutug'i muallifining barcha huquqlarini o'zida jamlab oladi. Umumiy qoidaga ko'ra, har qanday ijod natijasi ko'zlangan maqsadga erishilgandan so'ng, yaratilgan hisoblanadi va himoya qilinishi lozim bo'ladi. Bu qoidani

<sup>26</sup> Rahmonqulov H.R. Fuqarolik huquqining predmeti, metodi va tamoyillari -Toshkent: TDYul, 2003.-B. 21.

<sup>27</sup> Sergeev A.P. Pravo intellektual'noy sosbtvennosti v RF. -Moskva: Prospekt. 2000 -S. 715.

to‘lig‘icha selektsiya yutuqlariga nisbatan qo‘llash mumkin. Biologik masalaning yechimi topilgan kundan boshlab, selektsiya yutug‘i muallifi o‘zining mualliflik huquqlarini himoya qilish huquqiga ega bo‘ladi. Hech kim bir shaxs tomonidan erishilgan selektsiya natijasini o‘ziniki qilib olishga haqli emas. Ijodiy natijaga erishilgan lekin, hali uning himoyaga layoqatliligi rasmiy tan olinmagan davrda, selektsiya yutug‘i muallifining manfaatlari mualliflik huquqi normalari bilan muhofaza qilinadi.

Selektsiya yutug‘i muallifining mualliflik huquqi boshqaga o‘tkazilmaydigan shaxsiy huquq hisoblanadi va muddatsiz himoya qilinadi. Muallifning shaxsiy huquqlari shaxsiy huquqlarning boshqa turlaridan farq qiladi. Buni shu holat bilan ifodalash mumkinki, agar fuqarolar shaxsiy huquqlari ularning shaxsi bilan bog‘liq bo‘lsa, muallifning shaxsiy huquqlari uning ijodiy mehnati bilan bog‘liqdir<sup>28</sup>. Selektsiya yutug‘i muallifining muallifligini o‘zlashtirib olish, uni hammualliflikka majbur qilish qonunga muvofiq, javobgarlikka tortilishiga sabab bo‘ladi.

Mualliflik huquqi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan selektsiya yutug‘i muallifining yana bir huquqi mualliflik nomiga bo‘lgan huquqdir. Bu huquq mualliflik huquqi bilan bog‘liq bo‘lsada, selektsiya yutug‘i muallifining mustaqil huquqi hisoblanadi. Ushbu huquq selektsiya yutug‘i muallifiga himoya hujjati berish haqidagi talabnomada himoya hujjatida va selektsiya yutug‘i xususida e’lon qilinadigan barcha materiallarda o‘z nomi ko‘rsatilishini talab qilish imkonini beradi. Selektsiya yutug‘i muallifiga xuddi asar muallifi kabi taxallusdan foydalanish imkoniyati berilmagan. Lekin, selektsiya yutug‘i muallifi davlat patent idorasi tomonidan e’lon qilinadigan arizalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarda o‘z nomi ko‘rsatilmasligini talab qilish huquqiga ega.

Selektsiya yutug‘i muallifi o‘z nomiga patent berishni so‘rab ariza topshirgandan so‘ng selektsiya yutug‘iga o‘z nomi yoki boshqa maxsus nom berishni talab qilishga haqli. Shu bilan birga ushbu bosqichda selektsiya yutug‘i muallifida, agar ish beruvchi bilan tuzilgan shartnomada boshqacha holat ko‘rsatilmagan bo‘lsa boshqa huquqlar ham yuzaga keladi. Shunday huquqlardan biri sifatida selektsiya yutug‘i muallifi bilan ish beruvchi o‘rtasidagi shartnomada, selektsiya yutug‘i muallifining selektsiya yutug‘i himoyaga layoqatli deb topilsa, alohida mukofot talab qilish huquqini ko‘rsatish mumkin. Ushbu shartga muvofiq selektsiya yutug‘i muallifi o‘simliklarning yangi navi va

<sup>28</sup> Toshev B.N. Zakonodatel’skiye osnovy i formy zashchity avtorskikh prav v Uzbekistane. Avtoref. diss.... dok. yurid. nauk. –Toshkent: 1999. –S.12.

hayvonlarning yangi zotini yaratishda olib borgan ishi uchun tegishli haq (ish haqi) olishdan tashqari (bunday haq yaratilgan natija himoyaga layoqatli bo‘lishi yoki bo‘lmasligidan qat’i nazar selektsiya yutug‘i muallifiga beriladi) selektsiya natijaga himoyaga layoqatli deb topilsa, mukofot olish huquqiga ega bo‘ladi.

Selektsiya yutug‘i muallifining selektsiya yutug‘idan foydalanish bilan bog‘liq ravishda vujudga keladigan huquqlari-bu selektsiya yutug‘idan foydalanganlik uchun haq undirishdir. O‘simplik navi yoki hayvon zotining muallifi bunday huquqqa, uning o‘zi selektsiya yutug‘iga patent egasi hisoblanmaganda hamda o‘simplik navi yoki hayvon zotiga doir litsenziyadan foydalanganliganda yoxud u sotilganida ega bo‘ladi. Bu haqning miqdori va uni to‘lash tartibi patent egasi yoki uning huquqiy vorisi bilan tuzilgan shartnomada belgilab qo‘yiladi (qonunning 7-moddasi 4-qismi).

Selektsiya yutug‘ining muallifi selektsiya yutug‘idan foydalanganlik uchun haq olish huquqi selektsiya yutug‘iga muvaqqat huquqiy himoya davrida ham kuchga ega bo‘ladi (qonunning 21-moddasi). Qonun selektsiya yutug‘idan foydalanganlik uchun haq to‘lash muddatini aniq belgilaydi. Unga muvofiq haq selektsiya yutug‘ining muallifi (hammualliflar)ga selektsiya yutug‘idan foydalanganligan hisobot davri tugagandan keyin ko‘pi bilan 6 oy ichida to‘lanadi.

Xulosa qilib aytganda, keyingi vaqtarda mualliflik mutlaq huquqlarini amal qilish muddatlari uzayib borish yo‘nalishi kishida tashvish uyg‘otadi. Agar oldin 25 yil belgilangai bo‘lsa, keyin 50 yilga yetkazildi va ba‘zi mamlakatlarda 70 yil davomida marhum asariga nisbatan mutlaq huquq tovar sifatida muomalada bo‘ladi. Holbuki, patent huquqi (ixtiroga nisbatan) bor-yo‘g‘i 20 yil amal qiladi xolos (berilgan sanadan boshlab). Patent ob‘ektlari moddiy dunyonи o‘zgartiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Demak, bu borada o‘zar oqilona nisbat bo‘lishi, u insof va adolat asosida belgilanishi lozim. Bu o‘rinda mualliflik mutlaq huquqlarini amal qilish muddati uzaytirishlar zamirida «ko‘ngil ochish biznesi» manfaatlari yotmaydimi degan xavotir ham paydo bo‘ladi. Shu sababli ham mualliflik mutlaq huquqlari, jumladan selektsiya yutug‘iga bo‘lgan mualliflik huquqlarini amal qilish muddatini butun dunyo bo‘yicha 50 yil doirasida ushlab turish maqsadga muvofiq bo‘lur edi.

Plagiatorlik va uning turli ko‘rinishlariga qarshi kurash har doim eng muammoviy masalalardan bo‘lib hisoblanadi. To‘g‘ri mualliflik huquqida mazmun emas, balki uning ob‘ektiv ifodalangan shakli

qo'riqlanadi. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risidagi qonunda (5-modda, 6-qism) mualliflik huquqi g'oyalar, kontseptsiyalar, tamoyillar, tizimlar, taklif qilinayotgan yechimlar, ob'ektiv mavjud hodisalarni kashf etishga taalluqli emas deb ko'rsatiladi. Biroq, bu komponentlar ilmiy asarning o'zagini tashkil etadi. V. Ya. Jonas ta'kidlaganidek asarning mavzui, materiali, syujet o'zagi, g'oyaviy mazmuni asarning qo'riqlanmaydigan elementlari hisoblanadi<sup>29</sup>. Bu elementlar asarning mazmuni hisoblanadi, uni o'zlashtirish mualliflik huquqini buzish hisoblanmaydi<sup>30</sup>. Binobarin, o'zgalarning g'oyasini o'zlashtirib, uni boshqacha ob'ektiv shakllarda e'lon kilish plagiats hisoblanmaydi. Bu holat ijodkorlarni mualliflik huquqiga ixlosini susaytirishi tabiiy. So'nggi vaqtarda bir mamlakatda bosilib chiqqan ilmiy asar g'oyasini o'zlashtirgan uni sal-pal o'zgartirgan holda boshqa mamlakatda boshqa tilda chop ettirib chiqarish holatlari ba'zan uchramoqda. Albatta, fanda vorislik mavjud, har bir g'oya boshka bir g'oya negizida vujudga keladi. Biroq ilmiy asarlar mualliflari o'z asarlarida o'z g'oyalari bilan o'zgalarning g'oyalarini farqlash darajasida bayon etishlari lozim. Ehtimol mualliflik huquqi doirasida ilmiy asarlar uchun alohida huquqiy rejim joriy etib, asar mazmuniga nisbatan ham huquqiy muhofaza, ustuvorlik sanasi belgilash lozim bo'lar. Bu ijtimoiy va fundamental fanlar uchun alohida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ilmfanda g'oyalarni o'g'irlash holatlariga barham bergen bo'lur edi.

## Ma'muriy-huquqiy munosabatlar

*J. Umarov*

*Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasi katta o'qituvchisi*

O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiysi xalq manfaatlarini ko'zlab va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergen idoralar tomonidan amalga oshiriladi.

Ma'muriy huquq manbalari tizimida "Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi qonun, "Korxonalar haqida"gi qonun, "Jamoat tashkilotlari to'g'risida" gi qonunlar muhim o'rin egallaydi.

Ma'muriy huquqiy normalarning juda ko'pi Prezident farmonlarida, Vazirlar Mahkakmasining normativ aktlarida bor. Davlat boshqaruvining tegishli tarmoqlarida ma'muriy huquq manbalari sifatida

<sup>29</sup> Sergeev A.P. Pravo intellektualnoy sobstvennosti RF. -Moskva: Prospekt, 2000. -S.722.

<sup>30</sup> Qarang: Grajdanskoe pravo. Ch.Z. -Moskva: Prospekt, 1998. 56-6.

vazirliklar va davlat qo'mitalarining qonunga hilof bo'lmagan buyruqlari va yo'riqnomalari amal qiladi.

Ma'muriy huquq manbalari kabi xalq deputatlari Kengashlarining qarorlari, ulardagi qoidalarni buzganlik uchun ma'muriy javobgarlikni belgilovchi hokimlarning qarorlari va farmoyishlari ham amal qiladi.

Ma'muriy huquq manbalari tizimida asosiy o'rinni O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksi egallaydi. Huquqiy normalalar tartibga solinuvchi ijtimoiy munosabatlardan huquqiy vokelikdan bevosita kelib chiqishi kerak. Chunki huquqiy normalarga munosabatlarni vujudga keltirishdan avval ushbu munosabatlar ichki rivojlanishning oqibati ularning zarurligi mohiyatining ta'siri bo'lishi kerak.

Huquqiy munosabat kishilarning o'zaro sub'ektiv huquqlari va suridik majburiyatlari vositasidagi aloqalaridir. Bu aloqalar huquq normalari bilan mustahkamlangan huquq va majburiyatlarni amalga oshirish orqali vujudga keladi.

Huquqiy munosabat irodaviy munosabatdir. Huquqiy normalarda davlatning muayyan irodasi ifoda etiladi. Shu bilan birga huquqiy munosabat vujudga kelishi uchun uni ishtirokchilarining ham irodasi talab qilinadi. Ba'zi bir huquqiy munosabatlar uning barcha ishtirokchilarining irodasi bilan vujudga kelishi mumkin.

Huquqiy munosabat davlat tomonidan qo'riqlanadigan munosabatlardir. Huquqiy normalarda davlat irodasi va manfatlari ifoda etilganligi sababli, ular asosida vujudga keladigan munosabatlar davlat tomonidan muxofaza qilinadi. Agar huquqiy normlarda belgilangan talablar ixtiyoriy ravishda bajarilmasa, davlatning majburlov choralarini harakatga keladi.

Demak, huquqiy munosabatlar – huquqiy normalar asosida vujudga keladigan va davlat tomonidan qo'riqlanadigan hamda insonlarning faoliyati va xulq atvori bilan bog'liq bo'lgan irodaviy munosabatlardir. Davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan huquqiy munosabatlarga boshqa barcha huquqiy munosabatlar singari umumiy xususiyatlar xosdir.

Davlat boshqarushi jarayonida turli-tuman munosabatlar vujudga kelib, turli huquq tarmoqlari bilan tartibga solinadi. Jumladan, davlat boshqarushi sohasidagi aksariyat huquqiy munosabatlar konstitutsiyaviy, ma'muriy, mexnat, moliya va boshqa huquq tarmoqlarining normalari asosida vujudga keladi. Mazkur munosabatlar o'rtasida ma'muriy huquqiy munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'muriy huquqiy munosabatlar – bu ma'muriy huquq normalari asosida vujudga keladigan munosabatlardir.

Ma'muriy huquq normalari - bu qonunga tayangan davlat hokimiyyati qoidalari vositalari orqali belgilangan va ta'minlangan, davlat boshqaruvi sohasidagi munosabatlarni boshqarishga da'vat etilgan ijtimoiy tuzumning tabiatidan kelib chiqadigan normalardir.

Ma'muriy huquq normalari yo'l qo'yilishi yoki tavsiya etilishi kerak bo'lgan xatti-haraktning, davlat boshqaruvi organlari faoliyatining, shuningdek, davlat boshqaruvi sohasidagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mehnat jamoalari va fuqarolarning chegarasini aniqlaydi. Ma'muriy huquq normalari davlat boshqaruvi sub'ektlari va ob'ektlari o'zaro munosabatlarining huquqiy rejimini, boshqarilayotgan faoliyatini ko'pgina tomonlarini amalga oshirish tartibini belgilaydi. Ma'muriy huquq normalari fuqarolarning huquq va burchlarini, ularni amalga oshirishning tartibi va kafolatini belgilaydi.

Ma'muriy huquq normasi, huquqning boshqa sohalari kabi zamon va makonda hamda shaxslar doirasida ta'sir chegarasiga egadir.

Huquq normalarining kuchga kirish tartibi davlat huquqi normalari bilan belgilanadi.

Ma'muriy-huquqiy normalar ijrochilarga yetib borgan vaqtдан boshlab kuchga kirish umumiy qoidasi holati bo'lib hisoblanadi. Faqat ma'muriy mas'uliyatni nazarda tutuvchi normalar, odatda, birdan emas, balki ma'lum bir muddatdan so'ng kuchga kiradi.

Odatda, ma'muriy-huquqiy normalar noaniq muddatda amalda bo'ladi, biroq ayrim hollarda shunday normalar qabul qilinishi mumkinki, ularning amalda bo'lishi ma'lum voqeа-hodisalar bilan (tabiiy ofatlar, epidemiya va boshqalar) hodisa sodir bo'lishi bilan, shuningdek, oldindan belgilangan muddat bilan bog'lanadi. Ma'lum hollarda huquqiy normalarning amal qilishi ma'lum vaqtga qadar to'xtatib qo'yilishi mumkin.

Demak, ma'muriy huquqiy munosabatlar huquqiy munosabatlarning bir turi bo'lib, o'zining mazmuni, xususiyatlari va ishtiroychilari bilan boshqa huquqiy munosabatlardan ajralib turadi.

## Xalqaro moliyaviy lizingning o'xshash munosabatlardan farqli jihatlari

## *Yuldasheva To'tixon Yakubovna*

*Andijon qishloq ho'jalik instituti Gumanitar fanlar kafedrasи assistenti*

Xalqaro moliyaviy lizing shartnomasi oldi-sotdi shartnomasi va sof lizing (mulkiy yollash (ijara) shartnomasi elementlariga ega bo'lgan murakkab shartnoma bo'lganligi uchun ushbu shartnoma mazkur shartnomalarga o'zining asosiy belgilari bo'yicha juda yaqin turadi.

Bunda, shubhasiz, lizing beruvchi bilan sotuvchi o'rtasidagi munosabatlar aslida oldi-sotdi shartnomasi bo'ladi. Shu bilan birga, xalqaro moliyaviy lizingda uchinchi shaxsning, ya'ni xaridor bo'lmagan lizing oluvchining bevosita sotuvchi (etkazib beruvchi)ga da'vo qilish imkonи paydo bo'ladi.

Bundan tashqari, lizing munosabatlari rivojlanishining muayyan bosqichida moliyaviy lizing ashyoni nasiyaga olish-sotish shartnomasining turi bo'lib, bunda sotuvchi (lizing beruvchi) shartnoma predmetiga bo'lgan mulk huquqini xaridor (lizing oluvchi) to'lovlarni to'liq amalga oshiradigan paytgacha o'zida saqlab qoladi, degan nuqtai nazar bildirilgan.

Shu bilan birga, moliyaviy lizing shartnomasining bunday oldi-sotdi shartnomasidan asosiy farqi shundaki, oldi-sotdi shartnomasining maqsadi shartnoma predmetiga bo'lgan mulkdorlik huquqining xaridorga o'tishidan iborat, moliyaviy lizing shartnomasining maqsadi esa lizing oluvchiga uning zarur ashyodan foydalanish imkonini berib uni kreditlashdan iborat. Shu bois moliyaviy lizing predmetiga bo'lgan mulkchilik huquqining birovga o'tishi lizing oluvchining huquqidir, ya'ni mulkdorlik huquqi odatda lizing oluvchi barcha lizing to'lovlarni to'laganidan so'ng unga o'z-o'zidan o'tmaydi va lizing oluvchi lizing muddati tugaganidan keyin ashyoni qoldiq qiymati bo'yicha sotib olish yoki lizing beruvchiga topshirish huquqiga ega bo'ladi.

Moliyaviy lizingda ashyoning tasodifan nobud bo'lish xavfi lizing beruvchida emas, balki lizing oluvchida bo'ladi (oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha mulk huquqi saqlab qolingga tasodifiy nobud bo'lish xavfi sotuvchida bo'ladi). Bundan tashqari, xalqaro moliyaviy lizing shartnomasi uch tomonlama bitim bo'lib, lizing oluvchiga shartnoma predmetining kamchiliklari bilan bog'liq talablarni bevosita mol etkazib beruvchiga (ishlab chiqaruvchiga) qo'yish imkonini beradi, lizing beruvchi esa, sotuvchidan farqli ravishda sotilgan ashyoning kamchiliklari bilan bog'liq javobgarlikdan ozod bo'ladi.

Lizing beruvchida (sotuvchidan farqli ravishda) ashyoni lizing oluvchiga topshirish majburiyat yo'q, chunki lizingga beriladigan ashyo-

ni odatda mol yetkazib beruvchining o'zi bevosita topshiradi. Bundan tashqari, moliyaviy lizing muddati odatda ashyodan xo'jalikda foydalanish muddatiga mos keladi, nasiyaga olish-sotish shartnomasining muddati esa ancha qisqa bo'ladi.

Kontinental Yevropadagi ayrim mamlakatlarning doktrinasi va sud amaliyotida moliyaviy lizing shartnomasi muayyan xususiyatlarga ega bo'lgan lizing (mulkiy yollash va ijara) shartnomasining turlaridan bitidir, degan nuqtai nazar uchrab turadi.

Shu bilan birga, moliyaviy lizingning ijara shartnomasidan asosiy farqi shundaki, unda lizing predmetini lizing beruvchi lizing oluvchining ko'rsatmasi bo'yicha xarid qiladi, shu bois lizing oluvchi lizing beruvchiga (ijarachi ijara beruvchiga nisbatan bo'lganidek) foydalanish uchun berilgan ashyoning kamchiliklari bilan bog'liq talabni qo'yishga haqli emas.

Bundan tashqari, odatda, moliyaviy lizing shartnomasiga ko'ra, ijara shartnomasidan farqli ravishda, lizing predmeti bilan bog'liq barcha xavflar (mulkdor sifatida) lizing beruvchining emas, balki lizing oluvchining zimmasida bo'ladi.

Shuningdek, ta'kidlash lozimki, mulkiy yollash (ijara) shartnomasining maqsadi shartnoma predmetiga bo'lgan foydalanish huquqini olishdan iborat. Moliyaviy lizing shartnomasi esa, avvalo, xarid qilinayotgan mulkdan foydalanuvchini kreditlashga qaratilgan. Aynan shu bois lizing beruvchining burchi muayyan mulkni unga egalik qilish va undan foydalanish uchun berishdangina iborat bo'lmay, balki ilgaridan belgilangan mulkni uchinchi shaxsdan xarid qilishdan ham iborat.

Moliyaviy lizingning mulkiy yollashdan ushbu ancha jiddiy farqlari GFR sud amaliyoti moliyaviy lizing shartnomalariga nisbatan yollash haqidagi qonunchilik normalarini qo'llashga umuman yo'l qo'ymaydi.

Xalqaro moliyaviy lizing shartnomasini kredit shartnomasidan ham farqlash kerak, chunki odatda xalqaro lizing shartnomasida ushbu bitimning uchinchi tarkibiy qismi, ya'ni bank yoki uning kredit tashkiloti lizing beruvchi faoliyatini moliyalashtirishi bilan bog'liq kredit elementi mavjud. Bunda iqtisodiy nuqtai nazardan xalqaro moliyaviy lizing kredit shartnomasiga juda o'xhash, chunki birinchi holda ham, ikkinchi holda ham foiz to'lash evaziga qarzga ashyo olinadi. Biroq birinchi holda lizing predmetiga bo'lgan mulkchilik huquqi kreditorda saqlanib qoladi, ikkinchi holda esa ashyoga nisbatan mulkchilik huquqini qarzdor sotib oladi. Kredit berayotgan bank ushbu ashyoning garovi haqida shartnoma rasmiylashtirishni talab qilishi mumkin bo'lsa ham, biroq, baribir,

o‘layda nishbatan mulkchilik huquqi bankka o‘tmaydi. Bundan tashqari, moliyaviy lizingda lizing beruvchi ashyoni sotuvchidan o‘z nomi asosida sanad qiladi. Kredit berishda esa sotuvchi bilan shartnomani qarz oluvchi mizolaydi.

Lizing beruvchi ashyoni sotuvchi (etkazib beruvchi)dan lizing o‘tuvchining topshirig‘i bo‘yicha xarid qilishi ma’lum ma’noda moliyaviy lizing shartnomasini komissiya shartnomasi (agentlik shartnomasi) bilan o‘xhash qiladi. Shu bilan birga, komissiya shartnomasida shartnomma predmetiga bo‘lgan mulkchilik huquqini komitent sotib oladi. Moliyaviy lizingda esa shartnomma predmetiga bo‘lgan mulkchilik huquqi hujmo beruvchida qoladi. Komissiya shartnomasiga muvofiq, komissioner uchinchi shaxs bilan bo‘ladigan bitimni komitent vositalari evaziga bajaradi. Moliyaviy lizingda lizing beruvchi lizing predmetini o‘z mablag‘lari evaziga, yo bankdan o‘z nomidan sotib olingan moliyaviy mablag‘lar evaziga xarid qiladi. Bundan tashqari, moliyaviy lizingda lizing predmetini lizing oluvchi amalda o‘z nomidan oladi, komissiya shartnomasida esa bu funksiyani komissioner bajaradi.

Shunday qilib, yuqoridagi tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Xalqaro moliyaviy lizing shartnomasi murakkab shartnomma bo‘lib, oldi-sotdi, yollash (ijara), kredit va komissiya (agentlik) shartnomalarining ayrim jihatlarini o‘z ichiga olsa ham, ularning turlaridan biri emas. Shu bois xalqaro lizing shartnomasida, "xalqaro qonunchilik" hujjatlarida, shuningdek, lizing haqidagi milliy huquqning qo‘llanadigan maxsus normalarda muayyan munosabatlar tartibga solinmasa ham, o‘xhash munosabatlar haqidagi qo‘llaniladigan moddiy huquqning boshqa normalariga asoslanish zarur (bunda xalqaro moliyaviy lizing shartnomasining xususiyatlarini yodda tutish lozim). Bu esa xalqaro moliyaviy lizingning o‘ziga xos jihatlarining asosiy mezoni hisoblanadi.

## Jahon XXI asrda: kelajak va insoniyat taqdiri

*Tojiboyev Azizbek*

*Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, Falsafa kafedrasи  
o‘qituvchisi*

XX asr insoniyat tarixida buyuk o‘zgarishlar davri sifatida namoyon bo‘ldi. Bu o‘zgarishlar insonlarning hayotiga bir tomondan salbiy, ikkinchi tomondan esa ijobiy ta’sir etdi. Birgina o‘tgan asrda yadro qurolining yaratilishi insoniyat oldida ulkan umumbashariy muammlarni keltirib chiqardi. Ushbu muammo endi, undan qutulish

edi. Vaholagnki ushbu yangilik insoniyatga bir qancha foyda keltirishi mumkin edi. Ayrim buzg'unchi g'oya tarafdarlari uni o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga otlandi va bu oxir oqibat undan himoyalanish chora tadbirlarini ko'rishga butun dunyo mamlakatlarini majbur qildi. Vaqt o'tgan sayin turli o'zgarishlar bilan birga yangi – yangi muammolar dunyoga kela boshladiki ushbu muammolarning yechimi hozirgacha barchani birdek havotirga solishga arziyi. Dunyo aholisining tabiiy o'sishi, fan-texnika yutuqlaridan tor manfaatlari yo'lida foydalanish, ekologik muammolar bularni ham ushu ro'yhatga kiritishimiz mumkin.

XX asrning so'ngi o'n yilliklaridagi ijobiylar o'zgarishlarni ham albatta e'tirof etmasdan ilojimiz yo'q. bunda biz:

birinchidan – mustamlakachilik va irqiy kamsitish yo'q qilinishiga bir qadar erishilganli; ikkinchidan – tarix sahnasiga yangi mustaqil davlatlarning kirib kelishi;

uchinchidan – demokratik taraqqiyot qadriyatlarini va tamoyillari ommabop bo'lib borayotganligini kuzatishimiz mumkin.

Hozirgi kunda insoniyatga xavf solib turgan muammolarni umumbashariy muammolar deb aytish mazkur vaziyatdan alohida chiqib ketishning iloji yo'qligini anglatadi. Lekin shuni ham inobatga olish kerakki bugungi dunyo muayyan yahlitlikni tashkil etsada, undagi mintaqa va davlatlar millatlar va xalqlar o'z o'rniga ko'ra mavqega ega degan g'oya mavjud. Ushbu holat ular o'rtasdagagi tafovutni yuzaga keltirishi mumkin. Bunday qarashlar bugungi kun uchun tog'ri kelmasligini anashu qarashlar tarafdarlariga tushuntirishimiz lozim.

XXI asr insoniyat tarixida axborot asri yoki turli xil yo'sinndagi iboralar bilan talqin qilinmoqda. Bu vaziyat dunyoning kelajakdagagi taqdiriga barchamizni birdek mas'ulligimizni agnlatmoqda. Mavjud yuzaga kelgan holatdan kelib chiqib, bugungi kunda terrorizm, ekologiya, demografik muammo, oziq ovqat muammosi va boshqalarni hal qilishda barcha davlatlar birdek qayg'urishlari lozim. Hozirgi zamonda insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyoti bilan bog'liq eng asosiy muammo bu yer yuzida tinchlikni saqlash bo'lib qoldi. Buni yaqin o'tmishimizda bo'lgan bir qancha yovuzliklardan ko'rib xulosa chiqarib olsak bo'ladi. Shu bilan birgalikda xatarli kasalliklar ham dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Ekologiya nuqtai nazaridan e'tibor berib qaraydigan bo'lsak bиргина орол муаммоси навақат осиyo balki, butun dunyo davlatlariga tabiiy xavf

solmida. Yuqorida aytib o'tilgan muammolar bugungi kunimizning eng dolzarb muammolaridan ayrimlari hisoblanadi.

Bugungi umumbashariy muammolar o'zining chegara bilmasligi, millat tallamasligi, xavflilik darajasining o'ta yuqori ekanligi va barchani bu haqda o'ylashga majbur qilishi bilan ajralib turadi. Yuqorida aytib o'tgan fikrlarimiz dunyo hali ham ilgargidek mo'rt bo'lib turganligidan dalolat beradi. Bizni qurshab turgan olam g'oyat murakkab, muammoli bo'lib kelgan va hozir ham shunday.

Hozirda insoniyat taqdiri ijtimoiy taraqqiyot istiqbollari xalqaro munosabatlar bilan bog'liq bo'lib qoldi. Xalqaro maydondagi siyosiy tanglik bacha mintaqalarga daxldor ekanligi aniq aks eta boshladи.

Mazkur davrda bizdan talab qilinadigan narsa, barchamiz bu muammolarga xushyor qarab, o'z imkoniyatlarimiz doirasida turli fikr va mulohazalar bildirib, har birimizdan doimo habardor bo'lib turishimiz kerak. Bizning kelajagimiz bu dunyoni saqlab qolishimizga bog'liq. Zero bizga bu dunyoni bust butun va sog'lom holda qoldirishgan ekan biz ham ushbu holat uchun mas'ulmiz va barchamizda doimo shunday vazifa asosiy g'oyaviy o'rinni egallashi darkor. Shu boisdan ham barcha mamlakatlar, xalqlar bir biri bilan bog'langan, o'zaro aloqadadir.

Hozirda turli qarashlar ushbu muammolarni xal qilish uchun ishlab chiqilib, qo'llanilmoqda. Eng asosiysi barcha muammolarni hal etishda avvalom bor insoniyat, yoshlar ongini ijobiy g'oyaviy qarashlar bilan tarbiyalashimiz darkor, shundagina bu kozlangan bir butunlikka, uyg'unlikka, o'zaro hamjihatlilikka erishishimiz mumkin. Bu uyg'unlik bizni kelajak avlod bilan ham bog'liqligimizni aks ettiradi va a'iddolarimizga munosib davomchi ekanligimizni ifoda etadi.

## Barkamol avlodni voyaga yetkazish masalalari

### *M.Irgasheva*

*Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq ta'limi yo'nalishi talabasi*

Sog'lom va har tomonlama barkamol avlodni shakllantirish uchun qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, bu borada qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan yangi qoida va me'yorlarni ishlab chiqish lozim.

I.Karimov

Mustaqillikga erishganimizga oz muddat bulgan bo'lsada. mamlakatimizda 600 dan ziyod qonunlar ishlab chiqildi, bularning 10 dan yosh avlodning huquqlari ,erkinliklari hamda burchlarini belgilab berdi.

Bugun yoshlarning bilim saviyasi, jismonan sog'lomligi, ma'nан yetukligi dillarimizni quvonchga to'ldiradi, biroq, "gurunch kurmaksiz bo'lmas" deganlaridek hali to'g'ri yo'lni ko'raolmay, jinoyat botqog'iga cho'kayotgan yoshlarni ham yo'q emas! Dunyoda millionlab savodsiz, kasalliklarga chalingan va ochlikdan vafot yetayotgan yoshlarni ko'rib, davlatimiz biz yoshlarga yaratib bergen sharoitlar va imkoniyatlar boshka davlatlarda yo'qligiga amin bulamiz. Bunday imkoniyatlar evaziga bizdan fakat, yaxshi o'qish, ma'naviyatli va madaniyatli, vatanimiz ravnaqini rivojlantirish va ma'naviy, madani boyliklarni qadrlab, kelgusi avlodga yetkazish va chinakam istiqololga munosib farzand bulish xalos.

Darhaqiqat, ishonchni barcha oqlayapti deb bo'lmaydi, bugungi kunda voyaga yetmaganlar orasida sodir bo'layotgan huquqbuzarliklar bunga yorqin misol. Bu borada yurtboshimizning "Tarbiyachilar, olimlar, domlalar tomoshabin bo'lib o'tirmasligi lozim. Farzandlarimizni kim to'g'ri yo'liga soladi, kim ularning ongini tozalaydi, kim ularga haq gaplarni gapirib, hayotda o'z e'tiqodiga suyanib yashashni o'rgatadi, tarbiyalaydi? Yoshlarning to'g'ri yo'l tanlashida kim birinchi bo'lib yordam berishi kerak, ularga kim tayanch bo'lishi lozim"<sup>1</sup> deb jon kuydirishlari bizni ogoxlikka chorlaydi, binobarin, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish ota-onalar va ustozlar zimmasidir, ularni xar tomonlama yetuk va komil inson bulib, kamol topishi, kelajagimizni belgilab beradiyu Zero ertangi kun porlok bulishi bugunga boglik.

Chunonchi, voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklarni oldini olish, "ommaviy madaniyat" unsurlaridan, turli diniy yekstramizm okimlar va bad goyalardan ogoxlantirishimiz lozi.

Biz yangi avlodni tarbiyalamoqdamiz, ularning ko'pchiligin esa kasb-hunari yo'q, mehnat qilishga o'rganishmagan. Bu kishilar bizning o'rnimizni egallashlari kerak. Ularning taqdiri qanday bo'ladi? Kim hozir bu haqda o'ylayapti? – deb mana shunday, dolzarb muammoni urtaga tashlab yurtboshimiz mustakilligimizning ilk yillaridanok katta etiborni yoshlarga karatdi, jamiyki konun hujjatlarida ularga oid modda va bandlar kiritildi. Bugun davlat siyosatining nakadar tugri va mukammaligini yoshlarning asosiy kismi ilmli xunarmand bula boshlagpnida kuramiz.

Nafakat yoshlar balki barcha fuqarolarning huquqiy ong va madaniyatini rivojlantirish bugunning dolzrb muammosiga aylandi chunki konunni yaxshi bilgan va xurmat kilgan inson uni buzmaydi xamda oyok osti bulishiga yul kuymaydi. Zero konunlar xam davlatning gururi yekanini unutmaslik lozim

Yurtimizda ishlab chilyotgan voyaga yetmaganlar orasida turli xil huquqbuzarliklarni oldini olish va ularga karshi kurashish, xar tomonlama barkamol etib tarbiyalash, huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini ximoya kilish maqsadida Respublikamizda bolalar huquqlari va konuniy manfaatlarini ta'minlashning mustahkam asosi varatilgan. Jumladan, bu sohaga oid bir kancha xalqaro konventsya ratifikasiya kilingan, o'ndan ortik konun kabul kilingan. Mamlakatimizda BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi xalqaro konventsiyasi talablari, O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida»gi konunida O'zbekiston Respublikasining JPKning 60-bob voyaga yetmaganlarning jinoyatlari haqida ishlarni yuritish, JK 6 bo'lim voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatilari kabi maxsus moddalari va boshqa konunlar karor, yoshlarga oid davlat dasturi masalan "Barkamol avlod yili", "Sog'lom bola yili" shuningdek, yillarni yoshlarga moslab kuyilishi nazarda tutilgan maqsad va vazifalar hayotga izchil tatbik etilvotganidan dalolat beradi. Bu sohadagi xalqaro standartlarni milliy komunchilikka joriy qilish va konunchilikni takomillashtirish borasidagi rihlar davom ettirilayapti.

## **Fuqarolik huquqida da'vo muddatini amal qilishining o'ziga xos jihatlari**

*Adashaliev Adhamjon Karimjon o'g'li  
Milliy g'oya 3-kurs 303-guruh talabasi  
Ilmiy rahbar: Sarimsoqov Begzod*

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida bosib o'tilgan yo'llimiz va jamiyatimiz hayotida yuz bergen chuqur o'zgarishlar isbotlashga olmadigan bo'lsa, bugungi kunda iqtisodiyot oldida turgan yo'nalish, maqsad va vazifalar ham tubdan o'zgardi, eng asosiyalar unda yuz beravotgan jarayonlar mazmuni sifat jihatdan o'zgardi<sup>11</sup>.

Respublikamizda islohatlar izchillik bilan, aniq maqsadni ko'zlab oshirilmoqda hamda fuqarolarning huquqlarini kafolatlashga qaratilgan ko'plab qonunlar qabul qilindi va ular amalda qo'llanilmoqda.

Mulkning jamiyatni rivojlantirishdagi, davlatning iqtisodiy qudratini oshirishdagi ahamiyatini anglagan holda, Respublikamiz fuqarolari bu

<sup>11</sup> Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. - Toshkent O'zbekiston, 9-T. 2001. 11-12c

sohada nafaqat chuqur bilimga ega bo'lishlari, shuningdek kundalik hayotda korxona, xo'jalik birlashmalari, jismoniy shaxslar, mulk va boshqa mulk egalarining huquq va manfaatlarini himoya qilishda o'z bilimlarini ko'rsata bilishlari kerak.

Zero, Prezidentimiz "xususiy mulkning huquq va himoyasini mustahkamlashimiz, har qaysi xususiy mulkdor qonuniy yo'l bilan qo'lga kiritgan yoki yaratgan o'z mulkining daxlsizligiga aslo shubha qilmasligini taminlaydigan ishonchli kafolatlar tizimini yaratishimiz zarur"<sup>32</sup>, – deb e'tirof etganlar.

Iqtisodiy hayotda vujudga kelgan yangi munosabatlarni huquqiy tartibga solishda fuqarolik huquqining boshqa instituti kabi "muddatlar va da'vo muddati" instituti ham muhim ahamiyatga ega. Aynan muddatlar orqali fuqarolik huquqida "aniqlik", "vaqt", "majburiyatlarni lozim darajada bajarish", "sub'ektlarning o'z huquqlariga e'tiborli bo'lishlari", "xatti-harakatlarni bajarishda kechikmaslik" holatlari e'tiborga ega bo'ladi va har bir sodir bo'layotgan fuqarolik-huquqiy munosabat uchun zaruriy shartlardan biri sanaladi. Shu bilan birga, muddatlar sub'ekt va ob'ektning o'zaro bog'liqligida muhim o'ringa ega bo'lib, shaxsning ob'ektga nisbatan huquqlari va majburiyatları amal qilishining eng "ko'p" va "kam" vaqtini belgilab beradi. Shu sababli da'vo muddatini o'zlashtirish orqali fuqarolik huquq va burchlarini vujudga kelishi, o'zgarishi, bekor bo'lishi hamda himoya qilinishi bilan bog'liq muddatlar haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'linadi.

Sub'ektiv fuqarolik huquqlarini amalga oshirish va majburiyatlarni bajarish muddatları mulkiy va shaxsiy-nomulkiy munosabatlarning alohida turlarini tartibga soluvchi tegishli huquq me'yorlari bilan belgilanadi. Xuddi shunday me'yorlar bilan ba'zan sub'ektiv fuqarolik huquqlari buzilganda amalga oshiriladigan himoya choralar qo'llanilishi mumkin bo'lgan muddatlar ham aniqlanadi. Bunday muddatlar fuqarolik huquqida da'vo muddatlari deb yuritiladi. Umumiy qoidaga ko'ra, fuqarolik huquqlarini himoya qilish muddatlarining bir turi hisoblangan da'vo muddatining asosiy va to'liq holati uning barcha fuqarolik huquqiy munosabatlarda qo'llanilishi bilan ifodalanadi.

Da'vo muddati deb, shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo qo'zg'atish yo'li bilan himoya qilishi mumkin bo'ladigan muddatga aytildi.

<sup>32</sup> Karimov I.A. "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi". 2010 yil 12 noyabr. Manba: "NORMA" Axborot huquqiy tizimi. <http://www.norma.uz>.

Har qanday fuqarolik da'vosining ikki tomoni bor:

Birinchidan, moddiy-huquqiy tomoni – bunda, avvalo, da'vogarning javobgarga nisbatan muayyan nizoli moddiy-huquqiy talabi bo'lishi. masalan, biror-bir ashyoning topshirilishi, pul to'lanishi, xizmat ko'rsatilishi, zararning qoplanishi xususida talab qilinadi.

Ikkinchidan, protsessual huquqiy tomoni – bunda taraflar o'tasida kelib chiqqan nizoning mazmunan hal qilinishi va buzilgan yoki nizoli huquqning qo'riqlanishi to'g'risida sudga iltimos bilan murojaat qilinadi<sup>33</sup>.

Professor Sh. Sh. Shoraxmetov o'z asarida protsessual muddatlar deb, fuqarolik ishlarini sudda ko'rish va hal qilish uchun qonun bilan belgilangan yoki sud tomonidan tayinlangan muddatlarga aytishini ta'kidlaydi.<sup>34</sup>

E. Egamberdiev esa protsessual muddatlarga quyidagicha ta'rif beradi: protsessual muddatlar - bu bajariladigan yoki bajarilishi kerak bo'lgan protsessual harakatlar ijrosi uchun qonun bilan belgilangan yoki sud idorasi tomonidan belgilangan vaqt.<sup>35</sup> Ko'rinish turibdiki, protsessual muddatlarga ta'rif berish borasida mamlakatimiz huquqshunos olimlari tomonidan bildirilgan fikrlar deyarli bir xil. Hatto MDHga a'zo davlatlarda yashab ijod qilayotgan protsessualist olimlar ham bu borada bir-biridan jiddiy farq qiladigan fikrlarni bildirmaydilar. Masalan, A. A. Vlasovning fikricha, protsessual muddatlar deganda, protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun qonun bilan belgilangan yoki sud tomonidan tayinlanadigan vaqtning bo'lagi tushuniladi.<sup>36</sup>

Ta'kidlash kerakki, "muddat" atamasi moddiy-huquq (fuqarolik, oila, mehnat, uy-joy va h. k.) sohasida keng qo'llaniladi. Shuning uchun protsessual muddatlarning o'ziga xos jihatlarini aniqlash va ularni ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Birinchi farq. Protsessual muddatlarning asosiy o'ziga xos jihat shundan iboratki, mazkur muddatlar aynan protsessual harakatlarni amalga oshirish vaktini belgilaydi. Protsessual muddatlar nizoli moddiy-huquqiy munosabatga ta'sir ko'rsatmaydi. Protsessual muddatlarning da'vo muddatidan ham farqini aniqlab olish lozim. Mamlakatimiz

<sup>33</sup> Shoraxmetov Sh. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi Darslik – Toshkent: Adolat, 2001.-B.151

<sup>34</sup> Shoraxmetov Sh. Sh.O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi Darslik – Toshkent: Adolat, 2001. -120.

<sup>35</sup> Egamberdiev E. Fuqarolik ishini yuritishda protsessual muddatlar //Hayot va qonun -1999. - № 1 -B.32.

<sup>36</sup> Vlasov A.A. Grajdanskoe protsessualnoe pravo. Verxovnyy sud Rossiyskoy Federatsii. Vnisschiy Arbitrajnyy sud Rossiyskoy Federatsii, Rossiyskaya Akademiya pravosudiya Uchebnik - Moskva: 2003. -79 s.

qonunchiligiga ko'ra, da'vo muddatining o'tishi moddiy huquqning tugatilishiga olib kelmaydi va shaxsning sud orqali himoyalanish huquqidan mahrum etmaydi. Masalan, Fuqarolik kodeksining 153-moddasiga ko'ra, buzilgan huquqni himoya qilish talabi da'vo muddatining o'tganligidan qat'i nazar sudda ko'rib chiqish uchun qabul qilinadi. Da'vo muddati - shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo qo'zg'atish yo'li bilan himoya qilishi mumkin bo'lgan muddatdir.<sup>37</sup>

Lekin shunday bo'lsa-da, qo'llanish to'g'risida nizodagi taraf bayon qilgan da'vo muddatining o'tishi sudning da'voni rad etish haqida qaror chiqarishi uchun asos bo'ladi (FKning 153-moddasasi uchinchi qismi). Mazkur normaning mavjudligi o'z navbatida, da'vo muddatini protsessual muddatlar toifasiga kiritishga asos bo'ladimi, degan savolni yuzaga keltiradi. Bizningcha, yo'q. Chunki da'vo muddati mazkur holatda sud uchun qandaydir muayyan bir vaqtning o'tishini yoki protsessual harakatlarni amalga oshirish vaqtini belgilamaydi. Da'vo muddati mazkur holatda sud tomonidan da'vo talabini rad etish haqida hal qiluv qarori chiqarish uchungina asos bo'ladi xolos. Bu esa da'vo muddatining da'vo talablarini qanoatlantirishni rad etishga asos bo'ladigan javobgarning boshqa moddiy-huquqiy e'tirozlaridan deyarli farq qilmasligini ko'rsatadi.

Ikkinci farqi. Protsessual muddatlar qonun bilan belgilanadi yoki sud tomonidan tayinlanadi (FPKning 126-moddasi). Ishda ishtirok etuvchi shaxslar ham, shuningdek odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar ham o'z kelishuvlari orqali protsessual muddatlarni o'zgartirish huquqiga ega bo'lmaydilar<sup>38</sup>.

FKning 10-moddasida ko'rsatilganidek, fuqarolik huquqlari protsessual qonunlar va shartnomada belgilab qo'yilganidek, ishlar qaysi sudga taalluqli bo'lishiga qarab, sud, xo'jalik sudi yoki xolislar sudi tomonidan himoya qilinadi. Binobarin, huquqlari buzilgan shaxs (fuqaro yoki tashkilot)lar yuqorida ko'rsatilgan sud, xo'jalik sudi yoki xolislar sudiga da'vo arizasi berib, buzilgan huquqlarini himoya qilinishi to'g'risida da'vo qo'zg'atishlari mumkin.

Da'vo muddati sub'ektiv huquq va majburiyatlarini himoya etishi uchun shaxsga beriladigan so'nggi imkoniyat. Bu vaqt oralig'ida shaxs o'z huquqlarining amalga oshirilishini talab qilmasa, ularni yo'qotadi<sup>39</sup>.

<sup>37</sup> O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. -Toshkent: Adolat, 2008.

<sup>38</sup> Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik protsessual huquqi. (Umumiy qism). Darslik. -Toshkent: TDYul nashriyoti, 2010. -B. 218.

<sup>39</sup> Imomov N. Da'vo muddati instituti // Hayot va qonun, 2004, №1 -B. 23-24.

Buzilgan huquqni himoya qilish talabi da'vo muddatining o'tganligidan qat'i nazar, sudda ko'rib chiqish uchun qabul qilinadi (FK, 153-modda).

Agar da'vo arizasi qonun bilan belgilangan muddat davomida berilgan bo'lsa, sud, xo'jalik sudi yoki xolislar sudi tomoni da'vo ishini ko'rib, ishning mazmuni bo'yicha da'voni qondirish yoki qondirmaslik to'g'risida qaror chiqaradi. Agar da'vo arizasi qonun bilan belgilangan muddatni o'tkazib berilgan bo'lsa, sud, xo'jalik sudi, yoki xolislar sudi muddatning o'tkazilish sababini muhokama qiladi, agar da'vo muddati uzsiz sabablar bilan o'tkazilganligi aniqlansa, o'tkazilgan muddat tiklanishi va ishning mazmuni bo'yicha qaror chiqarilishi mumkin.

Mulkiy munosabatlarni tartibga solishda da'vo muddatlari qonun bilan belgilanishi muhim ahamiyatga ega. Da'vo muddatining belgilanishi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni mustahkamlashga, qarzning undirilishi, majburiyatning bajarilishi to'g'risidagi talablar o'z vaqtida bajarilishini ta'minlashga, tashkilotlar o'rtasidagi hisob-kitoblar qilinishini tezlatishga, shartnomalar va moliya intizomiga rioya etilishini ta'minlashga, xo'jalik hisobini mustahkamlashga yordam beradi. Da'vo muddatlarining belgilanishi fuqarolar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni mustahkamlash uchun ham katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, da'voni belgilangan muddatda to'g'ri hal qilish uchun fuqarolik ishi yuzasidan dalillar to'plash va ularni chuqur tekshirish lozim. Ammo nizoli huquqiy munosabat vujudga kelgan paytdan boshlab, uzoq muddat o'tgan bo'lsa, dalillarni to'plash ancha qiyinlashadi. Chunki ishning sudda ko'riliishi vaqtida ba'zi guvohlarning bo'lmasligi (ko'chib ketgan, vafot etgan bo'lishi), ba'zilari esa bo'lган voqealarni, faktlarni unutgan bo'lishlari yoki bu faktlarni buzib tasvirlashlari, ish to'g'ri hal qilinishi uchun zarur harajatlar yo'qotilgan bo'lishi mumkin va hokazo. Agar da'vo muddati qonun bilan belgilanmagan bo'lsa, bitim tuzgan yoki birovning biror-bir huquqini buzgan shaxs doimo uzoq vaqt davomida, o'ziga nisbatan boshqa shaxs tomonidan da'vo qilinishi xavfi ostida bo'lar edi.

Xulosa qilib aystsak, da'vo muddatlarining belgilanishi tashkilot va fuqarolarning huquq va manfaatlarini qo'riqlashga, fuqarolik-huquqiy munosabatlarni mustahkamlashga katta yordam beradi.

Shu no'qtai nazardan fuqarolik huquqida da'vo muddatlarini o'rganish alohida ahamiyat kasb etdi va quyidagi xulosalarni vujudga kelishiga asos bo'ldi:

- Mulkiy munosabatlarni tartibga solishda da'vo muddatlari qonun bilan belgilanishi muhim ahamiyatga ega. Da'vo muddatining

belgilanishi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni mustahkamlashga, qarzning undirilishi, majburiyatning bajarilishi to‘g‘risidagi talablar o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlashga, tashkilotlar o‘rtasidagi hisob-kitoblar qilinishini tezlatishga, shartnoma va moliya intizomiga rioya etilishini ta‘minlashga, xo‘jalik hisobini mustahkamlashga yordam beradi. Da‘vo muddatlarining belgilanishi fuqarolar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni mustahkamlash uchun ham katta ahamiyatga ega.

Ma’lumki, da‘voni belgilangan muddatda to‘g‘ri hal qilish uchun fuqarolik ishi yuzasidan dalillar to‘plash va ularni chuqur tekshirish lozim. Ammo nizoli huquqiy munosabat vujudga kelgan paytdan boshlab, uzoq muddat o‘tgan bo‘lsa, dalillarni to‘plash ancha qiyinlashadi. Chunki ishning sudda ko‘rilishi vaqtida ba‘zi guvohlarning bo‘lmasligi (ko‘chib ketgan, vafot etgan bo‘lishi), ba‘zilari esa bo‘lgan voqealarni, faktlarni unutgan bo‘lishlari yoki bu faktlarni buzib tasvirlashlari, ish to‘g‘ri hal qilinishi uchun zarur harajatlar yo‘qotilgan bo‘lishi mumkin va hokazo. Agar da‘vo muddati qonun bilan belgilanmagan bo‘lsa, bitim tuzgan yoki birovning biror-bir huquqini buzgan shaxs doimo uzoq vaqt davomida, o‘ziga nisbatan boshqa shaxs tomonidan da‘vo qilinishi xavfi ostida bo‘lar edi.

Xulosa qilib aystsak, da‘vo muddatlarining belgilanishi tashkilot va fuqarolarning huquq va manfaatlarini qo‘riqlashga, fuqarolik-huquqiy munosabatlarni mustahkamlashga katta yordam beradi;

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksida umumiy da‘vo muddatiga qaraganda uzaytirilgan da‘vo muddatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilmagan. Ba‘zi davlatlar fuqarolik qonunchiligidagi masalan, Rossiya Federatsiyasi Grajdaniq kodexsining 181-moddasi bitim haqiqiy emas deb topilganda, uning oqibatlari yuzasidan o‘n yil muddatgacha da‘vo qilish mumkinligini nazarda tutadi. Bizning qonunchiligidizda ham shunday qoida lar aks ettirilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi;

- FKning 163-moddasida da‘vo muddati qilinmaydigan talablar doirasi aniq chegaralab qo‘yilmagan bo‘lib, u kengayishi mumkin. Shu sababli boshqa qonun hujjatlarida belgilangan normalar bilan ham bunday talablar doirasi kengayishi mumkin. Bundan tashqari ayrim ilmiy adabiyotlarda tsivilistlar da‘vo muddati joriy qilinmaydigan talablar doirasi bilan bog‘liq ayrim o‘z fikr-mulohazalarini ham bildirishmoqda. Masalan, yuqoridaq holatlardan tashqari da‘vo muddati joriy qilinmaydigan talablar qatoriga mehnatga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma‘naviy zararni undirish haqidagi

talablarni kiritishni taklif etilmoqda<sup>10</sup>). Jamiyat rivojlangani sari bu kabi fikrlar ham kengayib boradi va ular keyinchalik qonunchilikka kiritilish orqali da'vo muddati joriy qilinmaydigan talablar doirasining kengayishiga olib keladi.

## O'zbekiston Respublikasida lizing munosabatlari huquqiy tartibga solinishi

*Yuldasheva To'tixon Yakubovna*

*Andijon qishloq ho'jalik instituti Gumanitar fanlar kafedrasи assistenti*

Yurtimizda o'tgan yillar davomida bozor iqtisodiyoti sohasida ishchil qonunchilik bazasini shakllantirish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Bularning barchasini etirof etgan holda, mavjud qonunlarimizning ko'pchiligini ularni qo'llash amaliyoti va mamlakatimizda bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi davrdagi yangi real holatidan kelib chiqib, jiddiy qayta ko'rib chiqish zarur.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashning ishchil tayanchi bo'lган mulkdorlar sinfini, ya'ni o'rta sinfn shakllantirishdagi ulkan ahamiyatini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi. Avvalo shuki, xorijiy mamlakatlarda lizing taraqqiyotining muvaffaqiyatl tajribasi o'tkazilgan bo'lib, u yerda lizing shartnomasi iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim richagi bo'lib qoldi. O'zbekiston Respublikasi uchun lizing faoliyati yangidir. Davlat lizing mexanizmlarini ishga solar ekan, shu yo'l bilan korxonalar o'rtasidagi aloqalarni tiklashni, ishlab chiqarishning asosiy sohalarida maxsulotlarini sotish muammolarini xal qilish mumkin. Kichik tadbirkorlikni jadal rivojlantirish va uning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi ham bunday munosabatlari tartibga solib turuvchi qonunlar majmui mavjudligini nazarda tutadi.

Bu yerda avvalo shuni ta'kidlab o'tish lozimki. O'zbekistonda to 90-yillarga qadar lizing to'g'risida maxsus qonunlar majmui yuq edi. 90-yillarning boshlarida mamlakatda lizing faoliyati biron bir normativ va qonun hujjatlarisiz ijara o'xshash bir tarzda yo'lga qo'yildi. Ya'ni, lizing munosabatlari va taraflar o'rtaida tuziladigan lizing shartnomalarini huquqiy tartibga solish faqat 1991-yil 19 noyabrda qabul qilingan «Ijara to'g'risida»gi qonun asosida tartibga solinar edi. Biroq,

<sup>10</sup> Mamasiddiqov M.M. Mehnatga oid nizoli ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari O'quv qo'llanma - Toshkent: TDYul, 2004. -42 b

ushbu qonunda lizing shartnomasi haqida biron ta bir holat nazarda tutilmagan edi.<sup>19</sup>

Shu o'rinda, O'zbekistonda lizing munosabatlari huquqiy tartibga solish maqsadida 1994-yilning 5-mayida «Chet el investitsiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida»gi Oliy Majlisning qonuni qabul qilindi. Keyinchalik bu faoliyatni tartibga solish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1997-yil 7-fevral 670-sonli «Kichik va o'rtal tadbirkorlikni rivojlantirish uchun chet el kreditlarini berishni tashkil qilish masalalari to'g'risida»gi qarori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Boshqaruvining 1997-yil 29-mart 11-sonli protokoli bilan tasdiqlangan 327-sonli «O'zbekiston Respublikasi Banklari tomonidan lizing operatsiyalarini o'tkazish tartibi to'g'risida» Nizom qabul qilindi.

Aytish joizki, bu hujjatlar mamlakatimizda lizingni huquqiy tartibga solish jarayonidagi dastlabki qadam bo'ldi. Xususan, Nizomda lizing shartnomasi tushunchasi, uning ob'ektlari, lizing munosabatlariga ta'rif berilgan. Shu bilan bir qatorda, lizing shartnomasiga nisbatan qo'viladigan talablar- «shartnomaning muhim belgilari» Nizomda to'la bo'lmasada o'z ifodasini topganligini ham inkor etib bo'lmaydi. Nizomda lizing beruvchi sifatida banklarning, lizing oluvchining lizing predmeti bo'yicha huquq va majburiyatlar, xususan mol-mulkni sotib olish shartlari ko'rsatilgan. Biroq, lizing oluvchining bankrotlik holatlarida lizing predmetining taqdiri, taraflarning javobgarligi, lizing oluvchi bilan sotuvchi o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy tabiat, shartnoma majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatlari, sublizing (qo'shimcha lizing) xususida aniq me'yorlar o'z aksini topmadi. Albatta, bunday huquqiy aktda lizingni to'liq huquqiy tartibga solish mumkin emas. Shuning uchun, O'zbekiston Respublikasi FKsining qabul qilinishi va unda lizing munosabatlarini, xususan lizing shartnomasining tartibga solinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Lizing shartnomasi mulk ijarasi tarkibiga kiritilganligi bois O'zbekiston Respublikasi FKda belgilangan lizing to'g'risidagi qoidalar (587-599-moddalar) bilan bir qatorda, FKning 34-bobida nazarda tutilgan va ijaraning barcha turlari uchun taalluqli bo'lgan umumiy qoidalar asosida tartibga solinadi. Lizing shartnomasiga berilgan ta'rif va uni tartibga soluvchi ushbu qoidalar «Xalqaro lizing to'g'risida»gi Ottava Konvensiyasi (1988-yil) qoidalariga asoslangan bo'lib, 1999-yil

<sup>19</sup> Boboqulov, S. Lizing shartnomasini huquqiy tartibga solishning ba'zi bir jixatlari. Davlat va huquq 2001.-№4(8).- 24-bet.

14 aprelda qabul qilingan «Lizing to‘g‘risida»gi qonunida o‘z aksini topdi. Ushbu qonun O‘zbekiston Respublikasi FKsini mazmunan boyitdi va rivojlantirdi.

Xalqaro amaliyotda, odatda ko‘proq moliya lizingi nomini olgan uzoq muddatli (7-10 yilgacha) lizing shartnomalari tuziladi. Ayrim turdag'i ashyolarni ijaraga olishda esa, qisqa muddatli lizing shartnomasi ham o‘zining amaliy ahamiyatini saqlab kelmoqda.<sup>23</sup>

Lizing operatsiyalarini amalga oshirishda buxgalterlik hisobkitoblarini huquqiy tartibga solishda, «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni,<sup>24</sup> O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 1998-yil 23-sentyabrda 491-son bilan ro‘yxatga olingan «Asosiy vositalar», 5-son BHMS va O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 1998-yil 16-oktyabrda 503-son bilan ro‘yxatga olingan «Lizing hisobi» 6-son BHMS, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998-yil 6-maydagi 194-qarori bilan tasdiqlangan «Lizing operatsiyalarini buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettirish to‘g‘risida»gi Nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2001-yil 5-aprelda 1023-son bilan ro‘yxatga olingan «Asosiy vositalarni balansdan hisobdan chiqarish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga muvofiq aks ettiriladi. Lekin, moliyaviy lizingda lizing oluvchi balansida, operativ lizingda esa lizing beruvchi balansida hisobga olinishi «Lizing to‘g‘risida»gi qonunning 7-moddasasi 1 va 2-qismlarida belgilab qo‘ylgan. Biroq, bu o‘rinda shuni ta‘kidlash lozimki, fikrimizcha Qonundagi ushbu normaga xojat yo‘q. Chunki, lizing predmeti (ob‘ekti)ni balansga qo‘yish, lizing turiga emas, balki lizing predmetini kim amortizatsiya qilishiga bog‘liq.

Vazirlar Maxkamasining 2000-yil 2-noyabr «Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo‘jaligi texnikasi bilan ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi hamda Vazirlar Maxkamasining 2000-yil 2-noyabrdagi «O‘zqishloqxo‘jalikmash-xolding kompaniyasi korxonalari tomonidan ishdab chiqarilgan qishloq xo‘jalik texnikasini lizingga berish tartibi to‘g‘risida»gi qarori ham sohaviy lizing munosabatlарini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2000-yil 26-maydagi O‘zbekiston Respublikasining «Xalqaro Moliyaviy ijara (lizing) to‘g‘risida»gi Xususiy huquqni bir xillashtirish bo‘yicha BMT Xalqaro institutining (UNIDRUA) Konvensiyasiga qo‘shilish haqidagi qarori

<sup>23</sup> Ro‘ziev, R. Lizing shartnomasi.-Toshkent: Fan, 2002.-B.18.

<sup>24</sup> O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 1996.-№ 9.-142-modda.

ham ushbu Konventsiyani lizing munosabatlarini huquqiy tartibga solishda muhim o'rinni egallashini tasdiqlaydi.

Yuqoridagilardan tashqari, «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 1999-yil 27-iyul 782-son bilan ro'yxatga olingan «Import bojxona to'lovlарini hisoblash va undirish tartibi to'g'risida»gi Nizom, O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 1999-yil 15-oktyabr 832-son bilan ro'yxatga olingan «O'zbekiston Respublikasi Bojxona organlarida kontraktlar (shartnomalar) va bitimlarni hisobga qo'yish tartibi to'g'risida»gi Nizom, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 31-yanvarda qabul qilingan «Kichik va o'rta tadbirdorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi 1702-sonli Farmoni ham lizing munosabatlarini xalqaro va milliy miqvosda tartibga solinishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda lizing faoliyatini rag'batlantirish siyosati olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Lizing tizimini rivojlanishini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2002-yil 1-sentyabrdagi Farmoniga muvofiq, lizing faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlari. O'zbekiston Respublikasi FK, «Lizing to'g'risida»gi Qonun, «O'zbekiston Respublikasi Soliq va boj to'lovlari to'g'risida»gi qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish borasida amalga oshirilgan ishlar ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Qonun hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar lizing faoliyatini investitsiya faoliyatini bir turi sifatida ta'riflaydiki, bu uning kapital sarmoyalarini asosiy vositalarga moliyalash usullaridan biri sifatida iqtisodiy mohiyatini yanada to'g'riq aks ettiradi.

## **Intellektual mulk ob'ektlari tizimida selektsiya yutuqlarining ixtirolardan farqli va o'xshash jihatlar**

*Akayeva Marapat Abduxaliquovna*

*Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasi katta o'qituvchisi  
yu. f. n.*

Yangi asrimizda axborot texnologiyalaridan, intellektual mulk ob'ektlaridan foydalanish tobora keng tus olmoqda. Bu borada mamlakatimizda ko'pgina ijobjiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mazkur 2005-yilda O'zbekiston Respublikasi Bern Konventsiyasini ratifikatsiya qilganligi ham muhim holatdir. Shu ma'noda, intellektual

mulk ob'ektlarini huquqiy tartibga solish. o'rganish dolzarb ahamiyatga ega. Ma'lumki, intellektual faoliyat eng tez rivojlanib borayotgan dinamik jarayon hisoblanadi. Yuksak sur'atlar bilan davom etayotgan bu jarayon natijasida intellektual faoliyatining yangi mahsullari vujudga kelmoqda. Shu jihatdan yurtimizda intellektual faoliyat sohasida juda katta imkoniyatlar yaratilib berilmoqda. Bu borada Prezidentimiz I. A. Karimov "Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talablariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz" – deb fikr bildirganlar.

Intellektual faoliyat natijalaridan biri selektsiya yutuqlari hisoblanadi. Selektsiya yutuqlari o'z mohiyatiga ko'ra faqat, tirik borliq ustida olib borilgan ilmiy-ijodiy faoliyat mahsuli sifatida ko'rilar ekan, bunda yaratilgan ob'ektlarning inson ehtiyojlari uchun nihoyatda zarur ekanligini esdan chiqarmaslik zarur.

Huquqiy jihatdan selektsiya yutuqlarining mohiyati yaratilgan yangi nav va zotning huquqiy maqomini belgilash orqali ifodalansa, hayotiy zaruriyat nuqtai nazaridan selektsiya yutuqlari aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirish va iqtisodiy samaradorlikni ko'tarish mezonlari bilan belgilanadi.

Selektsiya yutuqlarini ixtiolar bilan quyidagi o'xshashliklari mavjud:

- selektsiya yutuqlari ham ixtiolar ham intellektual mulkning patent bilan muhofaza qilinadigan ob'ektlaridir;

- jonli borliq qonuniyatlarini bilish insonga hayvonlar va o'simliklar rivojlanishini o'zi uchun kerakli tomonga yo'naltira olishida maqsadli ta'sir etish imkonini beradi. Shu ma'noda selektsionerning ijodiy faoliyati ixtirochining ijodiy faoliyatiga juda o'xshaydi. Ixtirochi singari selektsioner ham ob'ektning o'zgarish jarayoniga faol aralashadi va uni oldindan rejalashtirilgan natijaga erishish maqsadida kerakli tomonga yo'naltiradi;

- selektsiya yutug'i muallifi faoliyatining natijasi inson uchun zaruriy sifatlarga ega bo'lgan o'simliklarni yangi navlari va hayvonlarning yangi zotlarini yaratishga qaratilgan aniq amaliy masalani yechishdan iborat. Masalaning oddiy qo'yilishi, garchi unda ijodiylik mavjud bo'lsa-da, qonun bilan qo'riqlanmaydi. Bunda nafaqat qaysi nav va zotni yaratish ko'zda tutilishi ko'rsatilishi, balki yangi nav (zot)ni real

yaratish va uni qonunda nazarda tutilgan tartibda tekshirish uchun butun selektsiya jarayonini oxiriga yetkazish lozim.

Selektsiya yantuqlari aniq amaliy masalani yechimi sifatida ixtiro bilan bir xildir. Chunki, ixtiro ham selektsiya yantuqlari singari amaliy xarakterdagи masalalarni yechish orqali yaratiladi. Selektsiya yantuqlariga bo‘lgan huquqlarni rasmiylashtirish tartibi o‘zining asosiy xususiyatlari ko‘ra, ixtiolar, foydali modellar, sanoat namunalari kabi bo‘lib, maxsus davlat ro‘yxatidan o‘tkazish talab etiladi va bunday rasmiylashtirish bitta organ-O‘zbekiston Respublikasi Davlat Patent idorasi tomonidan amalga oshiriladi.

Selektsiya yantuqlari o‘zining huquqiy tartibga solinishiga ko‘ra ixtirolardan quyidagi xususiyatlari bo‘yicha farq qiladi:

- jonsiz tabiat ob’ektlari ustidan ish olib boruvchi ixtirochidan farq qilib selektsiya yutug‘i muallifi jonli tabiat ob’ektlari ustida ish olib boradi;

- ixtiro, foydali model, sanoat namunalaridan farqli ravishda, selektsiya yantuqlarini yaratish va butun selektsiya jarayonini oxiriga yetkazish nafaqat selektsiya yutug‘i muallifiga, balki tabiiy iqlim sharoitlariga ham bog‘liq bo‘ladi. Ya’ni, selektsiya ishlariga iqlimning o‘zgarishi salbiy ta’sir ko‘rsatishi va ko‘zlangan natijaga erishishning imkonи bo‘imasligi mumkin;

- selektsiya yantuqlarini jamoatchilik tomonidan e’tirof etilishi va tan olinishi ham o‘ziga xos holat bo‘lib, nafaqat sanoat mulk ob’ektlari (ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari) balki, intellektual mulkning boshqa ob’ektlaridan ham farq qiladi. Masalan, yaratilgan ixtironing e’tirof etilish yoki tan olinishi uchun uni sinovdan o‘tkazish va foydali xususiyatlarini tekshirishning o‘zi kifoya qilsa, selektsiya yantuqlarini tan olinishi va e’tirof etilishi uchun uzoq vaqt va jiddiy tekshiruv takroriy nazorat etish va tinimsiz parvarish talab etiladi. Ixtiro yaratilgandan so‘ng, uning buzilishiga ta’sir etuvchi kuchlar deyarli bo‘lmasa (ixtiro nobud bo‘lsa, chizmalar orqali uni tiklash mumkin), selektsiya yantuqlarining uzoq vaqt sinab ko‘rilishi ularni e’tirof etish - nihoyatda murakkab jarayon ekanligini bildiradi.

- selektsiya yutug‘ida ob’ektning ideal asosi va uning moddiy mujassami uzviy bog‘liq bo‘ladi. Moddiy mujassamning to‘la hajmda nobud bo‘lishi selektsiya yutug‘ini ham ob’ekt sifatida nobud qiladi. Ixtiro esa o‘zining moddiy mujassamidan alohida holda yashaydi.

Ixtiro, foydali model, sanoat namunasida texnik muammoning yechimi yaratilsa, selektsiya yantuqlarida esa biologik muammoning

vechimi topiladi. Shu o'rinda istisno sifatida mikroorganizm shtamlari biotexnik ob'ekt bo'lib, ixtiro hisoblanadi.

Huquqiy himoyaga layoqatlilik shartlariga ko'ra, ixtiro va selektsiya yutuqlari bir-biridan tubdan farq qiladi. Ixtiro quyidagi shartlar mavjud bo'lsa, patent orqali muhofaza etiladi:

- yangilik;

- ixtirochilik darajasiga ega bo'lishlik;

- amaliyotda qo'llash mumkinligi (Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risidagi qonunning 5-moddasi).

Selektsiya yutuqlari esa:

- yangilik;

- farqlanish;

- turdoshlik;

- barqarorlik (Selektsiya yutuqlari to'g'risidagi qonunning 7-moddasi) mezonlariga javob bersa huquqiy muhofaza etiladi.

Ko'rinish turibdi ki, huquqiy muhofaza etish shartlariga ko'ra, bu ikki ob'ekt bir-biridan butunlay farq qiladi.

Huquqiy tartibga solinishi bo'yicha o'ziga xos xususiyatlar selektsiya yutuqlarini intellektual mulkning boshqa ob'ektlaridan farqli ravishda tirik borliq ustida olib boriladigan ilmiy-ijodiy faoliyat mahsuli ekanligi bilan tavsiflanadi.

## **Huquq tizimi**

**J. Umarov**

*Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasi katta  
o'qituvchisi*

Huquq tizimi jamiyatda mavjud bo'lgan va doimo rivojlanish jarayonini boshidan kechirayotgan ijtimoiy munosabatlarning ifodasi bo'lib, u huquqning ichki tuzilishini, unda huquq normalarining ham umumlanish, xam farqlanish xususiyatlarini ko'rsatadi. Huquq tizimiga tizimli-tuzilmaviy yondashuv uning ichki tuzilmasida huquq normalarining ma'lum tarzda tartibli joylashganligini ko'rsatadi. Huquq tizimida joylashgan normalarning tartibga solinganligi, o'zaro muvofiqligi va aloqadorligi hamda ayni paytda farqlanishi ijtimoiy munosabatlarning ham xuddi shunday tuzilmaviy xarakteri va ularni huquqiy tartibga solishning bog'likligi bilan belgilanadi.

Huquq tizimliligi bir necha darajalarni o'z ichiga oladi. Ulardan birinchisi o'z ichki aloqalariga ega bo'lgan huquq normasidir. Shu aloqadorlik sababli u konkret huquqiy munosabatlarni tartibga soladi.

Shu bilan bir katorda, aynan bir munosabat bir necha normalar bilan tartibga solinadi va bu ularni huquq tizimliligining ikkinchi darajasi hisoblangan huquq institutiga birlashtirishga asos bo'jadi va bu huquq normasining tashqi aloqalari natijasi sifatida vujudga keladi. Uchinchi, huquq tizimliligining ancha yuqori darajasi bo'lib, huquqning tarmoqlarga bo'linishi hisoblanadi.

Huquq normasi huquq tizimining birlamchi unsuri bo'lib, u davlat tomonidan o'rnatiladigan hokimiyat xarakteriga ega bo'lgan xattiharakat qoidasidir. Huquq normasi huquq tuzilmasi ichida birinchi bo'lib, yaxlit huquqda bo'ladigan o'zgarishlarni o'zidan o'tkazadi.

Huquq tizimi o'zaro mustahkam aloqada bo'lgan huquqiy elementlar yig'indisidir.

Huquq tizimi - bu jamiyatdagi mayjud huquq normalarining bir butun voqelik sifatida harakatlanishi, huquq normalari va sohalarini muayyan izchillikda o'zaro uzviy aloqadorlikda joylanishidir.

Yuridik fanda huquq tizimi quyidagi qismlardan:

- huquq normasi;
- huquq instituti;
- huquq sohalaridan iborat.

**Huquq normasi** - bu huquq tizimining eng asosiy, dastlabki elementidir. Huquqiy normalar jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tuzilishi bilan belgilanadigan, xalq irodasini ifodalovchi davlat tomonidan o'rnatilgan, bajarilishi jamiyatning barcha a'zolari uchun umummajburiy bo'lgan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalardir.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining har bir moddasi huquqiy norma bo'lib, bu huquq normasi barcha davlat organlari, jamoat tashkilotlari, mansabdar shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir. Huquq normasi doimiy qo'llaniladigan norma bo'lib, unda bajarish shartlari, sub'ektlar o'rtasidagi tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlari, taraflarning huquq va burchlari, bajarmaganlik uchun sanktsiya belgilanadi.

**Huquq institutlari** - bu o'zaro bog'langan, bir turdag'i ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar guruhidan iborat. Masalan, konstitutsiyaviy huquq sohasida Prezidentlik, fuqarolarning huquq va erkinliklari instituti, jinoyat huquqi sohasida - javobgarlik instituti, oila huquqida - nikoh instituti va boshqalar. Bu huquq institutlari huquq sohasining ichki tarkibiy qismidir. Huquq institutlari birlashib huquq sohasini tashkil etadi.

**Huquq sohasi** - bu o‘ziga xos ijtimoiy munosabatlarning muayyan olasini tartibga soluvchi maxsus huquq normalari va huquq institutlarining yig‘indisidir. Masalan, moliyaviy munosabatlar - moliya huquqi sohasi bilan, mehnat munosabatlari mehnat huquqi sohasi bilan tartibga solinadi.

Huquq sohasi huquq tizimining asosiy va mustaqil bo‘g‘inidir. Demak, huquq normalari yig‘indisidan huquq institutlari, huquq institutlari yig‘indisidan huquq sohalari va huquq sohalari yig‘indisidan huquq tizimi tashkil topadi.

O‘zbekiston Respublikasi huquq tizimi huquqning quyidagi asosiy olalarini o‘z ichiga oladi:

- Konstitutsiyaviy huquq;
- Fuqarolik huquqi;
- Ma’muriy huquq;
- Mehnat huquqi;
- Oila huquqi;
- Er huquqi;
- Agrar huquq;
- Ekologiya huquq;
- Moliya huquqi;
- Jinoyat huquqi;
- Fuqarolik-protsessual huquq;
- Jinoyat-protsessual huquq;
- Xalqaro huquq va boshqalar.

Huquq tarmog‘i - bir turdag‘i ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik normalar va huquq institutlarining alohida majmui. Huquq tarmog‘i huquqni tizimlashning ancha yuqori darajasi hisoblanadi va u ma’lum yaxlitlik va mustaqillik bilan tavsiflanadi. Ta’kidlash lozimki, ba’zi o‘quv-ilmiy adabiyotlarda huquq tizimining yuqorida ko‘rsa-tib o‘tilgan tuzilmaviy elementlaridan tashqari yana huquq tarmoqchasi (podotras) va subinstitutlar ham farqlanadi. Huquq tizimida tarmoqlarning ajralib chiqishiga asos bo‘lib, unga bo‘lgan ob’ektiv zarurat hisoblanadi, davlat esa bu zaruratni o‘z vaqtida anglab, uni rasmiylashtiradi xolos.

## **Parlament so‘rovi-jamiyat taraqqiyoti omili (Parlament nazorati)**

**Jahongir Homidov**

*Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi yo‘nalishi talabasi  
O. Chuboyeva, Huquqshunos*

Davlatimiz jahondagi 200 dan ortiq davlatlar ichida taraqqiyotning ilg‘or yo‘lini belgilab, jamiyatni isloh qilish, davlat boshqaruvini yangilash va modernizatsiya qilish uchun zarur omillarni vujudga keltirdi.

Davlatimiz rahbari tomonidan har bir ma‘ruzalarida, uchrashuvlarda, suhbatlarda barcha sohalarda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar belgilab berilmoqda.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruzalarida ham jamiyatimiz va davlatimiz taraqqiyotidagi erishgan yutuqlar va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, kelajakda amalga oshirishimiz lozim bo‘lgan vazifalar haqida gapirib o‘tdilar.

Davlatimizda hokimiyat bo‘linishi tamoyiliga amal qilishi hokimiyat barcha bo‘g‘inlarini bir-birini nazorat qilish asosida davlatimiz taraqqiy etishi kafolotidir. Oliy Majlis ikki palatali tartibda shakllantirilishi natijasida parlament nazorati kuchaytirilishi uchun muhim asoslar vujudga keldi.

Parlament nazorati ~~masalasi~~ dарhaqiqat hozirgi kunda jamiyat rivojlanuca munim masalalardan o‘ri bo‘lib, bu masala hozirda davlatshunos va huquqshunoslar tomonidan chuqur o‘rganishni talab etadi. «Oliy Majlis Senati Reglamenti to‘g‘risida<sup>41</sup>»gi qonunning YIII bo‘limi Senat tomonidan nazorat qilish sohasidagi vakolatlarning amalga oshirilishi hisoblanib, unda 31-modda Parlament so‘rovi, 32-modda Senat tomonidan nazorat qilish sohasidagi boshqa vakolatlarning amalga oshirilishi ekanligi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2-chaqiriq 14-sessiyasi materiallarini hayotga tatbiq etish bo‘yicha Oliy Majlis deputati, Oliy Majlisning sud-huquq-tartibot qo‘mitasi raisi Nuriddin Ismoilov Namangan Davlat universiteti professor-o‘qituvchilari va talabalari bilan bo‘lgan uchrashuvda dastlabki davrdagi deputat so‘rovi o‘z o‘rnini parlament so‘roviga bo‘shatib berganligi va mazmun ham shunga mutanosib ravishda o‘zgarganligini aytib o‘tgan edilar. Qonunga binoan Parlament Senat palatasi o‘zi tomonidan tayinlangan hukumat

<sup>41</sup> O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini Reglamenti to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2003 yil, № 9-10, 137-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini palatalarining Axborotnomasi, 2007 yil, № 4, 163-modda

mas'ullaridan reja asosida yil -12 oy qonun ijrosi uchun majlisda so'rov beradi. N. Ismoilov Oliy Majlis yig'ilishi orqali, Senat yig'ilishida Bosh vazir hisobot berishi yoki Markaziy bank boshlig'i hisob berishi so'rov natijasi sifatida qaralishini ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek yuqorida ta'kidlangan «Oliy Majlis Senati to'g'risida»gi qonunda Senat, shuningdek, senator davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabдор shaxslariga ularning vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki muqtaf nazarini bayon qilish talabi bilan parlament so'rovi yuborishga haqli.

Parlament so'roviga javobni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mansabдор shaxslari Senat majlislarida beradilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining raisi, Oliy xo'jalik Sudining raisi, Bosh prokurori, surishtiruv va tergov organlarining rahbarlari nomiga yo'llangan parlament so'rovi ularning ish yuritvidagi muayyan ishlari va materiallarga taalluqli bo'lishi mumkin emas.

Parlament so'rovlarini bo'yicha axborot Senat majlisida muxokama qilinishi mumkin. Senat muhokama yakunlari bo'yicha qaror qabul qiladi». Shuningdek Senat har yili o'z majlisida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakilining faoliyati to'g'risidagi hisobotni eshitadi. Hisob palatasining hisobotini mazkur masala yuzasidan Qonunchilik palatasining qarori Senatga kelib tushgandan sung eshitadi va muhokama qiladi.

O'zbekiston Respublikasi bosh prokurorining, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'miasi raisining, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi raisining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Senatga taqdim etgan har yilgi hisobotlari Senatning navbatdagi majlisida ko'rib chiqiladi.

Senatning qo'mitalari, shuningdek senatorlar davlat organlari va boshqaruvning boshqa tashkilotlaridan, mansabдор shaxslardan hujjatlar, ekspert xulosalari, statistika ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlarni talab qilib olishlari mumkin.

Senatning qo'mitalari yoki senatorlar talab qilib oladigan axborotni tepishli davlat organi, boshqa tashkilot, mansabдор shaxs murojaat olingan kundan e'tiboran o'n kundan e'tiboran kechiktirmay taqdim etishi kerak.

Senat qo'mitalarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari rahbarlarining ular tomonidan qonunlarga qanday rioxaya etilayotgani, palata qo'italarining qarorlari qanday bajarilayotgani to'g'risidagi axborotlarini eshitishi qo'mitalarning ish rejalariga asosan o'tkaziladi.

Prezidentimiz davlatimizning Oliy qonun chiqaruvchi organi Oliy Majlis faoliyatidagi amalga oshirilishi lozim bo‘lgan masalalar haqida gapirib o‘tdilar. Jumladan, parlament tomonidan qonunlar ijrosini amalga oshirishda tegishli harakatlar amalga oshirilmayotganligi masalasiga to‘xtalib o‘tdilar. Yo‘lboshchimiz bu borada shunday masalani ilgari surdilar, -“Parlament nazoratining parlament so‘rovi, parlamentda hisobotni eshitish va parlament faoliyatining qonunda ko‘zda tutilgan boshqa shakllaridan keng foydalanish lozim.

Parlament so‘rovida ko‘tarilgan masalalar bo‘yicha asoslangan izoh va har tomonlama tushuntirish berish davlat hokimiyyati va boshqaruv idoralari mansabdar shaxslarining bevosita vazifasi hisoblanadi.

Bu vazifaning bajarilishi bo‘yicha javobgarlik barcha bo‘g‘indagi davlat hokimiyyati idoralarining rahbarlari va prokuratura zimmasiga yuklatilishi kerak.<sup>42</sup>.

Shu bilan birga parlament nazorati davlat va jamiyat rivoji uchun amalga oshirilayotgan faoliyatbo‘yicha hisobot sanaladi. Shundan kelib chiqib, bajarilgan ishlar va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklardar xalqni boxarab etish lozim. Shu nuqtai nazardan davlatimiz rahbari quyidagicha ko‘rsatma berdilar, -“Ijro etuvchi hokimiyyat ustidan parlament nazoratini kuchaytirish vazifasini muvaffaqiyatlil hal etish ko‘p jihatdan ommaviy axborot vositalari, keng jamoatchilikning bu jarayondagi faol ishtirokiga bog‘liqdir.

Bu borada partiyalarning matbuot nashrlari oldida katta va masuliyatli vazifalar turibdi. Lekin, afsuski, bunday nashrlar hali-beri zaif bo‘lib, sodda qilib aytganda, "tish-tirnoqsiz" bo‘lib qolayotganini qayd etish lozim<sup>43</sup>.

Ommaviy axborot vositalariga erkinlikni ta’minlash bo‘yicha yaratilayotgan huquqiy asoslar mavjud. Islohotlar jarayonida jamiyatdagi alohida birlik sifatida xalqimizga tegishli tarzda targ‘ibotni amalga oshirishda matbuot o‘zligini ko‘rsatishi lozim.

Parlament xalqning ishongan vakillaridan tashkil topgan, davlatda xalq xohishini amalga oshiruvchi me’yorlarni yaratadigan organ ekan, ushbu organ tomonidan qabul qilangan me’yorlar ijrosi bo‘yicha deputatlarni saylagan xalqqa hisobot topshirilishi lozim. Bunda albatta matbuot muhim omil va uni oldidagi asosiy vazifa ham targ‘ibotni

<sup>42</sup> Karimov I. A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish - ustuvor maqsadimizdir. 2010 yil 27 yanvardagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi ma’ruza. Xalq so’zi. 2010 yil 28 yanvar soni

<sup>43</sup> Karimov I. A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish - ustuvor maqsadimizdir. 2010 yil 27 yanvardagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi ma’ruza. Xalq so’zi. 2010 yil 28 yanvar soni

amalga oshirishdan iborat. Prezidentimiz, bu borada tifkilarini shunday davom ettirganlar, - "Parlamentning mamlakatimizda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan demokratik yangilanishlar, liberal islohotlar targ'ibotchisiga aylanishiga erishish eng asosiy vazifa bo'lmog'i zarur.

Mazmun-mohiyatiga ko'ra, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlarni, biz tanlagan davlat va jamiyat qurilishi modelini tatbiq etish jarayonida fuqarolarning mamlaqat boshqaruvidagi rolini oshirib borishni asosiy o'ringa qo'yadigan "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha ishlarni yanada faollashtirish masalasini bugun hayotning o'zi kun tartibiga tobora qatiy qilib qo'ymoqda.

Bu amalda fuqarolik jamiyati institutlarining butun tizimini rivojlantirishni, uning mamlakatni, mamuriy-hududiy tuzilmalarni boshqarish jarayoniga uyg'un ravishda integratsiyalashuvini anglatadi".

Davlatimiz Rahbari parlament oldiga qo'ygan vazifalardan biri parlament nazoratini takomillashtirish hisoblandi, - "Konstitutsiyaviy islohotlar nuqtai nazaridan Oliy Majlis palatalari va eng avvalo, fraktsiyalarning davlat boshqaruvi organlari faoliyati ustidan parlament nazoratini amalga oshirish, qabul qilinayotgan qonunlar, muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy davlat dasturlarining ijrosini so'zsiz ta'minlash borasidagi faoliyati sifat jihatidan yangi asosda qurilishi lozim"<sup>44</sup>, -deb belgiladi I. Karimov.

Amaldagi qonunchiligidizda parlament nazoratining umumiy shakllari, sub'ektlari ko'rsatilgan bo'lsada, ularning funksiyalari, amalga oshirish mexanizmini aks ettiruvchi, parlament nazoratini muvofiqlashtiruvchi, boshqa sub'ektlar bilan munosabatlarini tartibga soluvchi yagona normativ huquqiy hujjat yo'q.

Shu bois, parlament nazorati faoliyatini to'laligicha qamrab oladigan "Parlament nazorati to'g'risida"gi Qonuning qabul qilinishi mamlakatimizda mazkur faoliyatning samaradorligini oshirish bo'yicha jiddiy huquqiy qadam, pirovardida esa, yanada ijobjiy amaliy o'zgarishlarning asosi bo'ladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

<sup>44</sup> Karimov I. A. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qo'shma yig'ilishidagi ma'ruza. Xalq so'zi 015 vil vanvar.

# **Islom Karimov milliy davlatchiligidagi mumtoz namunasi haqida**

**O. Mamatov**

*NamDU Milliy g'oya kafedrasи dotsenti*

Jamiyat doimiy ravishda oлg'a qarab borar ekan yuzaga kelgan muammolarni hal etishda albatta o'zidan oldingi tajribaga murojaat etadi, shu asosda o'z yo'nalishini belgilab oladi. "Shuni ta'kidlash joizki, ulug' ajdodimizning o'zi yashagan zamonga, shu davrda Osiyo va Yevropa qit'alarida ro'y bergan, juda katta tarixiy ahamiyatga molik o'zgarishlarga olib kelgan voqeа-hodisalarga hal qiluvchi ta'siri, uning bu jarayonlardagi roli nainki tarixchi va siyosatchilar, harbiy ilm mutaxassislari, balki badiiy ijod ahlining ham diqqat-e'tiborini halihamon o'ziga jalb etib kelmoqda."<sup>45</sup>

Nafaqat inson va jamiyat balki butun jonli va jonsiz tabiat ham o'tmishdagi oz negiziga asoslsangan holda rivojlanib boradi.

Vorislik tushunchasini jamiyat sohasiga tadbiq qilish insoniyatni ko'r-ko'rona zaruriyat olamidan, erkinlik olamiga olib chiqadi. «Vorislik jamiyatning ijtimoiy o'zgarishi, vaqtlar o'rtasidagi aloqadorlik, yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni avloddan-avlodga uzatishdagi uzlusizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Chunki bu tushuncha biz o'tmishga qanday munosabatda bo'lishimiz kerak, nimalarni qanday tarzda olishimiz kerak, qay tarzda rivojlantirishmiz kerak, degan masalalarni hal qilib beradi va taraqqiyot qonunlarining mohiyatini anglab oлgan holda faoliyat ko'rsatishimizni belgilab beradi. O'rta asrlar sharq fani va madaniyat hali- yanuz butun tsivizatsiyaga o'zinng belgilovich ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Insoniyat bugungi taraqqiyot darajasi uchun O'rta asrlar sharq mutafakkirlari oldida qarzdordirlar.

«Bugungi kunning o'tkir va dolzarb muammolari bizdan zamonaviy taraqqiyotning asosiy tamoyillarini har tomonlama chuqur tahlil etish bilan birga, insoniyatning yaqin-olis tarixidagi boy tajribasini ham teran idrok etishni, shu asosda amaliy xulosalar chiqarishni taqozo etmoqda, ya'ni tarix tajribasi odamzod uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.»<sup>46</sup>

<sup>45</sup> Karimov I.A. Milliy davlatchiligidagi tarixining mumtoz namunasi /Demokratik islohotlarni yanada shuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir T.19.-Toshkent, O'zbekiston. 2011-B. 151

<sup>46</sup> Karimov I.A. Milliy davlatchiligidagi tarixining mumtoz namunasi /Demokratik islohotlarni yanada shuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir T.19.-Toshkent, O'zbekiston. 2011-B. 151

Hech bir mubolag'asiz aytish mumkinki, o'zbek xalqining ko'p tarlik tarixi ham ana shunday buyuk tajribalar manbaidir. Gap milliy taraqqiyot xususida borar ekan bizning o'tmish ajdodlarimiz masjurasiqa qayta-qayta murojaat qilishimiz bejiz emas. Chunki milliy taraqqiyotda ijtimoiy ruhiyat muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ijtimoiy ruhiyatdan kelib chiqib, shakllantirilgan madaniyat esa, inson qalbini tezroq va chukurroq egallaydi. O'zbekning ijtimoiy ruhiyatni esa, bir yoki ikki asrda shakllanib qolgan emas. U o'zining jahon sivilizatsiyasidan ortiq bo'lsa ortiqki, kam bo'limgan tarixiga ega. Ijtimoiy ruhiyat o'zida xalqning tub maqsadlarini, nozik his-tuyg'ularini mujassamlashtiradi. Shuning uchun ham I.Karimov aytganidek: "Kingadir voris bo'lish kerak bo'lsa, biz Beruniylarga, Buxoriylarga, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Boburlarga voris bo'lamiz"<sup>47</sup>. I. Karimov Juda ko'plab ma'ruza va nutqlarida Buyuk bobomiz Amir Temurni chuqur iftixor bilan tilga oladilar. "Bu tarixning eng yorqin va shonli sahifalarini tashkil etadigan ulug' ajdodlarimiz haqida so'z borganda, buyuk davlat arbobi va sarkarda, sohibqiron Amir Temur bobomizning o'lmas nomini birinchilar qatori tilga olishimiz tabiiy, albatta. Mana, qariyb yetti asdirki, bu ulug' zotning shonu shuhrati, hayoti va faoliyatiga bo'lgan qiziqish jahoning turli mamlakatlarda toboru ortib bormokda."<sup>48</sup>

I. Karimov Amir Temur haqida yozar ekan, buyuk shaxslarning buyukligi ularning nafaqat jismoniy va aqliy qobiliyatlarida, balki ularning insoniy fazilatlari, ichki dunyosi, insonparvarligi va ma'naviy qiyotasida ham ekanligini alohida ta'kidlaydilar. Prezident o'rta asr Sharq allomalari haqida fikr yuritganlarida ham albatta ularning ma'naviyati haqida albatta to'xtalib o'tadilar. Buyuk allomalarning tarixdu nom qoldirishlariga va dunyo ilm ahlining e'tiborini tortishlariga sabab ular amliga oshirgan ishlarning sivilizatsiyaga ta'siridir.

"Bu benazir zotning qanday milliy zamin va tarixiy sharoitda o'sibulg' aygani, qay tariqa shunday yuksak cho'qqilarga ko'tarilgani, zafarli yurishlari haqida, uning nafaqat davlat arbobi va yengilmas sarkarda, ayniyutda inson sifatidagi fazilatlari, ichki dunyosi va kechinmalari haqidagi Sharq davlatlari bilan birga olis Yevropada – Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Germaniya kabi mamlakatlarda ham bundan necha yuz yillik uval ko'p-ko'p ilmiy va badiiy asarlar yaratilgani yaxshi

<sup>47</sup> Karimov I. Tarixiv yotucasiz kelajak yo'q.-Toshkent: O'zbekiston, 1998.-B 16.

<sup>48</sup> Karimov I.A. Milliy davlatchiligimiz tarixining mumtoz namunasi / Demokratik islohotlarni vanada ~~shaxshoq~~ hujresh va fugarolik jamiatinini shakllantirish mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidagi 149. Toshkent. O'zbekiston. 2011-B. 151.Milliy davlatchiligimiz tarixining mumtoz namunasi ~~149~~

ma'lum. Chunonchi. Amir Temur bobomiz haqida ingliz dramaturgi Kristofer Marlou 1588-yili tarixiy pyesa, mashhur nemis kompozitori Georg Gendel 1724-yili opera, amerikalik adib Edgar Po esa 1827-yili she'riy poema yaratgan. Va bunday asarlar bugungi kunda ham ko'plab paydo bo'lmoxda.”<sup>49</sup>

Hal qiluvchi, belgilovchi iqtisodiy, harbiy-siyosiy salohiyat, iqtidorning shakllanishida Amir Temurning favqulodda aqlu-zakovati, po'lat irodasi, yangi saviyaga ko'targan harbiy-siyosiy madaniyati, planetar ko'lamdagi tafakkuri asosiy tamal tosh rolini o'ynadi.

Lekin ming afsuski mustaqillikkacha Amir Temurning sivilizatsiya tarixidagi buyuk xizmatlari qoraga bo'yaldi. Bu haqda Prezidentimiz shunday fikr bildiradilar.” Ming afsuski, mustamlakachilik yillarda, ya'ni milliy qadriyatlarimiz, aziz-avliyolarimiz va allomalarimizning boy merosi, tabarruk nomlarini xalqimiz xotirasi va yuragidan butunlay o'chirishga qaratilgan siyosat hukm surgan davrlarda Amir Temurning hayoti va faoliyatini o'rghanish u yoqda tursin, hatto uning nomini tilga olish ham mutlaqo taqiqlab qo'yilgan edi. Bu mavzuda yaratilgan ba'zi bir ilmiy-badiiy asarlarda Amir Temur siymosi tarixiy haqiqatga zid ravishda biryoqlama, asosan qora bo'yoqlarda aks ettirilar edi. Taassuflar bo'lsinki, sobiq tuzum davrida yaratilgan tarixiy va badiiy adabiyotlarda hamda ularning ta'sirida chop etilayotgan bugungi ayrim kitoblarda ham mana shunday g'arazli yondashuv alomatlarini hanuz uchratish mumkin.<sup>50</sup>“

Bugun Jahon ilmiy adabiyotida Sohibhiron Amir Temur, Shohruh, Ulug'bek, Bobur va boshqa temuriyzodalarning jahon tarixi, sivilizatsiyasi, ilm-fan, madaniyat rivojidagi o'rni va ahamiyatiga chuqur, ilmiy xolis baho berilgani berilayotgani haqida munnuniyat bilan fikr bildiradilar: “Fransiyalik tanqli olim Lyusyen Keren tomonidan 2006-yili xalqaro miqyosda keng nishonlangan Sohibqironning 670 yillik tavallud to'yi arafasida Parijda fransuz tilida nasr qilingan «Samarqandga, Amir Temur davriga sayohat» nomli fundamental tadqiqot bu fikrning yaqqol tasdig'idir. Tabiiyki, bu asarlarning barchasi ulug' bobomizning hayoti va faoliyati bilan bog'liq ko'pgina masalalarga javob topishda, ularni tarix va bugungi zamон

<sup>49</sup>Karimov I.A. Milliy davlatchiligimiz tarixining mumtoz namunasi / Demokratik islohotlarni yanada shuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir T.19.-Toshkent, O'zbekiston. 2011-B. 151.

<sup>50</sup>Karimov I.A. Milliy davlatchiligimiz tarixining mumtoz namunasi / Demokratik islohotlarni yanada shuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir T.19.-Toshkent, O'zbekiston. 2011-B. 151.

nuqtai nazaridan yoritishda muhim o'rinni tutadi. Ularning har biri Sohibqiron siyosasi haqida o'ziga xos tasavvur va tushuncha beradi.<sup>1</sup>

Amir Temurning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, davlatni qurish va boshqarish, xalqaro diplomatik munosabatlar, qo'shnichilik, barqaror hamkorlik, sulhparvarlik siyosati, haqsizlikni bartaraf etish maqsadida urushlar olib borishi, urushlarning oldini olish, mamlakatning iqtisodiy farovonligi, obod-ma'murligi asoslari, qonunchilik, qonun ustuvorligi, qonun oldida barchaning tengligi, qonunning insonparvarlikni ro'yobga chiqarishdagi ahamiyati, Yaso, Tuzuklar va Shariatni, barcha qonun tizimlariga hurmat va riroyat, e'tiqodiy bag'rikenglik, sabr-toqatlilik va tezkor harakatchanlik, ilmiy-ma'naviy, diniy-orifiy qadriyatlarni yuksak tutishga oid konsepsiyasini uning zamondoshlari ham, keyingi davr olimlari ham, turli mamlakatlar, ayniqsa Uzoq Sharq - Xitoy va G'arbiy Ovrupo (Fransiya, Ispaniya, Italiya) siyosatchi, elchi va sayohatchilar, ilm-fan, madaniyat, arboblari yuksak baholashganlar. Ko'plab tarixchilar uni jahon sivilizatsiyasi, tarixi, madaniyatida yangi davr ochgan, insoniyat ijtimoiy taraqqiyotiga yangi nishonlar, ustuvor qadriyatlar bergen favqu'lodda shaxs deb baholab kelishmoqda. (L.Keren, Ismoil Og'a, B.F.Mans, S. Jamaluddin va boshqalar).

Turkiy dunyo tarixi, hozirgi zamon tarix ilmining zabardast vakillari prof. Z.V.To'g'on, V.V.Bartold, A.Yakubovskiy, I.Muminov va boshqa olimlar Amir Temurning tarixdagi o'rni va ahamiyati, uning ijtimoiy-siyosiy va davlat qurish, boshqarish, qonunchilikka oid qarashlariga bir butun, ilmiy xolis baho berishga uringanlar. Prezidentimiz ham Amir Temurning jamiyat xayotining barcha tomonlarini planetar dunyoqarash darajasida bilishi va uni amalda qo'llashini quyidagicha ta'riflaydi: "Amir Temurning davlatchilik va diplomatiya, harbiy mahorat, bunyodkorlik salohiyati, ilmu fan, san'at va me'morchilikka oid qarashlari, hayotning ma'no-mazmuni, insonni ulug'laydigan ezgu ishlari haqida bildirgan fikrlari, dinu diyonat va adolatni joyiga qo'yish, sultanat ishlarini kengash va tadbir asosida amalga oshirish, har bir masalada uzoqni ko'zlab, el manfaatini o'ylab ish tutish bilan bog'liq ibratlari fazilatlarini alohida ta'kidlash o'rinnlidir. Aynan mana shunday masalalar Sohibqiron tafakkurining mahsuli bo'lgan".<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Latimov I.A. Milliy davlatchiligimiz tarixining mumtoz namunasi /Demokratik islohotlarni vanada shuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir T.19.-Toshkent, O'zbekiston. 2011-B. 152

<sup>2</sup>Latimov I.A. Milliy davlatchiligimiz tarixining mumtoz namunasi /Demokratik islohotlarni vanada shuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir T.19.-Toshkent, O'zbekiston. 2011-B. 153

I. Karimov mustaqillik tufayli Amir Temurning ijodiga va tarixdagি o‘rniga adolatli baho berila boshlaganini mammuniyat bilan tilga oladi. “Ollohga shukrki, istiqlolga erishganimizdan keyin bu masalada ham tarixiy adolat qaror topdi. Muqaddas yurtimiz zaminida yashab o‘tgan ko‘plab ulug‘ siymolar qatori Amir Temur bobomizning nomi, sha’nu shavkati va merosi ham qayta tiklanib, bu buyuk zot haqidagi asl haqiqat xolis va haqqoni yoritilmoqda, tadqiqotlar olib borilmoqda, kitoblar yozilmoqda. Zero, Amir Temur shaxsini idrok etish – tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash – o‘zligimizni anglash demakdir. Amir Temurni ulug‘lash –tarix qa’riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizni, ishonchimizni mustahkamlash demakdir.”<sup>53</sup>

<sup>53</sup>Karimov I.A. Milliy davlatchiligimiz tarixining mumtoz namunasi /Demokratik islohotlarni yanada shuqurlashtirish va fuqarolik jamiatini shakllantirish mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir T.19.-Toshkent, O‘zbekiston. 2011-B. 152.

## Sog‘lom avlod ma’naviyatini oilada shakllanishida jismoniy tarbiyaning ta’siri

*Hamidjanov Abdulaziz*

*NamDU jismoniy madaniyat fakulteti, jismoniy madaniyat  
yo‘nalishi 4-bosqich talabasi.*

*Ilmiy rahbar – B. Tillayev*

Mustaqilligimizning ilk kunlaridan boshlab mamlakatimizda jismonan sog‘lom va ma’nан yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilangan. Ijtimoiy yo‘naltirilgan davlat siyosatining mantiqiy davomi sifatida 2014-yil “Sog‘lom bola yili” deb e‘lon qilindi. “Ona va bola”, “Yoshlar”, “Barkamol avlod”, “Oila” hamda boshqa nomlar bilan atalgan yillarda amalga oshirilgan ishlar ota-bobolarimizning ezgu orzusi bo‘lgan sog‘lom avlodni jismonan barkamol, ma’nан yetuk qilib tarbiyalashdek olajanob maqsadga qaratilgan. O‘tgan davrda keng miqqyosli va teran mazmunli ulkan ishlar mamlakatimiz va jamiyatimiz taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi vazifalarni bajarishga yo‘naltirilgan. Buning natijasida Respublikamizda qator umummilliy dasturlar birinchi navbatda sog‘lom ona – sog‘lom bola dasturi amalga oshirildi. Farzandlarimiz va xalqimiz baxti uchun kelajagimiz uchun qilinayotgan bu ezgu ishlar izchillik bilan davom etib tobora kengayib borayotgani, yuksak samaralar berayotgani mamlakatimizda olib borilayotgan siyosat naqadar to‘g‘ri va oqilona ekanligidan dalolat beradi.

“Sog‘lom bola yili” davlat dasturida asosiy e’tibor quyidagilarga qaratildi. Oilada mehr oqibatni amalga oshirishda o‘zaro hurmat muhitni, yuksak axloqiy hamda ma’naviy qadriyatlarni barqaror qilish, ona va bola salomatligini mustahkamlash, hotin-qizlar va o‘z iqtidorini ro‘yobga chiqarish uchun zarur sharoitlar yaratish hamda ularni kundalik ro‘zg‘or yumushlarini yengillashtirish kabi birinchi darajali vazifalar belgilangan. Bundan tashqari oilaviy sport bilan shug‘ullanish mamlakatimizda sog‘lom bola dunyoga kelishida uni har tomonlhma yetuk, intellektual bilimli qilib tarbiyalashda oila muhitida ma’naviyatni va jismoniy tarbiyani ajralmas qismga aylantirish maqsadida mamlakatimizda olib borilayotgan siyosat o‘z aksini topmoqda.

Prezidentimiz I. A. Karimov “... oilaning jamiyatdagi o‘rnini tarbiyaviy axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab yetmasdan oila

manfaati nuqtai-nazaridan yondoshmasdan turib xalqchil mafkura yarata olmaymiz<sup>54</sup> deb ta'kidlaganlar.

Ma'lumki, o'zbek oilasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, xususan, oila a'zolarining jismoniy tarbiyaga munosabati, yoshlarning ma'naviyatini yanada rivojlantirishni, oilada ma'naviy muhitni yaratish va bola tarbiyasi asosan ma'naviyatning o'chog'i bo'lgan oilada shakllantiriladi.

Shu bois mamlakatimizda oilaviy ma'naviyatni yaratish, aholi salomatligining muhim manbai hisoblangan jismoniy tarbiyaga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish, uning barcha oilalarga kirib borishiga zamin yaratish, oilaviy sportni targ'ib etish uchun joylarda oilalarni bu ishga keng jalb etish hozirgi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Oilaviy sport bilan shug'ullanish, avvalo, oila mustahkamligini, saranjom-sarishtaligi va farovonligini hamda bolalar sog'lom bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlab beradi. Bunday oilada yoshu-qarining salomatligi mustahkam, ma'naviy muhit sog'lom, o'zaro munosabatlar mo'tadil, har bir oila a'zosining o'qishga, ishga ishtiyoqi baland, ruhiyati hamisha ko'tarinki, bir-biriga mehr-oqibati va e'tibori yuqori darajada namoyon bo'ladi.

Jismoniy tarbiya ma'naviyat bilan hamohang namoyon bo'lganda insonni fikrini jamlash, hayotdan bahra olish, tartib-intizom, vaqtдан unumli va rejali foydalanish, mustahkam irodali bo'lishga, har qanday asabiy holatlardan oson chiqib ketishga o'rgatadi. Shunisi ham muhimki, badantarbiya mashqlari bilan shug'ullangan odam tanasining kasallikkлага qarshi kurash salohiyati oshadi, immuniteti kuchayadi, moddalar almashinuvu jarayoni natijasida a'zolar faoliyati ravonlashadi. Bunday insonlar hozirgi vaqtida ko'p uchraydigan yurak qon-tomir, asab va tayanch-harakat xastaliklariga deyarli chalinmaydi va uzoq umr ko'radilar shu bilan birgalikda jismoniy tarbiya insonning tabiiy qarish jarayonini sezilarli darajada sekinlashtiradi.

Jismoniy tarbiya va ma'naviyat namoyon bo'lganda, rivojlanganda faqat aholini, oilani sog'lomlashtirish yositasi bo'lishi bilan bir qatorda, hordiq chiqarishni oqilona tashkil etish, insonlararo muomala madaniyati, yosh avlodning ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladigan omil bo'lib ham xizmat qiladi. Masalan, sportning ma'lum bir turi bilan muntazam shug'ullanayotgan insonga ma'naviy ozuqa berib, uning jismoniy hamda ma'naviy kamol topishida ijobjiy natijalarga erishishimiz mumkin.

<sup>54</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori "Sog'lom bola yili davlat dasturi" 2014 yil 19 fevral. Toshkent shahri.

Ba'zi bir oilalarda, jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan munosabat taxshı amalga oshirilmoqda ammo, oila a'zolarning tarbiya berish jarayonida milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyatimizni oilada keng tadbiq qilish talab darajasida emas.

Bunday jarayon jismoniy tarbiya va sportning oilalarda rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, buning natijasida o'zi uchun ham, oila a'zolari va surriyodlari uchun ham qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanini tobora tushunib yetishmoqda. Biroq milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyatimizdan oilada bolalar tarbiyasida yuqoridagilardan oqilona foydalansakgina biz provard natija ya'ni hech kimdan kam bo'Imagan, jahon arenalarida qaddini baland ko'taradigan, har qanday mamlaqat yoshlari bilan barcha sohalarda kurasha oladigan yoshlarimiz safi yanada ko'payadi.

Bizningcha, farzandlarimizni yoshligidanoq jismoniy tarbiyaga qiziqtirish va buning uchun, avvalo, oilada ma'naviy muhitni, yetarlicha shart-sharoit yaratilishi lozim. Shundagina yigit va qizlarimiz orasida uchrab turadigan kashandalik, giyohvandlik kabi illatlar, turli-tuman kasalliklar tag-tomiri bilan bartaraf etilishi, onalar va bolalar salomatligining mustahkamlanishiga, tug'ma nogironlik holatlariga chek qo'yilishi, farzandlarimizning baquvvat bo'lishi, yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarning intellektual salohiyatining yanada yuksalishiga zamin hozirlagan bo'lamiz.

Xulosa o'mida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, yurtimizda amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarni yanada kuchaytirish, barcha ommaviy axborot vositalari orqali olim va mutaxassislarini jalb etgan holda aholi o'rtaida sog'lom turmush tarzini, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni muntazam ravishda targ'ib etish, oila, mahalla va ta'lim muassasalarida sport zallarni, maydonchalarni zamon talablari darajasida jihozlash, sport to'garaklari va sektsiyalari turlarini ko'paytirish, bu sohalar uchun malakali kadrlarni tayyorlash, oilaviy sport bilan shug'ullanadigan hamda uni targ'ib etishda jonbozlik ko'rsatadigan faol insonlarni rag'batlanirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu sababdan ham ko'p asrlardan buyon ajdodlarimiz oilaviy hayotni sog'lom turmush tarzining asosiy qismi deb, oilaviy hayotning muqaddasligini e'tirof etib, oilada farzandlarni hayot gulshani deb, ularni baquvvat, aqli, odob-andishali qilib o'stirishga katta ahamiyat berilgan. Shuning uchun ham oila pokligi, ma'naviy madaniyati, farzand tarbiyasi oilaning muqaddas vazifasi bo'lib hisoblangan. Shunday qilib, I. A. Karimov "Oila – bizning xalqimiz uchun millatning ko'p asrlik an'analarini va ruhiyatiga mos

bo'lgan g'oyat muhim hayotiy qadriyatlardan biridir" deva ta'kidlab o'tganlar.

## Kichik biznes va tadbirkorlik sohasini rivojlantirishda yoshlarning o'rni

*Topildiyev Odiljon Raximjonovich.*

*Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasini  
katta o'qituvchisi, t. f. n.*

*Zoidov Abbas*

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 3-kurs  
talabasi*

Mustaqillik mamlakatda keng ko'lamdag'i islohotlarning muhim bir bosqichini boshlab berdi. O'zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarda bilimli yosh mutaxassis kadrlarning ishtirok etishini ta'minlash asosiy vazifa hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini va qishloq joylaridagi yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish borasida ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston aholisining 64 foizini tashkil etayotgan yoshlar kelajagimizning bunyodkorlari bo'lib, Prezident I. A. Karimovning ta'kidlashicha: "Bizning eng katta tayanch va suyanchimiz, hal qiluvchi kuchimiz yosh avlodimizdir"<sup>55</sup>. Darhaqiqat, mamlakatda har yili 600 mingdan ziyod butunlay yangicha shart-sharoit va muhitda kamol topgan yosh avlod vakillari katta hayotga yo'llanma olmoqda. Yoshlarga katta ishonch bildirib, ularni rag'batlantirish, ruhlantirish ham katta samara bermoqda. Shuningdek, aholining asosiy qismini tashkil etadigan yoshlarning hali to'la yechilmagan muammolariga e'tiborni jalb etish, ularni hayotda haqiqatan ham hal qiluvchi kuchga aylantirish masalasi jamoatchilikning diqqat markazida turishi shart.

Yoshlarni ish bilan ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyatga ega. Tadbirkorlik - mamlaqat iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi, uni rivojlantiruvchi asosiy kuch hisoblanadi. Tadbirkorlikni qo'llab quvatlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masalalardan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 53-moddasida ko'rsatilganidek: «Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan

<sup>55</sup> Karimov I.A. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir //Xalq so'zi, 2012, 8 dekabr,

O'zbekiston iqtisodiyotining negizini hilma hil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan xollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin»<sup>56</sup> deb ko'rsatilgan. Shunga ko'ra kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar, xo'jalik sub'ektlari faoliyati qonun bilan himoya qilinadi. Ayniqsa xususiy mulk shakliga asoslangan fermer xo'jaliklari hamda yakka tartibdagи kichik biznes sub'ektlari faoliyati asosiy o'rinda turadi.

O'zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonlarining birinchi bosqichida kichik va o'rta biznes hamda xususiy tadbirkorlik tez rivojlandi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri hududlarida kichik biznes hamda tadbirkorlik asosan yakka tartibdagи va oilaviy korxonalar, mas'uliyati cheklangan jamiyat hamda shirkatlar shaklida tashkil etildi. 1991-1995-yillarda ularning soni o'rtacha 140 foizga o'sdi<sup>57</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bozor iqtisodiyotining boshqichida kichik va o'rta biznes korxonalarining tadbirkorlik qayta yo'naltishi" qarori chiqarildi. Tuning natijasida qishloqda sektorni rivojlantirish uchun korxonalarning tadbirkorlik qaymiga keng jalb etildi. O'sha qayd korxonalarning tadbirkorlik qaymiga egallashiga hujada ularni moddiy raqbatla afirishga e'tibor qaratildi.

Dastlabki bosqichda kichik va o'rta biznes korxonalarining tez rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir etdi:

- Kichik va o'rta biznes korxonalarining sub'ektlarning erkin faoliyat olib borishga o'tishi;

- Kichik xususiy lashtirish dasturlarining amalga oshirilishi, korxonalarining davlat tasarrufidan chiqarilishi, nodavlat kichik va o'rta biznes sub'ektlarining tashkil bo'lishi;

- Ularning rivojlanishi uchun uchun erkin iqtisodiy muhitning mavjud bo'lganligi, oilaviy korxonalarining ko'payishiga olib keldi.

Iqtisodiy islohotlarning ikkinchi bosqichi bo'lgan 1996-1999-yillarda esa kichik va o'rta biznes, xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi respublikada bir muncha susaydi. 1996-1999-yillarda kichik biznes va

<sup>56</sup> O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent. O'zbekiston, 2014. B.6.

Qodirov A. Kichik va o'rta biznes muammolari //Jamiyat va boshqaruv, 2001, №3. - B. 58

xususiy tadbirkorlik imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmayotganligi ayon bo‘ldi. Jumladan, hududlar bo‘yicha tahlil qilganda Toshkent shahri va viloyati, Farg‘ona vodiysi, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Buxoroda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik imkoniyatlaridan to‘liq foydalanildi. Biroq, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmadi. 2001-yil 1-yanvariga kelib, 159719 ta kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlaridan 125719 tasi faoliyat ko‘rsatdi. Qolgan 29 mingtasi faoliyat ko‘rsatmadi<sup>58</sup>.

Iqtisodiy islohotlarning uchinchi bosqichi 2000-yildan boshlandi. Bu davrda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati faollasha boshladi. Buning natijasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar va xo‘jalik sub’ektlari faoliyatini tartibga solish maqsadida qonunlar, qarorlar chiqarildi. Chunonchi, “Xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-apreldagi PF-1987-sonli Farmoni, 2000-yil 25-may “Tadbirkorlik faoliyatini erkinliklarining kafolati to‘g‘risida”gi Qonun<sup>59</sup>, “Tadbirkorlik sub’ektlarining huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2005-yil 14-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, “Tadbirkorlik sub’ektlarining xo‘jalik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlashtirish to‘g‘risida”gi 2005-yil 24-iyundagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Shu bilan birga, 2011-yilni Prezident I. A. Karimov tomonidan “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” deb e’lon qilinishi va Davlat dasturini qabul qilinishi yoshlar orasida tadbirkorlikni rivojlanishida aniq maqsadlarga qaratilgan chora-tadbirlarga keng yo‘l ochib berdi<sup>60</sup>.

Iqtisodiy islohotlarning bugungi bosqichida eng muhim va dolzarb vazifa mulknii haqiqiy egalari qo‘liga berishni tezlashtirish, tadbirkorlik uchun keng yo‘l ochib berish va mulkdorlarda egalik hissiyotini tarbiyalashdan iborat. Agar 1991-yili mamlakatda atigi 9, 3 ming kichik korxona bo‘lgan bo‘lsa, 2003-yilga kelib ularning soni 65 mingdan oshib ketdi. 2008-yilda Respublika bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik

<sup>58</sup> Qodirov A. Kichik va o‘rta biznes muammolari. // Jamiyat va boshqaruv, 2001, №3. - B. 58.

<sup>59</sup> Tadbirkorlik faoliyatini erkinliklarining kafolati to‘g‘risidagi Qonun. 2000 yil 25 may. <http://lex.uz>

<sup>60</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat Dasturi to‘g‘risidagi 2011 yil 7 fevrals qarori. // Xalq so‘zi, 2011, 10 fevrals.

biznes sub'ektlari soni 1, 9 barobar ko'paydi va 400 mingtani tashkil etdi<sup>61</sup>.

2000-yili faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub'ektlari yalpi ichki mahsulotning 30 % ni ishlab chiqargan bo'lsa, 2002-yilda kichik biznes va tadbirkorlik asosida ish yuritayotgan korxonalarining ulushi sanoat mahsuloti ishlab chiqarishda 14, 1 %, qurilish-pudrat ishlarida 36, 8 %, chakana savdo oborotida 45, 8 %, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda 75, 6 %ni tashkil etdi. 2007-yilda esa kichik biznes va tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 45, 8 %dan 2008-yilda 48, 2 %ga ko'tarildi. 2008-yilda O'zbekistonda ish bilan band bo'lgan jami aholining 76 %dan ko'prog'i va 2014-yilda ish bilan band aholining 76, 5 foizdan ortig'ini<sup>62</sup> kichik biznes va tadbirkorlik sohasida mehnat qilayotgani shundan 55 %ni yoshlar tashkil etayotganligi diqqatga sazovordir<sup>63</sup>.

Bugungi kunda mamlakatda yalpi ichki mahsulotning 80 foizdan ortig'ini nodavlat sektori ta'minlamoqda<sup>64</sup>. O'zbekiston Respublikasi hududlari bo'yicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar soni 2000-yilda 4467100 nafar, 2003-yilda 5439700 nafar, 2006-yilda 7235000 nafar, 2008-yilda 7762800 nafar, 2014-yilga kelib 480 mingdan ortiq kishini tashkil etdi<sup>65</sup>.

Shu bilan birga, "Kamolot" YIH Markaziy Kengashining "Yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, bandlik va tadbirkorlikka ko'maklashish" bo'limi ham yoshlarning hayotida uchraydigan turli muammolarni hal etish borasida muayyan ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Jumladan, Harakatning joylarlagi bo'limlari 2001-yilda 95 nafardan ortiq yoshlarga kichik va o'rta biznes korxonalarini ochish yoki faoliyatini rivojlantirish uchun banklardan kredit olishda bevosita yordam ko'rsatdi, 2002-yilda 348 nafar yosh tadbirkorlar, o'rta va kichik biznes sub'ektlarining manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi murojaatlari Haraqat tizimlarining rasmiy so'rovi orqali tegishli idoralarning amaliy ko'magida ijobjiy hal etildi. 413 nafar

<sup>61</sup> Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash-bizning oliy maqsadimiz. 17-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – B. 158.

<sup>62</sup> Karimov I.A.O'zbekiston Respublikasini 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muxim ustivor yo'nalishlari // Xalq so'zi, 2015 yil 19 fevral.

<sup>63</sup> Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash-bizning oliy maqsadimiz. 17-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – B.159.

<sup>64</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B. 52

<sup>65</sup> O'zbekiston alymanaxi 2008. – Toshkent, 2009 – B. 78.

, yosn tadbirkorlarga mustaqil ravishda tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun tijorat banklaridan kredit olishda yordam ko'rsatildi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, yirik biznes iqtisodiyotning tanasi bo'lsa, kichik va o'rta tadbirkorlik uning qon tomirlari, demakdir. 2012-yilga kelib O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik taraqqiy etishi uchun mustahkam huquqiy zamm, imtiyoz hamda kafolatlar yaratildi.

Mamlakatda bozor iqtisodiyoti rivojlangani sayin mehnat bozoridagi raqobat yanada keskinroq tus olmoqda, jamiyatning o'qimishli, yangicha fikrlaydigan yosh tadbirkorlarga bo'lgan ehtiyoji yanada kuchayib bormoqda.

Xulosa qilib qilib shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekiston yoshlarining tadbirkorlik faoliyatini shakllantirishda quyidagilarga alohida e'tibor berish kerak:

birinchidan, yoshlarni tarbiyalash jarayonida ularda axloqiy va mehnat ta'lmini tadbirkorlik bilan bog'lashga o'rgatish zarur;

ikkinchidan, yoshlarning tabiatini ham uning ma'naviy-axloqiy yuksalish darajasini ko'rsatadi. Iqtisodiy rivojlanish va tadbirkorlik bevosita kishilar ehtiyojiga ta'sir ko'rsatadi. Shaxsning rivojlanishiga intilishi tadbirkorlikda ijobjiy o'zgarishlarga olib keladi. Iqtisodiy holatning qay darajada rivojlanganligi tadbirkorlar tashabbuslariga ham bog'liq bo'ladi;

uchinchidan, iqtisodiy tarbiya bevosita mehnat tarbiyasi bilan bog'liq bo'lib yoshlarda iqtisodiy bilimlar asosida tadbirkorlik madaniyati yuzaga keladi. Aholi tarkibida tadbirkor yoshlarning ko'payishi jamiyat rivojini va iqtisodiy taraqqiyotni nihoyatda kuchaytiradi.

Demak, iqtisodiy tarbiya kelajakda yoshlarni har tomonlama yuksalishida va tadbirkorlik faoliyati rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, yoshlar jamiyat hayotining muhim bir bo'lagi bo'lib, ularning o'zini namoyon etishi va intellektual qobiliyatlarini yuksalishi, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Yoshlarni kichik biznes va tadbirkorlik sohasiga keng jalb qilish mamlaqat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid islohotlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

## Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining tizimi va uning jamiyat hayotidagi o‘rni

*Tillayev Bobomurod*

*NamDU “Milliy g‘oya, ma’naviyat va xuquq asoslari” kafedrasи  
o‘qituvchisi*

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi va demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonidagi eng muhim vazifalardan biri bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish bo‘lsa, ikkinchi vazifa Respublikada davlat hokimiyatini vakillik va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining tizimini shakillantirish edi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 99- moddasiga muofiq viloyatlar, tumanlar va shaharlarda boshchilik qiladigan halq deputatlari kengashlari hokimiyatning vakillik organlarida Respublikada milliy davlatchilik an'analarini tiklashni ko‘zda tutib, hokimlik instituti kiritildi. Hokimlar qonunga muvofiq ham vakillik organlariga ham ijroiya hokimiyatiga rahbarlik qiladilar. O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati vakillik organlarining quyi bosqichlarini ovul, qishloq, shaharcha, tumanga bo‘ysunuvchi shahar va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari joriy etildi. Fuqarolik jamiyati qurishning ma’nosи davlatchilik rivojlanib borgani sari boshqaruvning turli hil vazifalarini bevosita halqqa topshirish ya’ni fuqarolarining o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining yanada rivojlantirishdir.

Prezidentimizning qator asarlarida fuqarolik jamiyatini qurishda bir qancha vakolatli vazifalarni davlatdan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga birinchi navbatda, mahallalar ixtiyoriga bosqichma-bosqich topshirish ko‘zda tutilganligi belgilab berilgan. Mahalla o‘zini-o‘zi boshqarishning asosiy bo‘g‘ini. Bu aholining ijtimiy masalalarni hal etishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Mahallada har bir kishining taqdiri, orzu umidi, hayotga va odamlarga munosabati qat’iy nazоратда turadi, ular bir-biri bilan hisoblashib yashashadi. Shu bilan birga mahallachilik uzoq an‘analarga va halqimiz tarixiga uning boy ma’naviy axloqiy udumlarga bog‘liq bo‘lgan ulkan hayot maktabidir.

Mahalla jamaa a’zolarining uyuştirish boshini boshiga qovushtirish, do’stlik qon-qardoshlik, hamkorlik, hamjihatlikni shakllantirish va mustahkamlashning milliy qadriyatlarni qaror topishi va rivojlanishining, milliy urf-odatlar va an‘analarni saqlab turish, tiklash, rivojlantirish va hayotga joriy etishining o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliylik, milliy g‘urur va istixor halqparvarlik, vatanparvarlik ruhida

tarbiyalashning tarix sinovidan o'tgan, hayotda o'zini oqlagan va oqlab kelayotgan eng muhim omillaridan bo'lib hisoblanadi.

"Mahalla keksa avlod bilan navqiron avlodni tutashtirib, qovushrib turadigan hayotga endigina kirib kelayotgan yosh yigitlar va qizlarni yoshi ulug', hayotiy tajribasi boy aqli zukko kishilar yo'l-yo'riqlari, o'gitlari asosida tarbiyalaydigan saboq beradigan maskandir. Mahallaning ta'lim-tarbiya maktabi hayot dorilfununi sifatidagi ahamiyati shu qadar kattaki, uning bu boradagi o'rni va rolini aniq va mukammal bayon etish mohiyatini to'la yoritish hech ham mumkin emas."<sup>1</sup>

Mahalla tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, ta'lim-tarbiyaviy, huquqiy, madaniy, ma'rifiy sohalardagi vazifalar haddan tashqari ko'p va xilma-xil, qamrovi nihoyatda keng. Mahalla faoliyatiga kiradigan funktsiyalar fuqarolarning o'zini-o'zi boshqari haqidagi qonunlar, qarorlar va rasmiy hujjatlarda belgilab berilgan.

Jamiyatni tubdan isloh qilish jarayonlari fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish mahalliy organlari faoliyatini o'zgartirishni uni milliy an'analar va jahon tajribalari asosida tashkil etishni taqozo etadi. Boshqaruv vazifalarining asosiy qismini markazdan viloyatlarga, viloyatlardan shahar tumanlardagi davlat va boshqaruv idoralariga o'tishini ta'minlash darkor. Shu tariqa bu bosqich asta sekin o'zini-o'zi boshqarish organlariga ham yetib boradi, deydi Prezidentimiz Islom Karimov. Bu yo'l bevosita mamlakatimizda fuqarolik jamiyatni shakllanishi va fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish tamoyilining bosh yo'nalishiga aylanib qoldi. Mahallalarni tashkil etishga homiylik qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Respublika Mahalla hayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi 1992-yil 12-sentyabrdagi hamda mamlaqat mahalla hayriya jamg'armasiga mablag' ajratish to'g'risidagi 1992-yil 8-oktyabrdagi farmonlari katta siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Bu farmonlar mahalla qo'mitalarining o'z hududlarida istiqomat-qiluvchi kam ta'minlangan oilalarga, nogironlarga, yolg'iz keksalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda aholini ijtimoiy muhofaza qilish borasida keng miqyosli ishlarga katta ko'mak berdi.

Mustaqil O'zbekistonning viloyat va shaharlari hududlarida o'zini-o'zi boshqarish organlari bo'lgan mahallalar soni, ularning aholi o'rtasida roli ortib borishi respublikada ijtimoiy hayotning yanada

<sup>1</sup> Milliy istiqlol g'oyasi .asosiy tushuncha va tamovillar T-Yangi ast avlodni 77 - bet 2001 yil

demokratlashib borayotganligini ko'rsatadi. Keyingi yillarda yangidan qaddini ko'tarayotgan mahallalar hayotida tub o'zgarishlar yuz berdi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari qanday ishlar bilan shug'ullanadi?

-birinchidan, fuqarolarga jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish borasidagi huquqlarini ro'yobga chiqarishda ko'maklashadi.

-ikkinchidan, o'z hududida ijtimoiy va ommaviy tadbirlarni o'tkazish qonunlarni ijro etishda davlat hokimiyati va boshqaruva organlariga ko'maklashish maqsadida fuqarolarni uyushtiradi.

-uchinchidan, millatlararo totuvlik bo'lishiga ko'maklashadi, negaki ko'pgina aholi punktlarining, etnik tarkibi xilma-xildir.

-to'rtinchidan, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari o'z mulki, moliysi, byudjetiga ega kichik korxonalar, kooperativlar, ustaxonalar, hunarmandchilik tsexlari tashkil etadi, ana shu maqsadlar uchun bank krediti oladi.

-beshinchidan, fuqarolar yig'ining eng e'tiborli vakolatlaridan biri oqsoqollarning korxonalarga, muassasalarga, fuqarolarga egalik qilish foydalanish uchun va ijara va berish to'g'risidagi qarorlarini tasdiqlashdir.

-oltinchidan, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish orqali davlatning ijtimoiy yordamidan foydalanishni huquqiy rasmiylashtirish va ijtimoiy yordamni nochor aholiga taqsimlash amalga oshiriladi. Yashash joylarida aholi o'rtasidagi hukumatga qarashli bo'limgan barcha ishlar tizimini butun mamlakatda o'z bo'limlariga ega bo'lgan nufuzli "Mahalla" jamg'armasi uyushtiradi.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqaruvi rahbarlarining ijtimoiy va ishchanlik madaniyatini oshirish maqsadida keng jamoatchilik ishtirokida ulari attestatsiyadan o'tkazadi. Mahallalarning rasmiy sardorlari albatta yoshi ulug' kishilar bo'lishi kerak deb o'yamaslik lozim. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish (G'arbda munitsipial deyiladi) deganda, u yoki bu ma'muriy-hududiy birliklardagi aholi vakolatlarini ifolavchi, shuningdek saylangan organlar va ularning ma'muriyatlarini tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni boshqarish tushuniladi. "Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish nazariyasi dastlab XVIII asrning 2-yarmida g'arbiy yevropada paydo bo'lgan. Uning tabiatini va jamiyatdagi o'rni mahalliy hokimiyatlar va o'zini-o'zi boshqarish organlarini fuqarolar tomonidan saylanish printsiipi g'oyalari bilan bog'liqdir. Yangi tarixning ilk davrida fuqarolar tomonidan saylanadigan o'zini-o'zi boshqarish organlarining

mustaqilligi kontsepsiysi ularning qishloq jamoalari va shaharlardagi ishlarga rahbarlik qilishida markaziy hokimiyatga nisbatan alohidilik hamda boshqaruvning mustaqilliliga imkoniyat yaratadi. Bu organlarga davlat boshqaruvi sohasidan tashqaridagi alohida bir bo‘g‘in sifatida qarash rusumga kirdi. <sup>66</sup>

“Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarishi-fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan ularning o‘z manfaatlaridan, rivojlanishining tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma’naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an’analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga moliy masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir. ” Mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish mashhur olim Aleksis De Tokvilning talqinicha, “shunday bir siyosiy institutki u nafaqat siyosatchilar uchun, balki umuman barcha fuqarolar uchun bir mакtabdir. Bu institutga xos bo‘lgan imkoniyatlar shu qadar yuksakki, u fuqarolarning keng siyosiy ishtiroti uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. O‘zini-o‘zi boshqarish organlari siyosiy madaniyat elementlarini shakllantirishning ham beqiyos omilidir.

Mamlakatimizda o‘zini-o‘zi boshqarish organlari fuqarolik jamiyatining asosiy instituti sifatida yildan yilga takomillashib bormoqda.

## Barkamol avlod – jamiyat taraqqiyotining poydevori

*B. B. Ibrahimov,*

*NamDU “Milliy g‘oya, ma’naviyat va huquq asoslari” kafedrasи  
o‘qituvchisi*

*A. Zaidov,*

*Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi 3-bosqich  
talabasi*

Yangi qadam qo‘yilgan XXI asr ma’naviyatga ustuvor ahamiyat beriladigan davr bo‘ldi. Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotini tabiiy boyliklar emas, balki inson ma’naviyat soxibi bo‘lgan sog‘lom insonlar amalga oshiradi.

Ma’naviyat insonning asosiy mohiyatini ifodalaydigan, uning faoliyatiga ijobiy mazmun va yo‘nilish beradigan ichki ruhiy omilidir. Jamiyat rivojlanishi fan va texnika taraqqiyoti jadal rivojlanayotgan axborot oqimi globallashayotgan, bozor iqtisodiyotiga o‘tishi jarayoni

<sup>66</sup> Saidov A. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsivaviy huquqi.- Toshkent: TDYul, 2005.-B.165.

davom etayotgan hozirgi davrda yuksak ma'naviyatli kishilarni turbiyalash insoniyat oldida turgan eng asosiy vazifalardan biridir.

Inson ma'naviyatining dastlabki kurtaklari oilada shakllanadi. Oila mustahkamligi axloqiy, huquqiy barqarorligi komil insonni tarbiyalashning birinchi zaminidir.

Oila ijtimoiy tabiiy omillar asosida shakllangan kichik jamaoa bo'lib, ikki jinsga mansub bo'lgan shaxslar o'rtasida munosabatlar natijasida nasl qoldirish extiyojidan kelib chiqqan shaklidir. Nasl qoldirish deganda faqat farzandni dunyoga keltirishgina emas, balki uni ma'naviy va jismoniy kamol toptirishdan ham iboratdir.

Oilani boshqarish jamiyat hayotini boshqarishning kurtagi hisoblanadi. Oila a'zolari o'rtasidagi yaqinlik, bog'lilik, ishonch, hurmat samimiylik, burch va mas'uliyatni xis qilish, talabchanlik, muloyimlik, bolalar ichki dunyosini shakllantirishga ta'sir etadigan ruhiy omildir.

Jamiyat taraqqiy etgan sari ma'naviy omillarning o'rni va roli ham ortib boradi. Oiladagi tarbiyaga e'tibor ham kuchayadi. Bunday xolatda muhim vazifa oiladagi ma'naviy muhitni barqarorlashtirish, ota-onaning farzandlar oldidagi, farzandlarni ota-onal oldidagi burch va mas'uliyatini kuchaytirishdir. Bunday muhitni yaratishda jamiyat, davlat, jamoatchilikning o'rni katta. Agar ularning ta'siri yetarli bo'lmasa oilaning farzand tarbiyasidagi o'rni ham zaiflashadi.

Oilaning jamiyat hayoti va taraqqiyotidagi ahamiyati to'g'risida A. Fitrat shunday degan edi: "Har bir oilaning saodati va izzati, albatta shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlaqat va millat ham shunga kuchli va tartibli bo'ladi. Oilaviy munosabatlar zaif bo'lsa intizomsizlikka yo'l qo'yilsa shunda bu millatning saodati va hayoti shubxa ostida qoladi"<sup>67</sup>.

Oilani mustahkamlash ota-onalar va bolalarning huquqini himoya qilishga jahondagi nufuzli tashkilotlar katta hissa qo'shmoqdalar. BMT 1979-yil 18 dekabrda "Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida konvensiya" qabul qilindi. Bu konvensiya jamiyatdagagi ma'naviy muhitni barqarorlashtirish oilani ijtimoiy, iqtisodiy asoslarini mustahkamlash yoshlar tarbiyasini yanada mustahkamlashga qaratilgan hujjatdir.

Jamiyatda ta'lim-tarbiya beruvchi tashkilotlar ko'p bo'lsada ularning birortasi ota-onal o'rnnini to'la bosa olmaydi. Shuning uchun ham konvensiyaga xotin-qizlar huquqlarini kamsitilishining barcha ko'rinishlariga barham berish, birinchi navbatda tarbiyaviy

imkoniyatlarini yaxshilashning eng dolzARB masala qilib qo‘ygan. Teng xuquqli yuksak maniviyatli ayolGINA farzandlariga davr ro‘zi, talablarIGA monand tarbiya berishi mumkin. Ayol haq-xuquqini kamsitish yoshlar xuquqini xam poymol qilish demakdir.

KonVENTsiyaga xar bir inson jinsidagi farqlaridan qat’iy nazar barcha haq-xuquqqa egadir. Mazkur konVENTsiyaning maqsadi erkak va ayollarga tenglik asosida inson xuquqlari va asosiy erkinliklar berilishini anglatadi”<sup>68</sup>.

KonVENTsiyani ma’qULLAGAN barcha davlatlar xOTIN-qizlar kamsitilishining barcha shakllarini qoralab, yo‘l qo‘yilgan qonunsizliklar va adolatsizliklarning ko‘rinishlariga barxam berish majburiyatlarini oladilar.

## **O‘zini-o‘zi boshqarish organlari vazifalarini amalga oshirishda davlat boshqaruvi organlari bilan ijtimoiy munosabatlарining ahamiyati**

### **B. Tillayev**

*Milliy g‘oya, ma’naviyat va huquq asoslari” kafedrasini o‘qituvchisi*

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi Qonuni asosida fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishi tushunchasi, ularning huquqi, faoliyatining asosiy printsiplari, fuqarolar yig‘inining vakolatlarini to‘liq o‘rganishi lozim. Mamlakatimizda jamiyatni yanada demokratlashtirish va fuqarolik jamiyatni asoslarini mustahkamlash borasida amalga oshirib kelinayotgan keng ko‘lamli islohotlar bugungi kunda yangicha mazmun bilan boyitildi.

Abu Rayxon Beruniyning fikricha, inson o‘z ehtiyojlarini tushunib, o‘ziga o‘xshash kishilar bilan birga jamoa bo‘lib yashashning zarurligini anglay boshlashi o‘ziga xos kelishuvchanlik shartnomasiga oid munosabatlarning kelib chiqishiga<sup>69</sup>, shuningdek mahalla tushunchasining paydo bo‘lishiga asos yaratdi.

Prezidentimiz Islom Karimov Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasida fuqarolik instituti, chunonchi mahallaning maqomi va rolini oshirishni ustuvor yo‘nalishlardan

<sup>68</sup> «XOTIN-qizlar huquqlarini kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida Konvensiya”, 1998 yil, 5-bet.

<sup>69</sup> Ma’naviyat yulduzları. – Toshkent. 1999 B 97.

bu sıfatida belgiladi. Mahalla faoliyatini takomillashtirishga doir an'naviy vazifalarga alohida e'tibor qaratdi. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy hayotni isloh qiluvchi turli yo'nalishdagi islohotlar aksariyat an'anaviy o'zbek oilalariga mahalla orqali kirib keldi<sup>70</sup>.

Albatta, mahallalar faoliyatining davlat tomonidan katolatlanishi islohotlarni yanada chuqurlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi hamda, fuqarolik jamiyatni institutlarining davlat organlari bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlashga, jamoatchilik nazoratining yanada kuchayishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda "kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari" himoyilining hayotga izchil tatbiq qilinishi natijasida aholining keng qatlamlari ishonchi va qo'llab-quvvatlashiga sazovor bo'layotgan fuqarolik jamiyatining turli xil institutlarining shakllanishi va rivojlanishi jarayoni bormoqda. Davlat hokimiyati organlari faoliyatini dan jamoatchilik nazoratining o'rnatilishi fuqarolik jamiyatni barpo etishning eng muhim shartlaridan biridir. Fuqarolarning faolligi, ijtimoiy hodisalarga daxldorlik hissining ortishi hamda har bir davlat xizmatchisining o'z faoliyatni jamoatchilik nazorati ostida ekanligini chuqur his etib borishi fuqarolik jamiyatni shakllanishi jarayonining muhim shartlaridandir. Ya'ni davlat organlari xalqqa o'z siyosati, harakatlarini tushuntirib berishi, uning oldida hisobot berib borishi lozimdir.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan amalgalashirilayotgan jamoatchilik nazorati natijasida, joylarda islohotlar, Davlat dasturlari ijrosi to'g'risida jamoatchilik keng xabardor etilib, aholi manfaatlarini himoyalash hamda mahalliy davlat organlarining fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari bilan mustahkam hamkorligi ta'minlanmoqda. Aholi bandligini ta'minlashda ishlab chiqarish korxonalarini bilan kasanachilik aloqalarini tashkil etish orqali oilalar daromad manbaining ko'payishida, aholining ish bilan bandlik darajasini oshirishda ham mahallalar tomonidan amalgalashirilayotgan jamoatchilik nazorati muhim omil bo'lib xizmat qilayotir.

Umuman, jamoatchilik nazorati fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan davlat hokimiyati organlariga muayyan qarorlarni kabul qilish bo'yicha murojaat etish, davlat hokimiyati organlari vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha

Gavupova Sh.O. O'zbek an'anaviy mahallalarida demokratik jarayonlar //O'zbekiston Fanlar akademiyasining 60 yilligiga bag'ishlangan respublika yosh olimlar ilmiy konferentsivasi materiallari. – Toshkent: 2003. B.142.

so'rovlarni amalga oshirish. davlat hokimiyati organlari va mahallalar hududlaridagi korxona va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitish kabi shakllarda yo'lga qo'yilgani o'z samarasini bermoqda. Qolaversa, bugungi kunda davlat Dasturlari talablarining fuqarolar yig'ini hududidagi ijrosini ta'minlashda jamoatchilik guruhlarini tuzish va o'rganish, natijalari bo'yicha tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlari hisobotlarini eshitish va shu orqali aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish, shuningdek mahalliy davlat organlari faoliyatiga ko'maklashish tadbirlari samarali amalga oshirib kelinmokda. Aholining mamlakatimiz ijtimoiy va siyosiy hayotidagi ishtiroki ko'lамини yanada kengaytirish, har bir fuqaroning siyosiy faolligini oshirish masalalari fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalar oldiga salmoqli vazifalar qo'ymoqda.

Ma'lumki, o'zbek xalqining tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladigan, asrlar osha rivojlanib kelayotgan an'anaviy institut bo'l mish o'zini o'zi boshqarish idorasi - mahalla mustaqillik yillarda yanada sayqallanib, taraqqiy etib kelmoqda. Binobarin, mamlakatimiz rahbari Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, bizda shunday bir noyob, betakror ijtimoiy boshqaruvi idorasi borki, uni hech narsa bilan solishtirib bo'lmaydi. Bu - yuz yillar davomida rivojlanib kelayotgan va ayniqsa, mustaqillik davrida tubdan yangilanib, zamon talablari asosida takomillashib borayotgan mahalla tizimidir.

Bugungi kunda mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga bozor islohotlarini amalga oshirish, yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishda, ular tomonidan turli xil huquqbazarlik sodir etilishining oldini olish, tadbirkorlikni rag'batlantirish, hususiy mulkni rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash, iste'mol bozorini to'ldirish, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, odamlarning moddiy farovonligini oshirish va aholini kuchli ijtimoiy muhofaza qilish kabi muhim vazifalar qo'yilgan. Ularga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kichik korxonalar, sartaroshxonalar, poyabzal ta'mirlash va tikish ustaxonalari, xalq hunarmandchiligi tsexlarini va aholiga maishiy xizmat ko'rsatuvchi boshqa korxonalarni tashkil etish huquqlari berilgandir.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish uchun ularga ko'plab vakolatlar berilganki, bu o'z navbatida mahallani orasta saqlash, tozalikka e'tibor berish, hasharlar tashkil etilib, bir-birlarining og'irini yengil qilish kabi ota-bobolarimizning azaliy urf-odatlari bilan uyg'unlashib ketgandir.

Hududni obodonlashtirish, imoratlar qurish hamda, hovlilar va uylar atrofida hududlarni orasta saqlash qoidalariga rioya etilishida shuningdek, ularning sanitariya holatini yaxshilashda, hududda to‘ylar va boshqa marosimlarni o‘tkazishda, muqaddas dinimiz, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va an‘analarmizning haqiqiy mohiyatini hayotiy, ta’sirchan misollar asosida muntazam tushuntirish ishlarini olib borishda, tegishli maslahatlar berish, xotin-qizlarning manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy hayotdagi, oilada ma’naviy-axloqiy muhitni shakllantirishdagi, yosh avlodni tarbiyalash ishidagi mavqeini oshirishda, zamon talablariga mos, xalqimizning qarashlariga muvofiq keladigan yangi, namunaviy an‘analarni tashkil qilish va joriy etish orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 3--aprel kunidagi PQ-317-sonli “Aholi o‘rtasida olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy va targ‘ibot-tashviqot ishlarining ta’sirchanligi va samarasini oshirishga qaratilgan qo‘srimcha chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qaroriga asosan mamlakatimizda ro‘y berayotgan katta ijobiy o‘zgarishlar o‘z qadr-qimmatimiz, milliy davlatchiligidan, madaniyatimizni, tilimiz va dinimizni, milliy qadriyatlarimizni tiklab, jahon hamjamiyatida o‘zimizga munosib obro‘ e’tibor qozonishga erishilganligi, bugungi kunda yangi demokratik davlat, adolatli jamiyat qurish, beqiyos salohiyatimizni ishga solish, iqtisodiyotimizni rivojlantirish va ma’naviyatimizni yuksaltirishda xalqimizning bunyodkorlik va yaratuvchanlik faoliyati yaqindan namoyon bo‘layotganligini targ‘ib va tashviq qilish bo‘yicha fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan, Ichki ishlar idoralari xodimlar, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalliy hokimliklar va tegishli davlat hamda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda ma’rifiy targ‘ibot tadbirlari olib borilishi lozim.

### **Mahalla - tolerantlik madaniyati o‘chog‘i**

**Xўршид Мирзазмадов - o‘qituvchi**

*Namangan davlat universiteti*

**Шахноза Махкамова - talaba**

*Namangan davlat universiteti*

*Mahalla – ko‘p millatli ahil oila.*

*I. Karimov*

Markaziy Osiyoda va, avvalo, O‘zbekistonda mahalla kabi o‘zini o‘zi boshqaruvchi ijtimoiy tashkilotning noyob shakli azaldan mayjud

bo'lgan va shu kungacha ham saqlanib qolgan. O'zbeklar uchun mahalla jamoa tushunchasidan ko'ra ko'proq ma'noni bildiradi. Mahalla tufayli tub aholi ijtimoiy va iqtisodiy xatti-harakati tarkib topishi, ijtimoiy qadriyatlar hurmat qilinishi, o'zaro munosabat odobi tamoyillarining alohida qoidalari saqlanib qoldi. Bu esa jamiyat oldidagi majburiyat va zimmadagi mas'uliyat so'zsiz bajarilishining kafolatidir. Mamlakatimizda ko'p qirrali islohotlar amalga oshayotgan bir paytda oila va mahalla jamiyat uchun ishonchli tayanch va ta'sirchan kuch bo'lib xizmat qilib kelmoqda<sup>71</sup>.

Ma'lumki, asrlar mobaynida mahalla yachaykasi sifatida mavjud bo'lib kelayotgan oila, har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi.

Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e'tibor berishimiz lozim. Ya'ni, kommunistik mafkura va uning axloq normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shlikdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan «ommaviy madaniyat» yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak<sup>72</sup>.

Tabiiyki, «ommaviy madaniyat» degan niqob ostida individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'yaydi. Bularning barchasi tolerantlik madaniyatini milliy va umumbashariy qadriyatlarga aylantirish masalasining qanchalik muxumligini ko'rsatib turibdi.

Ayniqsa o'zbek xalqining milliy mentalitetiga xos bo'lgan mazkur qadriyat o'zida ham umuminsoniy ham mintaqaviy va milliy jihatlarni chambarchas bog'likda aks etiradi. Tolerantlik madaniyatni har bir insonning fikri, nuqtai nazari, dunyoqarashi, e'tiqodini qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilish turli millat va elat vakillarining bir - biriga axillikda yashashga intilishidir, zero inson tug'ilib o'sib yurgan vatani yoki maxallasida tolerantlik madaniyatni ostida ulg'aygan bo'lsa unday insondan xech qachon g'arazli maqsad chiqmaydi. Oilada, maxallada

<sup>71</sup> Karimov I. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. –Toshkent: O'zbekiston, 1996 - B.23

<sup>72</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch.- Ma'naviyat, Toshkent:2008 - B.117.

tolerantlik madaniyati ijobiy kayfiyatı darajasiga ko'tarilgan bo'lsa bunday jamiyat xar doim tolerantlik madaniyatini o'chog'i hisoblanadi.

Nulosa qilib aytganda, Maxalla inson uchun eng katta tolerantlik tarbiya maskani hisoblanib, bu oila bilan bog'liq holda amalga oshadi. Har bir inson o'z tabiatini bilan shunday tuzilganki u bag'rikenglik tushunchasini oila dargoxida komillik shaklida erishish uchun ko'p omillarga extiyoj sezadi, u bir o'zi bunday omillarni o'zida mujassain etish uchun maxalla va insonlar jamoasiga extiyoj sezadi. Tolerantlik madaniyati ruhida tarbiyalash masalasiga kechiktirib bo'lmaydigan vazifa sifatida qaralmog'i lozim. Buning uchun tolerantlik madaniyati o'yasini singdirish uchun yo'l va uslub ishlab chiqishga ko'maklashish, tolerantlik madaniyatining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va diniy mambalarni ochish yo'li bilan, individualizm, egotsentrizm g'oyalarning yoshilar hayotida buzg'unchi g'oya sifatida ko'rsatib berish lozim.

## **Роль семьи, махалли и образовательных учреждений в воспитании молодежи**

*Топилдиев Одилжон Рахимжонович*

*Заведующий кафедры «Социально-культурной деятельности»  
Наманганского государственного университета, к.и.н.*

С первых же дней независимости Республики Узбекистан уделяется отдельное внимание на проведение системных, поэтапных реформ в сфере воспитания молодежи и их духовного возрождения. В частности, в законе «Об основах государственной политики в Узбекистане в сфере молодежи» от 20 ноября 1991 года были обозначены суть и основные направления политики в сфере молодежи. Так же особо важное значение в воспитании здорового, высоко духовного, развитого поколения играют закон «Об образовании» от 29 августа 1997 года и «Национальная программа подготовки кадров», общенациональная Государственная программа развития Школьного образования в 2004-2009 годах, «Комплексная программа совершенствования правового образования молодежи», государственные программы «Год молодежи», «Год совершенного поколения», «Год здорового ребёнка», указ «О дополнительных мерах направленных на проведение государственной политики в сфере молодежи в

Республике Узбекистан» от 6 февраля 2014 года под №ГИК-2124<sup>73</sup> и другие нормативно-правовые акты.

В этом плане, в качестве важного фактора духовного воспитания имеют важное значение семья, махалля и образовательные учреждения. Здесь уместно привести следующие слова Президента И.А.Каримова «Нхождение жаждущей знаний талантливой молодежи и воспитание их патриотами своей Родины является священной обязанностью каждого»<sup>74</sup>. В самом деле, воспитание молодежи является важным обязательством не только семьи или образовательных учреждений, но и всей общественности. Сегодня нам нужна молодёжь с глубокой духовностью, обладающее самостоятельным мышлением. Решение этой важной стратегической задачи на сегодняшний день требует эффективного совместного действия семьи, махали, общеобразовательных учреждений и институтов гражданского общества. Так как, духовность, мировоззрение, навыки связанные с представлениями и верой молодежи формируются именно в семье, махалле и образовательных учреждениях. Особенно, формирование чувства преданности к судьбе народа и страны с детства занимает важное место в воспитании. Для этого с ранних лет жизни ребёнка необходимо ознакомление его с материальным миром и использовать формы соответствующие нашим национальным традициям. В этом процессе не использование по возможности чуждых нашему национальному быту «боевых» игрушек, мультифильмов, кинофильмов является требованием времени. Игры, игрушки, художественные книги, мультифильмы созданные на основе национальных сказок, отражающие восточное воспитанность и позитивное стремление человечества считается основным средством правильного формирования воспитания ребёнка. По этой причине необходимо сохранение священности, единства семьи, стремиться к воспитанию детей патриотами, гуманными, высоко духовными, воспитанными и развитыми. Здесь в целях объединения стремлений всех участников воспитательного процесса и сотрудничества семьи, махали и образовательных учреждений, для воспитания молодёжи духовно развитыми, патриотичными имеет важное значение координация деятельности широкой общественности.

<sup>73</sup> Указ «О дополнительных мерах направленных на проведение государственной политики в сфере молодежи в Республике Узбекистан» 6 февраля 2014 года под №ГИК-2124.

<sup>74</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият -- енгилмас куч. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б.11

Совершенствование духовного воспитания в семье и махалле считается одним из его основных вопросов, это вновь и вновь констатировалось со стороны наших великих предков. Таким образом, усиление духовно-нравственного воспитания остается актуальной задачей для каждого периода. Демократические ценности общества нашли своё отражение в семье, махалле и образовательных учреждениях. Действительно, толерантность, и такие редкостные человеческие качества как милосердие развились в условиях семьи, махали и образовательных учреждений. В этом деле, в формировании духовного воспитания в семье, махалле и образовательных учреждениях необходимо уделить внимание следующему:

- Изменения происходящие в нашей стране и события текущие в мире, неправильная информация распространяемая из интернета затягивают молодежь в водоворот различных информаций, становятся причиной отвлечения их мысли. Значит, в таких условиях привлекая с каждой семьи родителей, детей надо в махалле и учебных заведениях организовать «учебный час духовности» (раз в неделю или месяц) и привлекать к ним ведущих специалистов из различных отраслей освещающих эти события;

- Обращение внимания на мониторинг духовной среды в махалле и учебных заведениях, её совершенствование, профилактика некоторых отрицательных явлений бросающихся в глаза в духовной среде и воспитании детей некоторых семей;

- Становление примером в каждом деле родителям, активу махали и работникам учебных учреждений поможет ещё более совершенствованию духовного воспитания и быть на уровне требований.

В этом отношении основной задачей семьи, махали и образовательных учреждений является воспитание развитой молодежи отвечающей требованиям общества. Патриотизм молодежи начинается с воспитания в семье, махалле, образовательного учреждения, не ценящий свою семью, махаллю, место образования не станет ценить и Родину. Условия семьи, махали и образовательных учреждений в качестве фактора формирующего духовность личности стоит на ведущем месте. Кроме этого, каждая семья, махалля и учреждение образования в основе развития общества активно участвует в воспитании развитого поколения отвечающей требованиям времени.

Действительно, человек в своей семье, махалле, образовательном учреждении добивается к себе любви, уважения, внимания и защищается ими. Если так, то в каждой семье, махалле и образовательном учреждении большое значение имеет ведение духовного воспитания в гармонии с национальными ценностями. Воспитание молодежи нельзя строить на основании принуждения, важно, чтобы ребёнок выполнял требуемое на основе желания. Настоящий воспитатель держит ребёнка свободно, без ущемления, наоборот стимулирует. Для достижения этого от воспитателя требуется самому быть воспитанным, быть милосердным к другим и справедливым в отношении окружающих. Пример старших по возрасту в семье пробуждающих стимул к подражанию у детей является одним самых влиятельных факторов.

К мерам необходимым введения в дело сотрудничества семьи, махали и образовательного учреждения можно включить следующее:

- Решение на системной основе интересующие молодежь вопросы, жизненные интересы, занятость молодежи, правильная организация свободного времени молодёжи и других проблем;
- Организация различных циклов бесед, встреч (образцовые дома, ветераны войны и труда, писатели, поэты) в воспитании молодежи в духе патриотизма;
- Правильное постановление успеваемости, дисциплины учащихся, совершенствование на основе требований времени сотрудничества семьи, махалли и образовательных учреждений;
- Проведение семинаров тренингов в целях развития знаний и навыков предпринимательства молодежи на основе сотрудничества;
- Организация различных конкурсов, соревнований, интеллектуальных игр в формировании правового сознания и грамотности у молодежи;
- В целях изучения проблем молодежи проведение социологических исследований, социологических опросов в махаллях и образовательных учреждениях.

Заключая, можно сказать, что дела по проведению различных методов образовательной и воспитательной работы имеет важное значение в воспитании физически здорового, духовно развитой молодежи. Так как, в новом тысячелетии судьбу государств, народов будут решать не материальные богатства а интеллектуально полноценная, зрелая и высоко духовная молодежь.

Поэтому, сейчас в стране проводятся полноценные работы в сфере обеспечения беспрерывного, органически связанных образования и воспитания.

## Buxoro amirligi Qushbegi arxivsi

*B. Abbosov*

*NamDU Arxivshunoslik kafedrasini o'qituvchisi*

*M. Mirzaabdullaeva*

*NamDU Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti Arxivshunoslik yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Mustaqillikka erishgandan so'ng arxiv ishining istiqbolli rivoji muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki arxiv materiallari asosida moziy aboqlari, o'tmish tajribalarini o'rghanishning nafaqat nazariy, balki dolzarb amaliy ahamiyati bor. Arxiv ishining rivojida esa tarix ya'ni Vatanimiz tarixini xolisona o'rghanish davlat siyosati darajasigacha ko'tarilishi xam katta ta'sir ko'rsatmoqda. Chunki Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganlaridek: "O'zlikni anglash tarixni biliishdan boshlanadi".<sup>75</sup>

Vatanimiz tarixini o'rghanish chog'ida arxiv hujjatlariga murojat qilar ekanmiz qadimgi davrdan xozirgi kungacha arxiv hujjatlari bizgacha to'liq xolatda yetib kelmaganligiga guvoh bo'lismiz mumkin. Markaziy Osiyoda arxiv yozuv bilan bir paytda paydo bo'lgan bo'lsada, o'zaro feodal urushlar, vayronagarchiliklar natijasija qadimgi davlatlarning, xonliklarning arxiv hujjatlari to'laligicha yetib kelмаган. Qo'qon va Xiva xonlari arxivlari, Buxoro amirligining qushbegi arxivsi saqlanib qolgan xalos.

Ularda XIX asrga oid hujjatlarning bir qismigina saqlangan xolos, Markaziy Osiyoni Rossiyasi imperiyasi bosib olgandan keyingi davr arxivlari, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrlarning hujjatlari to'la saqlangan.<sup>76</sup>

Buxoro amirligining qushbegi arxivsi haqida ma'lumotlarga to'xtalib o'tsak, Buxoro amirligi qushbegi arxivsi haqida uzoq vaqt xech narsa ma'lum emas edi. Lekin 1931-yilning dekabrida Buxoro arkidagi suvab tashlangan yerto'lidan arab alifbosida fors-tojik tilida yozilgan nomalar betartib holda hujjatlar topilgan. Dastlab bu materiallar Buxoro muzeysiaga keltirilib, chek tarzida saralanadi va tartibga keltiriladi. 1937-

Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.-Toshkent: Sharq, 1998.  
Gofurov N. Arxivshunoslik /ma'ruzalar matni. Namangan, 2008. 3-b.

1938-yillarda 77764 ta maktub O'zbekiston Markaziy Davlat arxiviga o'tkaziladi va bu majmuaga Buxoro amiri Qushbegisi fondi deb nom beriladi.<sup>77</sup>

"Buxoro amiri qushbegisi arxividagi hujjatlar XIX asr oxirlaridan to 1920-yilgacha bo'lган davrga taalluqlidir. Ular orasidagi Buxoro - Rossiya diplomatik va savdo munosabatlari doir qismi shu kunlarda Moskvadagi qadimiy hujjatlar Markaziy davlat arxivida saqlanadi"<sup>78</sup>. Moskvada saqlanayotgan hujjatlar Buxoro, Xiva va Balxning Rossiya, Hindiston va boshqa mamlakatlar bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalar tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>79</sup>

Bundan tashqari, Rossiya imperiyasi Kitobbekligini bosib olish jarayonida Jurabek Qalandar xoji o'g'li saroyidagi sharq qo'lyozma asarlaridan iborat kutubxona to'liqligicha qo'lga olinadi<sup>80</sup> va metropoliya muzeylariga olib ketiladi.

Quyida Rossiya imperiyasi qo'shinlarining Buxoro amirligidagi Kitobbekligini bosib olish jarayonida qo'lga kiritilgan va metropoliya muzeylariga olib ketilgan noyob qo'lyozmalar ro'yxati keltirib o'tilgan.

Kitobbekligidan olib ketilgan qadimiy va noyob kitoblar ro'yxati:

1. Majma' al-g'aroyib tasnifi Sulton Muhammad.
2. Tarixi Mavlono Vosify.
3. Tarixi sharafnomai Shohiy.
4. Saxdfat ul-ahkom.
5. Devonm Mirzo Shavkat.
6. Tazkirai Davlatshohiy va Mir Sayyid Sharif Rohim.
7. Xulosat ul-axbor va tarixi Chingiziy va avlod.
8. Jildi oxir. Tarixi ravzat us-safo Xudobandshoh.
9. Fatvoysi Ibrohimshohiy.
10. Natoij al-afkor. Odarhi Hidoya.
11. Natoij al-afkor. Sharhi Hidoya mujallidi.
12. Hoshiyai sharxl vajiz xururi. vaqf (Hoshiyai sharx. i va juz'i. shururi vaqf)
13. Mabasutv Saraxsiy. Vaqf.
14. Tayaabya Mavlono Yusufiy. Nazmu nasr.
15. Akoidi mulla Jalol Davonky.
16. Devonii g'azaliyoti Umarxon mutahallusi Amir.

<sup>77</sup> Boltabayev B. Arxivlarning umumiy tarixi va jahonning yetakchi arxivlari //ma'ruzalar matni. - Namangan, 2013.-24 b.

<sup>78</sup> www.archive.ru

<sup>79</sup> Jumayev U. O'rta Osiyo va O'zbekistondagi arxiv ishlari. O'zbekistonning asosiy arxivlari - Toshkent, 2010.-4b

<sup>80</sup> O'zR MDA. I-1 jamgarma, 15-ruyxat. 69-yilg'ma pld. 66 yanig'

17. Tarixi Mir Sayyid Sharif Rohim.
18. Xamsai Amir Navoyi.
19. Daftari avval. "Hadoyai sharif".
20. Matavli sharhi talxis al-miftoh.
21. Risolai dar ilmi tibb musannif.
22. Majma' naqliyot va voqeai Mirzo Hamdam.
23. Kitobi G'aribiy. Forsiy.

Hozirgi kunda sharqshunos - olimlarning bir guruxi mazkur hujjatlarni o'rGANISH, tahlil etish, tarjima qilish va ilmiy muomalaga kiritish bo'yicha ish olib bormoqdalar.<sup>81</sup>

Xulosa qilib shuni qayd etishimiz mumkinki, Buxoro amirligi qushbegisi arxivı ustida ishlash amirlikning XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy tarixini yoritishda muhim o'rIN tutadi. Ular orasidagi Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligi bilan ichki va tashki siyosiy masalalariga doir diplomatik yozishmalar, mansabdar shaxslarning joylardagi axvoli haqidagi xabarlar, soliqlar, xalq sayllarini o'tkazish, jinoyat-qidiruv, dehqonlar ko'zg'alonlari, amirlikdagi olimlar, xarbiylar, chet elliklarning kelishi, lavozimga tayinlash haqidagi yorliqlarni va boshqa hujjatlarni uchratish mumkin. Bulardan tashqari qozikalon va amir xazinasini yurituvchi devonbegiga oid rasmiy hujjatlar xam mavjud. Bugungi kunda ushbu hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida saqlanmoqda.

## Bugungi kun yoshlariga e'tibor

*A. Asqaraliyev, as. D. Xakimova*

*NamMPI Menejmentlik yo'nalishi I-kurs 1mj-14 guruh talabasi*

Bugun biz tinch, osoyishta, o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik va fuqarolik jamiyati qurishdek vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan, ertangi kunga umid va ishonch bilan boqib turgan xalqmiz desam, o'ylaymanki xato qilmagan bo'laman. Bu bizning davrimiz globallashuv jarayonida, intellektual asrda kechmoqda. Har qanday davrda, har qanday davlatda eng asosiy e'tibor yoshlarga qaratiladi. har birimiz bu hayot haqiqatini ya'ni ertangi kunni yoshlar barpo etishini yaxshi bilamiz. Shu o'rinda Prezidentimiz "Qaranglar hozirgi yoshlarimiz qanday ko'z bilan, qanday pok niyat bilan, qanday ezgu orzu umidlar bilan ertangi kuniga intilmoqda. Men televizorda

\* Boltaeva B. Arxivlarning umumiy tarixi va jaxonning yetakchi arxivlari // Matuzalar matni. Naunangan, 2013.-24

ularning yurak so'zlarini eshitib, beixtiyor hayajonga tushaman. o'z hayotimdan rozi bo'laman. Nega deganda bu yoshlar ertangi hayotimiz"<sup>82</sup>. Deb, aytgan gaplari ayni haqiqatdir. Bugungi kunda davlatimizda Prezidentimiz boshchiligidagi qator islohotlar o'tkazilyaptiki, ularni asosini va asosiylarini yoshlar mavzusida ekanligi, ularning ta'lim-tarbiyasiga qaratilayotgani quvonarli hol. Imkoniyatlar katta! Shu imkoniyatlardan foydalangan holda bugun O'zbekiston yoshlari hayotning barcha jabhalarida ulkan yutuqlarga erishib kelmoqdalar. Bugunning yoshlari ma'naviyatda, iqtisodiyotda, siyosatda, ijtimoiy hayotda, qo'yinki barcha tarmoqlarda kelajak sari shunday odimlab bormoqdaki go'yo ularni hech qanday kuch bu yo'ldan to'xtata olmaydi. Bu yo'da hech shubhasiz ayta olamanki ma'naviyat va madaniyat, ilmu ma'rifat hayotimizning asosini tashkil qilmoqda. Tarix sahifalari shuni ko'rsatadiki yuqoridagilarsiz yashash mumkindir. Lekin hayot kechirib bo'lmaydi. "Ilmu ma'rifat insonni yuksaklikka ko'taradi. XXI asrda men ishonaman, madaniyat uchun, ilmu ma'rifat uchun jonini beradigan va hayotining asosiy maqsadi qilib qo'yadigan yangi avlod paydo bo'ladi"<sup>83</sup>. Prezidentimizning har bir yoshlarga murojati, ishonchi, qo'llab quvvatlashi, suyanch bo'lishi biz yoshlarga iftixon, g'urur, kuch-qudrat bag'ishlaydi. Nima uchun yuqorida yoshlarni hech qanday kuch to'xtata olmaydi, deb aytdim. Chunki biz Prezident farzandlarimiz. Bizning tayanchimiz, madadkorimiz, Prezidentimiz, biz uchun g'amxo'rlik qilayotgan davlatimiz, O'zbekiston Respublikasi bor. Shuning biz yoshlarga har qanday to'siq muammo emas. To'g'ri besh qo'l barobar bo'lмаганидек, ба'зи bir yosh avlod vakillari turli yo'llarga, oqimlarga kirib qolmoqdalar. Xo'sh bunga nima sabab bo'limoqda? degan savol tug'iladi. Demak qilinadigan vazifalar yana bor. Globallashuv jarayonining salbiy ta'sirlariga yo'q deya olmayotgan yoshlarning ertangi kuni haqida qayg'urishimiz kerak. Ularning bunday yo'llarga kirib qolishida barchamizning aybimiz bor. Mana shunday hollarda ta'lim tarbiya degan sharqona qarashlarga alohida to'xtalib o'tishimiz shart. Chunki bu ikki so'z ertangi kunni belgilab beruvchi asosiy omildir. Tarbiya bu insonning o'zi va o'z xulqi haqidagi tasavvurining to'g'ri va xolis bo'lishini ta'minlovchi murakkab jarayon hisoblanadi. Inson kamolotga erishish jarayonida jamiyat ta'siri natijasida o'z tarbiyasi va dunyoqarashini ortirib boradi. Mavjud olamda inson ruhiy rivojlanish xususiyatga ega. Bu jihatdan Imam G'azzoliyning "Inson farishta va hayvon orasidagi mahluqdir. Hayvon

<sup>82</sup>Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi.-Toshkent: 2000.

<sup>83</sup>Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi.-Toshkent: 2000.

rivojlanmaydi, chunki uning kamolot quvvati (tuyg' u irodasi) yo'q. Farishta ham rivojlanmaydi, chunki uning o'zi pok. ilohiy nurdan iborat. Faqat insonda rivojlanish, ruhiy kamolot xislati mavjud<sup>84</sup> deb aytilgan so'zlar inson ma'naviyati va tarbiyasi, uning kamoloti jarayonida ro'y beradigan o'zgarishlarga qaratilganidan dalolat beradi. Xamda "Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir"<sup>85</sup>. Abdulla Avloniyning bu fikri va Prezidentimizning: "Ta'lim-tarbiya-ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliv maqsad-ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi"<sup>86</sup>. Bu so'zlar fikrimizni qayta va qayta isbotlamoqda. Agar yosh avlodga to'g'ri tarbiya berilsa, ertaga ular shubhasiz yuksaklarga parvoz qiladi. Umuman olganda, tarbiyaga oid insoniyatning boy ma'naviy xazinasidan munosib o'rin olgan tarixiy, milliy, ma'naviy-madaniy merosimiz, urf-odatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlarimizdan ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli foydalanish, o'sib kelayotgan barkamol shaxsni vatanparvar, fidokor, yuksak madaniyatli hamda ma'naviyatli qilib tarbiyalashning asosiy omillaridan biridir. Umuman olganda, tarbiyaga oid insoniyatning boy ma'naviy xazinasidan munosib o'rin olgan tarixiy, milliy, ma'naviy-madaniy merosimiz, urf-odatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlarimizdan ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli foydalanish, o'sib kelayotgan barkamol shaxsni vatanparvar, fidokor, yuksak madaniyatli hamda ma'naviyatli qilib tarbiyalashning asosiy omillaridan biridir. Lekin bu sohadagi zarracha kamchilik ertaga o'rmini qoplab bo'lmaydigan darajada katta zararni keltirib chiqarishi aniq. Shularni nazarda tutgan holda bugun bor e'tibor to'g'ri ta'lim-tarbiya berish, o'qituvchi, murabbiylarning kasbiy mahorati, zamonaviy o'quv uslublariga qaratilmoqda. Jumladan 2004-2009-yillarda "Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi" qabul qilindi, oliv o'quv yurtlarida sohalar bo'yicha chuqur bilimlar berilishi yo'lga qo'yildi. Davlatning asosiy moddiy bazasining sarfi ta'lim-tarbiya, yoshlar uchun sarflanmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra ta'lim olish uchun yaratilgan imkoniyatlar 94, 35% ni tashkil qilmoqda. Bu katta ko'rsatkich. Bu ham bo'lsa yosh avlodning taqdiri, davlatimiz taqdiri degan g'oyani asosidir. Shu o'rinda bir mushoxada

<sup>84</sup> Komilov N. Tasavvuf Ikkinchí kitob.-Toshkent: Adabiyot va san'at hamda O'zbekiston, 1999.-B.149.

<sup>85</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-vengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat,-2008.

<sup>86</sup> Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi.-Toshkent: Sharq, 2000.

yuritib ko'raylik yoki davlatimizdagi bu ko'rsatkichlarni, natijalarni boshqa bir davlatdagi vaziyat bilan bilan taqqoslab ko'raylik, kerak bo'lsa du'yoning eng boy mamlakatlarda ham bunday sharoitlar maxjud emas. Misol tariqasida ko'p rivojlangan mamlakatlarni keltirishimiz mumkin. Lekin men uzoqqa bormasdanqo'shni respublika Qиргизистон то'ғ'рисида гапирадиган бо'лсан, у ўердаги юшларга, та'лим-тарбиya yo'nalishiga e'tibor, ajratilayotgan mablag' deyarli sezilmaydi. Zamonaviy xonalar, texnologik va elektronik dars jarayonlari u yoqda tursin, mahalliy maktablarning o'quv binolariqulab tushgiday bo'lib turgani, achinarli hol. Yana bir achchiq haqiqat, Afrika mamlakatlarda hatto o'qish va yozishni bilmasligi, ularning soni esa ancha ko'pqismni tashkilqilishi hamda har besh soniyada bir go'dakning to'yib ovqat yemaslik hamda ocharchilik tufayli bu yorug' dunyonи tark etayotgani, harqanday kishini o'ylashga, fikrlashga chorlaydi. Ana endi o'zimizga savol berib ko'raylik. Ularning aybi nima? O'sha mamlakatda tug'ilganimi? Biz ham ulardek, ana shunga o'xshash mamlakatlarda tug'ilib, yashashimiz mumkinmidi? Hayotdan noluvchi, bugungi kuniga shukurqilmayotgan yoki havolanib ketayotgan, oyog'i yerdan uzilibqolgan yoshlar yuqoridagi savollarni o'zlariga berib ko'rsalar yomon bo'lmasdi. Balki o'shanda ona davlatimiz, O'zbekistonimiz jannatqaqiyoslanganidek, jannatmakon go'sha ekanligiga, bizdagи bor imkoniyatlar, yaratilayotgan sharoitlar naqadar kengligiga amin bo'lishar. Men har doim prezidentimizning bir video lavhasida aytgan gaplarini takror va takror ko'raman, unda prezidentimiz bugungi yoshlarini, ularning ertangi kunga intilishini, ko'zlari porlab turganini ko'rsam menda go'gokiqanot paydo bo'ladi, yanada ko'proq ishlashga kuch-g'ayrat topaman, degan ma'nodagi gaplari meni jo'mbushga keltiradi. Harqanday mustaqil fikrkay oladidan, yosh avlod vakillari bunday gaplardan so'ng, albatta yanada yuqoriroqqa parvoz qilgisi keladi. Nima uchun parvoz qilmayin! Axir bizga qanot bo'laman deb turgan prezidentimiz. I. A. Karimov bor! Kuch-g'ayratga to'lgan, ilmga chanqоq, o'z bilim va ko'nikmalariga, maqsadlariga ega bo'lgan yoshlar, qani olg'a. Bu bizning diyor, shunday yuksaklarga parvoz qilaylik-ki, butun dunyo O'zbekiston deb atalmish jannatmakon diyorni va unda vujudida vatavim manim O'zbekiston deb urayotgan yurak sohiblari, yoshlari borligini bilsin. Bilsin. O'zbekiston yoshlari vatani uchun, xalqi uchun, uning nurli istiqboli uchun har lahzada, harqanday sharoitda, har qanday vazifaga tayyor ekanligini. Biz yoshlar bir narsani unutmaslimiz shart. Kelajak yoshlar qo'lida! Ertangi otajak tongning musaffo, tinch va osoyishta bo'lishi shart. Bu shartni bajarish uchun esa.

oddiygina, barcha yoshlarning qo'lidan keladigan, bajara oладиган бoshqa bir shartni bajarish lozim. Bu ham bo'lsa ilmu ma'rifat yo'lidan, faqat oldinga qadam tashlamoqdir. Zero, har qanday kuch ilmdan, ma'naviyat va marifatdan ustun bo'la olmaydi.

## Oila - mustahkam ma'naviyat makonidir

*Xurshid Mirzaxmedov - o'qituvchi*

*Namangan davlat universiteti*

*Shahlo Qo'chgorova- talaba, Namangan davlat universiteti*

Yer yuzidagi barcha muqaddas kitoblarning mohiyatida bir narsa-ezgulik mujassamdir. Yahshilik-inson hayotining mazmuni. Inson harakterini, tabiatini va dunyoqarashini, qo'yingki, insonning insoniyligini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar mehr-oqibat, or-nomus, uyat-andisha kabi tushunchalar borki, ularning poydevori avvallo oilada shakllanadi, oilada qaror topadi. Ulug' adib Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida xalqimizga xos bo'lgan o'lmas qadriyatlarimiz, ruhiy ma'naviy boyliklar ta'sirli ifoda etilgan. Yusufbek hojidek millatning ma'naviy otalari qo'lida tarbiya oлган Otabek ham, Ostob oyimdek andishali, ma'rifatli onalar mehriga qongan Kumushbibi ham o'zining aql-husni, farosati va barcha insoniy fazilatlarini oilasida bag'rida o'zlashtirgan.

Prezident I. Karimov oilaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'nani barkamol bo'lib voyaga yetishida quyidagi fikrlarni keltiradi: "Insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi..."<sup>87</sup>

Bugungi kunda jismoniy jihatdan baquvvat bo'lgan odamni tarbiyalash unchalik qiyin emas, ammo uni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan kamol toptirish g'oyat murakkab vazifa hisoblanadi. Chunki bugungi kunda – mafkuraviy kurashlar, ma'naviy tahdidlar o'z ta'sirini kundan-kunga kuchaytirib bormoqda. Ana shunday mafkuraviy kurashlarga qarshi tura olishdek ma'naviyatli insonni tarbiyalash oila va undagi jamoa zimmasiga yuklanadi. Oilada sog'lom ma'naviyatni yuksaltirish, uning muqaddasligini saqlovchi eng muhim omillardan biri, bu eng avvalo ota-onaning o'zaro bir-biriga munosabati, odob-ahloq, insoniy munosabatlarga bog'liq ekanligi hech kimga sir emas.

Karimov I. A Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. T. "Ma'naviyat" 2008-yil 52 bet

Jamiyatda har bir narsa o'zaro aloqadorlik asosida, bir-biriga ta'sir etib, rivojlanib borgani singari, hozirgi ilm-fan taraqqiyoti, yohud globallashuv jarayonlari oilaga, oilaviy munosabatlarga jiddiy ta'sir o'tkazmoqda, aynan oilaviy munosabatlar ayrim insonlarni ma'naviy qashshoqlik darajasiga olib kelib qo'yemoqda. Xo'sh, bizda o'z-o'zidan nimaga degan savol tug'iladi. Chunki jamiyatning ma'naviy taraqqiyotini oila deb atalmish muqaddas dargoh belgilab beradi. Shu o'rinda Prezident I. Karimov: "Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo'l qo'ymaslik uchun avvalo har qaysi xonadondagi ma'naviy iqlimni o'zaro hurmat, ahloq-odob, insoniy munosabatlar asosida qurish ayni muddaodir..."<sup>88</sup>

Bu yerda ma'naviy iqlim deb, inson ruhiyatining, qalbining to'g'ri shakllanishida muhim rol o'ynaydigan muhit nazarda tutilmoqda. Chunki iqlimning qanday bo'lishi yosh avlodning, demakki, ertangi kun egalarining qanday insonlar bo'lib yetishishini belgilaydi.

Oila shunday makonki, unda hayotning davomiyligini ta'minlovchi shaxs shakllanadi, milliy madaniyat, urf-odatlar axloqiy qadriyatlar saqlanadi va rivojlantiriladi. Har bir oila ahil va totuv bo'lsa demakki, jamiyatda ham tinchlikka va hamjihatlikka erishiladi, yurtda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Chunki oilani bekorga jamiyatning kichik ko'rinishi yohud ma'naviyat o'chog'i demaydilar. Xuddi jamiyatda bo'lgani singari unda ham o'zining boshlig'i shuningdek uning izmi va ko'rsatmalari bilan u yoki bu ishni bajaruvchi a'zolari bo'ladi. Dono tadbirdor, uzoqni ko'ra biladigan rahbardan jamiyat taraqqiyotini boshqarish talab etilsa, oila kattalari ham o'z uyining tinchligi farovonligi, farzandlarining, ma'naviy kamolotiga shunchalik mas'uldirlar. Yurtboshimiz ma'naviy sog'lom oila muhitida tarbiyalangan farzandlarimizni el-yurting umid ishonchi suyanadigan tog'i deb hisoblab, quyidagi fikrlarni doimo ta'kidlaydi. "Baxt-u saodat faqat boylik, mol-u mulk bilan belgilanmaydi. Odobli bilmndon, va aqlli ma'naviyati yuksak farzandlar nafaqat ota-onaning, butun jamiyatning eng katta boyligidir. Shaxsning kelajagi, ma'naviy jihatdan kamol topishi oiladagi muhitga, undagi tarbiyaning qanday amalga oshirilishiga, ota-onaning o'z burch va vazifalariga qanday munosabatda bo'lishiga chambarchas bog'liqdir.

Xulosa qilib, bularning barchasi inson tarbiyasida, uning ma'naviy kamolotida oila muhiti muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Mustaqillik yillarda yurtimizda oilalarni har jihatdan mustahkamlash borasida ulkan sa'y-harakatlar amalga oshirildi. Jamiyatimizning asosi bo'lmish oila

<sup>88</sup> Karimov I. A Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. T.: "Ma'naviyat" 2008-vil 55 bet

institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish. oilalarning ayniqsa, yosh oilalarning huquqiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo'llab-quvvatlash, uni kuchaytirish borasida olib borilayotgan barcha ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, jismonan sog'lom ma'naviy yetuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirishga doir aniq maqsadga yo'naltirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida Ozbekiston respublikasi Prezidentining "Mustahkam oila yili" davlat dasturi to'g'risidagi qarori e'lon qilindi. Ushbu fikrlar O'zbekistonda oila davlat siyosati darajasiga ko'tarilganidan dalolat beradi. Oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyatdagi ma'naviy muhit ravnaqiga shu darajada mustahkam poydevor bo'ladi.

## **Yoshlar dunyoqarashi va globallashuv jarayonlari**

**D. A. Raximboyeva**

*Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti, falsufa kafedrasi  
dotsenti*

**S. Mutalov, NamDU talabasi**

Mustaqil yurtimiz bosqichma – bosqich bozor iqtisodiyoti tomon bormoqda. "O'zbek modeli" deb atalgan, tanlab olgan yo'limizdan og'ishmay ilgarilamoqdamiz. Davlatimiz siyosatida bir qator muhim masalalar ichida farzand tarbiyasi, o'sib kelayotgan yosh avlodning dunyo qarashini to'g'ri yo'lga qo'yish, ularni shu yo'ldan og'ishmay, borishligiga katta e'tibor qaratilmoqda. Yosh, sog'lom va barkamol insonni tarbiyalash bu kelajakni yaratish, mustaqillik tamal toshini mustahkamlash, shu barqaror taraqqiyot yo'limizni himoya qilish, uni ko'z qorachig'imizday asrash demakdir. Chunki XXI-asr texnika, axborotlar asri bo'lishi bilan birga, mafkuraviy beqarorlik va globallashuvning salbiy tomonlarini mavjudligi bilan farq qiladi.

Globalashuv – bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir<sup>89</sup>.

Darhaqiqat, tez va shiddatli o'zgarayotgan hayot makonida yashayotgan ekanmiz, har kungi yani axborotlar, informatsiyalar ta'siridan cheklanmaymiz. Shuning uchun ham har bir axborotni to'g'risini xatosidan, chinidan soxtasini ajratib olmoq zarur. Buning uchun esa xar bir inson, ota-onasi, xar bir fuqaroda, internetdan, axborotdan foydalanish madaniyati bo'lishi kerak.

Oilada, jamiyatda, xar bir muassasa va tashkilotda bu masalaga doir ma'lumotlar bo'lishi lozim. Shuning uchun eng asosiysi, oilada ota-onas, qarindosh-urug'lar, xonardon fayzi bo'lgan bobolar-u-momolar, ularning pand-nasixatlari, o'gitlari, xar doimgidanda chuqur, muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda, chunki so'zning sexri, kuchi, qudrati katta, agar so'zda ma'no, mazmun, hayot tajribasi, hayot falsafasi o'z ifodasini topgan bo'lsa. Axloqiy tarbiya xalqimiz urf-odatlari ichida muhim o'rinn tutgan va tutib kelmoqda. Chunki u yoshlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlik, nodonlikdan saqlovchi bir ilmdir. Vaholanki, qolgan barcha tarbiyaning asosi zaminidir. Yoshlarining axloqini go'zal, chiroyli bo'lishida bu tarbiyaning o'rni kattadir. Lekin shu bilan birga bu tarbiyani farzandlarimiz oila, ota-onas deb atalmish ne'matlardan oladilar. Har bir yosh avlod uchun dastlabki na'muna o'chog'i oiladir. Undagi sog'lom, samimi, pok muxitdir. Shuning uchun xam xalqimiz orasida "Sut bilan kirgan jon bilan chiqar" degan qimmatli naql bor.

Bazan o'z farzandlariga e'tiborsiz, mas'uliyatsiz bo'lgan ota-onalar, xattoki ichimizda farzandi qaysi maktabda, nechanchi sinfdagi o'qiyotganini bilmaydiganlar xam bor. Mana shu e'tiborsizlik, loqaydlik, beparvolik yomon oqibatlarga olib keladi. Bola oiladan topolmagan e'tiborni tashqaridan topadi. Har xil yot, begona g'oyalarga beriladi. Chunki u xali yaxshi bilan yomonni ajratolmagan.

Yurtboshimiz "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" nomli kitoblarida o'sha davrda juda ko'p xal qilinishi zarur bo'lgan muammolarga qaramay, yoshlar tarbiyasiga katta e'tibor qaratib "Yoshlarimizni begonalarning qo'liga o'z ixtiyorimiz bilan topshirmasligimiz kerak. Yoshlar uchun, ular chin inson, o'z diyorining, o'z mamlakatining chinakkam vatanparvarlari bo'lib o'sishlari uchun faol kurashmog'imiz lozim"<sup>90</sup> deb ta'kidlagan. Yoshlarni komil inson ruhida tarbiyalash, milliy istiqlol mafkuramizda ham o'z ifodasini topgan. Vaxolanki, Milliy mafkuramiz milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida shakllanmoqda. Axloqiy tarbiya doimo jamiyatda muhim rol tutib kelmoqda. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tarbiyaning asosi oiladan boshlanadi. Shuning uchun xam oila muassasa va tashkilotlar globallashuv jarayonini mafkuraviy, g'oyaviy ta'sir o'tkazishining muhim omiliga aylanib borayotganini chuqurroq anglab yetmog'i lozim. Buning uchun xar bir insondan mas'uliyat, ogoxlik, extiyotkorlik talab etiladi. Jumladan I. Karimov "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" asarida "Barchamizga ayon bo'lishi kerakki qayerdaki beparvolik va loqaydlik xukm sursa, eng dolzarb masalalar

<sup>90</sup> Karimov I. O'zbekiston Mustaqillikka erishish ostonasida. -Toshkent: O'zbekiston, 2011.-B.62.

o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha qaverda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql idrok va tafakkur xukmron bo'lsa ma'nviyat quadratli kuchga aylanadi<sup>91</sup>". Jamiyatimizda katta-katta o'zgarishlar, islohotlar amalga oshirilayotgan ekan, shu bilan birga bizning ruhiyatimizga, qadriyatlarimizga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan ayrim "ommoviy madaniyat" niqobi ostida g'oyalar xam kirib kelmoqda. Buning negizida I. Karimov ta'kidlaganidek "Axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, qo'porishga qaratilgan xatarli ta'ziqlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi<sup>92</sup>". Shuning uchun xam mana bunday ziddiyatli, g'oyaviy barqaror bo'limgan muxitda yashayotgan ekanmiz milliy va diniy qadriyatlар, hamda umummilliyl qadriyatlardan to'g'ri, oqilona foydalanmoq, ularni o'z o'mida qo'llamoq, dunyoviy qadriyatlarni esa milliy mentalitetimizga qay darajada mosligi va mos emasligini ajratib olib o'zimizning xolis munosabatimizni bildirmog'imiz lozim. Chunki turli g'oyalarning mazmuni ularning asosida qanday maqsad va qanday kuchlarning manfaati, maqsadi yotganligini ajratib olmog'imiz va ularni yosh avlodga to'g'ri singdirmog'imiz kerak.

Mustaqil, kelajagi buyuk davlatimizni dunyo tanimoqda, turli ma'daniy va sport musobaqalarida O'zbekiston nomini jahonga tanitayotgan Alpomishdek kuch-qudratga ega bo'lgan, jismongan sog'lom, ruhan tetik har bir qadamlaridan o'zbekona g'urur, mardlik ifodasi barq urib turgan yigit-qizlarimizdan farqlanmay iloji yo'q. Mustaqillik yillarda yosh avlodni vaqtini to'g'ri taqsimlash, ularning maqsadli, mazmunli mashg'ulotlar bilan band qilish masalasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Kundan kunga chiroy ochib borayotgan hudud va tumanlardagi sport maydonchalari, turli xil o'quv markazlarini muntazam ishlab turishi xar bir insonda zavq-shavq uyg'otadi. Demak, davlatimiz siyosati yosh avlodni jismongan sog'lom, vaqtini foydali o'tkazishga katta e'tibor bermoqda. Chunki sog'lom oiladagi sog'lom ona-sog'lom bola shu oilaning baxti emas, balki jamiyatning ham baxtidir. Shuning uchun xam vaqtini to'g'ri taqsimlash, bu masalani bajarilishini nazorat qilish muhim masalalardan biridir. Mutaxasislarning likriga ko'ra, yomon odatlarga moyil bo'lish, yoshlarni tashqi tasirlarga berilishi bu- bor narsa. Shunday ekan, dunyoga sog'lom, to'rt muchchasi

Karimov I. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2009.-B.116.

Karimov I. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2009.-B.117.

mukammal bo'lib farzandning tug'ilishi bu olloh bergen nematlardan biridir. Lekin buning uchun eng avvalo ota-onam ham salomatlikning qadriga yetishi, yomon odat bo'lgan tamaki chekish, spirtli ichimliklar ichish, nopol, axloqsiz ishlardan tiyilmog'i kerak.

Sog'liqni saqlash va salomat bo'lishning yo'llari va usullari ko'p, uni oilada amalga oshirilishi yoshlar uchun katta ahamiyatga ega. Jamiyatda xar bir inson sog'lom bo'lishi, tarbiyasi yaxshi va mexnatkash bo'lishi davr taqozosidir. Sog'lom turmush tarzi, salomatlik haqida A. Navoiy aytgan purxikmat so'zda: "Sihat tilasang - ko'p yema, Izzat tilasang ko'p dema" o'z ifodasini topgan. Bag'rikeng xalqimiz xatto dushmanlarga xam yaxshilikni ravo ko'rgan. Bu insoniy fazilatlar albatta tarbiyaning natijasidir. Xayotda tarbiyachining o'zi tarbiyalangan bo'lishi lozimdir. Jumladan fayylasuf Suqrot "Tarbiya qiyin ish va tarbiya shart-sharoitlarini yaxshilash xar qanday kishining ham muqaddas burchlaridan biridir. zero o'zini va tevarak atrofdagilarni ma'lumotli kishidan ham ko'ra muximroq ish yo'q"- degan edi. Xayotda yashamoq-bu ishlaromoq, mexnat qilmoq, ijod qilmoq, jamiyatga foyda keltirmoqdir. Shuning uchun ham biz yosh avlodni shunday qadriyat ruhida to'g'ri tarbiyalamog'imiz lozimdir.

### Jadidechilik harakati tarixshunosligi

*Tohirjon Qozoqov*

*«Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari» kafedrasi katta  
o'qituvchisi, tarix fanlari nomzodi*

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingina jadidchilikka ob'eaktiv-xolisona baho berish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu o'rinda tarixchi va adabiyotchi olimlarimizning xizmatlari beqiyosdir. Jadidchilik harakati mohiyatini ochib berishda adabiyotchi olimlarimizdan U. Dolimov, Sh. Rizayev, Sh. Turdiyev, B. Qosimov, S. Qosimov va boshqalarning bir qator maqola va risolalari muhim o'rin tutadi.

Jumladan, B. Qosimov o'zining Ismoilbek Gaspiraliga bag'ishlangan risolasida jadidchilikning kelib chiqish ildizlari, «Usuli savtiya» maktablarining ta'lif tizimi, jadidchilik harakatining mohiyatini ancha keng yoritib bergen. B. Qosimovning ushbu risolasi jadidchilikni umumturkiy jarayon va mustamlakachilikka qarshi qaratilgan ziyyolilar harakati sifatida olib qaralishi bilan ham qadrlidir.

Sh. Rizaevning «Jadid dramasi» asari ham, alohida e'tiborga molik bo'lib, o'rganilayotgan davr muammolari yechimini topish uchun ahamiyatlidir. Muallif o'z asarida jadid adabiyoti, xususan dramaturgiyasining paydo bo'lish sabablari, tarixiy-ijtimoiy sharoit, eskilik va yangilik o'rtasidagi g'oyaviy kurashlar, jadidlarning ma'rifatparvarlik harakati bosqichlari, yangi usul maktablarining ochilishi, taraqqiyatparvarlar asos solgan gazeta va jurnallar, dastlabki pesalar, jadid teatrchiligi tarixi kabi masalalarni yoritib bergen.

Shu bilan birga olim o'z asarida Turkiston yangi usul maktablari uchun jadidlар tomonidan nashr etilgan darsliklar, «Jamiyat hayriya» larning ochilishi, ularning maqsad va vazifalari haqida ham to'xtolib o'tadi. Kitobda Farg'ona taraqqiyatparvarlaridan H. H. Niyoziyning asosan dramaturgliq, qisman ijtimoiy faoliyati yoritib berilgan. U Hamza asarlarining sovet davridagi noto'g'ri talqini, zamonaga moslashdirilib, tarixiy haqiqatga zid holda talqin etilgani, Turkiston Muxtoriyatiga Hamzaning salbiy munosabatda bo'lib, satirik asarlar bitganligi haqidagi da'volarning mutlaqo asossiz ekanligini, aksincha, uning Muxtoriyat

g'oyasiga xayrihoh bo'lib, «Turkiston Muxtoriyatina» she'rini yozganligini ta'kidlab o'tadi.

Sh. Rizayev Hamza Hakimzodaning vafotidan so'ng adibning hayoti va ijodini kommunistik ideallarga sun'iy ravishda moslashtirish, uni o'z tabiiy muhitidan ajratib olishga urinish, uning asarlariga sayqal berish kuchayib ketganligi oxir-oqibatda adibning hayot faoliyatini, ijtimoiy-siyosiy qarashlariga bo'lgan munosabatni belgilashda muayyan noaniqliklarni keltirib chiqarganligini ta'kidlaydi.

Shu bilan birga A. A. Jalolovning «O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining rivojlanish jarayoni (XIX asr oxiri va XX asr boshlari)» nomli doktorlik dissertatsiyasida Farg'onaning atoqli jadidlaridan Cho'lpon, Hamza, Ashurali Zohiriyarning faoliyatiga to'xtalib o'tildi. Muallif A. Zohiriynning vatan, til, millat taqdiriga befarq qaramagan ma'rifatparvar ziyoli bo'lganligini, ma'rifatchining o'sha davr matbuoti sahifalarida e'lon qilingan maqolalari orqali isbotlab beradi<sup>93</sup>.

XIX asr oxiri XX asr boshlari Turkistondagi milliy-ozodlik harakatlari, xususan, jadidchilik harakati tarixini yoritib berishda tarixchi olimlarimiz ham so'nggi paytlarda talaygina ishlar qildilar. Bu o'rinda R. Abdullayev, S. A'zamxo'jayev, D. Alimova, H. Uzoqov, S. Xolboyev, R. Shamsuddinov va boshqalarning maqola va risolalarini keltirish o'rnlidir.

Jumladan, Turkiston jadidchilik harakatining atoqli vakillari ijtimoiy-siyosiy faoliyatlarini yoritib berishda tarixchi olima D. Alimovaning ilmiy tadqiqotlari g'oyat ahamiyatlidir. Uning maqola va risolalarida Mahmudxo'ja Behbudi, Munavvar Qori, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayevlarning jadidchilik harakati tarixida tutgan o'rnlari xolisona talqin etildi. Jumladan, ularda Turkiston jadidlarining rahnamosi Mahmudxo'ja Behbudiyni o'z vatanining dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoridan faqat bilim va ma'rifat taraqqiyoti tufayligina joy olishi mumkinligini ko'ra olgan, milliy vatanparvar deb ta'riflaydi<sup>94</sup>.

Tarixchi olim R. Shamsutdinov tomonidan chop etilgan ko'plab ilmiy maqolalar Farg'ona vodiysidagi jadidlar tomonidan tuzilgan «Taraqqiyatparvar» va «G'ayrat» jamiyatlari. bu jamiyatlarning rus

<sup>93</sup> Jalolov A.A. O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining rivojlanish jaravoni (XIX asr oxiri va XX asr boshlari): Filol. fanlari d-ri. dis... avtoref.- T., 1994.-B. 15,17.

<sup>94</sup> Alimova D Istoricheskoe mirovozzrenie djadidov i ix proektsiva buduushego Turkestana. Turkiston mustaqilligi va birligi uchun kurash sahifalaridan.-Toshkent Fan 1996.-S.11.

otsial-demokratlari bilan olib borgan aloqalari haqida qimmatli ma'lumotlarni beradi<sup>95</sup>.

Tarixchi olim S. S. A'zamxo'jayev o'zining Turkiston Muxtoriyati tarixiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda jadidlar tomonidan Andijon va Qo'qonda tuzilgan jamiyatlar, Turkiston Muxtoriyatini tashkil etishda ishtirok etgan Farg'onaliq jadidlar faoliyati haqida qisman to'xtalib o'tadi<sup>96</sup>. A'zamxo'jayevning tadqiqotlari Farg'ona vodiysidagi mahalliy ziyyolilar tomonidan tuzilgan tashkilotlar haqidagi yangi hujjatlarga boyligi bilan ham ahamiyatlidir.

Farg'ona jadidlari va ulamolaridan Sayyid Nosirxonto'ra, Ashurali Zohiriy va boshqalarning istiqbolchilik harakati tarixida tutgan o'rirlari tarixchi olim Q. Rajabovning ilmiy tadqiqotlarda atroflicha bayon etildi<sup>97</sup>.

Xuddi shuningdek, H. Uzoqovning tarix Fanlari doktori ilmiy darajasi olish uchun yozgan: «O'zbekistonda mustaqillik uchun kurash tarixi (1900-1940-yillar) (Jurnalistlar faoliyati misolida)» mavzusidagi ilmiy ishi ham bu sohada muhim ahamiyatga egadir. Ilmiy ish asosan milliy jurnalistika tarixiga bag'ishlangan bo'lsada, dissertatsiyaning birinchi bobi «Jadidchilik harakatining shakllanishi va o'sishi (1900-1917)» deb nomlanadi. Bu bobda Turkistonda ozodlik va mustaqillik uchun kurashgan milliy jurnalislarning faoliyat va qismatlari atroflicha yoritiladi. Muallif Turkistonda, xususan Qo'qonda tuzilgan dastlabki jadid tashkilotlari to'g'risida ham ma'lumotlar beradi. U Farg'ona taraqqiyparvarlaridan A. Zohiriy, Lutfulla Olimiy, Obidjon Mahmudov, Abdurahmon G'oyibiylar haqida ham to'xtalib o'tib, asosan ularning jurnalistik faoliyatiga baho beradi.

Taraqqiyparvarlik harakati tarixini o'rganishda xorijlik vatandoshlarimiz tomonidan chet ellarda chop etilgan asarlar, esdaliklar, maqolalar ham katta o'rin tutadi. Ularning ba'zilari bugungi kunda yurtimizda ham chop etildi. Bu kabi manbalar tarixiy voqeiylikni yoritishda siyosiy tayziqlarsiz, mafkuraviylashtirishdan holi holda yozilgani bilan ham qadrlidir.

Xorijlik tadqiqotchi Shahobiddin Yassaviy o'zining «Turkistonning aicheq haqiqatlari» nomli kitobida Farg'ona jadidlarining peshqadami Obidjon Mahmudov haqida ijobjiy fikrlarni bildirib, uning rahbarligi

Shamsutdinov R. Jadidchilik haqiqat va uydurma //Muloqot.-1991 -№11-12.- B.19-20.: o sha muallif: Andijonda jadidchilik harakati. Andijonna.-Andijon, 1992.-B.38.

<sup>1</sup> Agzamxodjayev S.S. Turkiston Muxtoriyati: Borba za svobodu i nezavisimost (1917-1918gg.); Vtoref Dis...d-ra. ist. nauk.-T., 1996.-S.29.;

Rajabov Q. Jadidlar Istiqbolchilik harakatining g'oyaviy rahnamolari. O'zbekiston tarixi: yangi chejl. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar. Toshkent: Eldinur, 1998.-B. 11-24.

ostida chiqarilgan «Sadoyi Farg'ona» va «Tirik so'z» gazetalari haqida ham atroflicha ma'lumotlar beradi<sup>98</sup>. Shuningdek, Ahmad Zaki Validiy (To'g'on) ning esdaliklarida Farg'ona jadidlaridan Ashurali Zohiriy, Abdulhamid Cho'lpon va boshqalarning ijtimoiy-siyosiy faoliyatları qisman yoritilgan<sup>99</sup>.

Respublikamiz tarixchi olimlarining sayı-harakatlari bilan keyingi yillarda jadidchilikka bag'ishlangan bir qator risolalar chop etildi va ilmiy anjumanlar o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va Jamiyat qurilishi Akademiyasi O'zbekistonning yangi tarixi Markazi tashabbusi bilan 1999-yil 7-8-yanvar kunlari tashkil etilgan «O'zbekistonning yangi tarixi. Kontseptual-metodologik muammolar» mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy anjumanı. huddi shu yil 16-18-sentyabr kunlari o'tkazilgan «Markaziy Osiyo XX asr boshida: İslahotlar, yangilanish, taraqqiyot va mustaqillik uchun kurash (jadidchilik, muxtoriyatchilik, istiqlolchilik)»<sup>100</sup> mavzusidagi anjumanlar jadidchilik tarixiga oid yangi ma'lumotlarga boyligi bilan katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur anjumanlarda jadidchilik harakati tarixi bilan shug'ullanuvchi xorijlik tadqiqotchilar ham ishtirok etdilar.

Ushbu anjumanlarning ahamiyatli tomoni yana shunda bo'ldiki. Turkistondagi jadidechilik harakati nafaqat Respublikamizda balki, xorijdagи tadqiqotchilar tomonidan ham chuqur qiziqish bilan o'r ganilayotgani ma'lum bo'ldi, hamda bu harakat XX asr boshlarida Turkistonda milliy-ozodlik harakatiga aylanganligi e'tirof etildi.

O'zbekistonning yangi tarixini birinchi kitobida jadidchilik harakati tarixiga ham keng o'r in ajratilgan. Jumladan, unda, jadidchilikning vujudga kelish omillari, yangi usul mакtablarining tashkil etish zaruriyati va sabablari, jadidlarning siyosiy faoliyatları, jadid matbuoti, teatri to'g'risida. 1916-yilgi milliy-ozodlik harakatida jadidlarning ishtiroki haqida yangi ma'lumotlar berilgan<sup>101</sup>.

<sup>98</sup> Shahobiddin Yassaviy Ismoil Shayx o'g'li. Turkistonning achchiq haqiqatlari.-Istambul. 1984 - B.144

<sup>99</sup> Ahmad Zaki Validiy (To'g'on). Xotiralar Fan va Turmush -1993 - №7-8-9.-B.164,173.

<sup>100</sup> O'zbekistonning yangi tarixi Kontseptual-metodologik muammolar. Respublika ilmiy-nazariy anjumanı materiallari (to'plam).-Toshkent: Akademiya,1998 -360b

<sup>101</sup> O'zbekistonning yangi tarixi Tuzuvchilar: Sodiqov H., Shamsutdinov R., Ravshanov P. - Toshkent: Sharq. 2000 -464b.



Nemis va frantsuz tillari kafedrasi mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
Sodiqov Zohidjon va Maynts universiteti professori  
Mixail Shrayer



Professor Shrayerning ingliz tili yo'nalishi talabalari bilan Germaniyada  
tarjimashunoslik masalalari bo'yicha suhbati



Germanianing Maynts universiteti “Til, madaniyat va tarjima” fakulteti  
ekani, professor Mixail Shrayer (Michael Schreiber) va uning rafiqasi Marga  
Shrayer (Schreiber Gebriele Marga)larning Namangan davlat universitetiga  
tashrifi



Nam DU Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti talabalarining ilmiy konferentsiyasidan la



Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi iqtidorli talabalari yuridik fanlari nomzodi M.Akayeva navbatdag'i mashg'ulotni olib bormoqdagi



am DU professor-o'qituvchilari tomonidan Namangan tibbiyot kollejida o'tkazilgan  
tadbirdan lavha



Nam DU Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bilan ishlash bo'limi boshlig'i  
Jamshidbek Qoraboyev kollej o'quvchilarini universitet ta'lim yo'naliishlari bilan  
tanishtirmoqda



Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasi katta o'qituvchisi t.f.n.  
T.Qozoqovning respublika ilmiy anjumanidagi ishtiroki. Respublika "Qatag'on  
qurbanlari xotirasi" muzeyi



"Qatag'on qurbanlari xotirasi" muzeyida o'tkazilgan anjuman ishtirokchilari.  
O'ngdan t.f.n., dotsent S.Xolboyev (O'z MU), Sobir Sayhun (Turkiya), Tohir  
Qahhor, t.f.n. T.Qozoqov (Nam DU), M.Zikrillayev.



Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasasi o'qituvchilarining Namangan tumani Qumqo'rg'on kasb-hunar kollejidagi tadbirda ishtiroki



Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasasi o'qituvchilarining Uchqo'rg'on tumani Yangiver kasb-hunar kollejidagi tadbirda ishtiroki

## Rossiya tomonidan Xiva xonligi bozorlarining egallanishi

*Abdulboqiyev Faxriddin Avazbek o'g'li*

*NamDU Tarix yo'naliши 301- guruh talabasi*

*Atamirzayeva E'zoza Bekmirzayevna*

*NamDU fakultetlararo nemis va ingliz tillari kafedrasи o'qituvchisi*

Xiva xonligi Rossijaning O'rta Osiyodagi boshqa mustamlakalari qatori uning sanoat mahsulotlari sotiladigan bozorga aylana bordi. Katta imtiyozlarga ega bo'lgan rus savdo-sotiқ doiralari xonlikda o'z faoliyatlarini kengaytirdilar. Xiva xonligi shaharlarida ko'plab savdo firmalarining vakolatxonalarini ochildi.

Ulardan ayniqsa. Rabenkssindel, Poznanskiy, aka-uka Kraftlar. «Nadejda», «Vostochnaya», «Xiva» va boshqa savdo firmalari yangi Urganch, Xiva kabi shaharlarda o'z savdo vakolatxonalariga ega bo'lib. xonlikda qizg'in savdo ishlarini olib bordilar. Ular Xiva bozorlarini Rossiyada tayyorlangan sanoat mahsulotlari bilan to'ldirib tashladilar. Bu esa mahalliy hunarmandlar va kosiblar tayyorlagan mahsulotlar bozorini kasod qildi. Qadimdan rivojlanib kelgan hunarmandchilikning bir qancha turlari – to'qimachilik, yog' tayyorlash, metall buyumlar yasash, kosibchilik, ipakchilik og'ir ahvolga tushib qoldi. Ayniqsa, xonlikka rus gazlamalarining ko'plab keltirilishi mahalliy to'qimachilikka qattiq zarba berdi. Mahalliy gazlamalar raqobatga dosh berolmay ichki va tashki bozordan tobora siqib chiqarildi. Mahalliy hunarmandlar Rossiya sanoat mahsulotlari bilan raqobat qilish uchun o'z mahsulotlarini tayyorlashda arzon va sifatsiz xom-ashyodan foydalana boshladilar. Bu esa ular tayyorlagan mahsulotning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Natijada xonlikning ko'plab hunarmandlari Rossiyaning nisbatan arzon va sifatli mahsulotlari raqobatiga bardosh berolmay, ishlab chiqarishni qisqartirishga yoki kasblarini o'zgartirishga majbur bo'ldilar. Ko'plab hunarmandlar xonavayron bo'lib, qashshoqlikka yuz tutdilar. Ularning bir qismi mardikorlik qilishgan bo'lsa, qolganlari zavod-fabrikalarning yollanma ishchilariga aylandilar.

Xiva xonligiga katta miqdorda Rossiya sanoat mahsulotlari kirib kelishi bilan bir qatorda, xonlik shaharlarida rus ishbilarmonlari tomonidan sanoat korxonalarini qurila boshlandi. Mustamlakachilar xonlikda sanoatni rivojlantirish niyatida emasdilar, ular bundan manfaatdor ham bo'limganlar. Rossiya ma'murlari xonlikda xom-ashyoga dastlabki ishlov berish sanoatidan boshqa sanoat turlarini vujudga keltirmaslikka. Rossiyadan esa xonlikka tayyor mahsulot

keltirishga harakat qildilar. Shuning uchun ular tomonidan qurilgan korxonalar xom-ashyoga dastlabki ishlov beruvchi bo'lib, asosan paxta tozalash, yog' zavodlaridan iborat edi. Shuningdek, xonlikda sovun, ko'n-teri zavodlari ham qurilgan edi. Xiva xonligida dastlabki sanoat korxonasi 1889-yil katta Yaroslavl manufakturasi jamiyatni tomonidan Yangi Urganchda barpo etildi. keyinchalik Xiva shahrida kichik paxta tozalash korxonasi qurildi. Bu korxona uchun xon xazinasi hisobidan Turkiston general-gubernatori farmoniga ko'ra, jin dastgoxi keltiriladi. Xonlikda 1914-yilga kelib paxta tozalash korxonalarining o'ziga 63 taga etdi<sup>102</sup>.

Xonlikdagi zavodlarda mehnat sharoiti juda og'ir edi. Mehnat muhofazasi, ishchilar hayoti xavfsizligi, sanitariya xizmati mutlaqo yo'q edi. Ish soatlari kuniga 13-15 soatni, ayrim paytlarda 16-18 soatni tashkil etardi. Korxonalarda baxtsiz hodisalar tez-tez ro'y berib turardi. Xiva xonligida qurilgan korxonalardagi og'ir mehnat sharoiti haqida Rossiyaning yuqori lavozimli amaldorlaridan bo'lgan graf Palen shunday yozadi: «Bu erdag'i rus fuqarolariga tegishli zavodlarning ko'pchiligi xech qanday texnika xavfsizligi talablariga, gigienaga rioya qilinmasdan qurilgan va jixozlangan. Bug' qozonlari xech qanday sinovsiz o'rnatilgan, tibbiy xizmat mutlaqo yo'lga qo'yilmagan, ishchilar bilan korxona egalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tartibi belgilab olinmagan»<sup>103</sup>.

Korxonalarda ko'p ishlar qo'lida bajarilar edi. Ishchilar faqatgina diniy bayram kunlari dam olib, qolgan paytlarda dam olish kunlarisiz ishlar edilar. Zavod xo'jayini ishchilarni xoxlagan paytda ishdan bo'shatib yuborishi mumkin edi. Zavodlarda ruslar bilan bir qatorda mahalliy aholi vakillari ham mehnat qillardilar. Ular asosan og'ir mehnat sharoitida, malaka talab qilmaydigan kora ishlarda ishlardilar. Zavodlarda mehnatga haq to'lashda mahalliy ishchilari kamshitilar edi. Mahalliy ishchiga bir xil ish bajargan rus ishchisiga nisbatan oz haq to'lanardi. Masalan, yangi Urganchdagi zavodda qorovul bo'lib ishlovchi Avaz Niyozov oyiga 6 so'm 71 tiyin olgan bo'lsa, rus qorovuli efremov oyiga 12 so'm olgan, toylashssexidagi ikki mahalliy ishchi oyiga 3 so'm 33 tiyindan olgan bo'lsalar, ikki rus ishchisi 12 so'mdan olganlar. Yangi Urganchdagi chit tozalash zavodidagi 12 ta mahalliy ishchi oyiga 7 so'm 42 tiyindan olgan bo'lsalar, boshqa xuddi shunday

<sup>102</sup> Mamadjonov M.K. Nekotorye izmeneniya v sotsial'no-ekonomicheskoy jizni narodov Xivinskogo xanstva v period s 1873 po 1920 gg. // Nauchnye zapiski Tashkentskogo finansovo-ekonomicheskogo instituta. - T., 1958. - № 10. S. 53.

<sup>103</sup> Palen K.K. Otechyon po revizii Turkestanskogo kraya. Ch. I. Otd. 2. ... S. 332.

ish bajargan ikki rus ishchisi ulardan 2-4 so'mdan ortiq maosh olganlar<sup>104</sup>. Rossiyaga tobe' bo'lgan Xiva xonligidagi hunarmandlar kabi dehqonlar ham og'ir ahvolga tushib qoldilar. Chunki Xiva xonligi Rossiya uchun sanoat mahsulotlari sotiladigan bozor bo'lishi bilan birga, xom ashyo yetkazib beruvchi o'lka ham edi. Xonlikdan Rossiyaga asosan paxta, qorako'l teri, beda urug'i, baliq, guruch, mol yog'i, pilla, jun, charm, quruq meva, palos, namat, jun gazlamalar chiqarilgan. Shulardan eng ko'p chiqariladigan mahsulot paxta edi. Undan keyingi o'rinda ipak va Qorako'l teri chiqarish turardi. Xiva xonligi Rossiyaga qaram davlatga aylangandan so'ng paxta ekiladigan yer maydonlari jadallik bilan kengayib bordi. Xonlikda avvallari ham paxta yetishtirilgan bo'sada. oziq-ovqat ekinlarini miqdoriga ta'sir ko'rsatmagan. Rossiya bosqinidan so'ng esa, paxta maydonlari asosan donli ekinlar ekiladigan yer maydonlarining qisqarishi hisobiga kengaydi. Natijada bug'doy narxi bir necha barobar oshib ketgan. Shuningdek, boshqa oziq-ovqat ekinlari, sholi, arpa, tariq, mosh, loviya, jo'xori va Shu qabilarning narxi ancha ko'tarilib ketgan. Bu holatga qarshi chora tadbirdilar ko'rib, Xiva xoni 1897-yili Amudaryo bo'limi boshlig'iga maktub yozadi va paxta maydonlari kengayib, g'alla taqchilligi vujudga kelganligi uchun kelgusi yilda (1898-y.) dehqonlarga donli ekinlar ekishga farmon bergenligini ma'lum qiladi<sup>106</sup>. Biroq paxta maydonlari yildan-yilga kengayib bordi. Rus savdogarlari bahorda dehqonlarga 12 foiz ustamasi bilan qarz-bo'nak berardilar. Kuzda dehqonlar xosilni qarz evaziga arzon narxda sotishga majbur bo'lardilar. Ayrim dehqonlar qarzni to'lolmay, qaram bo'lib qolardilar. Xiva xonligi paxta yakkaxokimligi natijasida Rossivadan keltiriladigan g'allaga qaram bo'lib qoldi. G'alla keltirishda esa uzilishlar tez-tez bo'lib turardi.

Rus hukumatining xonlik iqtisodini to'liq Rossiya manfaatlariga xizmat qilishiga bo'ysundirish uchun amalga oshirgan bir qancha chora-tadbirlari ham xalq turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Mamadjanov M.K. Nekоторые изменения в социально-экономической жизни народов Нивинского ханства. С. 54.

Xlopkovodstvo v Xive. Materialy dlya izucheniya xlopkovodstva. Вып. I -Spb., 1912 S. 9-10.

Sadikov A.S. Rossiya i Xiva vo vtoroy polovine XIX veka - nachale XX veka : Dis. ... dokt. nauk - M., 1965 - 269 l.

# Somoniylar davlatida boshqaruvi va huquqiy munosabatlari

*Mamasaidov Lutfulla*

NamDU Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti Tarix yo'nalishi 2-kurs talabasi

Tarix – o'zlikni anglash va rivojlanishning asosiy omilidir. Tarixiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, har bir davlatlar rivojlanishida, yuksalishida uning qadimdan mavjud bo'lgan tarixining ahamiyati katta hisoblanadi. Shu borada O'zbekiston tarixini mukammal o'rganish bugungi kun tarixchi olimlarning asosiy vazifasidir. Zeroki, o'z tarixini bilish millatning ertangi kunini yorug' va farovon bo'lismeni belgilab beradi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov shunday sikirlarni bildiradi: "Shuni esda tutish kerakki. tarixni unutgan xalq, jamiyat o'z yo'llini yo'qotadi. Bunday xalq va jamiyatning kelajagi yo'q"<sup>107</sup>.

O'zbekiston tarixida davlat boshqaruvi va huquqiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan Somoniylar davlatining vujudga kelishi va rivojlanishida huquqiy munosabatlarning o'rni katta hisoblangan. Aynan somoniylar davlati Arab xalifaligi tarkibidan mustaqil bo'lgach, birinchilardan bo'lib davlat boshqaruvida yangicha tizim yaratgan. Abu Bakr Narshaxiy( X asr) va Hamza Isfaxoniy (X asr) kabi tarixchilar Somoniylar davlatichiligi va uning davlat boshqaruvi tizimi haqida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan.

Somoniylar hukmdori Ismoil Somoniy (874-907) davlatni boshqarishda ko'plab islohotlarni amalga oshirish orqali muayyan tizim, ma'muriy boshqaruvni tashkil etgan. Ismoil Somoniy bu boshqaruvni dargoh amiri, saroy va devon – davlat idorasi, vazirliklarini shakllantirish orqali tashkil etgan. Somoniylar davlat boshqaruvida vazirlarni asosan jayhoniylar, valamiylar va utbiylar kabi aslzoda oilalarining vakillaridan tayinlagan. Jayhoniylar va valamiylar vakillari eng mashhur vazirlardan hisoblangan<sup>108</sup>. Davlat boshqaruvida oliy hukmdor amir unvoniga ega bo'lgan. Nuh II Somoniy (976-997) ning davriga kelib esa davlat boshqaruvi a'ncha yuksaldi, davlat boshqaruvi dargoh (amir saroyi) va devonga (vazirliklar, davlat idorasi) bo'lindi<sup>109</sup>.

Somoniylarning boshqaruvi asosan, mahalliy dehqonlar, aslzodalar va din arboblaridan tashkil topgan bo'lib, har bir amaldor arab va fors

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning 2015-yil 12-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasida so'zlagan nutqi /Milliv tiklanish, 2015.

O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: Davlat ilmiy nashiriyoti 8-tom 2001 – B. 14  
Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent: Yangi asr nashri  
2012 – B.197

tillarini mukammal bilishi, shuningdek, diniy va dunyoviy fanlardan xabardor bo'lishi shart edi<sup>110</sup>. Bu esa faoliyat olib borgan har bir mansab egasining o'ziga topshirilgan vazifa va majburiyatlarini samarali bajarishning kafolati bo'lган. Masalan, saroyda siyosiy hokimyatga sohibi xaros javob berib, u oliv hukmdor farmonlarini ijrosini nazorat qilgan. Bosh hojib esa dargoh va muhim davlat idoralarining xavfsizligini taminlash ishlari bilan shug'ullangan. Vakil saroydag'i xo'jalik ishlari bilan shug'ullangan.

Tarixchi Abu Bakr Narshaxyning "Buxoro tarixi" asarida ma'lumot berishicha Nasr II Somoni (914—943) davrida davlat boshqaruvinu yanada mustahkamlash va devonlar biri-ikkinchisining faoliyatiga aralashmasligi uchun Buxoro registonda ularga atab maxsus 10 ta bino qurdirgan. Ushbu binolar har birida alohida vazirlik (devon) faoliyat yuritgan.

Xususan, Devoni vazir yoki xo'jayi kalon — eng muhim devon. Bu lavozim egasi hukumat boshlig'ining birinchi yordamchisi hisoblangan. Shuningdek, ushbu devon bosh boshqaruva mahkamasi ahamiyatiga ega bo'lган, ya'ni davlatning barcha ma'muriy, siyosiy va xo'jalik muassasalari ustidan nazorat qilgan, devonlar bosliqlariga rahbarlik qilgan.

Devoni mustafiy — moliya ishlari devoni. Ushbu devon davlat xazinasi ishlari bilan shug'ullangan. Devoni ixtiyorida maxsus hisobchilar munshiy va kotiblar faoliyat ko'rsatgan.

Devoni ar-rasoyil — hujjatlari rasmiylashtirish devoni. Ushbu devon hujjatlarni ishlab chiqarish va diplomatik aloqalar bilan shug'ullangan.

Devoni sohib ai-ushrot devoni — maxsus saralangan harbiy qismlarga boshchilik qilish, ularning tayyorligi, tartib-intizomi, oziq-ovqat, xo'jalik va moliyaviy ta'minoti ishlari bilan shug'ullangan.

Devoni sohib-al barid — xat xabarlar devoni. Ushbu devon markazda qabul qilingan qarorlar, rasmiy hujjatlarni viloyat, shaharlarga va joylardan markazga yetkazish bilan shug'ullangan. Mazkur devonning joylardagi bo'limlari mahalliy davlat idoralari, hukmdorlari faoliyatini haqida ma'lumotlar to'plab, bevosita dargohga yuborish imkoniyatiga ega edi.

Devoni muhtasib — shaharlar va qishloqlarda, ko'cha va bozorlarda tartibni nazorat qilish, diniy marosimlarni amalga oshirishda chegaradan chiqmaslikni taminlash, savdogarlarning tarozilarini nazorat qilish, hunarmadlarning mahsulotlari sifatini tekshirish, narx-navoni nazorat qilish bilan shug'ullangan.

Devon mushrif – dargoh ta'minoti bilan bog'liq xazina sarf-xarajatlari ustidan nazorat olib borish bilan shug'ullangan.

Devoni az-ziyo – davlat mulklari devoni. Mazkur devon hukmdor sulolasiga tegishli mol-mulk, davlat yerlarini boshqarish, nazorat qilish va hisob-kitobni olib borish bilan shug'ullangan.

Devoni vaqf devoni – bir shaxs yoki davlat tomonidan ehson maqsadida musulmon ulamolar ixtiyoriga o'tkazilgan mol-mulk, yersuv, ya`ni vaqf ishlari bilan shug'ullangan.

Devoni qozi devoni – qozilarning faoliyatini nazorat qilish bilan shug'ullangan. Devon boshida – davlat bosh qozisi turgan<sup>111</sup>.

Somoniylarning saroy ma'muriyati ichida amaldorlarning bir qismini fors-tojik tilli xalq vakillari, qolgan qismini turkiy tilli xalqlar vakillari tashkil etgan. Bu holatni viloyatlarda ham kuzatish mumkin bo'lган. Harbiy va mudosaa ishlarida esa turkiylar ustunlikga ega bo'lган. Turkiylarning jangovorligi hamda Isfijob, Taroz va boshqa shaharlar yashovchi turkiy aholining asosiy qismini islom dinini qabul qilishi Somoniylar boshqaruv tizimida ularning salmog'ini oshishiga sabab bo'lган. Lekin X asr oxirlarida Somoniylar davlati hududiga Qoraxoniylar qo'shinlarining bostirib kirishi natijasida tukiy sarkardalar birin ketin Qoraxoniylar tarafga o'tib keta boshlagan va Somoniylar davlati inqirozini tezlashtirgan.

Somoniylar moliyaviy sohada ham bir qator ishlarni amalgalashirgan. Xususan, aholidan olinadigan soliqlarning yillik daromadi 45 mln dirhamni tashkil qilgan bo'lsa, bu mablag'dan 20 mln dirhamga yaqini davlat boshqaruv tizimida xizmat qilayotgan amaldorlar va qo'shin ehtiyojlariga sarflangan. Shuningdek, xizmat uchun ish haqi hammaga har 90 kunda, yani bir yilda 4 marotaba muntazam ravishda berib turilgan<sup>112</sup>.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shuni qayd etish mumkinki, Somoniylar davlat boshqaruvi, O'zbekiston davlatchilik tarixida qadimdan mavjud bo'lган Baqtriya, Xorazim. Sug'diyona davlatlari va ilk o'rta asrlardagi O'rta Osiyoga kirib kelgan xiyoniylar, kidariylar, eftalilar, Turk xoqonligi va Arab xalifaligi davlat boshqaruv tartiblarini yanda boyitgan va nisbatan mukammal ko'rinishga olib kelgan. Bu esa mamlakat taraqqiyotiga asosiy omillardan bo'lib xizmat qilgan.

<sup>111</sup> Abdurahimova N. A., Isakova M. S., Suleymanova Z. M. Davlat muassasalari tarixi. Toshkent: Sharq, 2007. – B 15.

<sup>112</sup> O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Toshkent. Davlat ilmiy nashiryoti. 8-tom. 2001. – B 14.

## O'zbekistonda Avtomobil transporti tarixi

*Mamatdaliyev Shohruh*

*NamDU O'zbekiston tarixi yo'nalishi 2-bosqich magistranti*

Avtomobil transporti yuk va yo'lovchilarni relssiz yo'llarda tashishga mo'ljallangan transport turi hisoblanib, xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida keng foydalaniladi. Bajaradigan ishiga qarab umumiyligi foydalanilmaydigan (ayrim korxonalar, tashkilotlar uchun xizmat qiladigan) avtomobil transporti hamda qaysi tashkilotga mansubligidan qat'i nazar yo'lovchi va yuk tashuvchi umumiyligi foydalanishdagi avtomobil transportiga bo'linadi. Shuningdek shaxsiy foydalanishdagi yengil va yuk avtomobillari, avtobuslar ham mavjud.

Avtomobillarning har qanday yo'llarda yura olishi, yo'lni tez o'zgartira olishi, yuk ortish va tushirish joylariga bevosita bora olishi, yuk hamda yo'lovchilarni bir transport turidan ikkinchisiga o'tkazmay tashishga imkon beradi. Natijada yo'lovchi va yuk tashish tezlashadi. Avtomobil transporti sanoat va qishloq xo'jaligida, markazlashgan tartibda xalqaro, shaharlارaro va mahalliy yo'llarda ta-shishda qo'llaniladi. Avtomobil transporti aviatsiya, dengiz va daryo transporti, shuningdek temir yo'llar transporti bilann uzviy bog'langan. Avtomobil transporti uncha uzoq bo'lмаган masofalar uchun foydalanishda eng qulay transport turi hisoblanadi. Shu bilan birga boshqa transport turlarida tashish noqulay bo'lgan yuklar, xususan, tez buziladigan mahsulotlarni uzoq, masofalarga tez va qulay yetkazib berishda ham ko'p foydalaniladi. Avtomobil transporti XIX asr oxirida paydo bo'ldi, XXasrning 20-yillardan qisqa masofalarga yuk va yo'lovchi tashishda temir yo'llar va daryo transporti bilan raqobat qila boshladi. Avtomobil sanoating rivojiga qarab, tez sur'atlarda taraqqiy etdi.

Mamlakatlar avtomobil parkining asosiy qismi yirik ixtisoslashtirilgan yuk va yo'lovchi tashish korxonalari va birlashmalari tarkibiga kiradi. Bu esa mehnat unumdarligini yuqori sur'atlarda o'stirish va avtomobil transporti vositalaridan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda tashilgan yuklarning umumiyligi hajmida avtomobil transporti hissasi katta salmoqqa ega. Buyuk Britaniya, Fransiya, GFR, Yaponiya, Kanada, Rossiyada avtomobil transporti taraqiy etgan. AQShda yuk avtomobil parki turli sanoat va savdo kompaniyalari, korxonalar va ayrim shaxlarga tegishli bo'lib, jami avtotransport vositalarining 10% umumiyligi foydalanishdagi yuk tashish kompaniyalariga to'g'ri keladi. O'zbekistonda avtomobil

transporti XX asr boshlarida paydo bo'ldi. unga qadar ot-ulov asosiy transport vositasi bo'lgan.

Dastlabki avtobus qatnovi 1906-yilda Farg'ona-Marg'ilon marshrutida yo'lga qo'yilgan. Toshkentda birinchi avtobus 1909-yilda qatnay boshladи, 1910-yilda chet ellarda ishlab chiqarilgan 8 ta kichik va lta 40 o'rinni avtobus ishladi<sup>113</sup>. 1921-yilda Avtomobil transporti intiyorida 40 ta yengil va 15 ta yuk avtomobili hamda Toshkent avtomobil ta'mirlash ustaxonasi bo'lgan.

1930-yillarda avtomobil transporti rivojlanishi bilan qattiq qoplamlari yo'llar qurilishi boshlandi, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish korxonalari, kadrlar tayyorlaydigan o'quv yurtlari ochildi. 1939-yil 25-iyulda O'zbekiston Avtomobil transporti xalq komissarligi tashkil etildi. 1950-yillarda avtotransportda yuk va yo'lovchilar tashish o'sdi. 1960-1980-yillarda respublikada avtotransport vositalarining tur tarkibi ko'paydi. 1991-yilga qadar O'zbekiston xalq xo'jaligida asosan Rossiya ("ZIL", "Moskvich" - Moskva shahri; "GAZ" yuk va "Volga" yengil avtomobillari - Nijniy Novgorod shahri; "KamAZ" - Naberejniye Chelni shahri; "Jigu-li" - Tolyatti shahri; "UAZ" - Ulyanovsk shahri; "Ural"- Chelyabinsk viloyati Miass shahri; "PAZ" - Pavlovo shahri), Ukraina ("LAZ" - Lvov shahri; "KrAZ" - Kremenchuk shahri; "ZAZ" - Zaporoj'e shahri), Belorussiya ("MAZ"- Minsk shahri; "BelAZ" - Jodino shahri), Gruziya ("KAZ" - Kutaisi shahri) respublikalarida ishlab chiqarilgan yuk va 138 yengil avtomobillari, avtobuslari ishlatildi. O'zbekiston Respublikasining yuk mashinalari saroylarida vazifasiga ko'ra ixtisoslashtirilgan (o't o'chirish, un, paxta, don, qurilish materiallarini tashish, sanitariya va boshqalar) avtomobillar bo'lgan. Respublikada xalq xo'jaligining sanoat, qishloq xo'jalik, qurilish, suv xo'jaligi, aloqa, savdo, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jaligi, madaniyat, mudofaa va boshqa tarmoqlarida ixtisoslashtirilgan yirik avtotransport korxonalari mavjud. Ular vazifasiga ko'ra umumiyl foydalanimaydigan ichki ishlab chiqarish avtomobil transportiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasida yo'lovchilar tashishga mo'ljallangan 14. 7 ming avtobus, 5 mingdan ko'proq yengil taksi mashinalari ishladi. Respublika bo'yicha 2892 avtobus marshrutlarida (jumladan 593 shahar, 1768 shahar atrofi, 532 shaharlararo, 142 xalqaro) avtobuslar qatnadi. Avtobuslar bilan har kuni 5 mln. ga yaqin yo'lovchi tashiladi, 27 avtovokzal, 120 avtostansiya xizmat ko'rsatadi. Faqat shaharlardagi avtobus marshrutlarida turli markadagi 3 mingga yaqin avtobus qatnaydi (1999-yil). 1996-yilda O'zbekiston Respublikasida jami transport turlari

yuk aylanmasining 28, 9% avtomobil transporti hissasiga to‘g‘ri keldi, yuk aylanmasi 8135, 3 mln. tkm. tashilgan yuk 733, 2 mln. t, lt yuk tashishning o‘rtacha masofasi 10, 1 km bo‘ldi; avtobuslarda 22779 mln. yo‘lovchi, yengil taksilarda 62, 7 mln. yo‘lovchi tashildi. O‘zbekiston xalq xo‘jaligi tasarrufida turli maqsadlardagi va markadagi 199, 7 ming yuk avtomobilari (uning 55 mingdan ortiqrog‘i o‘zi ag‘daruvchi), 35, 4 ming avtobuslar, 45, 9 ming yengil avto-mashinalar xizmat ko‘rsatgan edi. (1995-yil). 1990-yilar boshidan aholiga yengil avtomobilardan tashqari yuk avtomobilari hamda avtobuslarni sotib olishga ruxsat berilishi natijasida shaxsiy avtotransport soni va tur tarkibida ham jiddiy o‘sish kuzatildi. Respublikada fuqarolarning mulki bo‘lgan va mamlakatda hamda chet ellarda ishlab chiqarilgan 788, 2 ming yengil, 16, 9 ming yuk avtomobilari, 2, 6 ming avtobuslar, 419, 1 ming mototransport (mototsikl, motoroller va b. ) vositalari bo‘lgan (1995-yil)<sup>114</sup>.

1996-yilda O‘zbekistonning har 1000 aholisiga 43 ta yengil avtomobil to‘g‘ri keldi (ulardan 39 tasi shaxsiy foydalanishda). Umumiy foydalaniladigan yuk va yo‘lovchilar tashuvchi avtomobil transportining yirik korxonalari "O‘zavtotransport davlataksiyadorlik korporatsiyasi" (1993-yil) tarkibiga kiradi (respublika yuk avtoparkining 14%, avtobus parkining 46, 8% (1999-yil). Tarmoq korxonalari uchun texnik xodimlar 12 mutaxassislik bo‘yicha Toshkent avtomobil va yo‘llar instituti (1972-yil) da, Qo‘qon (1945-yil), Nukus (1965-yil), Buxoro (1969-yil), Urganch (1981-yil), Toshkent (1986-yil) avtomobil va yo‘llar texnikumlarida tayyorlandi. Avtomobil transportining nazariy-amaliy masalalari, ilg‘or texnologiya va fan yutuqlari targ‘iboti "O‘zbekiston avtotransporti" jurnali (1993-yil rus tilida), "O‘zbekiston avtomobilchisi" (1990-yil o‘zbek va rus tillarida) gazetalarda yoritildi<sup>115</sup>.

## XIX asr oxiri – XX asr bosolarida Andijon hunarmandchiligi tarixi

*Mavlonov Adhamjon*

*NamDU Tarix fanlar kafedrasи II kurs magistranti*

Tarixdan ma‘lumki 1847-1885-yillar davomida O‘rta Osiyo Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etildi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi

<sup>114</sup> [www.uz.wikipedia.org](http://www.uz.wikipedia.org)

<sup>115</sup> [www.uz.wikipedia.org](http://www.uz.wikipedia.org)

Rossiyaning vassal davlatlariga aylantirilgan bo'sha, o'lkadagi yana bir davlat Qo'qon xonligi tugatildi va Turkiston general gubernatorligi tuzildi. Farg'ona vodiysi ham Turkiston general gubernatorligi tarkibida edi. Farg'ona vodiysining yirik shaharlaridan biri bo'lgan Andijonning XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi hunarmandchiligi holatiga quyida to'xtalib o'tamiz.

O'r ganilayotgan davrda Andijon Rossiya imperiyasining bir qismi hisoblangan, Turkiston general gubernatorligining Farg'ona viloyati tarkibidagi uezd edi. O'sha davrlardayoq Andijon aholisi zich hudud hisoblanardi. Farg'ona viloyatining boshqa shaharlari kabi Andijonda ham shahar aholisining deyarli yarmini hunarmandlar tashkil etardi. Bu borada tadqiqotchi Davlatova quyidagi raqamlarni keltiradi: "Xususan, 1897-yilgi aholi ro'yxatiga ko'ra katta shaharlar aholisining ko'pchilik qismini hunarmandlar tashkil etgan. Masalan, Namanganning – 64 %, Qo'qonning – 52 %. Chustning – 54 %, Marg'ilonning – 50 %, Andijonning – 45 % aholisi mustaqil kasb - hunar egasi hisoblangan ho'jaliklardan iborat bo'lgan.<sup>116</sup>" Yuqoridaq raqamlardan ko'rinish turibdiki o'r ganilayotgan davrda Andijon ham Turkistonning hunarmandchilik markazlaridan biri hisoblangan. Buni quyidagi misollarda ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, 1876-yilga kelib Andijonda faqat shoyi tayyorlaydigan 39 ta xo'jalik bo'lib, ularning har birida uchtadan beshtagacha hunarmand faoliyat yuritgan. Ayni shu yili sovun ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan xo'jaliklar soni 18 tani, sham tayyorlaydiganlar 8 tani, sapol quvur ishlab chiqaradiganlar 25 tani, g'isht ishlab chiqaradiganlar 6 tani, cho'yan eritish bilan shug'ullanadigan xo'jaliklar 18 tani tashkil etar edi. Shu bilan birga shaharda tegirmon, moyjuvoz, objuvoz singari aholi ehtiyojini qondiruvchi qurilmalar ham mayjud bo'lgan. Bundan tashqari shaharda 1220 ta usta-hunarmandlar turli xil sohalarda faoliyatini olib borgan. 1882-yilda Andijon shahrida turli hunarmandchilik korxonalari egalari 343 tani, ularda ishlovchi ishchilarining soni 718 tani va yillik ishlab chiqarish qiymati 86850 so'mni tashkil etgan edi. Bular asosan zargarlik, misgarlik, tikuvchilik, etikdo'zlik kabi bir qator hunarmandchilik korxonalari edi. Bundan tashqari Andijonda kundalik turmush uchun zarur bo'lgan har xil mahsulotlarni etkazib beruvchi bir qator hunarmanchilik korxonalari ham mayjud edi. 1882-yilga oid bo'lgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bunday hunarmandchilik korxonalarining umumiyligi soni 701 ta bo'lib, ularning ishlab chiqargan

<sup>116</sup> Davlatova S. Mustamlakachilik davrida Turkistonda xunarmandchilik : an'ana va rivojlanish muammolari //O'zbekiston tarixi. 2013- yil 1- son 17- bet

mahsulotlari 67540 soʻnni tashkil etgan. Andijon uezdida qishloq xoʼjaligini va ayniqsa, uning muhim tarmogʻi hisoblangan paxtachilikning rivojlanishi oqibatida hunarmandchilik korxonalari mahsulotiga boʻlgan talab keskin ortib bordi. Chunki hunarmandlar dehqonlar uchun mehnat qurollari va boshqa mahsulotlarni etkazib berar edilar. Natijada hunarmandchilik korxonalari va ularda ishlovchilr soni tobora ortib borgan. Chunonchi, 1883-yilda Andijon uezdida 778 ta hunarmandchilik korxonasida 1272 ishchi ishlab 86090 soʻmlik mahsulot ishlab chiqarilgan<sup>117</sup>.

Turkistonning Rossiya imperiyasining bir qismiga aylanishi bilan vujudga kelgan Turkiston shaharlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy oʻzgarishlar Andijon shahri hunarmandlari oldiga ham alohida talablar qoʻya boshladи. Natijada ular oʻzlarining imkoniyatlarini ishga sola boshladilar hamda oldingi davrlarga nisbatan ishlab chiqarish texnika vositalarini takomillashtirib bordilar. Oqibatda hunarmandchilik korxonalari koʻpayib bordi. Agar 1884-yilda hunarmandchilik korxonalarining umumiy soni (shahar bilan uezd birgalikda) 827 ta boʻlib, ularda ishlovchilar 1176 nafarni, ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati 98089 soʻnni tashkil etgan boʻlsa, 1885-yilga kelib ularning umumiy soni 857 tani, ishlovchilar 1266 nafarni, ishlab chiqarilgan mahsulot esa 102104 soʻnni tashkil etgan. Yoki faqat bir yilning oʻzidagina hunarmandchilik korxonalari soni 30 taga, ularda ishlovchilar soni 90 nafarga, ishlab chiqargan mahsulot qiymati esa 4015 soʻmga oshgan. 1885-yilga kelib shaharda etikdoʻzlik, misgarlik, tikuvchiliik kabi hunarmandchilik tarmoqlari asosiy oʻrinni egalladi. Masalan, shu yili faqat etikdoʻzlik korxonalari 250 tani, ularda ishlovchilar 830 nafarni va yillik ishlab chiqarish qiymati boshqalarga nisbatan juda katta summani - 210 000 soʻnni tashkil etgan. Etikdoʻzlikdan keyin esa misgarlik turgan. Ularning soni 22 tani, ularda ishlovchilar 52 nafarni, ishlab chiqarish qiymati esa 7180 soʻnni tashkil etgan<sup>118</sup>.

Oʻrta Osiyo shaharlariga, jumladan, Andijonga Rossiyadan ayrim isteʼmol mollari va buyumlarining keltirilishi hunarmandchilikning ayrim tarmoqlariga, masalan, gazlama toʼqish, kulolchilik vasovungarlikka salbiy taʼsir koʼrsatdi. Agar 1900-yilda Andijon uezdida 52 ta koʼnchilik korxonalari boʻlib, ulardagi usta va ishlovchilar soni 156 kishini, yillik ishlab chiqarilgan mahsuloti qiymati 12100 soʻnni tashkil qilgan boʻlsa, 1905-yilga kelib ularning soni 9 tagacha, ulardagi usta va ishlovchilar 88 tagacha, yillik daromadi esa 10128 soʻmgacha

Lvashenko P. I. Istoriya narodnogo xozyaystva Toshkent: Fan, - S. 56-58.

Raximov M. Istoriya Fergany. - Toshkent: Fan, 1984 - S. 67.

qisqardi. Shuningdek, 1900-yilda kulolchilik korxonalarining umumiy soni 50 ta bo`lib, ularda ishlovchi ishchilar soni 150 kishini, yillik daromadi 11020 so`mni tashkil etgan bo`lsa, 1906-yilga kelib ularning soni 16 taga, ishlovchilar soni 43 taga va yillik daromad 5012 so`mgacha qisqardi.

Shunday qilib, o`rganilayotgan davrda Turkistonning umumiy hunarmandchiligidagi kuzatilgani kabi, Andijon hunarmandchiligidagi ham ayrim tarmoqlarda o`sish, ayrimlarida esa inqiroz kuzatildi. Bu o`lkada yuz bergen o`ziga hos ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar natijasi edi.

## Etnopedagogika va milliy madaniyat

*B. To`xtaboyev*

*Milliy g`oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi talubasi*

*B. B. Ibrohimov*

*NamDU milliy g`oya, ma'naviyat va huquq asoslari kafedrasи  
o'qituvchisi*

Insoniyatning madaniyati o`ta rang barangdir. Har bir millatning o`ziga xos madaniyati mavjud. Xalqning xulq-atvori, tarbiya, axloq qoidalari milliy madaniyat tomonidan belgilanadi. Inson jamiyat, odamlar orasida yashar ekan, jamiyat, millat va xalq tomonidan belgilangan va odob tusiga kirib qolgan o`ziga xos talab qoidalarga bo`ysunadi. Jamiyatning har bir bo`lagida tarbiya qoidalari ishlab chiqilgan. Har bir milliy etnik madaniyat o`ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi va o`ziga xoslik turli-tuman narsalarda namoyon bo`lishi mumkin. Har bir etnik madaniyat o`ziga xos mantiqqa ega va aynan mazkur mantiq asosida mazkur madaniyatga xos asosiy o`zgarmas va ikkinchi darajali o`zgaruvchan xususiyatlarni izohlash mumkin. “An`anaviy milliy madaniyatni yaxlit va ko`p qirrali hodisa sifatida o`rganish, uning tuzilishi, asosiy ko`rinishlari, shakllarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Etnomadaniyat va uning tarkibiy qismi bo`lgan an`anaviy xalq madaniyat tizimining tarkibiy qismida: xalq donishmandligi, xalq falsafasi, xalq e`tiqodi, xalq pedagogikasi, xalq odatlari, xalq ijodi, xalq o`yinlari, dam olish madaniyati, xalq pazandaligi, milliy liboslar, xalq me`morchiligi, xalq amaliy san`ati, xalq tabobati, xalq turmush madaniyati kabi ko`plab sohalarni ajratsa bo`ladi. Milliy madaniyatning barcha sohalarida avlodlarning dunyoqarashlarini, falsafiy tushunchalari o`z aksini topganligi uchun etnomadaniyat

tarkibida xalq donishmandligi. xalq pedagogikasiga alohida e'tibor berish lozim. Buning sababi shundaki, xalqning g'oya, fikr, bilim, dunyoqarashini ifoda etgan etnomadaniyat ko rinishini xalq etnopedagogikasisiz tasavvur qilib bo`lmaydi."

Etnopedagogika-tarbiyaning maqsad va vazifalari borasida muayyan xalqning hayotiy tajribasi hamda turmush tarzida shakllangan amaliy qarashlar majmui: muayyan jamiyatda yashash uchun har bir odam amal qilishi shart sanalgan urf-odat, udum, xulq-odob, marosim, an`ana, turmush tarzi, badiiy ijod, o`yin singari emperik vositalarda namoyon bo`ladigan amaliy faoliyat hamdir. Etnopedagogika xalq pedagogika deb ham ataladi. Etnopedagogika xos eng mihim belgilardan biri uning qadimiyligidir. Har qanday xalq muayyan etnos sifatida mavjud bo`lishi uchun o`ziga xos qiyofaga ega bo`lishi kerak. Xalqning ijtimoiy, ma`naviy, intellectual qiyofasi esa uning pedagogic vositasidagina shakllanadi. Etnopedagogika muayyan xalqning o`zi bilan dunyoga kelgani uchun ham uning tarixi xalq tarixi bilan teng. Etnopedagogikaning 2- belgisi uning to`liq amaliy xususiyatga egaligidir. Xalq ta`lim-tarbiya jarayoni va uning natijalariga pragmatic nazar bilan qaragani uchun etnopedagogika g`oyalari shaklida emas balki urf-odat, an`ana, amal, udum, xulq-odoblar tarzida namoyon bo`ladi. Etnopedagogika ta`lim-tabiya haqidagi fikrlar yig`indisi emas balki amaliy qilinishi majburiy bo`lgan va bajarilishi hamma tomonidan nazorat qilinadigan amaliy xulqiy ko`nikmalar majmuidir. Etnopedagogikaning 3-xususiyati uning muallifi nomalum anonim pedagok ekanlidir. Etnopedagogikaning 4-belgisi uning sinkretik (qorishiq) xususiyatga egaligidir. Xalq hayoti ko`p qirrali ekan holda yahlit bo`lgani singari uning pedagogikasi ham qorishiqdir. Xalqning turli yo`nalishdagi pedagogik tadbirlari sinkretik tarzda bir varakayiga olib borilganligi uchun etnopedagogika alohidalik emas umumiylilik xosdir.

O`zbek etnopedagogikasi uzoq tarixga ega va millatdagi eng konservativ sekin o`zgaradigan ana shu xususiyati tufayli xalqning o`ziga xos qiyofasi saqlanib qolishini ta`minlaydigan hodisa ekaniga qaramay o`z taraqqiyoti davomida bir qator o`zgarishlarni boshidan kechirdi. O`zbek etnopedagogikasining taraqqiyot tarixi islomgacha bo`lgan davr etnopedagogikasi, islom ta`siri davri etnopedagogikasi, tashqi ta`sirlar davri etnopedagogikasi, mustaqillik davri etnopedagogikasi singari bosqichlardan iborat.

Movaraunnahr (ikki daryo oraligi eki daryo orqasidagi joy) VIII asrda arablar tomonidan bosib olingan, xalqimiz ma`naviy hayotida

jiddiy uzgarishlar sodir bo'ldi. Islom dini o'lkamiz ijtimoiy ma'naviy hayotida hukmron maskura rolini o'ynay boshladi.

Islom dinini xalqimiz ijtimoiy-ma'naviy takomilidagi roliga turli qarashlar mavjud:

1. Islom dini va arablar istilosini xalqimiz ma'naviy hayotidagi ta'sirni ideallashtirish. Bunday qarash "Avesto" va "Avesto" gacha davr tarixini yaxshi bilmagan va Islom ruhoniylarining ayrim vakillari tomonidan e'tirof etiladi. Ularning fikricha: xalqimiz Islomgacha yovvoyillarcha turmush tarziga ega edi. arablar bizga madaniyat, ma'rifat olib kirgan.

2. Tanqidiy asosda yondashuv. Ovro'pa. Russiya olimlari ateistik (xudosizlik) nuqtai nazaridan yondashadi. Ularning fikricha arablar o'lkamizga jaholat, madaniyatsizlik, xurofatni olib kelganlar, boyliklarni talagan, tinch aholiga tajovvuz qilganlar.

3. Islom dini va arablar istilosini ta'sirini xolisona baholash, bunday qarash O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng shakllanadi.

Islom dini va arablar istilosini o'lkamiz ta'lim va pedagogik fikrlarni tarqqiyotiga qanday ta'sir etdi?

1. Islom dini Vatanimizga chetdan kirib kelganligi tufayli xalq o'z ixtiyori bilan uni qabul qilmagan. Natijada xalq ma'naviyatining barcha sohalarida birdan hukmronlikka erisha olmagan.

2. O'lkamizda fan va madaniyatning o'sha davrda ilg'or darajada rivojlanganligi Islom g'oyalarini singdirishga to'sqinlik qilgan.

3. Vatanimizda o'ziga xos ta'lim tizimi vujudga keldi.

Masalan: ilm- o'rganish maktab- ta'lim beradigan odam madrasa-muddaris kabilar yuzaga keldi.

O'zbek etnopedagogikasining bu tarzda davrlashtirishda xalq ruhiyati yashash va fikrlash tarzidagi tub sifat belgilarinining o'ziga xosligi hisobga olingan. Ko'p ming yillik tarixga ega o'zbek xalqi ilmiy va moddiy buyum tarzidagi dalillarga ko'ra islom dini qabul qilingungacha bo'lган vaqtida o'ziga xos tarzda hayot kechirgan. Olam hodisalarini o'zgacha yo'sinda tushungan va izohlagan, hayotdan boshqacha ta'sirlangan va ta'sir ko'rsatgan, tiriklik va o'lim, u dunyo va bu dunyo va yovuzlik, go'zallik va xunuklik, savob va gunoh, halol va xarom singari tushunchalar o'zgacha mazmun anglatgan «Avesto» asari yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar shuningdek Selung'ur, Xorazm, Bolaliktepa, Issiqqo'rg'on, Chust, Rishton va Burchimullodan topilgan obidalar shundan dalolat beradi. Islom dinini qabul qilinishi o'zbek xalqining turmush tarzini tamomila o'zgartirib yubordi, uni olamning musulmonlar deb atalmish ko'p sonli qavmi bilan

yaqinlashtirdi, xalqning turmush tarzi, madaniyati, ma`naviyati, ruhiyati, iqtisodi va ijtimoiy turmushiga katta ta`sir ko`satdi. Ayni vaqtida xalq o`zining azaliy milliy qiyofasini ham saqlab qoldi, chunki u qadimdan puxta shakllangan va qat`iy amal qilinadigan udumlar, odatlar, an`analar tizimiga ega edi. Xalq islomni qabul qilgandan keyin uning yashash, fikrlash, ta`sirlanish tarzida sodir bo`lgan o`zgarishlar etnopedagogikasida aks etadi. Endi xalq halol va xarom, gunoh va savob, taqdir va qismat, u dunyo va bu dunyo, hayot, o`lim haqida qayta tirilish borasida tamomila yangi qadriyatlarni o`zlashtirdi. ularning hayot tarziga, udumlariga, urf-odatlariga, an`analariga marosimlariga ya`ni pedagogikaga aylantirdi. Bu davrdagi xulq-atvor, an`ana, udum, odatlar ma`naviy turmushdagi ayni shu jihatlarni aks ettiradigan bo`ldi. O`zbek millati juda uzoq vaqt mobaynida islam ta`siridagi etnopedagogikaga amal qilgan holda yashadi. XIX asrning 2- yarmiga kelib Rossiya bosqini sababli o`zbek xalqining turmush tarzi, fikrlash yo`sini tarbiya tamoyillarida jiddiy o`zgarishlar sodir bo`ldi. Faqat islam dini belgilagan turmush tarzi, aqida, an`ana va odatlar bilangina yashash mumkin bo`lmay qoldi. Xalqning ongi axloqi, fikri, turmushi o`zgarishi bilan uning pedagogikasi o`zgarishlarga uchradи. Yangi an`ana va odoblar paydo bo`ldi. Ayrim pedagogic qadriyat, axloqiy aqidalar esa yo`qoldi.

Bu yo`qotishlar ayniqsa sho`ro davrida keng tus olgan. Etnopedagogika tufayli shiddatli o`zgarishlar girdobida qolgan o`zbek millati o`z qiyofasini saqlab qola bildi. Istiqlol natijasida esa o`zbek xalqining fikrlash, yashash, olamni anglash va izohlash yo`sini yangilandi, xalq ruhiyati, ma`naviy qiyofasi o`zgardi.

Etnopedagogikaga (xalq pedagogikasi) ulug` allomalarimiz: Nizomul Mulkning "Siyosatnoma", Nosir Xisravning "Saodatnoma", Kaykovusning "Qobusnoma", Yusuf Xos Xojibning "Qutadgu-bilik", Ahmad Yugnakiyning "Haqiqatlar armug`oni", Zamaxshariyning "Nozik xikmatlar", Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sinolarning ijtimoiy-pedagogik qarashlari, axloq-odob haqidagi fikrlari, g`oyalari, pedagogika sohasidagi, ta`lim-tarbiya haqidagi fikrlari. O`zbek xalq pedagogikasining yirik namoyandalari bo`lgan buyuk allomalarining asarlari, yangi usul mакtablari jadidlar oqimi, ta`lim sohasidagi qo`shilgan hissalari haqida mulohazalar keltirilgan. Bular benixoya ulkan boy merosimiz hisoblanadi. Mustaqillik davri xalq pedagogikasida ko`plab islomiy an`analar qayta tiklanib, amaliy tarbiya jarayoniga tatbiq etila boshlandi. Xalq pedagogikasi tarixiy tushuncha sifatida hozirga kunda ham zamon talablariga mos ravishda boyib bormoqda va jiddiy amaliy tarbiyaviy ahamiyat kasb etmoqda.

# Sergey Pavlovich Tolstov “Qadimgi Xorazm” asarining O‘rta Osiyo tarixi manbashunosligida tutgan o‘rnı

*Jahongir Tajiboyev,  
2-sonli DIMI o‘qituvchisi*

*Doniyorbek Erkinov,  
NamDU tarix yo‘nalishi 3-kurs talabasi*

Sergey Pavlovich Tolstov tomonidan yaratilgan yirik va muhim asarlardan biri “Qadimgi Xorazm”dir. Ushbu asar 1948-yilda Moskva va Leningradda nashrdan chiqarilgan<sup>119</sup>. Tadqiqotchi va kitobxonlar tomonidan iliq munosabatda kutib olingach, ushbu asar qayta-qayta nashrdan chiqarildi va dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilindi.

“Qadimgi Xorazm” asari 5 ta bob va 3 ta ekskurs (mavzudan chetga chiqmagan holda ikkinchi darajali ma’lumotlar berilgan qism)dan iborat<sup>120</sup>. Asarning 1-bobi “Cho‘ldagi devor” deb nomlanadi. Ushbu bob o‘z navbatida 2 bo‘limni o‘z ichiga olgan:

1. Buyuk Xorazmning dastlabki tarixi

2. “Qadimgi sug‘orma yerlar” va 1937-1940-yillardagi Xorazm ekspeditsiyasi

“Gavhar rustagi” deb atalgan 2-bob quyidagi 5 ta bo‘limdan iborat:

1. Savol tarixiga

2. Irrigatsiya davrigacha bo‘lgan yodgorliklar

3. Qadimgi irrigatsiya tarmog‘ining rivojlanishi

4. Xorazm irrigatsiya tarmog‘i qisqarishining tarixiy asoslari

5. Xorazmning qadimgi sug‘orma yerlarini qayta o‘zlashtirish tarixiga

Asarning 3-bobi “Afrig‘ minorasi” nomi ostida zikr etilgan. Bu bob quyidagi bo‘limlardan iborat:

1. Bاليqchilar chaylasi zamoni

2. Minglab shaharlar davri

3. O‘n ikki ming qal‘a zamoni

4. “Buyuk Xorazmshohlar” davri

S. P. Tolstov asarning to‘rtinchi bobini “Xorazm chavandozi” deb nomlagan. Unda quyidagi bo‘limlar o‘z aksini topgan:

1. Siyovushiy-Afrig‘iyalar tangalari

2. Qadimgi Xorazm terrakotalari

3. Qang‘ otliq qo‘shini

<sup>119</sup> [http://sbiblio.com/biblio/archive/tolstov\\_dre/](http://sbiblio.com/biblio/archive/tolstov_dre/)

<sup>120</sup> [http://kungrad.com/history/khorezm\\_oldkhorezm\\_2](http://kungrad.com/history/khorezm_oldkhorezm_2).

So'nggi beshinchı bob "Tarixiy tahlil tajribasi" nomi bilan yuritilgan. Yuqorida aytiganidek, "Qadimgi Xorazm" asari boblardan tashqari 3 ta ekskursni ham o'z ichiga oladi:

I. Yevtidem tahdidi. II. Abro'y qo'zg'oloni. III. Koribantlar yo'li

Sergey Pavlovich ushbu asarning kirish qismida o'zigacha va aynan shu davrda faoliyat olib borgan va olib borayotgan ilmiy ekspeditsiyalarga to'xtalib o'tgan.

Asarda xuddi "Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab" asarida bo'lgani kabi Xorazmnинг ilk tarixi Beruniy ma'lumotlaridan soydalilanilgan holda aks ettirilgan. Qadimgi Xorazmda sug'orma dehqonchilikning vujudga kelishi masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, asarda Xorazmnинг neolit, bronza va ilk temir davriga oid ko'plab yodgorliklari to'grisida ma'lumotlar keltirilgan.

Asarda Qang, afrig'iylar va Kushonlar davri yodgorliklari bir-birlariga solishtirilgan holda tasniflandi va tahlil qilindi. S. P. Tolstov ushbu asarda qo'shimcha ma'lumotlar sifatida Yunon-Baqtriya, Parfiya. Marg'iyyona kabi davlatlarning tarixi, Abro'y va Muqanna qo'zg'oloni hamda "Avesto"dagi sulolalar tarixiga bir nazar tashlab o'tilgan. Bu ma'lumotlar asardagi birinchi darajali ma'lumotlarni atroficha bayon qilishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Tolstov "Qadimgi Xorazm" asarida Xorazmnинг ilk o'rta asrlardagi shaharlari rejasining qiyosiy tahliliga to'xtalib o'tgan. U Jukovskiy – Bartold – Yakubovskiyning O'rta Osiyo shaharlarining o'rta asrlardagi taraqqiyoti tog'risidagi ma'lum konsepsiyasiga muhim bir o'zgartitish kiritgan. Bu konsepsiya ko'ra shahar qal'a (ko'xandiz, ark ) ning atrofida yuksaladi. Bunda dastlab shahriston, ya'ni shahar vujudga keladi, so'ngra shahar atrofidagi joylar – rabotlar rivojlana borib, ya'ni XI asrga kelganda shahar iqtisodiy va ijtimoiy hayotining sur'ati rabotlarga o'tadi, shahristonlar esa inqirozga uchraydi.

Aslida bu jarayon ancha murakkab bo'lib, zikr qilingan qonuniyatni O'rta Osiyoning faqat ayrim shaharlariga nisbatangina to'lig'icha o'zgarishsiz qo'llash mumkin. Sergey Pavlovich tomonidan shaharlar rivojining birmuncha boshqacharoq yo'llari ishlab chiqilganki, bu yo'llar yuqori tilga olinganidan ko'ra haqiqatga yaqinroqdir. Uning fikricha, VIII-IX asrlarda vujudga kelgan shaharlar shaharcha yoki istehkomli rabotlar tariqasida, qal'a etagida rivojlanadi. Buni Burgutqal'a shaharchsining paydo bo'lishi va ayniqsa, Norinjon shahri misolida yaqqol ko'rsatib berilgan. Guldursun, Qavatqal'a, Jonpiqqal'a, Dovdonqal'alar singari X asrda va keyinroq vujudga kelgan shaharlarning hech qanday arki yo'q bo'lib, ular atrofi ba'zan

istehkomlanmagan, goho-goho esa istehkomlangan (Guldursun) bitta shahristondan iboratligi aniqlangan. Tolstov shahristonlarning inqirozidan va ular vazifasining rabotlarga o'tishidan darak beruvchi biron bir alomatni hech qayerdan topa olmaganini ta'kidlab o'tgan.

1939-yilgi iyundan to oktabr oxirlariga qadar davom etgan 6 oylik tadqiqot ishlari natijasida S. P. Tolstov boshchiligidagi sharqiy otryad va S. A. Yershov boshchiligidagi g'arbiy otryad quyidagi 3 ta antik davr yodgorliklarini o'rganib chiqqanlar:

1. Milodiy I-II asrlarga mansub Ayozqal'a-3 dagi katta bino;
2. Ayozqal'a-3 yaqinidagi milodiy II asrga oid dehqon qo'rg'oni;
3. Qadimgi Xorazmnning ilk qo'rg'onlaridan biri – qadimiy sug'orma yerkarning eng sharqiy chekkasida joylashgan Jonbosqal'a xarobalari hamda Teshikqal'adan yaqinidagi islomdan avvalgi o'rta asr qasrlaridan biri – Burgutqal'a-36 edi<sup>121</sup>.

Tolstov ekspeditsiyasi 1939-yilda tekshirilgan Charmanyob yodgorliklariga oid ma'lumotlarni aniqlashdan tashqari, Ustyurtning janubiy chekkasidagi xarobalarda izlanishlar olib bordi. Bular ichida Devkesganqal'a xarobalari ma'lumotlarga juda boy edi. S. P. Tolstov ushbu qal'ani XVI–XVII asrlardagi G'arbiy Xorazm xonligining so'nggi o'rta asrlardagi poytaxti Vazir shahriga qiyoslagan<sup>122</sup>. U bu o'rinda 1558-yilda Vazir shahriga tashrif buyurgan ingliz sayyohi Antoniy Jenkinsonning so'zlarini keltiradi va o'zining kuzatishlarini ana shu ma'lumotlar bilan solishtirgan. Natijada tadqiqot shuni ko'rsatganki, Vazir va Devkesganqal'aning o'xshashligi borasida zarracha ham shubhaga o'rın qolmagan.

1939–1940-yillardagi arxeologik izlanishlardan so'ng 1945-yilga qadar urush tufayli ekspeditsiya faoliyati to'xtab qoldi.

Tolstov miloddan avvalgi II asr-milodiy II asr oralig'idagi Xorazm hududini tasavvur qilishda oson bo'lishi uchun ushbu davr xaritasini keltirib o'tgan. Unda Xorazm va uning atrofidagi mamlakatlar hamda Xorazmnning ta'sir doirasini qayerlargacha borganligi haqidagi ma'lumotlar aks etgan.

"Qadimgi Xorazm" asarida Tozabog'yob va Kaltaminor madaniyatiga ham to'xtalib o'tgan. Tozabog'yob madaniyati deb atalgan yodgorliklar taxminan II mingyillikning o'rtalariga mansub bo'lib, u Kaltaminor madaniyatining bevosita davomidir. Bu davrga oid qisman

<sup>121</sup> Durdieva G. Xorazm tarixiy – me'moriy yodgorliklarini muhofaza qilish va ularning umrboqiyligini ta'binlash // Muhofaza +. – T., 2004 – № 3 – 4 (17–18). – B. 34–36.

<sup>122</sup> Abdrimov K., Avazmuratov O. Qadimgi Xorazm qal'alari // Muhofaza +. – T., 2009 – № 12 (62). – B. 28–29.

qadimgi barxanlarda, qisman taqirlarda joylashgan makonlardan misdan ishlangan narsalarning parchalari, Kaltaminor madaniyati an'analarini davom ettiruvchi mikrolitga o'xshash chaqmoqtosh asbob-uskunalar hamda Sibir va Qozog'istonning bronza davri Andronov madaniyatini juda eslatuvchi burchakli, uchburchakli va to'rtburchakli naqsh bosib tushirilgan idishlar topildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, chorvachilik Kaltaminor madaniyatining so'nggi bosqichida, III mingyillikning ikkinchi yarmidayoq kelib chiqqan.

Tozabog'yob makonlari atrofida sug'orosh inshootlari izlarining yo'qligi bu davrda dehqonchilik sun'iy sug'orishga asoslanmagan, balki qayir yerlardan, ya'ni yer osti suvlari yuza bo'lgani sababli tuproqda dehqonchilik ekinlarining o'sishi uchun nam yetarli bo'lgan joylardan foydalilanilgan degan xulosa chiqarishga imkon beradi.

## Buxoro amirligining ag'darilishi va unda temiryo'i transportining ishtiroki (1917-1920-yillar)

*B. Jalolov*

*NamDU tadqiqotchisi*

1917-yil fevral oyidagi Rossiyada sodir bo'lgan xalq inqilobi o'z ta'sirini qo'shni davlatlarga, xususan Rossiyaga vassal sifatida yashab kelayotgan, yuz ellik yil mobaynida Mang'itlar sulolasi tomonidan boshqarib kelinayotgan Buxoro amirligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. 1917-yil voqealari va uning ta'siri to'g'risida sulolaning oxirgi vakili Sayyid Olimxon o'z estaliklarini yozib qoldirgan, bu estaliklar va xotiralar nafaqat Sharqda, balki G'arbda ham mashhur bo'lib, 1929-yil "Mazlum Buxoro ovozi" nomi bilan turkistonlik muhajirlar tashabbusi tufayli Parijda frantsuz va fors tillarida 1000 nusxada, shuningdek Istambulda ham chop qilingan edi<sup>123</sup>.

Tarixiy tадqiqotlar va manbalar tahlili shuni ko'rsatadi, Buxoro mamlakatida amir Olimxon mutloq boshqaruvni o'z qo'liga olgan va juda katta kuch yordamida Buxoroda hukmonlik qilib kelayotgan bo'lsada, Rossiyadagi sodir bo'lgan inqilobga befarq qarab turaolma-ganligini ko'rsatadi. Bu haqda u shunday degan edi;" Rus jamoati ichidan bir qancha beasl bo'lmag'ur johil kishilar paydo bo'lub, ular o'zlarining hazrat janob oliylari(rus imperatoriga-M) rus davlati ulug'-lari orasiga rahna soldilar. Ular qaror qabul qilishib, odamlarni majbur

<sup>123</sup> Amir Olimxon fojeasi Hasanov va boshq. Fan va turmush. 1991 №3 - B 18

qilishdi. Bu beasl bo‘lgan shaxslar bu qonun bilan odamlarni to‘plab, rus imperatorlik davlatini o‘z sultanatidan ag‘darib, o‘z jamoasidan bo‘lgan bir necha nafar odamlarni kattakon qilib qo‘ydilar”<sup>124</sup>. Amirning tashvishga tushishi tabiiy xol edi albatta. Chunki amirning despotik boshqaruv tuzumiga qarshi mamlaqat ichkarisida muxolifat yuzaga kelgan va ular tarix sahnasiga “yosh buxoroliklar” nomi bilan chiqib kelgan edilar. Bir tomondan, uni Rossiyada yuz bergen inqilobiy harakatlar tashvishlantirsa, ikkinchi tomondan, amirlidagi jadidlar, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar, guruhlarning paydo bo‘lishi aslo tinchlik bermayotgan og‘ir bir vaziyat vujudga kelgan edi.

Rossiyadagi inqilobdan ruhlangan “Yosh buxoroliklar” guruhি amir oldiga islohotlar o‘tkazish talabi bilan chiqdilar, ya’ni amirning mutloq boshqaruvini yevropacha konstituttsion monarxiya bilan almashtirish, maorif va madaniyatni, ishlab chiqarish va sanoatni rivojlantirish, ilm-fan va texnikani taraqqiy ettirish kabi masalalarini o‘z ichiga olgan holda, amir Olimxonga har xil yo‘llar bilan ta’sir ko‘rsatishga harakat qildilar. Amir Olimxon yon bosishga majbur bo‘ldi va vaziyatdan kelib chiqib, 1917-yil 7-aprelda islohot o‘tkazish haqidagi manifestga imzo qo‘ydi.

“Yosh buxoroliklar” dastlabki yutuqlarini ko‘cha namoyishi bilan nishonlashga kirishdilar, namoyishda nomusulmon fuqarolarning ishtirok etishi musulmon markazi bo‘lan Buxoroi Sharif musulmonlari orasida norozilikka sabab bo‘ldi. O‘scha davrda musulmonlar orasida g‘ayridinlar alohida yashashi, o‘z diniy e’tiqodiga oid ko‘cha marosimlarini o‘z mahallasida o‘tkazishi odatga aylangan edi<sup>125</sup>. Ushbu norozilik va namoyishga 5-7 ming kishini to‘planishi amirni cho‘chitib yuborib, namoyishni bostirishga va jadidlar hamda yosh buxoroliklarni ta’qib qilib, jazolashga kirishadi. “Yosh buxoroliklar” partiyasi a‘zolaridan ko‘pchilik a‘zolari, xususan qatl qilinadi, Sadridin Ayniy va Mirzo Narzuullo kabi partiya faollari 75 darra urish bilan jazolanib, zindonga tashlanadilar<sup>126</sup>.

Amirlidagi vaziyat keskinlashib, islohot tarafдорлари va amir o‘rtasida ba’zida muzokaralar yuritish, ba’zida kuch ishlatish yo‘li muammolar chigallashib turgan paytda, Rossiya markazida hokimiyat tepasida turgan hukumatni Lenin boshchiligidagi bolsheviklar partiyasi davlat to‘ntarishi asosida qo‘lga olishib, o‘z siyosatini yurgiza boshladilar. Mamlakatda “ishchi-dehqon davlati”ni o‘rnatish bahonasida bolsheviklar jamiki yerosti va yerusti boyliklarni ustidan davlat

<sup>124</sup> Amir Sayyid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. Toshkent: FAN. 1991. –B 9.

<sup>125</sup> O‘zbekiston tarixi. / Bobobekov. H va boshq... Toshkent. Sharq, 2000. –B 237.

<sup>126</sup> Xasanov.M. Sadreddin Ayniy va Fayzullo Xo‘jaev. Toshkent: 1968. –B 15.

nazoratini o'rnatishga kirishib, bu borada keskin choralarni qo'llash va zo'ravonlik odatiy holga aylandi.

"Bolsheviklardan bo'lgan bu jamoaning tartib-qonunlarini na ko'rib bo'lindi, na bilib bo'lindi. Chunki hamisha beqarorlik yuzaga keldi, bu jamoa hukumatni xarob etib, mamlakatni vayron qilishga yo'l qo'ydi, dinlarni, ibodatxonalarini yo'q qilishdi, mo'tabar va davlatmand bo'lgan havr bir guruh mol-mulkini bosib olib, talon-taroj qildilar<sup>127</sup>," deya amir Olimxon xavotir va norozilik kayfiyatida bejiz aytmagan edi.

Behbudiya esa Kolesov voqealaridan so'ng yosh buxoroliklarni qatag'on qilinishidan qattiq qayg'uga tushgan, mamlakatni johillikdan qutqarish, madaniyatni, ta'limni rivojlantirish yo'lidan bordi. biroq bu ishlarni bolshevizm bilan hamkorlikda yoki ular rahnamoligida amalga oshirishga mutloqo qarshi edi. Bu vaqtda xalqaro maydonda siyosiy vaziyat ancha yaxhilangan, bиринчи Jahon urushida г'alaba qozongan Antanta ittifoqchilari 1919-yil yanvarida Parij shahrida mag'lub va g'olib davlatlar o'rtasida sulk shartlarini kelishib olish, urushdan so'ng dunyodagi o'zgarishlar masalasini ko'rib chiqish maqsadida konfrentsiya chaqirishib, undagi asosiy ko'tarilgan muammolaridan biri, Rossiyyadagi vujudga kelgan "bolshevizm balosi" va uni hali quturmasdanoq tezda tugatish hamda unga qarshi kurash masalasi ham qo'yilgan edi. Behbudiya singari Turkiston ziyolilari bolshevizmga qarshi kurashda yordam so'rab, AQSh Prezidenti Vudro Vilsonga maktub yo'llashib, unga javob xati ham olgan edilar<sup>128</sup>.

AQSh Prezidenti, Nobel mukofoti sohibi Vudro Vilson (1913-1921 yy) bolshevizm muxolifatchilariga xat yo'llab, bu borada hamkorlikni mustahkamlash va kelishib olish uchun Behbudiya va uning hamkorlarini Istanbul yaqinidagi Shahzoda orollariga taklif etadi. Vilson Behbudiya singari Turkistondagi bolshevizm raqiblarining kuchlarini birlashtirish, kommunistik tuzumga zarba berish orqali uni tezda tugatish yuzasidan shaxsan o'zi muzokaralar olib borishni maqsad qilgan edi va bu maqsad yo'lida u Turkistondan Behbudiyni tanlagan edi.

Behbudiya tarixiy uchrashuvni amalga oshirish maqsadida o'z safarini niqoblash uchun xajga borish bahonasini qilib yo'lga chiqadi, biroq amir ayg'oqchilari va qizil chekistlar razvedkasi muftiyini davlatga qarshi fitna tayyorlayotganlikda ayplashib, amir Olimxonni unga qarshi qayray boshladilar.

Ig'vo va aldovlarga uchgan va shundoq ham Behbudiyni yoqtirmagan amirni uni tezda yo'qotish kayfiyati yuzaga keldi. 1919-yil

<sup>127</sup> Amir Sayyid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. -B 11.

Umid Bekmuhammad Moziydag'i sirli o'limlar -Toshkent: Yangi asr avlod. 2009 -B 49

bahorida safarga chiqqan Behbudiy va uning hamrohlarini amir buyrug'i bilan Shahrisabzga yetib borgan joyda qamoqqa olishib, Qarshi shahriga olib kelishadi va Qarshi begi Tog'aybek tomonidan qatl qilinadi<sup>129</sup>. Behbudiying asl maqsadini tushunolmagan va aldov-ig'volarga uchgan amir Olimxon o'z mamlakatini boshiga kelayotgan xavfni bartaraf etishdagi yana bir imkoniyatni qo'lidan berdi va ozodlik tayanchlaridan birini o'z qo'li bilan yiqitdi.

Lenin boshchiligidagi bolsheviklar va ayni paytda amir ham bo'lishi muqarrar bo'lган urushga zimdan tayyorgarlik ko'rishga kirishdilar. Amirni cho'chitib qo'ymaslik va o'z rejalarini niqoblash maqsadida 1920-yil 7-yanvarida Moskva tomonidan tuzilgan Turkkomissiya a'zolari amir huzuriga tashrif buyurishib, Buxoroga nisbatan sovet hukumatini tinchlik niyatida ekanliklariga ishontirishga urindilar. Muzokara ikki tomonning talablari bilan yakunlandi, xususan amir Kogon stantsiyasiga olib kelingan qizil askarlarni olib ketishni, Buxoro va Chorjo'ydan jadidlarni chiqarib yuborishni, Kolesov bosqini davrida bosib olingan amirga qarashli paxta zavodini va Buxorodagi saroyni qaytarib berishni, Buxoro ustidan harbiy samolyotlar uchishini to'xtatishni, Turkkomissiya esa amirdan sovetlarga qarshi g'azovot urushini to'xtatish va Buxorodagi armiyani tarqatib yuborishni keskin talab qilishdi<sup>130</sup>. 1920-yilning 31-martida turkkomissiya a'zolari Sh. Eli-ava va M. Frunzelar amir Olimxon bilan uchrashib, Buxoroda behuda qon to'kmaslik, tarixiy obidalarni vayron bo'lib ketmasligi uchun olib borgan tahdidli muzokaralari ham natijasiz tugadi.

1920-yilning yozidayoq "Buxoro amirligi Turkistonga bostirib kirishga tayyorgarlik ko'rmoqda va uni qaytarish kerak" degan soxta bahonalar bilan sovet qo'mondonligi yirik harbiy bo'linmalarni chegaraga yaqinlashtirib keldi, Buxoro chegaralariga yaqin bo'lган sovet Turkistoni shaharlaridagi harbiy garnizonlarni ham mustahkamladi. 1920-yil 1-avgustida M. Frunze Leninga telegramma jo'natib, amirlikni tezda tugatish, buning uchun Buxorodagi inqilobiy harakatni avj-oldirishning ikki yo'li borligi, birinchisi - "inqilob"ning ichki manbalariga asoslangan, biroq sekin boriladigan yo'l, ikkinchisi - tashqaridan qizil armiyaning muntazam qismlarini keng jalb qilish asosida faol yordam ko'rsatishni nazarda tutuvchi yo'l bo'lib, Lenin albatta ikkinchi yo'lni ma'qul ko'rgan edi<sup>131</sup>.

<sup>129</sup>Fidoylar - Toshkent: Fan, 1990 - B 4.

<sup>130</sup>O'zbekistonning yangi tarixi. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida... - B 125.

<sup>131</sup>Mustabid tuzumming O'zbekiston boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari - Toshkent: Sharq, 2000 - B 68

Bolsheviklar rahbariyati tomonidan inqilobni Buxoroga eksport qilishga rozilik olingach, Turkiston kommunistlari jadallik bilan tashkiliy harbiy ishlarni avj oldirib yubordilar.

“Qurolli qo‘zg‘olon”ni tayyorgarlik ishlariga rahbarlik qilish uchun harbiy inqilobi byuro tashkil etildi, unga Turkkomissiya va Turkiston byurosini vakillari, M. Frunze, V. Kuybishev, va F. Xo‘jaev va boshqalar kiritildi. Amir Olimxon ham urushga tayyorgarlikni kuchaytirdi hamda bu borada xorijdan ham amirga madad kuchlari kela boshladi. 400 harbiy instruktor va 150 turk ofitseri amir qo‘sishinlarini bo‘lg‘usi urushga tayyorlay boshladi va 1920-yilning may oyidayoq Eronning Mashhad shahridan ingliz polkovnigi Shtennel armiya shtabi tashkil qilgani yetib kelib, 160 ingliz va 60 ta sobiq oqpodsho ofitserlari yordamchi sifatida amirlik qo‘sishiniga kelib qo‘sildilar. Harbiy safarbarlik va tayyorgarlik ishlarining kuchaytirilishi natijasida amirlik qo‘shani 50 ming kishiga yetkazildi<sup>132</sup>. Xullas ikki tomon ham urushga zo‘r berib tayyorgarlikni kuchaytirgan, ayniqsa sovet hukumatini imkoniyatlari oshib borardi, boisi 1919-yil Turkiston qamalining yorib o‘tilishi, 1920-yil fevralida Kaspiyorti va Yettisuv frontlari va Xeva xonligining tugatilishi shular jumlasidandir.

Bolsheviklar “dahosi” bo‘lmish Leninni Buxoro amirligini tezda bosib olib uni tugatish ishtiyoqini yanada kuchaytirgan o‘ziga xos sabablaridan biri, birinchi o‘rinda mang‘itlar sulolasining yillar davomida poytaxt Buxoroga yiqqan “amirlik xazinasi” bo‘lib, bu xazina haqida inqilobdan oldigni yillardayyoq ancha shov-shuvlar ko‘tarilgan bo‘lib, mahalliy ro‘znomalar bu haqda hamayoqqa jar solishib, anchamuncha odamlar havasinini keltirar, bu ma’lumotlar albatta boylik yig‘ish vasvasasiga uchragan sovetlarni ham bezovta qilgan bo‘lsa ajab emas. Masalan, “Oyina” jurnalining 1914-yil 12-apreldagi 25-sonida “Buxoro amirligining xazinalari” sarlavhasi ostida berilgan maqolada quyidagicha yoziladi; “Hozir Buxoro amirining tassarufi ostida bo‘lgan xazinaning aqchasi (oltin va kumush) shu darajada mo‘lki, hech bir davlat xazinasida bul darajada ehtiyyot saqlangan oltin va kumush pul va yombilar bo‘lmasa kerak. Buxoro amirining sanochlari (charmdan tikilgan maxsus xaltachalar)da saqlanayotgan oltin va kumush pullar bo‘yi 50 olchin, (1-olchin-70 sm) eni 20 olchin va balandligi 8 olchin bo‘lgan bir tog‘dan iboratdir. Bu xazinadan tashqari uch olchin kattalikda yana bir yerto‘la xazinasi bo‘lib, u xazina rus, Buxoro va

boshqa bir qancha davlatlarning oltin pullari bilan to‘ladir<sup>133</sup>.

Buxoro zaminida turishni foydasiz deb bilgan amir Olimxon 1921-yil 4 martda Afg‘onistonga o‘tib ketadi, afg‘on hukumati amirining shaxsiy xarajatlari uchun yiliga 14-15 ming afg‘oni pul ajratadi, amir qiyinchilik bilan bo‘lsada, kelajagini o‘ylab, Peshavordagi (hozirgi Pokiston hududida) ingliz bankiga 2 million hind rupiysi, Parijdagi banklardan biriga shaxsiy jamg‘arma hisobida 180 million frank puli qo‘yanligi uning Afg‘onistonda bermalol yashashiga hamda Buxorodagi milliy ozodlik harakatiga homiylik qilishiga sharoit yaratib berdi<sup>134</sup>. uzoq kurashlar va muhojirlikdan so‘ng amir Olimxon 1944-yil 28-aprel kuni 63 yoshida vafot etdi.

Bolsheviklar esa Buxoroni talon-taroj qilgandan so‘ng uni vaqtincha bo‘lsada qo‘g‘irchoq respublikaga aylantirib, iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan qaram qilish va bo‘ysundirish yo‘lidan bordilar. Sovet davri manbalarida aytishicha, go‘yoki Buxoro ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo‘llab quvvatlash uchun hamda Buxoro xalqini og‘ir ahvolda qolganini hisobga olib, qaytarib bermaslik sharti Buxoroga 200 ming gaz gazlama, 50 ming pud kerosin, 1 vagon idish-tavoq 3 vagon yog‘och, 1 vagon gugurt dori-darmon ajratishgani aytilib<sup>135</sup>, biroq olib ketilgan 13 vagon tilla haqida hech narsa deyilmay yana Buxoroga Markazning “beg‘araz yordami” to‘g‘risida bong urgan edilar. 1924-yilgi milliy hududiy chegaralanish siyosati oqibatida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi ham tugatilib, uning hududlari bo‘lib yuborilishiga qaramay, Stalin davrida faoliyati ancha takomillashgan GPU (davlat siyosiy boshqarmasi) xodimlari bo‘lmish sovet chekistlari 1930-yillarda ham amirlik xazinasini qidirish ishlarini to‘xtatishmadi. 1930-yillarda boshlarida O‘zbekiston GPU xodimlari tomonidan Buxoro viloyati hududlaridagi qishloq va shaharlarda “tilla ovlash” kompaniyasi avjiga chiqadi, mahalliy aholini qo‘lida qolib ketgan oltinlar, hattoki shaxsiy mulki bo‘lgan ayollarning bilakuzuklari, tillaqosh va boshqa taqinchoqlarni majburiy tarzda tortib ola boshladilar.

Mahalliy aholi o‘zlaridagi bor oltinlarni topshirganlaridan so‘ng ham chekistlar “yana ko‘proq topib berasan” deya do‘q po‘pisa qilishib, qiyonoqlarga solishadi. Masalan Buxoro shahrining Kosagaron guzarida yashagan Bobo Qori ismli 72 yoshli qariyani barcha oltin va oltin buyumlarni tortib olishib, kamiga og‘ziga miltiq tirab, azoblash

<sup>133</sup> Yo‘ldoshev. N.Haydarov. Y. Amir Olimxon xazinasi qaerda? // Fan va turmush, 1991.- №10. -B 10.

<sup>134</sup> Amir Olimxon fojeasi Hasanov M. va boshq. № 4. -B 26.

<sup>135</sup> O‘zbekiston SSR tarixi Mo‘minov I. va boshq. Toshkent: Fan. 1971.- 3-tom. -B 293.

maqsadida, miltiq mili orqali bir chelak suvni qariyaning ichiga yuborishadi, azoblarga chiday olmagan qariya qamoqxonada xalok bo‘ladi<sup>136</sup>. Ko‘plab Buxoro ahlini taqdiri ana shunday ayanchli tugadi. Buxoro amirligini tugatishda jonbozlik ko‘rsatgan yosh buxoroliklar partiyasi a’zolari 1937-1938-yillardagi qatag‘onlarda jismonan yo‘q qilindi. O‘z ishlaridan keyinchalik afsuslangan F. Xo‘jaev hayoti ham fojeali tugadi, uni Moskvada otib tashlashdi. Uning faoliyatiga tanqidiy yondoshgan va qoralagan Ahmad Zaki Validiy To‘g‘on u to‘g‘risida “bir qancha do‘stilarining boshiga yetganidan keyin aldanganini tushunib, vijdon azobida qovurilgan Fayzulloning o‘zi ham qiynalib o‘ldi” deya ta’kidlagan edi<sup>137</sup>. Buxoroning me’morchilik durdonalari, uzoq yillar davomida xalq tomonidan asrab-avaylab kelingan tarixiy obidaları communistlar tazyiqiga uchrada, xususan mashhur Sitorai Mohi Xosa saroyi ruhiy kasalliklar shifoxonasi(jinnixona)ga aylantirildi.

Bu muhtasham binodagi noyob ashyolar talon-taroj qilinib, butun mol-mulki shahar sho‘rolar kengashi ixtiyoriga topshirildi. Ko‘plab tarixiy obidalar davlat muhofazasidan chiqarilib, buzib tashlashga qaror qilindi. Tarixiy inshootlarni ta‘mirlash uchun mablag‘ yetishmasligi vaj qilinib, ko‘plab obidalar boshqa maqсадlarda foydalanishga berildi, ammo Buxoroni kulini ko‘kka sovurgan bosqinchi Frunzega Buxoro va boshqa shaharlarda haykal o‘rnatish uchun katta-katta mablag‘lar ajratildi. Sovet mustamlakachiligi tarixi o‘ziga xos murakkab jihatlari bilan o‘tmishimizda ana shunday iz qoldirdi. Bugungi kunlarimizga yetib kelish oson bo‘lmaganligi, communistlar tomonidan qariyb 70 yil mobaynida milliy boyliklarimiz talanib kelinganligiga, yuqorida tilga olingan tarixiy manbalar yaqqol misol bo‘lib har qanday yurtdoshimizni chuqr mulohazaga yetaklaydi.

Mamlakatimizda yashayotgan har qanday madaniyatli va yuksak darajadagi ma’naviyatga ega inson vatan tarixidan boxabar bo‘lishi bugungi kunning asosiy ustivor masalalaridan biridir.

Prezidentimiz I. Karimov ta’kidlaganlaridek “Kim bo‘lishidan qat’iy nazar ja’miyatning har a’zosi o‘z o‘tmishini bilsa, bunday odamlarni yo‘ldan urish, har qanday aqidalar ta’siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o‘rgatadi, irodasini mustahkamlaydi”,<sup>138</sup>

<sup>136</sup> Yo‘ldoshev N , Haydarov Y. Amir Olimxon xazinasi qayerda? – B 11.

<sup>137</sup> Ahmad Zakiy Validiy To‘g‘on. Bo‘lingani bo‘ri yer.-Toshkent. Adolat, 1997 – B 108

<sup>138</sup> Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q -Toshkent: Sharq, 1998 – B 9

## Xiva xonligi iqtisodini Rossiya manfaatlariga bo'ysundirilishi

*Abdulboqiyev Fahriddin*

*NamDU Tarix yo'nalishi 3- bosqich talabasi*

*A. Asqarov*

*NamDU Ijtimoiy-madaniy faoliyat yo'nalishi 306-guruh talabasi*

1873-yilgi shartnoma bilan imperiya va rus xalqining kuch-qudratini namoyon etuvchi Rossiya va Xiva o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tartibi o'rnatildi. Xonga O'rta Osiyodagi rus hukumati nazorati ostida Xiva xalqini faqatgina ichki boshqaruv huquqi qoldirildi<sup>139</sup>. Xiva xonining faoliyatini nazorat qilish xonlikning Amudaryo o'ng soxilidagi Rossiyaga o'tgan hududida 1873-yil tashkil etilgan Amudaryo okrugi boshlig'i topshirildi. Amudaryo okrugining markazi katta harbiy qism, qurol-yaroq omborlari joylashgan Petro-Aleksandrovsk istexkomi (hozirgi To'rtko'l shahri) edi. 1874-yildan Amudaryo okrugi Amudaryo bo'limi deb nomlandi. Bo'lim boshlig'i lavozimiga harbiylardan Turkiston general-gubernatorining tavsiyasi bilan shaxsan imperator tomonidan tayinlangan. Unga fon Kaufmanning 1873-yil 12-avgustdagি ko'rsatmasiga binoan keng huquqlar berildi. Mazkur ko'rsatmada shunday deyiladi: «Xonlikning ichki ishlari haqida biz doimo xabardor bo'lishimiz va ishtirok etishimiz lozim. Siz... mahalliy sharoit va vaziyatga qarab ish tuting»<sup>140</sup>.

Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi nizomga binoan Amudaryo bo'limi boshlig'i ma'muriy boshqaruv ishlari bo'yicha Sirdaryo viloyati harbiy gubernatoriga bo'ysunsa-da, boshqa uezd boshliqlariga nisbatan katta huquqlarga ega edi. U bo'limdagи harbiy qo'shin qo'mondoni bo'lib, harbiy sohada to'g'ridan-to'g'ri Turkiston general-gubernatoriga bo'ysungan. Shuningdek, Amudaryo bo'limi boshlig'i Rossiyaning Xiva xonligidagi diplomatik vakili hisoblangan. Xiva xoni Rossiya bilan aloqalarni faqat Amudaryo bo'limi boshlig'i orqali olib borgan. Xiva xonligini ichki ishlariga oid biron-bir masala Amudaryo bo'limi boshlig'ining ruxsatisiz xal etilmagan.

Rossiya o'ziga qaram boshqa o'lkalarga nisbatan Xiva xonligida alohida mustamlakachilik siyosatini yuritgan. Xonlikning butun iqtisodi, xalqi va uning mehnati, boyliklari, mablag'lari mustabid davlat manfaatlariga xizmat qilishga bo'ysundirildi. Bunga o'n sakkiz bandining o'ntasi Rossiya ishbilarmonlar hamda savdogarlari huquq va

<sup>139</sup> Girshfeld V., Galkin M. Voennostatisticheskoe opisanie Xivinskogo oazisa. ch. II. - T., 1903. S. 26.

<sup>140</sup> Terent'ev M. Istorija zavoevaniya Sredney Azii. . T. II. S. 300.

imtiyozlariga bag'ishlangan «Tinchlik shartnomasi» asos bo'lib xizmat qildi.

Xiva xonligi Rossianing O'rta Osiyodagi boshqa mustamlakalari qatori uning sanoat mahsulotlari sotiladigan bozorga aylana bordi. Katta imtiyozlarga ega bo'lgan rus savdo-sotiq doiralari xonlikda o'z faoliyatlarini kengaytirdilar. Xiva xonligi shaharlarida ko'plab savdo firmalarining vakolatxonalarini ochildi.

Ulardan ayniqsa, Rabenkssindel, Poznanskiy, aka-uka Kraftlar, «Nadejda», «Vostochnaya», «Xiva» va boshqa savdo firmalari yangi Urganch, Xiva kabi shaharlarda o'z savdo vakolatxonalariga ega bo'lib, xonlikda qizg'in savdo ishlarini olib bordilar. Ular Xiva bozorlarini Rossiyada tayyorlangan sanoat mahsulotlari bilan to'ldirib tashladilar. Bu esa mahalliy hunarmandlar va kosiblar tayyorlagan mahsulotlar bozorini kasod qildi. Qadimdan rivojlanib kelgan hunarmandchilikning bir qancha turlari – to'qimachilik, yog' tayyorlash, metall buyumlar yasash, kosibchilik, ipakchilik og'ir ahvolga tushib qoldi. Ayniqsa, xonlikka rus gazlamalarining ko'plab keltirilishi mahalliy to'qimachilikka qattiq zarba berdi. Mahalliy gazlamalar raqobatga dosh berolmay ichki va tashqi bozordan tobora siqib chiqarildi. Mahalliy hunarmandlar Rossiya sanoat mahsulotlari bilan raqobat qilish uchun o'z mahsulotlarini tayyorlashda arzon va sifatsiz xom-ashyodan foydalana boshladilar. Bu esa ular tayyorlagan mahsulotning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Natijada xonlikning ko'plab hunarmandlari Rossianing nisbatan arzon va sifatlari mahsulotlari raqobatiga bardosh berolmay, ishlab chiqarishni qisqartirishga yoki kasblarini o'zgartirishga majbur bo'ldilar. Ko'plab hunarmandlar xonavayron bo'lib, qashshoqlikka yuz tutdilar. Ularning bir qismi mardikorlik qilishgan bo'lsa, qolganlari zavod-fabrikalarning yollanma ishchilariga aylandilar.

Xiva xonligiga katta miqdorda Rossiya sanoat mahsulotlari kirib kelishi bilan bir qatorda, xonlik shaharlarida rus ishbilarmonlari tomonidan sanoat korxonalari qurila boshlandi. Mustamlakachilar xonlikda sanoatni rivojlantirish niyatida emasdilar, ular bundan manfaatdor ham bo'limganlar. Rossiya ma'murlari xonlikda xom-ashyoga dastlabki ishlov berish sanoatidan boshqa sanoat turlarini vujudga keltirmaslikka, Rossiyadan esa xonlikka tayyor mahsulot keltirishga harakat qildilar. Shuning uchun ular tomonidan qurilgan korxonalar xom-ashyoga dastlabki ishlov beruvchi bo'lib, asosan paxta tozalash, yog' zavodlaridan iborat edi. Shuningdek, xonlikda sovun, ko'n- teri zavodlari ham qurilgan edi. Xiva xonligida dastlabki sanoat korxonasi 1889-yil katta Yaroslavl manufakturasini jamiyatini tomonidan

Yangi Urganchda barpo etildi. keyinchalik Xiva shahrida kichik paxta tozalash korxonasi qurildi. Bu korxona uchun xon xazinasi hisobidan Turkiston general-gubernatori farmoniga ko'ra, jin dastgoxi keltiriladi. Xonlikda 1914-yilga kelib paxta tozalash korxonalarining o'ziga 63 taga yetdi<sup>141</sup>. Xonlikdagi zavodlarda mehnat sharoiti juda og'ir edi. Mehnat muhofazasi, ishchilar hayoti xavfsizligi, sanitariya xizmati mutlaqo yo'q edi. Ish soatlari kuniga 13-15 soatni, ayrim paytlarda 16-18 soatni tashkil etardi. Korxonalarda baxtsiz hodisalar tez-tez ro'y berib turardi<sup>142</sup>. Xiva xonligida qurilgan korxonalaridagi og'ir mehnat sharoiti haqida Rossiyaning yuqori lavozimli amaldorlaridan bo'lgan graf Palen shunday yozadi: «Bu yerdagi rus fuqarolariga tegishli zavodlarning ko'pchiligi xech qanday texnika xavfsizligi talablariga, gigienaga riosa qilinmasdan qurilgan va jixozlangan. Bug' qozonlari xech qanday sinovsiz o'rnatilgan, tibbiy xizmat mutlaqo yo'lga qo'yilmagan, ishchilar bilan korxona egalari o'tasidagi o'zaro munosabatlar tartibi belgilab olinmagan»<sup>143</sup>.

Korxonalarda ko'p ishlar qo'lda bajarilar edi. Ishchilar faqtgina diniy bayram kunlari dam olib, qolgan paytlarda dam olish kunlarisiz ishlar edilar. Zavod xo'jayini ishchilarni xoxlagan paytda ishdan bo'shatib yuborishi mumkin edi. Zavodlarda ruslar bilan bir qatorda mahalliy aholi vakillari ham mehnat qilardilar. Ular asosan og'ir mehnat sharoitida, malaka talab qilmaydigan qora ishlarda ishlardilar. Zavodlarda mehnatga haq to'lashda mahalliy ishchilari kamsitilar edi. Mahalliy ishchiga bir xil ish bajargan rus ishchisiga nisbatan oz haq to'lanardi. Masalan, yangi Urganchdagi zavodda qorovul bo'lib ishlovchi Avaz Niyozov oyiga 6 so'm 71 tiyin olgan bo'lsa, rus qorovuli Yefremov oyiga 12 so'm olgan, toylashssexidagi ikki mahalliy ishchi oyiga 3 so'm 33 tiyindan olgan bo'lsalar, ikki rus ishchisi 12 so'mdan olganlar. Yangi Urganchdagi chit tozalash zavodidagi 12 ta mahalliy ishchi oyiga 7 so'm 42 tiyindan olgan bo'lsalar, boshqa xuddi shunday ish bajargan ikki rus ishchisi ulardan 2-4 so'mdan ortiq maosh olganlar<sup>144</sup>. Rossiyaga tobe' bo'lgan Xiva xonligidagi hunarmandlar kabi dehqonlar ham og'ir ahvolga tushib qoldilar. Chunki Xiva xonligi Rossiya uchun sanoat mahsulotlari sotiladigan bozor bo'lishi bilan birga,

<sup>141</sup> Mamadjonov M.K. Nekotorые izmeneniya v sotsial'no-ekonomicheskoy jizni narodov Xivinskogo xanstva v period s 1873 po 1920 gg. // Nauchnye zapiski Tashkentskogo finansovo-ekonomicheskogo instituta. - T., 1958. - № 10. S. 53.

<sup>142</sup> O'zR MDA, I-99-fond, 1-ro'yxat, 37-ish, 67-varaq.

<sup>143</sup> Palen K.K. Otchet po revizii Turkestanskogo kraya. Ch. 1 Otd. 2 ... S. 332.

<sup>144</sup> Mamadjanov M.K. Nekotorые izmeneniya v sotsial'no-ekonomicheskoy jizni narodov Xivinskogo xanstva. S. 54.

xom ashyo yetkazib beruvchi o'lka ham edi. Xonlikdan Rossiyaga asosan paxta, qorako'l teri, beda urug'i, baliq, guruch, mol yog'i, pilla, jun, charm, quruq meva, palos, namat, jun gazlamalar chiqarilgan. Shulardan eng ko'p chiqariladigan mahsulot paxta edi. Undan keyingi o'rinda ipak va Qorako'l teri chiqarish turardi.

Xiva xonligi Rossiyaga qaram davlatga aylangandan so'ng paxta ekiladigan yer maydonlari jadallik bilan kengayib bordi.<sup>145</sup> Xonlikda avvallari ham paxta yetishtirilgan bo'lsa-da, oziq-ovqat ekinlarini miqdoriga ta'sir ko'rsatmagan. Rossiya bosqinidan so'ng esa, paxta maydonlari asosan donli ekinlar ekiladigan yer maydonlarining qisqarishi hisobiga kengaydi. Natijada bug'doy narxi bir necha barobar oshib ketgan. Shuningdek, boshqa oziq-ovqat ekinlari, sholi, arpa, tariq, mosh, loviya, jo'xori va shu kabilarning narxi ancha ko'tarilib ketgan. Bu holatga qarshi chora tadbirlar ko'rib, Xiva xoni 1897-yili Amudaryo bo'limi boshlig'iga maktub yozadi va paxta maydonlari kengayib, g'alla taqchilligi vujudga kelganligi uchun kelgusi yilda (1898-y.) dehqonlarga donli ekinlar ekishga farmon bergenligini ma'lum qiladi<sup>146</sup>. Biroq paxta maydonlari yildan-yilga kengayib bordi. Rus savdogarlari bahorda dehqonlarga 12 foiz ustamasi bilan qarz-bo'nak berardilar. Kuzda dehqonlar xosilni qarz evaziga arzon narxda sotishga majbur bo'lardilar. Ayrim dehqonlar qarzni to'lolmay, qaram bo'lib qolardilar. Xiva xonligi paxta yakkaxokimligi natijasida Rossiyadan keltiriladigan g'allaga qaram bo'lib qoldi. G'alla keltirishda esa uzilishlar tez-tez bo'lib turardi.

Rus hukumatining xonlik iqtisodini to'liq Rossiya manfaatlariga xizmat qilishiga bo'ysundirish uchun amalga oshirgan bir qancha chora tadbirlari ham xalq turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ana shunday chora tadbirlardan biri xonlikni Rossiya boj tizimiga kiritilishi edi. Xiva xonligiga qo'shni davlatlardan, Rossiyadan boshqa Hindiston va ayrim g'arbiy Yevropa davlatlaridan ham turli xil mahsulotlar keltirilgan. Bu esa Rossiya savdo manfaatlariga zid edi. Ayniqsa, g'arbiy Yevropa davlatlaridan keltiriladigan sanoat mahsulotlari Rossiya sanoat mahsulotlari bilan jiddiy raqobat qilardi. Rossiyaning hukmron doiralari Xiva xonligini faqat rus sanoat mollari sotiladigan bozorga aylantirish uchun harakat qila boshladilar. Ana shu maqsadda Xiva xonligini Rossiyaning O'rta Osiyodagi boj tizimiga kiritish uchun Rossiya moliya vaziri tashabbusi bilan 1891-yil 15 iyunda alohida majlis o'tkazildi. Tashqi ishlar va harbiy vazirlilik vakillari ishtirok etgan ushbu majlisda

<sup>145</sup> Xlopkovodstvo v Xive // Materiali dlya izucheniya xlopkovodstva. Vyp. 1 -Spb., 1912. S. 9-10.

<sup>146</sup> Sadikov A.S. Rossiya i Xiva vo vtoroy polovine XIX veka - nachale XX veka. Dis. dokt. istor. nauk. - M., 1965. - 269 l.

Xiva xonligi va Buxoro amirligini Rossiya boj tizimiga kiritishga qaror qilindi. Buxoroni Rossiya boj tizimiga kiritish haqida amir 1892-yil Peterburgga borganda kelishuv imzolangan edi. Xiva xoni Said Muhammad Raximxon ham Rossiya hukumatining talabi bilan o‘z davlati manfaatlariga zid bo‘lsa-da, xonlikni Rossiya boj tizimiga kiritilganligi haqidagi manifestni aholiga e`lon qilishga majbur bo‘ldi. 1895-yil 1-yanvardan Xiva xonligi Buxoro amirligi bilan birgalikda Rossiya boj tizimiga kiritildi. Rossiya podshosi tomonidan imzolangan Xiva xonligini Rossiya boj tizimiga kiritish qoidalariga binoan xonlikka keltirilayotgan chet el mollari bojaxona postlari orqali boj to‘lab olib o‘tilishi lozim edi. Boj to‘lamay yashirinchaligini olib o‘tilgan mollar qo‘lga tushgan taqdirda noqonuniy deb topib, musodara etish belgilab qo‘yildi<sup>147</sup>. Shu tariqa Xiva xonligi sekin astalik bilan Rossiya imperiyasi manfaatlariga bo‘ysindirildi.

## **G. A. Gerasimenko asarlarida Rossiya shahar dumalari va zemstvo muassasalari haqida ma’lumotlarni yoritilishiga doir**

*Yo. T. Boltaboyev*

*NamDU Tarix fanlari kafedrasи o‘qituvchisi*

G. A. Gerasimenkoning asarlari orasida 1990-yil Moskvada «Nauka» nashriyotida chop etilgan “Zemckie samoupravlenie v Rossii” asari Rossiya imperiyasi davlat mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish muassasalari bo‘lgan, shahar dumalari va zemstvo muassasalari tashkil etilishi, taraqqiyoti va ayniqsa 1917-yildagi faoliyatiga haqidagi eng qimmatli asarlardan biri hisoblanadi.

Asarda XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya davlatida mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish muassasalarini tashkil etish jarayonlarining faollashuvi va uning sabablari, hukumat tomonidan mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish muassasalarni tashkil etish va rivojlantirishga qaratilgan islohotlarning boshlanishi, islohotlarni juda sekinlik bilan borishi, islohotlarga qarshi kurashlar va mustabid sovet hokimiyatining shahar dumalari va zemstvo muassasalari faoliyatiga qarshi kurashi, ularning faoliyatini tugatishi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Muallif o‘zining asarida 1917-yildagi Rossiyadagi fevral inqilobi va oktyabr to‘ntarishi mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish muassasalari faoliyatiga ko‘rsatgan har-

<sup>147</sup> Tuxtametov. T.G. Rossiya i Xiva v kontse XIX nachale XX vv. - Moskva: Nauka, 1969. S. 49.

tomonlama ta'sirini ochib beradigan keng qamrovli ma'lumotlarni taqdim etgan.

Muallifning ma'lumotlariga ko'tra Rossiya davlatida mahalliy o'zini-o'zi boshqarish muassasalari shahar dumalari va zemstvo muassasalarini tashkil qilish, tarmog'ini kengaytirish va rivojlantirish mamlakat boshqaruv tizimi uchun hayotiy zaruriyat edi. XIX asrning 50-60 yillarining ohirlarida Rossiyada podshoning mustabid tuzumi chuqur inqirozni boshidan kechirmoqda edi. Imperianing Pol'sha, Finlyandiya va milliy chekka hududlarida xalq qo'zg'olonlari kuchaygan. Butun mamlakatda qaram dehqonlarning qo'zg'olonlari kuchayib, turli guruhlardagi inqilobchilarning faoliyati o'zining eng yuqori cho'qqisiga etgan. XIX asrning 50 yillarida Rossiya imperiyasining boshqaruv tizimidagi bosh boshdoqlikning kuchayishi, Qrim urushidagi mag'lubiyat, mamlakat iqtisodiyotidagi muammolar va mamlakat aholisini turmush darajasini yomonlashuvi mahalliy o'zini-o'zi boshqarish muassasalari faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish zarur degan fikrlarni yanada kuchaytirib yubordi. Ammo podsho hukumati mahalliy o'zini-o'zi boshqarish muassasalari faoliyatini kengaytirishni umuman hohlamas, o'z hokimiyatini zarracha qismini shahar dumalari va zemstvo muassasalariga berishni istamas edi. Podsho va uning yaqin amaldorlari mahalliy boshqaruv ishlarini saylab qo'yiladigan o'zini-o'zi boshqaruv muassasalariga topshirilishiga jon jahdlari bilan, qattiq qarshilik ko'rsatganlar. Ko'p yillar davomida qudratl, uyushgan, katta katta davlat mablag'larini hohlaganicha sarflab yurgan davlat amaldorlari va samoderjaviya tuzumini ashaddiy tarafdorlari mahalliy boshqaruv muassasalarini tashkil etilishiga qarshilik ko'rsatib kelganlar.

Ammo mamlakatda vujudga kelgan vaziyat imperator Aleksandr II ni 1864-yilda mahalliy o'zini-o'zi boshqarish muassasalari faoliyati to'g'risida mahsus farmon chiqarishga majbur qilgan. XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asrning boshlarida Rossiya ijtimoiy-iqtisodiy hayotida 1864-yilgi imperator farmoni asosida tashkil etilgan mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari bo'lgan shahar dumalari va zemstvo muassasalari katta o'rinn tutgan.

Ammo, Rossiya imperiyasida mahalliy o'zini - o'zi boshqarish muassasalari birdaniga, o'sha davrdagi mavjud ijtimoiy- iqtisodiy vaziyat tufayli vujudga kelgan degan hulosaga kelish kerak emas. Rossiya imperiyasida mahalliy o'zini-o'zi boshqarish muassasalari bo'lgan shahar dumalari va zemstvo muassalari podsho hukumatining qattiq qarshiliqi ostida uzoq va ziddiyatli, qarama-qarshiliklarga boy yo'lni bosib o'tdi. 1917-yil fevral burjua demokratik inqilobi natijasida

mamlakatda siyosiy kuchlar faoliyatini yanada kuchayishi, hokimiyat uchun turli siyosiy kuchlar o'rtasidagi kurashning keskinlashuvi, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish muassasalari faoliyati taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi.

1917-yil oktyabr to'ntarishidan song, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish muassasalari va ishchi, askar va dehqon deputatlari sovetlari o'rtasida hokimiyat ucun kurash juda keskin tus olgan. Rossiya imperiyasidagi shahar dumalari va zemstvo muassasalari mamlakatdagi terrorga, zo'ravonlikka va qurolli qo'zg'olonga butunlay qarshi bo'lganlar. 1917-yilning 24-oktyabrida (yangi yil hisobida 6 noyabr) Petrograd shahar dumasi poytahtda qurolli qo'zg'olon ko'tarishga qarshi rezolyusiya qabul qilib, mamlakat aholisiga murojaat e'lon qilgan. Murojaatnomada « Umumiy, to'g'ridan-to'g'ri va yashirin ovoz berish yo'li bilan saylangan vakolatli boshqaruv organlari-shahar dumalari atrofida hamma halq ommasi birlashishlari lozimligi va qurolli qo'zg'olonga qarshi birgalikda kurashishlari zarurligi ta'kidlangan.

Bu murojaatnoma butun mamlakat hududi bo'ylab tarqatilgan va nafaqat shahar dumalari uchun, balki zemstvo muassasalari uchun ham dasturilamal bo'lib hizmat qilgan. Mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan shahar dumalari va zemstvo muassasalari Petrograd shahar dumasi murojaatnomasini qo'llab quvvatlab, Petrograd shahrining ishchi, askar va matroslarini qurolli qo'zg'oloni va zo'ravonliklariga qarshi chiqib, ularning faoliyatini qoralaganlar. Mamlakatdagi shahar dumalari umumiyligi, to'g'ridan to'g'ri va yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanganliklarini alohida ta'kidlab, hokimiyat qonuniy jihatdan ularga tegishli ekanligini asoslashga harakat qilganlar. Shu yilning 25-oktyabrdan 26-oktyabrga o'tar kechasi Petrograd shahar dumasi zemstvo muassasalari va sovet tuzumiga qarshi barcha siyosiy tashkilotlar bilan hamkorlikda « Inqilobni va mamlakatni saqlab qolish komitetini» (Jamoat havfsizlik komiteti) tashkil etganlar. Bu komitet shahar dumalari, gubernya va uezd zemstvo muassasalari vakillari, harbiylar va hukumat muassasalari vakillarini birlashtirgan. Ammo mahalliy o'zini-o'zi boshqarish muassasalarini Umumrossiya markazi vazifasini Petrograd shahar dumasi to'laqonli bajara olmagan. Butun Rossiya o'zini-o'zi boshqarish muassasalarini vazifasini Moskva shahar dumasi bajara boshlagan. 1917-yil 24-oktyabr kuni (yangi taqvim bo'yicha 6-noyabr) Moskva shahar dumasi mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan barcha shahar dumalariga Muvaqqat Hukumatni qo'llab quvvatlash chaqirig'i bilan murojaat qilgan. Moskva shahar dumasi sovet hokimiyatiga qarshi mamlakatdagi barcha shahar dumalari va

zemstvo muassasalarini birlashtirishga harakat qilgan. 1917-yil 28-oktyabr kuni «Xalq xokimiyyati» gazetasi Moskva shahriga mamlakatni turli gubernya va uezdlaridan minglab hatlar kelayotganligi haqida habar bergen. Xatlarda mamlakatdagi mahalliy o'zini-o'zi boshqarish muassasalari Moskva shahar dumasining sovet hokimiyatiga qarshi harakatlarini qizg'in olqishlab, shahar dumasini faoliyatini to'liq qo'llab quvvatlashlarini va bu harakatlar albatta muvaffaqiyatlari yakunlanishiga ishinishlarini ta'kidlaganlar. Bu gazetaning habarlariga ko'ra, Moskva shahar dumasiga Nijniy Novgorod, Tver, Tula, Tiflis va Toshkent shahar dumalaridan ko'plab telegrammalar yuborilgan. 25-oktyabr kuni Moskva shahar dumasи Petrogradliklardan o'rnak olib «Jamoat havfsizligi komiteti» tashkil etgan.

1917-yil 9-noyabr kuni Moskva shahrida "Shahar dumalari va zemstvo muassasalari vakillarini kengashi" bo'lib o'tgan. Kengashda mamlakatning turli hududlaridan, shu jumladan Toshkent shahar dumasи vakillari ham ishtirot etganlar. Kengashda so'zga chiqqan shahar boshlig'i G. I. Shreyder "Umumiyoz berish yo'li bilan saylangan shahar dumalari va zemstvo muassasalari 1917-yil fevral inqilobidan keyinoq, noqonuniy tashkil etilgan sovetlar bilan to'qnash keldi. Oktyabr to'ntarishidan keyin esa bu ziddiyatlar yanada keskinlashib ketdi. Hozirgi kunda, mamlakatda markaziy hokimiyat faoliyat ko'rsatmayotgan bir davrda – umumiyoz berish yo'li bilan saylangan mahalliy o'zini-o'zi boshqarish muassasalari hokimiyat va boshqaruв masalalarini hal qilish huquqiga ega bo'lган yagona qonuniy hokimiyat organidir" deb ta'kidlagan.

Kengash Muvaqqat Hukumat a'zosi Sereteli tomonidan ishlab chiqilgan qarorni qabul qildi. Qarorda «Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish muassasalari hech qachon davlat to'ntarishini qo'llab quvvatlamaydilar. Ular ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar bilan birgalikda bol'sheviklarga qarshi zarba beradilar va demokratik davlat qurish uchun Demokratik markaz tashkil qilinishi» ta'kidlangan.

1918-yil 24-yanvar kuni «Ichki Ishlar Komitetining mahalliy boshqarmasini habarnomasи» Ichki Ishlar Xalq Komissarligining buyrug'ini e'lon qilgan. Bu buyruqda «Sovetlar faoliyat ko'rsata boshlagach, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari bo'lган shahar dumalari va zemstvo muassasalari faoliyatiga umuman o'rin yo'q. Mamlakatning qaysi bir hududida bizga qarashli bo'Imagan mahalliy boshqaruв organlari faoliyat ko'satayotgan bo'lsa, ular sovet hukumatiga qarshi chiqayotgan bo'lsa darhol tarqatib yuborilishi lozim. Sovetlar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatayotgan avvalgi mahalliy boshqaruв

organlari ham sovetlar tarkibiga qo'shilib ketishi va sovetlar deb atalishi lozim».

Yuqoridagi qarorga asosan mamlakatdagi barcha shahar dumalari va zemstvo muassasalari, sovet hukumati bilan hamkorlik qilganlari ham, sovet tuzumiga qarshi kurashganlari ham zudlik bilan tarqatib yuborila boshlangan. Mamlakat Ichki ishlar xalq komissari G. I. Petrovskiyning "Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish muassasalarini tugatish, (shahar dumalari va zemstvo muassasalari nazarda tutilgan) sovetlar mahalliy o'zini-o'zi boshqarish muassasalari bajarib kelgan vazifalarni bajarishni to'liq o'z qo'llariga olmagunlairga qadar bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim" deb maslahat bergeniga qaramasdan, zo'ravonlik va shoshma shosharlik bilan amalga oshirilgan. Butun mamlakat hududida mahalliy o'zini-o'zi boshqarish muassasalari ommaviy suratda tugatilgan. Mamlakatda yagona mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv muassasalari sifatida sovetlar tan olingen va saqlanib qolgan. Sovetlar avvalgi shahar dumalari va zemstvo muassasalariga tegishli vakolatlarni barchasini& mahalliy boshqaruv, soliqlar va to'lovlardan yig'ish, bank, kredit, sog'likni saqlash, ta'lif, madaniyat muassasalari, obodonchilik va boshqa sohalarni o'z qo'llariga olganlar. Zo'ravonlik va terror yo'li bilan amalga oshirilgan, amalda mahalliy o'zini-o'zi boshqarish muassasalari mulkini talon tarqatishni boshlab bergen bu islohot mamlakatning turli hududlarida mahalliy aholi orasida keskin norozilikni keltirib chiqargan. Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish muassasalari rahbarlari va boshqarish muassasalari bu islohotlarga qit'iy qarshi chiqqanlar. 1917-jil 13-dekabr kuni Petropavlovsk ishechi, askar va dehqon soveti sovet hukumatiga hoh og'zaki tarzda, hoh yozma tarzda qarshi chiqqan mahalliy o'zini-o'zi boshqarish muassasalari vakillari, a'zolari zudlik bilan cemoga olinib, incilobiy tribunalga tonshirilishi yang'risda qurub qabul qildi. Mamlakatning barcha hudud ariga bu habar zudlik bilan etkazilgan va darhol qarorni ijro etishga kirishilgan.

## Farg'onadagi jadid tashkilotlari

*Tohirjon Qozoqov*

*«Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari» kafedrasini katta  
o'qituvchisi, tarix fanlari nomzodi*

XX asr boshlarida butun Rusiya imperiyasida talabalar harakati keng yoyilgani kabi, musulmon madrasalarida ham talabalarning siyosiy faolligi bir muncha ortgan edi. 1908 yilga kelib esa, Qo'qon shahrining

bir guruh ilg'or fikrli madrasa talabalari tomonidan «Shamsinur» jamiyat tuziladi<sup>148</sup>.

Jamiyat a'zolari xalq ommasini ilmli, ma'rifatli qilishni, madrasalarda aniq fanlar o'qitilishini joriy qilinishini birinchi galdagi vazifalardan deb bildilar.

Jamiyat yig'ilishlarida o'lkadagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy masalalar ham muhokama qilingan.

«Shamsinur» jamiyat faoliyatida jadidlarning sezilarli ta'siri bo'lgan. Farg'onaning atoqli jadidlaridan Hamza Hakimzoda Niyoziy ham o'z siyosiy faoliyatini ilk bor shu jamiyatdan boshlagan<sup>149</sup>.

Turkistonning uyg'onishi podsho hukumatini, rasmiy doiralarini befarq qoldirmadi. Viloyatda tuzilgan har qanday jamiyat va tashkilotlar mustabid hukumat ma'muriyatini tomonidan qo'yilgan ayg'oqchilarning kuzatuvi ostida bo'lgan.

1912-yil 20-iyulda Qo'qon shahrida «Qo'qon artistlar to'garagi» tashkil etilgan bo'lib, Hamza uning asoschilaridan biri edi<sup>150</sup>. To'garakning maqsadi dramatik asarlarni o'rganish va ularni sahnalaştirish hamda san'at havaskorlarini unga jalb etishdan iborat edi. Bu davrda Hamzaning faoliyati, asosan, yangi o'zbek dramatik teatrini vujudga keltirishdan iborat bo'lgan. 1914-1916-yillar mobaynida u 18 dan ortiq adabiy-publisistik asarlar yaratdi.

Birinchi jahon urushi yillarda o'lka ziyolilari ijtimoiy-siyosiy hayotga faol aralasha boshladilar. Xuddi shu davrda Turkistonda ham milliy nashrlar va jamiyatlar soni ortib borib, jadidlar tomonidan qoloqlikdan qutulish va milliy taraqqiyot sari dadil qadamlar tashlana boshladi.

1916-yil Qo'qon shahrida taraqqiyarvarlar tomonidan «G'ayrat» jamiyat tuziladi. Bu jamiyatning o'z oldiga qo'ygan maqsadlari, birinchidan, yangi usul maktablarini darslik, daftар va o'quv qurollari bilan ta'minlash bo'lsa, ikkinchidan, yerli xalq orasida kitob, gazeta va jurnallarni mahalliy tilda chop etib, tarqatishdan iborat bo'lgan. Qo'qonning eski shahar qismida joylashgan jamiyatga qarashli do'konda, o'sha davr mahalliy aholi orasida mashhur bo'lgan Orenburgda chop etiladigan tatar tilidagi «Vaqt», Moskvadan chiquvchi tatarcha «So'z» gazetasi, Bokudan chiqadigan «Ochiq so'z» gazetalarininng savdosi qizg'in bo'lgan. Bundan tashqari jamiyat

<sup>148</sup> Boboxonov A. Hamza Hakimzodaning pedagogik g'oyalari -Toshkent Qizil O'zbekiston, 1960.-B.13.

<sup>149</sup> Babaxanov A. A. Obwestvenno-pedagogicheskaya i literaturnaya deyatel'nost' Xamzy-Toshkent: O'qituvchi, 1979.-S. 26.

<sup>150</sup> Istorija Kokanda....S.32.

tomonidan rus tilidagi gazetalardan Andijonda nashr etiladigan «Turkestanskiy Golos» gazetasi ham tarqatilgan<sup>151</sup>.

1916-yilga kelib jadidlar tomonidan Andijon shahrida «Taraqqiyiparvar» jamiyatini tuzildi. Bu davrda o'lka jadidlarining siyosiy faolligi ancha oshgan bo'lib, ular o'z yig'ilishlarida, gazeta va jurnallardagi maqolalarida ma'rifiy mavzular bilan birga ijtimoiy, iqtisodiy masalalarni ham ko'tarib chiqqa boshlaganlar. Andijondagi bu jamiyat taniqli jadid Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev rahbarligida tuzilgan bo'lib, bu haqda chor ayg'oqchilar ham tez orada xabar topadilar.

Andijonlik jadidlar o'zlarini «taraqqiyiparvarlar» deb ataganlari holda, omma ularni «Padarkush»lar deb ham nomlagan. Bu nom ularga jadidlar tomonidan sahnalashtirilgan Mahmudxo'ja Behbudiyning «Padarkush» pesasi tufayli qo'yilgandir. Bu pesa Turkiston o'lkasining ko'plab shaharlarida yangi usul maktablarining o'qituvchilari, teatr havaskorlari tomonidan sahnada ijro etilgan. Teatr tomoshasi eski usul maktablari tarafдорлари-qadimchilar tomonidan yaxshi kutib olinmagan va shu sababli ular ham barcha taraqqiyiparvar yangi usulchilarni, ya'ni jadidlarni shu nom bilan atay boshlaganlar<sup>152</sup>.

1916-yilning oktyabr oyi boshlarida Andijon shahrida muxolifat yo'nalishidagi «Turkestanskiy Golos» gazetasi idorasida muharrir A. A. Chaykin rahbarligida har kuni kechqurunlari Andijonlik 20 ga yaqin ilg'or fikrdagi yoshlarning yig'ilishlari haqidagi ma'lumotlar to'planadi. Ushbu guruhdagi yoshlar o'zlarini «Taraqqiyiparvar» lar deb ataganlar<sup>153</sup>.

Anatoliy Afanasevich Chaykin idorasidagi yig'ilishlarda mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyat haqidagi masalalar ko'rib chiqilgan.

Xalq orasida o'z nufuziga ega bo'lgan mahalliy boylardan Ahmadbekhoji Temirbekov, Poshshaxo'ja Umarxo'jaev, uezd sudyasi tarjimoni O'razaliev Akbarali Boytursunovich va boshqalar ushbu jamiyat a'zolari edilar<sup>154</sup>.

«Taraqqiyiparvar» va «G'ayrat» jamiyatlari vodiydagi boshqa jadid tashkilotlariga nisbatan mamlaqat ijtimoiy-siyosiy hayotiga faol aralashgan, omma orasida o'z obro'si va sezilarli ta'siriga ega bo'lgan tashkilot edi.

<sup>151</sup> O'z MDA, 1-I fond, 31- ro'yxat, 1144-ish, V. 36.

<sup>152</sup> O'sha hujjat.

<sup>153</sup> O'zMDA, 461-fond, 1- ro'yxat, 2023-ish, V. 23.

<sup>154</sup> O'z MDA, 461-I fond, I-ruyxat, 1116<sup>a</sup>-ish, V. 3.

## Namangan viloyatidagi diqqatga sazovor “madaniy meros ob’ektlari” haqida

Baxtiyor Ro’zinov,

*NamMPI ARM Axborot texnologiyalari bo'yicha yetakchi mutaxassisi  
("Ajdodlar merosi" viloyat jamoat fondi ilmiy xodimi, vasiylilik kengashi  
raisi)*

Viloyatimiz hududida ham qadimiy shahar va diqqatga sozovor qadamjo va ziyoratgoxlarning mavjudligidan kelib chiqqan holda Marg‘ilon shahrining 2000 yillik tantanalarida yurtboshimiz I.A.Karimov Axsikent va Namangan shahrining ham yubiley to‘ylarini o’tkazish vaqt kelganligi haqida ta’qidlaganlaridek, bu sohada viloyatdagi moddiy madaniy meros ob’ektlarini ham ilmiy asosda o’rganish, ta’mirlash-tiklash ishlarini olib borishda viloyat hokimining 2011-yil 7-apreldagi **“Viloyatdagi madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish, ulardan maqsadli foydalanishni ta’minlash va faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 106-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni muvofiqlashtiruvchi idoralararo viloyat komissiyasi tomonidan mutasaddi tashkilotlarga vazifalar yuklatilgan.

“O‘zbekiston Respublikasining arxeologik yodgorliklarni saqlash va ulardan foydalanish davlat dasturi” bo‘yicha Namangan viloyatidagi asosan yettita ko‘zga ko‘ringan arxeologik yodgorlik mavjud bo‘lib.

Shundan hozirgi kunda YuNESKO ro‘yxatiga olingen To‘raqo‘rg‘on tumanidagi “Axsikent” shahristoni va Pop shahridagi “Mo‘nchoqtepa” arxeologik yodgorliklari saqlanmoqda. Shu bilan birgalikda Bronza davriga oid Chust manzilgohi “Bibiona-Buonomozor”, Kosonsoy shahridagi Mug‘(qal’a)tepa arxeologik yodgorliklaridir.

1. Pop shahrida dunyo ahamiyatiga molik bo‘lgan “Mo‘nchoqtepa” arxeologik yodgorligi uchun 1987-1988-yillarda Samarqand Arxeologiya instituti ilmiy xodimlari tomonidan qazishma ishlari olib borilgan va juda ham tarixi jihatidan noyob bo‘lgan topilmalar topilganligi sabab, 1993-yilda Respublikada birinchi bo‘lib Pop Arxeologiya muzeyi xashar yo‘li bilan qurib ishga tushirilgan.

1996-yildan 26-noyabrdagi viloyat hokimligining qarori bilan Pop arxeologiya muzeyi madaniyat bo‘limi tasarrufidan chiqarilib viloyat Oltin meros jamg‘armasiga “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg‘armasi tasarrufiga o’tkazilgan. Qadimiy Bob (hozirgi Pop shahri) Farg‘ona

vodiysining Koson. Axsikent. Quva singari shaharlari bilan bir davrda shakllana boradi. IX asrga kelib vohaning yirik shaharlaridan biriga aylanadi. IX-XI asrlarda yashagan arab sayyohlari Ibn Xordadbek va Istahriy tomonidan bitilgan yozma manbalarda Pop so'zi «Bob» deb tilga olingen bo'lib, bu arabcha «Darvoza» ma'nosini anglatadi. 983-yilda yozilgan noma'lum muallif qalamiga mansub «Hudud-ul-olam» («Olam chegaralari») nomli kitobning «Movarounnahr viloyati va uning shaharlari» deb nomlangan qismida «Pop» so'zi yozilib, bu o'lka shimoliy Farg'onanining savdo yo'lida joylashgan obod shaharlaridan biri sifatida ta'riflangan.

O'zbek klassik adabiyotining namoyandalaridan biri Zahiriddin Muhammad Boburning dunyoga mashhur «Boburnoma» sida Pop qo'rg'oni haqida ma'lumotlar uchraydi. Uning boshlani-shida: «Axsining berk qo'rg'onlaridan biri Pop qo'rg'onidur. Popliklar Pop qo'rg'onini berkitib, bizga kishi yiborib-turlar...», («Boburnoma», Toshkent, 1966, 166-bet) degan jumlalarni o'qish mumkin.

1987-89-yillarda Munchoqtepadan topilgan nodir ashyolar jahonshumul tarixiy va arxeologik ahamiyatga ega bo'lib, Munchoqtepa «Buyuk ipak yo'li» xalqaro ekspeditsiyasi xaritasiga kiritildi. Munchoqtepa yoxud Pop sag'anasi (ba'zan Danu dafinasi deb nomlangan xazina) o'chog'ini topish shunday ro'y berdi.

2. "Axsikent" shahristoni buyuk ipak yo'lining gullab-yashnashida poytaxt shaharlarning ahamiyati katta bo'lgan. Bu borada qadimgi Farg'ona o'lkasining poytaxti Axsikent diqqatga sazovordir. Uning xarobalari To'raqo'rg'on va Jomasho'y orqali o'tadigan Namangan-Farg'ona yo'lining ikki tomonida, Sirdaryoning o'ng sohili bo'ylab cho'zilib ketgan baland tepaliklar ko'rinishida yotibdi.

Arxeologik izlanishlar shuni ko'rsatdiki, ayniqsa, IX-XII asrlarda Axsikent vodiyning poytaxt shahri sifatida gullagan. Uning ichi zich uylar hamda do'konlar bilan band bo'lgan. Shunday holatda, qanday qilib bu yer osti inshooti qurilgan ekan? Ma'lum bo'lishicha, o'z zamonasining amaliy fanlariga tayangan quruvchi ustalar bu ajoyib inshootni hozirgi metro qurilishi usulida bunyod qilishgan. Avval pishiq g'ishtdan gumbazsimon uslubda o'ziga xos yer osti yo'li qurilib, uning tubiga katta diametrli sopol quvurlar yotqizilgan. Suv ana shu quvurlar orqali oqqan. Quvur yo'lining ma'lum joylarida pishiq g'ishtdan qurilgan yer osti kuzatish xonalari bo'lgan. Sopol quvurlarda oqayotgan suv kuzatish xonasidagi kichik hovuz orqali o'tadi. Bu quvur sistemasi shahar aholisiga kamida 300 yildan ortiq xizmat qilgan.

Axsikent yodgorligining himoya hududida zamon talablariga javob bera oladigan Arxeologik markaz (muzey, ilmiy labarotoriya, mehmonxonasi....) qurish zarur.

3. Bronza davriga oid Chust manzilgohi ya'ni Bibiona yodgorligining hozirgi kundagi saqlanib qolgan yer maydoni 4, 05 gektarni tashkil etadi. Arxeologik yodgorlik hududida qadimiy shifobaxsh buloq mavjud bo'lib, ushbu buloq Bibiona-qaynar buloq nomi bilan mashhur. Bashariyat tarixining ibridoiy bosqichlarida vujudga kelgan ilk dehqonchilik madaniyatları haqida gap yuritilganida. olimlar O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududini ham tilga olishadi. Keyingi yillarda respublikamizning turli joylaridagi qadimgi manzilgohlardan topilgan talay moddiy-ashyoviy, daliliy topilmalar bu fikr-xulosalarning to'g'ri ekanini isbot qildi.

Bu madaniyat dastlab va eng ko'p o'rganilgan yodgorliklarning nomi bilan Chust madaniyati deb ataladi. Eng birinchi o'rganilib fanga kiritilgan Chust davri yodgorliklarining Farg'ona vodiysidan topilgan xarobalari tarixiy –arxeologik va xronologiya jihatidan so'nggi bronza (jez) davriga mansubdir.

Chust yodgorligi asosan eramizdan avvalgi ikkinchi ming yillikning oxiri – birinchi ming yillikning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu manzilgohlar ichida eng mashhuri va yaxshi o'rganilgani Chust makonidir. Bu yodgorlik Chust shahridan ikki kilometr shimolda. G'ovasoy sohilida joylashgan ko'hna tepalik, ya'ni ko'hna kent. qishloq xarobasidir.

Bu yodgorlikdan 2 yillik qazishmalar vaqtida 80 ta chuqur o'ramborlar ochildi va arxeologiya fani uchun g'oyatda qimmatli ma'lumotlar qo'lga kiritildi.

Buonamozor xarobasini tekshirgan olimlar uning yoshini turlicha talqin qilib kelmoqdalar.

So'nggi tadqiqotlar natijasida Buonamozor yodgorligining yoshi miloddan avvalgi X–VIII asrlarga oid, degan xulosaga kelindi.

Hozirgi kunda Chust shahrida ham Bibiona arxeologik yodgorligidan tashqari Mavlono Lutfulloh majmuasi, Xoja Abdurahmon ibn Avf majmui, Otchopar Eshon xonakohi, Ko'kto'nli ota masjidi, Og'asaroy masjidi, maqbarasi va boshqa bir qator me'moriy obidalar mavjud. Xulosa qilib aytganda, Koson-Kosonsoy shahri Farg'ona vodiysining shimoliy-sharqida joylashgan, xalq amaliy san'ati, me'morchiligi, hunarmandchiligiga ega bo'lgan madaniyat maskani va Buyuk ipak yo'lidagi qadimiy shahar sifatida o'zbek xalqi tarixida munosib o'rinni egallagan.

4. “Mug‘tepa” Kosonsoy shahridagi Miloddan avvalgi I asrda Kosonsoying chap sohilida strategik jihatdan qulay tabiiy tepalikda, ya’ni hozirgi Mug‘tepa (Mug‘ qal‘a) arxeologiya yodgorligi o‘rnida qadimgi Koson shahriga asos solingan. U qadimgi Farg‘ona podsholarining yozgi qarorgohi sifatida tarix solnomalariga kirgan.

Eramizning VI asridan arablar istilosigacha Koson shahri Turk xoqonligining ishonchli vakillari tomonidan idora etilgan. Ushbu davrga doir shahar arki va qal‘aning salobatli mudofaa devorlarining qoldiqlari saqlanib qolgan. Shaharda kulolchilik, amaliy san’at va hunarmandchilik yuksak darajaga yetgan.

Hozirgi kunda Kosonsoy shahrida Mug‘ qal‘a arxeologik yodgorligidan tashqari IX–XVII asrlarda yaratilgan Shayx Sulton Jaloliddin Somoniyning G‘o‘zapoya mozor masjidi majmui, Jome’ masjidi, Sadpiri Komil masjidi, Gungalak yerosti hammomi, Yusufxon Eshon maqbarasi va boshqa bir qator me’moriy obidalar mavjud. Xulosa qilib aytganda, Koson-Kosonsoy shahri Farg‘ona vodiyisining shimoliy-sharqida joylashgan, xalq amaliy san’ati, me’morchiligi, hunarmandchiliga ega bo‘lgan madaniyat maskani va Buyuk ipak yo‘lidagi qadimiy shahar sifatida o‘zbek xalqi tarixida munosib o‘rin egallagan.

Xulosa qilib aytganda, milodiy eradan avvalgi II–I asrlarda Kosonsoy havzasining qadimgi dehqonchilik va shaharsozlik madaniyati asosida paydo bo‘lgan Koson – Kosonsoy shahri 2100-2200 yillik uzlusiz tarixga egadir.

Demak, ushbu yodgorlik atrofida ham obodonlashtirish ishlarini amalga oshirib, qayta ilmiy tadqiqot ishlarini o‘tkazishda yosh arxeolog tadqiqotchilarни jalg etish, Respublika miqiyosidagi ichki va tashqi sayohlik yo‘nalishlarini ochish hamda xizmatini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shuningdek viloyatimiz hududida ham qadimiy shahar va diqqatga sozovor qadamjo va ziyoratgoxlarning mavjudligidan kelib chikkan holda quyidagi qadimiy shaharlarimizni (*Axsikent, Kosonsoy, Pop, Chust, Namangan shahri*) yubiley to‘ylarini o‘tkazish zarur bo‘lib qolmoqda.

## O'zbekiston qurolli kuchlarining vujudga kelishining huquqiy asoslari

Muzaffar Xo'jamov,

NamDU, O'zbekiston tarixi yo'nalishi magistranti

XXI asr bo'sag'asida jahon taraqqiyotining mazmuni tubdan o'zgardi. XX asrning 40-yillaridan – 90-yillarigacha bo'lgan davr oralig'ida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki ijtimoiy-siyosiy tuzum, ikki harbiy-siyosiy blok mavjud edi. Dunyoning tinchligi va xavfsizlik tizimi shu ikki davlatning, blokning o'zaro muxoliflik muvozanatiga asoslangan edi. Dunyoda «sovruq urush» siyosati hukmonlik qilardi. Butun insoniyat yadro urushi xavfi ostida yashardi.

XX asrning 90-yillariga kelib sotsialistik tuzum parokanda bo'ldi. Dunyoda yangi mustaqil davlatlar vujudga keldi. Birgina sobiq Ittifoqning parchalanishi natijasida 15 ta davlat, shu jumladan, O'zbekiston o'z mustaqilligiga ega bo'ldi.

Xalqaro vaziyatda tub o'zgarishlar sodir bo'lsa-da, «sovruq urush» siyosati barham topgan bo'lsa ham, dunyo hamon murt, murakkab va muammoli bulib, turibdi. Dunyo tinchligiga tahdid soluvchi xavf-xatarlar, ziddiyatlar saqlanib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida ta'kidlaganidek: «Hozirgi sharoitda, umumiylar xavfsizlikni ta'minlash va muvozanatga erishish manfaatlari nuqtai nazaridan, yangi mustaqil davlatlarning xavfsizligi va barqaror rivojlanish muammolari ulkan ahamiyat kasb etmoqda»<sup>152</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining vujudga kelishida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 14-yanvardagi qarori katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu qarorga muvofiq, mamlakat hududida joylashgan sobiq Ittifoq Qurolli kuchlarining barcha qismlari, qo'shilmalari, harbiy o'quv yurtlari, muassasa va tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi tasarrufiga olindi va ular moddiy-texnika va mablag' bilan ta'minlanadigan bo'ldi. Shu tarzda mustaqil mamlakat Qurolli Kuchlarini barpo etishning dastlabki tashkiliy davri yakunlandi. 1993-yil 29-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq 14-yanvar «Vatan himoyachilari kuni» deb e'lon qilindi.

Respublika tasarrufiga olingan harbiy tuzilmalarga rahbarlik qilish Mudofaa ishlari vazirligiga yuklatildi.

<sup>152</sup> Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – B. 6

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 3-iyulda bo'lib o'tgan 12-chaqiriq 10-sessiyasi mamlakat Qurolli Kuchlarini tuzishda muhim voqyea bo'ldi. Sessiyada «Mudofaa to'g'risida», «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida» va «Muqobil xizmat to'g'risida»gi muhim harbiy qonunlar, shuningdek harbiy qasamyodning yangi matni va qasamyod qildirish tartibi qabul qilindi. Mustaqil O'zbekiston Qurolli Kuchlarining boshqaruvini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan Mudofaa ishlari vazirligi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligiga aylantirildi<sup>156</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining huquqiy bazasini yaratishdagi birinchi bosqichning yakunlanishi 1992-yil 8-dekabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 11-sessiyasiga to'g'ri keldi. Bu sessiyada davlatning Asosiy qonuni – O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi qabul qilindi. Konstitutsiyaning 26-bobi mudofaa va xavfsizlik masalalariga bag'ishlangan. Konstitutsiyaning 125-moddasida «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi. Qurolli Kuchlarining tuzilishi va ularning tashkil etish qonun bilan belgilanadi»<sup>157</sup>, deyilgan. Shuningdek, shu bobning 126-moddasida «O'zbekiston Respublikasi o'z xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli darajada qurolli kuchlarga ega», deb ko'rsatilgan.

Davlatimizning harbiy sohasidagi tashqi siyosatining asosiy yo'nalichlari 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati faoliyatining asosiy tamoyillari» haqidagi qonunda mujassamlangan<sup>158</sup>

Shunga asosan bu qonunda «O'zbekiston hech qanday harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi va harbiy-siyosiy blokka transformatsiya qilingan vaqtida har qanday xalqaro tashkilotlardan chiqish huquqini o'z ixtiyorida qoldiradi» deb qonuniy rasmiylashtirgan. Qonunning ahamiyati va kerakliligi yaqqol ko'rinish turibdi. Bu qonun O'zbekistonning tinchliksevarlik siyosatini, uning dunyo hamjamiyatida integratsiyaga intilishini yana bir bor ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida»gi Qonuni hamda 1991-yil 30-

<sup>156</sup> Qarang: Fayzullaev T., Sarimsoqov A. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi O'quv-uslubiy qo'llanma. – Namangan, 2012. – B. 163.

<sup>157</sup> Qarang O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyası. – Toshkent: O'zbekiston, 2012.

<sup>158</sup> Qarang: Jurayev N , Fayzullayev T. O'zbekistonning yangi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 433.

dekabrdagi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Kengashining Qurolli Kuchlari va Chegara qo'shinlari haqidagi Minsk qarori asosida 1992-yil 1-fevraldan sobiq Ittifoq tizimidagi qo'shinlarni mablag' bilan ta'minlanishi to'xtatilishini inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1992-yil 10-yanvarda «O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan SSSR Ichki ishlar vazirligining harbiy qismlari va o'quv muassasalarini O'zbekiston Respublikasi tasarrufiga olish to'g'risida», 14-yanvarda «O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va harbiy o'quv muassasalari to'g'risida» qarorlar qabul qildi. Unda O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sobiq Ittifoqqa qarashli Ichki ishlar va Mudofaa vazirligining qismlari, birlashmalar, qo'shilmalar, oliy o'quv yurtlari, harbiy tuzilmalar mamlakatning qonuniy tasarrufiga olinadi, deb belgilandi. Qaror asosida harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, harbiy muassasalardagi ishchi va xizmatchilar, sobiq Ittifoq armiyasida xizmat qilgan pensionerlarga ijtimoiy va huquqiy himoyalandi. Harbiy qismlar va o'quv yurtlari, muassasalar, tashkilotlar davlat tomonidan moddiy texnika va mablag' bilan ta'minlandi.

1992-yil 24-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan Chegara qo'shinlari bo'linmalari haqida»gi farmoni bilan Respublika Milliy Xavfsizlik Xizmati qoshida Chegara qo'shinlari boshqarmasi tashkil etildi va O'rta Osiyo Chegara qo'shinlari bo'linmalari uning tasarrufiga o'tkazildi.

1992-yil 18-mayda «O'zbekiston Respublika hududida joylashgan havo desanti qo'shinlari, harbiy transport aviatsiyasi, razvedka qo'shinlari, ta'minot qismlari haqida»gi farmon bilan bu qo'shinlar respublika tasarrufiga o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 12-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan havo hujumiga qarshi harbiy qismlar haqida»gi, 13-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan kimyoiy harbiy qismlar haqida»gi farmonlari bilan mamlakatimiz hududida joylashgan mazkur turlardagi qo'shinlar respublika tasarrufiga olindi va sifat jihatidan takomillashtirildi. Shu tarzda mustaqil mamlakat Qurolli Kuchlarini barpo etishning tashkiliy davri yakunlandi<sup>159</sup>.

O'zbekiston Respublikasi o'z Qurolli Kuchlarini tuzishda Birlashgan Millatlar Tashkiloti(BMT) ning huquqiy me'yorlari, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha Xel'sinki yakunlovchi akti,

<sup>159</sup> Jo rayev N., Fayzullayev T. Mustaqil O'zbekiston tarixi. – Toshkent G. Gulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2009. – B. 435

MDH kollektiv xavfsizlik Sharhnomasi kabi xalqaro hujjatlarning barcha talablariga rioya qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 3-iyuldagagi Farmoniga muvofiq, Mudofaa ishlari vazirligi Mudofaa vazirligiga aylantirildi. O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa to'g'risida», «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida» hamda «Muqobil xizmat to'g'risida»gi qonunlari qabul qilindi.

1993-yilning 22-noyabrda «O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy qismining Jangovar bayrog'i to'g'risida»gi Prezident farmoni imzolanib, Qurolli Kuchlar Jangovar bayrog'ining yagona namunasi belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 29-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining «Vatan himoyachilari kunini belgilash to'g'risida»gi qonuniga binoan. 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni, deb e'lon qilindi<sup>160</sup>.

1995-yil avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Harbiy doktrinasi mamlakatning harbiy sohadagi siyosatini belgilab berdi. Mintaqadagi harbiy siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda 2000-yil 3-fevral kuni O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi qabul qilindi.

Mustaqil O'zbekiston tarixidagi birinchi Konstitutsianing qabul qilinishi fuqaro, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda eng maqbul yechimni topish, adolatli demokratik huquqiy davlat barpo etish, yalpi milliy xavfsizlikni xar tomonlama mustahkamlash, hozirgi jahon huquq tartibotini shakllantirishning global jarayonlarini takomillashtirish ishiga xalqimiz munosib hissa qo'shishga intilayotganligini namoyish qildi.

Asosiy Qonunda yigirma oltinchi bob mudofaa va xavfsizlikka bag'ishlangan. Kirib kelgan XXI asrda ro'y berayottan ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan mudofaa va xavfsizlikni ta'minlashning harbiy usuli o'z ahamiyatini yo'qtgani yo'q. O'zbekiston milliy manfaatlarini himoya qilishning shakl va vositalarini tanlash mamlakat mudofaasi va milliy xavfsizligini ta'minlashning belgilangan siyosati va strategiyasini o'tkazish uchun baza bo'lib xizmat qiluvchi milliy xavfsizlik konsepsiyasiga asoslanadi.

1997-yil avgustda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik Konsepsiysi, bu – O'zbekistonning milliy qadriyatları, manfaatlari va maqsadlariga qarashlarning rasmiy qabul qilingan tizimi, ularni amalga oshirish hamda ichki va tashqi xavf-xatardan himoya

<sup>160</sup> O'zbekiston Respublikasining "14 yanvar – Vatan - himoyachilari kuni"deb e'lon qilinishi to'g'risida Qonuni. – Toshkent. 1993.

qilishning tamoyillari, vositalari va shakllari demakdir. Siyosiy-huquqiy hujjat shaklida ifodalangan konsepsiya shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarini amalga oshirishni ta'minlovchi, shuningdek, hayotiy faoliyatning turli sohalarida milliy xavfsizlikni ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish uchun milliy xavfsizlik siyosatini shakllantirish va o'tkazishning asosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik Konsepsiyasi hokimiyatning barcha (qonunchilik, ijro etuvchi va sud) tarmoqlarini, davlat va jamoat organlarini hamda boshqa tashilot va birlashmalarni, shuningdek, yalpi milliy xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan siyosiy, huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, harbiy va boshqa xarakterdag'i chora-tadbirlarni ishlab chiqishda va amalga oshirishda qonunga muvofiq unda iiggirok etuvchi fuqarolar, O'zbekiston milliy xavfsizligini ta'minlash tizimi organlari, kuchlari va vositalari tomonidan amalga oshiriladi.

Bugun to'la ishonch aytish mumkinki, Vatanimizning xavfsizligi Qurolli Kuchlarimiz tomonidan ishonchli tarzda ta'minlanmoqda, armiyada xizmat qilish O'zbekiston fuqarosi uchun nafaqat konstitutsiyaviy burch, balki nufuzli kasblardan biriga, tom ma'nodagi shon-sharaf ishiga aylanib bormoqda.

Shunday qilib mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy xavfsizlikni ta'minlash, mamlakat mudofaa tizimini mustahkamlash bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirildi.

## **Mavlono Lutfullova tasavvuf-tariqatlari taraqqiyotiga qo'shgan hissasi**

***Mirxakimova Feruza,***

*NamDU Tarix yo'nalishi IV kurs talabasi*

Farg'ona vodiysidan yetishib chiqqan tasavvuf-tariqatlarining yirik vakillaridan biri – Mavlono Lutfullova hisoblanadi. Mavlono Lutfullova naqshbandiylik tariqatining o'z davridagi yirik vakili. Dastlab ularning ismlariga qo'shib aytildigan "Mavlono" atamasiga to'xtalsak. Mavlono arabcha "Bizning janob" degan ma'noni bildirib, O'rta asrlarda O'rta Osiyo, Afg'oniston va Pokiston hududlarida eng yuqori obro'li amldorlar, olimlar va fozil kishilarni ulug'lab, ularning nomlariga qo'shib ishlatalgan<sup>161</sup>. Mavlono Lutfullova ham o'z davrining ko'zga ko'ringan diniy arboblaridan hisoblangan.

<sup>161</sup> O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. 5-tom. – Toshkent: Davlat Ilmiy nashriyoti, 2003. – B. 342.

Mavlono Lutfulloh Namangan viloyati Pop tumaniidagi Chodak qishlog'ida 1487-yilda, ba'zi ma'lumotlrga ko'ra 1485-yilda tavallud topgan<sup>162</sup>. Otalari Fatxullohxon, bobolari Xisomiddinxon Chodakning ziyoli kishilaridan bo'lgan. Ma'lumotlarga ko'ra, Mavlono Lutfullohning avlodlari Abu Bakr Siddiqga borib taqaladi. Otalari Fatxullohxon 83 yoshda vafot etgan. Qabrlari Chodak qishlog'ida joylashgan. Bobosi Xisomiddin sohibi hidoya Burhoniddin Marg'iloniyyidan ilmu suvoriy va ma'naviyatdan saboq olgan. Mavlono Lutfulloh o'zlarini haqidagi ko'plab voqealarni shogirdlari Muhammad mufti Ohangaroniyga aytib bergan va Ohangaroniy "Manoqibi Mavlono Lutfulloh" deb nomlangan kitob yozib qoldirgan<sup>163</sup>. Bu asarning asl nusxasi hazrat hoyotlik paytlarida yozilgan va hozirda qayerdaligi aniq emas. Mavlono Lutfulloh vafotidan keyin unga ixlosi kuchli bo'lgan o'zini u kishiga yaqin qilib yurgan kishilar tomonidan turli yillarda, turli kotiblar tomonidan ko'chirilgan besh nusxa borligi ma'lum bo'lgan. "Manoqibi Mavlono Lutfulloh" ning barcha mavjud nusxalari turli davrlarda yozilgan va hammasi arab alifbosida, forsiy tilda, nasta'liq yozuvida yozilgan. Kitob 350-360 sahifalardan iborat va ayni paytda besh joyda asarning nusxalari mavjud:

1. Toshkentda Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik Institutining kutubxonasida №5785 raqam bilan saqlanmoqda. Bu kitob 1913-yil rus sharqshunos olimi V.Bartold tomonidan olib ketilgan ekan.

2. Pop tumani Chodak qishlog'ida yashovchi Ahmadxoja ibn Buzrukxoja avlodlari qo'llarida saqlanmoqda. Bu nusxa (hijriy 1313) milodiy 1894-tilda Mulla Boboxoja ibn Umarxoja eshon tomonidan ko'chirilgan.

3. Hjriy 1225-yil, milodiy 1806-yilda ko'chirilgan nusxasi bo'lib, bu hozirda chustlik Abdulloxon To'ra Ma'rufxon To'ra o'g'illari shahsiy kutubxonasida saqlanmoqda.

4. Chustda Kamarsada mahallasida yashovchi Xafizxon aka Burxonovlar oilasi shahsiy kutubxonasida saqlanmoqda.

5. Chust tumani Tepaqo'rg'on qishlog'ida yashovchi Orifxonga tegishli bo'lgan. Bu qo'ldan-qo'lga o'tib hozircha noma'lum kishida saqlanmoqda.

Mavlono Lutfulloh onalaridan Qur'oni Karimni, namoz o'qishni o'rgangan. Besh yoshlarida otalari maktabga bergan. 12-13 yoshga kirguncha ota-onalari qo'llarida tarbiyalanib, bu davrda Qur'oni Karimni to'liq yodlab bo'lgan. 14-yoshlarida akalari bilan Samarqandga o'qishga

<sup>162</sup> O'zbekiston Milliy Entsiklopedivasi. 5-tom..... – B. 327.

<sup>163</sup> Qodirxonov R. Mavlono Lutfulloh. Birinchi qism. – Chust, 2007. – B. 3.

borgan. Bir yil tahsil olib uyga qaytgan. Otalari o'sha davrning yaxshi mullosi, e'tiborli zotlardan Shoh Xusan Chorkuxiyga shogirdlikka bergen. Chorkuhiy – Mavlononing birinchi ustozи Isfaradagi Chorkuh qishlog'ida yashagan va ular shu yerning imom ham qozisi bo'lgan. Mavlono Lutfulloh undan yetti yil tavsir, xadis va ilmi fiqhdan ta'lif olgan. Chorkuhiyning yil sayin el-yurt orasida obro'lari ortib boradi va Marg'ilonga qozi va katta bir masjidga imom qilib olib ketishadi. Mavlono Lutfulloh ham ular bilan birga ketadi. Chorkuhiyini ishlari ko'payib unga vaqt ajratolmay qolgan va (hijriy 935) 1528-yilda vafot etgan. So'ngra, Mavlono Lutfulloh Samarqandga borib, Xo'ja Axrorning xalifasi Mavlono Muhammad Qozidan (1515-yilda vafot etgan) solihlik maqomiga yetishish uchun zarur bo'lgan ilmlarni egallagan. Ma'lumotlarda, Mavlono Lutfulloh Mavlono Muhammad qozi huzurida olti yil tarbiyalangani va sulukni o'taganligi aytildi<sup>164</sup>. Shuningdek, Mavlononing to'rtinchи pirlari Xoja Ahmad Kosoniydan uch yil tahsil olgan. Xoja Ahmad Kosoniy Mavlono Lutfullohga ishlarini davom ettirishlarini buyurgan va Irshodnomada yozib qoldirilgan: "Jannatmaob va kamolot iqtisob Toshkentlik parkatlik, piskatlik, axsikentlik va boshqa yerlik birodarlar. O'z qadrlari va tavfiqlari bilan bilib qo'ysinlarkim, shu paytlarda janobi diniy birodar va yaqin do'st shariat va tariqat yo'llidagi solih, haqiqat oshyoning balandparvoz Lochini Mavlono Lutfulloh hisoblanadi. Chunki u peshqadam yoronlardandir. Siz yoronlardan tobe bo'lish so'raladi. ~~M~~ ~~o~~ldida odob ~~qoysinlari~~! Chumonki debdurlari Adab peshi yoripesh qadam izjumlai lavgim ast', ya'ni peshqadam yoronlarning oldida odob saqlash lozim narsalar jumlasiga kiradi. Vojibdurki u kishi oldida odobni o'rniqa qoysinlar, yaxshi suhbatlar o'tkazsinlar. Tariqatda bo'Imaganlar eshitsa tasirlansinlar". Mahdumi Kalon Xoja Ahmad Kosoniy 1544-yilda Mavlono Lutfullohga pirlik hassasini bergach 15 kundan so'ng vafot etgan. Ya'ni, Mahdumi A'zamning istagi bilan Mavlono Lutfullohga "Farg'ona va Toshkentdagи barcha naqshbandiylik birodarlar" ishonib topshirilgan<sup>165</sup>.

Mavlono Lutfulloh uylangandan so'ng Chodakda maktabdorlik qiladi va chodakliklarga shariat va tariqat yo'llini o'rgata boshlagan. Pirlari vafotlaridan so'ng ko'pchilik muridlari turli yerlardan Mavlono Lutfullohnini izlab kelib muridlik qila boshlaydi. Mavlono Lutfullohnini muridlari soni ko'payib borgan. Bu hol ba'zi diniy mullo va eshonlarga

<sup>164</sup> O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. 5-tom. – Toshkent: Davlat Ilmiy nashriyoti, 2003. – B. 327.

<sup>165</sup> O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi. 5-tom. – Toshkent: Davlat Ilmiy nashriyoti, 2003. – B. 327.

yoqmagan hamda unga fīna uyuşdırışgan. Xatto qo'y va mollarini tortib olgan. Mavlono Lutfulloh noiloj Chodakni tark etib Suburton (hozirgi Zuvutqon) qishlog'iga ko'chib kelgan. Bu yerda maskan topib suv chiqargan, bog'lar yaratgan, masjid qurdirgan. Muridlari shu yerga ham ilm olgani qidirib kela boshlagan.

Mavlono Lutfulloh ustozlari Maxdumi A'zam bilan hayotligida Markaziy Osiyonong ko'p shaharlari Farg'ona, Qo'qon, Axsikent, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Karmana, Xisorga safar qilganlarida hamroh bo'lgan. Mavlono qayerga borsalar ustozlari Mahdumi A'zam muridlariga "mendan keyin shu kishiga bay'at qilasizlar, meni ishongan eng yaqin joynishinim shu Mavlono Lutfulloh bo'ladilar" degan ekan.

Mavlono Lutfullohning asosiy maqsadi elga islom nurini tarqatish, xalqqa musulmonchilikni qonun-qoidalarini o'rgatish, mo'minlarni hamisha to'g'ri yo'lga hidoyat qilish edi. O'zlaridan keyin ham shu ishlarni davom ettiruvchilar yetishib chiqsin degan maqsadda Chustda maktab olib, tasavvuf ilmidan shogirdlarga dars bergan. Shogirdlari orasida 10-15 yil hizmatlarini qilib, sulukiya ilmini mukammal bilimdoni bo'lib qolganlari ham anchagina edi. Shulardan biri Fathulla Chustiydir.

Bir kuni Mavlono Lutfulloh hamma shogird va muridlarini bir yerga jamlagan va bulardan bir nechtasiga turli vazifalarni topshirgan: masalan, Mullo Fatxulloh Zangiatoiy, Mullo Said Toshkandiy va Mavlono Qozoqqa "sizlar qozog'u-qirg'izlarga suhbatdorlik qilursizlar", Qozog'istonda "Chust" arig'i bino qilib, undan dahyak olishni buyurdi. Kuyovlari Nizomiddin Ahmadni Chustdag'i masjidga mutavvali qilib tayinladi. Ikkinci kuyovlari Is'hoq Mirakni otalari oldilariga Dahbedga yuborib – "sizni otangiz Mahdumiy Kalonga nasibalik qildim" – deydi. Xisor atrofidagilarga xidoyat sari rahnamolik qilgaysiz deb buyurdilar. Mavlono Yusuf Alini, Shayx Fatxullohni o'zları qurban masjidda xizmat qilishga olib qoldilar. Mufti Muhammad Ohangaroniiga Ohangaron mavzesida suhbat olib borishni buyurgan.

Hamma ishni taqsimlab bergach Mavlono Lutfulloh Toshkent tomon safarga jo'nadi. Safardan maqsad Makka va Madinaga, haj ziyyaratiga boorish edi. Chustdan Ohangaronga keyin Toshkentda, u yerda Xavzak, Qorayag'och mavzelarida bir kundan mehmon bo'lib, so'ng Samarqand, Buxoro va oxiri Afg'onistonga yetib bordilar. U yerda hazratning muridlari va Qobul shahri hokimi Ali Xokirohlar kutib oladi. Shu kuni Mavlono Lutfullohni hokim Ali Xokiroh xonadoniga taklif qildi va shu yerda tunab qoldi. Kechasi tush ko'radilar, tushlarida Xoja Axror Valining ruhlari hozir bo'lib: "siz hozir viloyatingizga qayting, u

yerning islohidida bo'ling. viloyat ahlining tarbiyasi bilan shug'ullaning, xayrli ishlarni boshlang, sizga g'aybdan xayru barokat bo'lg'ay", dedilar va shundan keyin "Ka'ba yo'lidan qaytishni ixtiyor qildim" dedilar. Qaytishda Xisor va Samarcandga bo'ladi. Mavlono Lutfullohnini bu yerda ikki-uch kun qoladi. Bir kuni Samarcand markazidagi katta masjidlardan birida, xufton namozidan keyin ma'ruza qilib, aholini Alloh yo'liga hidoyat qilgan. Ma'ruza nihoyatda tasirli o'tadi, ko'pchilik Mavlona tahsinlar aytib, unga qo'l berib murid bo'la boshlaydi. Bu holni ko'rgan Samarcand shahridagi diniy ulamolarning ko'pchiligi Mavlono Lutfullohga bay'at qilayotganidan g'azablanib, Sulton Saidga arz qilib Mavlona turli bo'hton, tuxmat gaplarni tarqatib Lutfullohnini jazolashini so'raydi. Sulton Said so'rab surishtirmay, haqiqatni tekshirmay, ig'vogarning gapi shonib Mavlono Lutfullohnini Ulug'bek madrasasi oldiga olib chiqib, xalqni to'plab, kaltaklaydi, soch soqollarini uzdirib, tillarini qirqtiradi<sup>166</sup>. Bu qivnoqlardan aziyat chekkan Mavlono Lutfulloh ikki-uch kun Samarcandda yotib qoladi. Tillari va soch soqollari o'z holiga qaytadi. Ikki kunda tillari o'ziga qaytadi va gapira oladigan bo'ladi. Samarcandda shu xil noxushliklardan so'ng Chustga qaytib keladi. Mavlono Lutfulloh qirq kun betob bo'lib yotib, Chust shahrida tahminan 1571-yilda vafot etadi.

Mavlono Lutfullohnining qabri qayerdaligi ma'lum emas. Ba'zi manbalarda u Chustga dafn etilgan. Chust shahrida uning maqbarasi joylashgan. Boshqa manbalarda Hisorda joylashgan<sup>167</sup>.

Chust shahridagi Mavlono Lutfulloh maqbarasi XX asr boshlarida bunyod etilgan. Dastlab, masjid, madrasa, minora va boshqa binolardan iborat ansambl bo'lgan. Bizgacha bir tomoni ustunli masjid ayvoni (28X7,2 m) saqlangan. Masjidning janubiy-sharqiy burchagidan bir necha metr narida balandligi 13 metrli minora mavjud. Mavlono Lutfulloh maqbarasi Chust shahar istirohat bog'i hududida joylashgan, mustaqillik yillarda ta'mirdan chiqarilgan va muzey sifatida foydalanimoqda<sup>168</sup>.

Mavlono Lutfullohdan ikki qiz qolgan: Biri Bibi Noqiya bo'lib, ular Xoja Is'hoq Mirakka tushgan. Mozorlari Samarcand yaqinidagi "Dahbed" degan qishloqda. Ikkinci qizlari Xayriniso Nizomiddin Ahmad Mirakka turmushga chiqqan. Mozorlari Chust shahridagi "Mirak Ato" mozorida. Chustdagi ko'p xojalar shu Xayrinisoning avlodlaridan tarqalgan.

<sup>166</sup>Qodirxonov R. Mavlono Lutfulloh. Birinchi qism. – Chust, 2007. – B. 21.

<sup>167</sup>Ismoilov M., Ikromov T. Mavlono Lutfulloh Chustiy. – Namangan, 1998. – B. 4-8.

<sup>168</sup>O'zbekiston Milliy Entsiklopediyasi, 5-tom. Toshkent: Davlat Ilmiy nashriyoti, 2003. – B. 327.

## Farg'ona vodiysi ipakchilik tarixidan

*Patxiddinov Ruxiddin,  
Tarix kafedrasi magistranti*

Ipakchilik borasida gap ketganda uning kelib chiqish tarixi va vatani qayerligi borasida ko'plab munozarali fikrlar mavjud. Ko'pchilik manbalarda ta'kidlanishicha pillachilik va pilladan ipak olish hunarining vatani Xitoy bo'lgan. Bundan besh ming yil muqaddam yovvoyi holdagi ipak qurti Shan-Tung yarim orolida topilgan. U qo'lida boqilib, xonakilashtirilgan va pillasidan ipak ajratib olingan.

"Za rubejom" jurnali (1984-yil, 50-son)ning dalolat berishicha, pillachilik miloddan avvalgi 2640-yilda (ya'ni bundan 4640 yil muqaddam) imperator Xuan Yuan va uning umr yo'ldoshi Xi Lin' Shi hukmdorliklari davrida yuzaga kelgan.

Shoyi, ipak tarixi sir sinoatlarga boy bo'lib, ushbu mato birinchi marta qayerda paydo bo'lgan va qayerda ishlab chiqilgani hamda uning qanday qilib tarqalgani to'g'risidagi tadqiqotchilarning fikrlar turli xil. Hozirgi vaqtida ko'pgina mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham ipakchilik qadimda vujudga kelgan deb hisoblanadi, biroq bizning mamlakatimizda ipak qachondan qanday qilib Ipak qurti etishtirish va pilladan ipak ishlab chiqarish qachon boshlangani ma'lum emas.

O'rta Osiyo hududidan topilgan eng qadimgi ipak matoning izlarini Sopollitepaning miloddan ilgarigi XVII–XIV qatlamlaridan topilgani ma'lum. Farg'ona vodiysida bunday qadimgi davrlarga oid bo'lmasa ham, ammo miloddan ilgarigi II–I asrlariga oid Qorabuloq mozor-qo'rg'onidan ham ipakning qoldiqlari topilgan. Qorabuloqda aniqlangan ipak materiallaridan marhumlar yuzini yopgan maxsus ro'mol, ko'zlarga yopilgan pardalar va «xaltacha», "bayroqcha" sifatida va kiyim–bosh tayyorlashda foydalananilgan. Qo'shtirnoq ichida berilgan buyumlarning vazifasi va nima sababdan qabrlarga qo'yilgani noma'lum bo'lib qolmoqda, ular ham, so'zsiz, dafn marosimida ma'lum diniy tasavvurlarga xizmat qilgan bo'lishi kerak.

Farg'ona vodiysining ilk o'rta asrlardagi ipakchiligin o'rganishda Pop yaqinidagi Munchoqtepa yodgorligidan topilgan topilmalarning o'rni beqiyos kattadir. Chunki, Mo'nchoqtepa yodgorligida ham xuddi Qorabuloq yodgorligidagi kabi ayollarning qabrida ularning yuz qismini, peshona-ko'z qismini to'sib turadigan ipak matodan tikilgan materialarni qo'yishgan. Olimlar shunday xulosaga kelishdi: dastlab yuz qismini, peshona va ko'z qismini to'sib turadigan, ko'zoynak shaklida tikilgan ipak matolardan tikilgan buyumlarni qabrga qo'yish dastlab

Qorabuloq va Borkorbaz yodgorliklarida paydo bo'lgan bo'lsa ham, keyinchalik bu odat Munchoqtepa va Shinjon (Xitoya) keng tarqalganligi ma'lumoqtepa shahar qabristonidagi qabrлarda (V-VIII asrlar) ham aniqlangan va diniy tasavvurlarni tadqiq etishda ahamiyati muhimdir. Avvalombor ta'kid etish kerakki, Munchoqtepa qabrлaridagi gazmol matolarning deyarli hammasi ipakdan tayyorlangan. Mutaxassislar fikricha, Munchoqtepa ipaklari asosan mahalliy ipak xiliga kiradi. Bu ipak o'rtacha navli, shuning uchun undan to'qilgan ayrim matolar g'adir-budirroq bo'lgan. Marhumlar ust-boshlari, hayotidagi ishlatgan buyumlari, oziq-ovqatlari va hatto pullarini (tangalar) qo'yib dafn etilganlar. eng qizig'i marhumlar yoshi katta bo'lsa, qamish tobutlarga va yosh bolalar to'qilgan savatlarga solib maxsus uyga o'xshatib yer ostida yo'nilgan sag'analarga qo'yilganlar. Arxeologlarimiz qamish tobutlar ichiga va undan tashqariga marhum bilan qo'yilgan narsalarga qarab, ularning hayotligida nimalar bilan shug'ullanganini aniqlashga erishdilar. "Musiqachi", "etikdo'z", "ovchi" va "to'quvchi" tobutlari ma'lum. Bularda musiqa asboblari (qo'shnay, surnay), poyabzal qolipi va charm kesadigan pichoqlar, o'q-yoy va qamchi, urchuq va ipak matolar qayd etilgan. Qamish tobutlar ipak, paxta, jundan tayyorlangan mato namunalari qayd etildi. Ipak matolar juda yaxshi saqlangan. Ipakdan kiyim-boshlar, yuzpardalar va «marosim yostiqlari» tayyorlangan. Munchoqtepa ust-bosh kollektivisida ko'yylak, ayollar xalatiga o'xshash kiyim, bolalar ko'ylagi to'laligicha saqlangan.dan ham ipakning qoldiqlari topilgan. Gazlama to'qish hunarmandchilikning eng qadimiylari va boy an'analarini o'zida mujassamlashtirib kelgan sohalardan biri hisoblanadi. Matolar doimo savdo aloqalarida sotish, sotib olish, ayirboshlashda eng tez o'tadigan buyum hisoblangan. Ma'lumki, Xitoy asosiy ipak ishlab chiqaruvchi davlat hisoblangan. Farg'ona vodiysida ipakchilik ishlari bilan V-VI asrlarda shug'ullana boshladilar. Bu erda aynan shu davrdan boshlab ipak matolardan liboslar, devoriy bezaklar ishlab chiqarila boshlandi.

O'rta Osiyo pillachiligi to'g'risida qator afsona, rivoyat va tarixiy manbalar mavjud. Bir manbada bu erda pillachilik bilan miloddan avvalgi IV-II asrlardayoq shug'ullanilgan deyilsa, boshqasida bu hunar IV-VI asrlarda paydo bo'lgan deb ko'rsatiladi.

O'rta Osipyoni o'rgangan mashhur tadqiqotchi olim Xerman Vamberi o'zining «Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi» kitobida pillachilik dastlab IV asrda Kardan Farg'ona vodiysiga o'tganligi haqida yozadi.

N.F. Petrovskiy ma'lumotlariga qaraganda Turkiston o'lkasining Qo'qon va Xo'jand rayonlariga pillachilik Xitoydan kirgan, Buxoro va Zarafshon okruglariga Forsdan (Eronning janubiy qismidagi tarixiy viloyat) kirib kelgan, deb yozadi.

O'rta Osiyo pillachiligi tarixiga oid boshqa bir manbada ko'rsatilishicha, bu erda ipakchilik boshqa davlatlarga bog'liq bo'lman holda, mustaqil ravishda yuzaga kelgan, deyiladi. Ilmiy kuzatishlar O'rta Osiyoda hatto Er tarixinining uchlamchi davrida ham tut daraxtlari va yovvoyi pilla qurtlari bo'lganligi haqida dalolat beradi. Bunday qurtlar asta-sekin xonakilashtirilgan, deyishga asos bo'ladi.

Bu haqda muallif bir qancha tarixiy, lingvistik, fol'klor va etnografik faktlar ham mavjudligini yozadi.

Keyingi vaqtarda e'lon qilingan ma'lumotlarga qaraganda ipakchilik va shoyi matolar to'qish dastlab Markaziy Osiyoda bundan 4 ming yil ilgari vujudga kelgan va mustaqil ravishda Farg'ona vodiysida, Zarafshon daryosining bosh qismida va O'zbekistonning janubida rivojlana boshlagan.

Bunga miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikdan shu paytgacha saqlangan tabiiy ipakdan to'qilgan mato namunalari dalil qilingan.

Yuqorida keltirilgan ikkita manbaning o'zi pillachilik va ipakchilik kasbi xitoyliklarga bog'liq bo'lman holda ulardan bir asr oldin ipakchilik bizning yurtimizda ma'lum va mashhur edi deyishga asos bo'la oladi. O'ylaymizki, bu boradagi noaniqliklarga mutasaddi mutaxassislar aniqlik kiritadilar.

O'rta Osiyoning pillachilik markazi o'tmishda Farg'ona vodiysi hisoblangan. Buning isboti sifatida u joylarning tabiiy sharoiti ipak qurti uchun qulayligi, tutzorlar barpo qilish uchun sug'oriladigan erlarning mavjudligi, xalqning o'troq holda yashashi kabi dalillarni keltirish kifoyadir.

Bu yerda qadimiy to'quvchilik an`analari davom etib kelgan va mohir ustalar faoliyat ko'rsatgan. Shu sababli Marg'ilonga boshqa viloyatlardan to'quvchilik sirlarini o'rganish uchun keluvchilar juda ko'p bo'lgan. Marg'ilonning ipak matolari o'zining rangi va ajoyib gullari bilan Xitoy, Eron va boshqa Sharq mamlakatlarining savdogarlarini o'ziga rom qilib kelgan. Farg'ona vodiysida, ayniqsa Marg'ilonda abr (fors. bulut, bulutsimon) nusxali matolar engil, nafis va ranglarining go'zalligi bilan ajralib turgan. Bundan tashqari shaharda beqasam, banoras, shoyi, nim shoyi, atlas kabi matolar to'qilgan.

XIX asr ikkinchi yarmida abr gazlamalarini to'qishda yetti xil rangdan foydalanilgan. XX asrga kelib ranglar ikki xilgacha kamaygan. Bu juda

murakkab va ko‘p mehnatni talab qiluvchi jarayon bo‘lib, bu usuldan asosan atlas to‘qishda foydalanganlar. Matolarga gul bosishda tabiiy bo‘yoqlardan foydalanilgan. Qadimiylar analardan hisoblangan matoga qolip bilan gul bosish usuli saqlanib qolgan. XIX asrning birinchi yarmida gul bosgan matolar keng tarqalgan.

Marg‘ilonda ishlab chiqarilgan adres tabiiy ipakdan, arqog‘i yo‘g‘on ipdan to‘qilgan. Arqog‘ ipi qalin bo‘lgani sababli matoning yuzasida ko‘ndalang chiviqlar paydo bo‘lgan. Marg‘ilon shahri azaldan ipakchilik markazi bo‘lib kelgan. Bu yer aholisi qadimdan shoyi to‘qishga ixtisoslashgan va mohir ustalar makoni bo‘lgan.

1896-yilda Farg‘ona vodiysida 600 ga yaqin pillakashlik korxonalar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, Marg‘illonning o‘zida pillakashlar soni 238 nafar edi. Farg‘ona vodiysida pilla kurtuvchi korxonalarining 2/3 qismi Marg‘ilonda bo‘lgan. Marg‘ilon shahri Turkiston o‘lkasida ipakka dastlabki ishlov beruvchi asosiy shahar hisoblangan. Pillaga dastlabki ishlov berilgach, u Farg‘onadan tashqari xorijiy mamlakatlarga, jumladan Milan, Marsel’ va Markaziy Rossiyadagi korxonalariga jo‘natilgan.

Atlasni (arab. tekis, silliq) tanda ipi va arqog‘i ham tabiiy ipakdan to‘qilgan. Tanda ipi abrbandi usulida bo‘yalib, alohida ishlov berilgan. To‘rt tepkili atlas to‘rt tepkili dastgonda, sakkiz tepkili atlas sakkiz tepkili dastgonda to‘qilgan. Atlas gullari bir-biri bilan uyg‘unlashib, go‘zal ko‘rinishga ega bo‘lgan.

Farg‘ona vodiysida ipak va ipakdan tayyorlangan kiyimlar juda ulug‘langan. Shuning uchun unga qiziqish, ipak mahsulotlarini targ‘ib qilish, ipak matolarni ishlab chiqarish va uni keng miqyosda sotish ishlari eng qadimgi davrlardan buyon davom etib kelayotgan anana bo‘lgan. Farg‘ona vodiysidagi, ayniqsa Marg‘ilon shahridagi ipakchilik bo‘shtida emas, balki juda qadimgi zamonlardan boshlab davom etib kelayotgan, xalqning qon-qoniga singib ketgan, ananaviy hunarmandchilik turlaridan hisoblanadi.

**Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganayotganlar uchun og'zaki  
nutqni o'stirish**

**Zeba Botirova,**

*NamDU ingliz tili fani o'qituvchisi*

**Shavkat Abdullayev,**

*NamDU xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Barchamizga ma'lumki, hozirgi kunda jahon tillaridan biri hisoblanadigan ingliz tili, dunyo iste'molidagi eng ko'p qo'llaniladigan tillar toifasiga kiradi. Dunyoda biror bir davlat yo'qki, hayotiga ushbu til kirib kelmagan bo'lsa. Shu jumladan, bizning yurtimizda ham ingliz tilining mavqeい har qachongidan ham yuksaldi va ushbu tilni o'rganishga bo'lgan talab kundan kunga oshmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, ingliz tili ham ona tilimiz kabi so'zga boy va talaffuz jihatdan go'zal til hisoblanadi. Shunday ekan har bir o'quvchi ushbu tilda xuddi native speaker (sof inglizlardek) muloqotga kirishishni xoxlaydi. Ushbu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish joizki, biror tilda sof va tabiiy gapisish uchun faqatgina o'sha tilning grammatisini va gap strukturasini bilish kifoya qilmaydi. Buning boisi shuki, dunyodagi har bir tilning o'z muhiti o'z qo'llanish o'rnlari mavjud va ularning barchasi turlicha yondashuv talab qiladi. Ko'pchilik odamlardan seni til o'rganish jarayonida qanday holatlar qiyaydi deb so'ralganda albatta ular bir xil javob beradi: men yetarlicha qobiliyatli emasman va ushbu kamchilik menga katta to'siqdir degan jumlalarni keltirishadi. Aynan mana shunday holatdan chiqib ketish uchun ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganayotgan o'rganuvchilar va ushbu tilda mukammal darajaga erishmoqchi bo'lganlar uchun yon tarafdag'i maslahatlar tavsiya etiladi:



Shuningdek bugungi kunda ushbu masala ustida bir qancha ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilgan. Endigi navbatda shu turdag'i ishlarni ko'rib chiqsak. Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganayotganlar uchun quyidagi asosiy shartlar jahon ommasi tomonidan belgilab qo'yilgan<sup>169</sup>:

1. Uy muhitida ingliz tilini o'stirish.

Ushbu usulda so'lovchi ma'lum bir ingliz tilidagi materialni tanlab olib uni mustaqil talaffuz etishi va uni biror ovoz yozish moslamasida saqlashi lozim ushbu tadbir orqali u o'zining so'zlarni qanchalik to'g'ri talaffuz etishini haqiqiy nusxasi bilan solishtirish orqali tekshirib oladi.

2. Matn yoki boshqa materiallarni baland ovozda o'qish.

Ushbu jarayon kuniga 15-20 daqiqa davom etishi talab etiladi va bu orqali ingliz tilida yetarlicha davomiy gapira olish qobiliyati shakllanadi. Bundan tashqari baland talaffuz jarayonida so'zlar yaxshi esda saqlanadi.

3. Ingliz tilida musiqa tinglash va turli xil filmlarni tomosha qilish

Hammaga ma'lumki, tinglash ingliz tilining ajralmas qismi hisoblanadi. Turli xil filmlarni ko'rish orqali haqiqiy native(asl) so'zlashuvchilarning so'zlashish usullarini o'rganish mumkin.

4. Har bir o'rganuvchi kundalik yuritsa maqsadga muvofiq bo'ladi sababi ushbu kundalikda muloqot davomida notanish bo'lgan so'zlarni qaydlash mumkin va keyingi safar ushbu so'z aytilganda hech ikkilanmay uning asosiy mazmunini aytma olasiz.

Albatta yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha nutqni o'stirish haqidagi mulohazalar jahon olimlari tomonidan ko'rib chiqilgan va amaliyotda ko'plab qo'llanilgan. Hozirgi kungacha qo'llanilib kelingan eng ommabop yo'llardan biri bu o'rganuvchining yolg'iz holatda oynaga qaragan holda nutq so'zlashidir va ushbu uslub bir qancha foyda bergenini har qanday odam tezda anglaydi. Bu uslub ayniqsa ko'pchilik o'rtasida nutq so'zlashdan hayajonlanadiganlar uchun ayni muddao bo'ladi. So'zimni oxirida shuni ta'kidlab o'tmoqchimanki, til o'rganish murakkab jarayon lekin har qanday qiyinchilik harakat yordamida yengiladi shunay ekan agarda sizda ingliz tilida mukammal so'zlashish istagi bo'lsa yuqorida mulohazalarga qattiq yondashing.

<sup>169</sup> <http://www.rediff.com/getahead/2005/sep/02accent.htm>

<http://www.usingenglish.com/articles/70-ways-to-improve-your-english.html>

<http://www.dnaindia.com/academy/report-how-to-improve-your-spoken-english-5-tips-1886848>

## **Deviant xulq-atvor sotsiologiyasining mohiyati**

*Muydinova Mohira, NamDU o'qituvchisi*

*Abdulboqiyev Faxriddin, NamDU talabasi*

Sotsiologiya fani bugungi kunda muhim va tezkor rivojlanish bosqichida turibdi. Mazkur fanning muammolari faylasuflar tarixchilar iqtisodchilar va keng jamoatchilik tomonidan atroficha o'rganila boshlandi. Sotsiologiya fani jamiyatda ro'y berayotgan yirik ijtimoiy-siyosiy voqealarni shunchaki qayd etish bilangina cheklanmaydi, balki uning asl mohiyati va mazmunini atroficha ochib beradi. Sotsiologiya fanida jamiyatni o'rganish sohasida bir necha yo'nalishlar va terminlar mavjud bo'lib bularni ichida jamiyatdagi shaxslarni turli xil yo'nalishlarga, oqimlarga og'ishi bilan uning xulq-atvorini o'rganuvchi soha bu deviant xulq-atvor yo'nalishi hisoblanadi. Jamiyatda insonlar faoliyati, xatti-harakatlari va xulq-atvorlarini ijtimoiy me'yorlar boshqaradi. Ijtimoiy me'yor jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan sotsial muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmuidir. Ijtimoiy me'yorning bir necha turlari mavjud bo'lib, huquqiy, axloqiy, diniy hamda urf-odatlarga oid me'yorlar shular jumlasidandir. Deviatsiya (lotincha chetga og'uvchi fe'l-atvor degan ma'noni beradi) ko'pgina hollarda sotsial sanktsiyalarga muhtoj bo'ladi. Deviatsiyaning shunday ko'rinishlari borki, ular odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar normalarining buzilishi bilan bog'liq bo'lib, jamiyatga jiddiy zarar yetkazmaydi. Ular ijtimoiy fikr va o'zaro munosabatlar qatnashchilarining o'zlarini tomonidan boshqariladi<sup>170</sup>.

Deviatsiyaning jinoyatchilik, alokogolizm, giyohvandlik, suitsid, fohishabozlik kabi oqimlari mavjud hisoblanadi. Deviant xulq-atvor muammosini sotsiologiya fani doirasida dastlab E. Dyurkgeym maxsus o'rgangan bo'lsa-da, jamiyatning eng qadimiy muammolaridan biri sifatida deviant holatlarga munosabatlar qadim davrlardan shakllanib kelgan. Qadimgi xalqlarning diniy-mifologik tasavvurlari, xususan, Misr, Hindiston va Xitoy diniy qonun-qoidalariagi axloqiy me'yordar bu sohadagi dastlabki qarashlar edi. Qadimgi yunon va Rim faylasuflari ham o'z asarlarida mazkur muammolarni tahlil qilib bergenlar.

O'rta asrlarda axloq me'yorlari diniy qarashlar ta'siri ostida rivojlandi va ulardan chekinish diniy nuqtai nazardan baholangan. Yevropada xristian dini barcha sohada hukmronlik qilgan bo'lsa, sharq dunyosida axloqiy-huquqiy me'yorlar va ular haqidagi ta'limotlar islom falsafasi ta'sirida rivojlandi. XVII-XVIII asrlarga kelib, Yevropada

<sup>170</sup> Bagrad Sarkisov, Ra'no Umarova. Sotsiologiya. Ma'ruzalar matni. - Toshkent: 2004, 120-126 b.

jamiyat rivojining kuchayishi axloq me'yorlarining xristiancha talablari doirasiga sig'may qoldi. XIX asr mutafakkirlari ijtimoiy me'yor va undan chekinish muammosini yanada chuqurroq tahlil qildilar. Sh. L. Monteske, J. J. Russo, Ch. Bekkaria, Gelvesiy, D. Didro, P. Golbax, Morelli va Sh. Furelar o'z ilmiy izlanishlarida ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarni topishga intilganlar<sup>171</sup>.

XIX asr oxirlarida tabiiy fanlarda erishilgan ilmiy yantuqlar ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xususan, sotsiologiyada ijtimoiy me'yordan og'ish holatlarini tushuntiruvchi dastlabki ta'limot — E. Dyurkgeymning «anomiya» g'oyasi yaratildi. Ma'lumki, sotsiologiyaning fan bo'lib shakllanishida ijtimoiy patologiya omiliga e'tibor qaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada E. Dyurkgeymning to'rtta asari chop etilgan bo'lib, shulardan biri «O'z joniga qasd qilish» (1897) kitobi deviantlik muammosiga bag'ishlangan edi.

Amerika sotsiologiyasida muhim o'rinni tutuvchi ta'limotlardan biri E. Saterlendning differensial aloqalar ta'limotidir. Bunga ko'ra, har qanday xulq-atvor, shu jumladan, deviant xulq-atvor ham o'rganiladi, ya'ni mavjud jamiyat a'zolari tomonidan mazkur xulq-atvor boshqalarga o'rgatiladi. Deviant xulq-atvor muammolarini tahlil qilishda R. Merton ishlab chiqqan ta'limot sotsiologiyada yetakchi o'rinni tutadi. E. Dyurkgeymning anomiya g'oyasini rivojlanтирib, Merton deviant xulq-atvorga quyidagicha ta'rif beradi: «Deviant xulq-atvor jamiyatda e'lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvor motivlari hamda mavjud imkoniyatlarining bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir»<sup>172</sup>.

Shaxslarda yuz beruvchi deviant holatlarning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan uchta omilni ko'rsatish mumkin. Bular shaxs xususiyatlari, muammoli holat va ijtimoiy nazorat institutlari. Aynan mana shu omillar shaxsning qanday faoliyat yuritishini belgilab beradi. Deviant xulq-atvorni o'rganishda muammoli vaziyat muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli vaziyat shunday holatki, u sub'ektdan yechimini talab qiladi, uning yechimi ijtimoiy me'yordarda ko'rsatilgan bo'lsa-da, u yoki bu sabablarga ko'ra, ushbu me'yorlarni qo'llash qiyinroq bo'ladi.

Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z-o'zini o'ldirishlar bilan bog'liq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va sotsial oqibatlariga ko'ra mohiyatan farqli jihatlarga egadir.

<sup>171</sup> Bekmuradov M. Sotsiologiya asoslari. — Toshkent: "Fan", 1994

<sup>172</sup> Umumiy sotsiologiya. Toshkent: ToshDU, 1999, 186-bet.

Birinchi farq, ijtimoiy zararli odatlarning uzoq davom etishi deviant xulqi turmush tarzining uzviy bo'lagiga aylanib ketishidan iborat bo'ladi. Doimiy oilaviy kelishmovchiliklar, oila va atrof-muhitdan norozilik, uydagi tushunmovchiliklar va hokazolar — bularning barchasi sub'ekt ruhiyatini jarohatlaydi hamda u mavjud vaziyatni o'zgartirishga urinadi. Bu o'rinda ijtimoiy institatlardagi kamchiliklar, shu jumladan, ziddiyatlar rivojlanishining oldini oluvchi va ularga qarshi kurashuvchi ijtimoiy nazorat tizimlari ham salbiy rol o'ynaydi.

Bularning ikkinchi farqli jihatni yuqorida hal qilishning ma'lum qiyinchiliklarga egaligidir. Ma'lumki, har qanday holatda ham, ko'p «qurban» berib bo'lsada, to'g'ri yechimga erishish mumkin. Lekin hamma gap shundaki, sub'ekt «qurban» bera oladimi: xotini (yoki eri) bilan ajralib keta oladimi, yangi kasbga ega bo'la oladimi yoki yo'qmi. Qat'iy qarorga kela olmay, ko'pincha sub'ekt «o'rribosar» vositalarga, ichkilik va giyohvand moddalarga murojaat etadi.

Bunday holatlarning keyingi farqi shundaki, ko'pincha sub'ekt ularni hal qilishning noto'g'ri yo'llarini tanlaydi. Oilaviy va ishdagi janjallar odatga aylanib qolganda bundan «qutulishning» noto'g'ri xayoliy yo'llari, ichkilik, giyohvand vositalar va hokazolarga murojaat etiladi. Biroq bu yo'l ziddiyatning chuqurlashuviga va turmush tarzini zararlantiruvchi omilga olib keladi. Shu tariqa jamiyatni o'rganish va insonlarni turli xil oqim va yo'naliishlarga og'uvchilik holatini o'rganish va uni oldini olish chora tadbirlari sotsiologiya fanining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, deviant xulq-atvor nafaqat sotsiologiya fani tizimida, balki boshqa ijtimoiy fanlarda ham o'rganilishi dolzarb bo'lgan sohalardan biridir. Ushbu sohani kengroq o'rganish jamiyatda mavjud salbiy illatlarni oldini olishda muhim o'rinnegallaydi.

## **Globallashuv jarayonlari va yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalalari**

### *Boyzoqova Umida*

*Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'naliishi 3-bosqich talabasi*

Hozirgi kunda kim axborotga egalik qilsa, o'sha dunyoga hukmron bo'ladi, degan gap o'zini oqlamoqda. Sababi, bugungi jamiyatni axborotsiz tasavvur qila olmaymiz. Har kuni bir odamning o'zi millionlab axborot qabul qilishi mumkin. Lekin, bu axborotlarning

ichida to‘g‘ri yoki noto‘g‘risini ajratib olish murakkab masala. Buning ko‘rinmas ta’sirini bilganlar esa biz qabul qiladigan axborotdan turli maqsadlarda foydalanadilar. So‘nggi yillarga axborot orqali inson ongiga xuruj qilish, mamlakatlarga esa ochiqdan ochiq axborot urushini olib borish kuchayib bormoqda. Unga kurashishining samarali yo‘li bu har bir kishida axborotga nisbatan immunitetni oshirishdir.

“Ommaviy madaniyat” deb nom olgan, kishilarni axloqsizlik va ma’naviyatsizlik sari yetaklovchi salbiy holatga, O‘zbekiston Prezidenti o‘z munosabatini bildirib, jamiyat a‘zolarini hushyorlikka chorlagan edi: “Tabiiyki, «ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzuqyaik va zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm g‘oyalarini tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi”<sup>173</sup>.

Globallashuv sharoitida muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tizimni zaiflashtirish va buzishga yo‘naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi mafkuraviy tajovuzlar keskinlashmoqda. Bunday tajovuzga qo‘l urayotgan yovuz kuchlar o‘z jirkanch maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning diniy, milliy hissiyotlari, hayotda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklaridan, shuningdek, zamonaviy texnika, telekommunikatsiya vositalaridan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar.

Shunday sharoitda yosh avlodni turli xil yet g‘oyalar ta’siridan asrab-avaylash muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

Shunday ekan, avvalom bor yosh avlodni vatanga, milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash globallashuv sharoitida milliy ma’naviyatni asrashning muhim omillaridan biridir.

Bugungi yoshlarning aksariyati asosiy axborot manbai sifatida internetga murojaat qilishadi. Biroq, internetning ham salbiy ham ijobiy jihatlari borligini unutmasligimiz lozim. Shu bois mutaxassislar internetni kompossiz yurib bo‘lmaydigan o‘rmonga o‘xshatishadi.

Bugungi yoshlar axborot globallashuvi zamonida “Internet” tarmog‘idan turli ma’lumot va tasvirlarni ko‘rish, o‘qish imkoniyatiga ega. Bu bir tomonidan ijobiy holat bo‘lsa, ikkinchi tomonidan yoshlar ongiga salbiy ta’sir o‘tkazishi, ularni axloqiy jihatdan tubanlashuviga, zararli g‘oyalar ta’siriga tushib qolishlariga sabab bo‘lishi mumkin. G‘arbdagi turli markazlar “ommaviy madaniyat” niqobi ostida har xil

<sup>173</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.-Toshkent: Ma’naviyat, 2008 – 117 bet.

g‘oyaviy zararli saviyasi past, ma’naviy tubanlikka yetaklovchi, animatsion va badiiy filmlar, rok-n – roll, pop, metallist yo‘nalishlaridagi qulogni qomatga keltiruvchi, sharqona axloq-odobga xilof bo‘lgan musiqa mahsulotlarini yoshlarimiz e’tiboriga havola etishmoqda.

Bugungi kunda internet tarmog‘ida to‘qqiz mingdan ortiq o‘z joniga qasd qilishni targ‘ib etuvchi, to‘rt mingdan ortiq erotik mazmundagi saytlar ishlab turibdi. Global tarmoqdagi mavjud resurslarning o‘n ikki foizi pornografik mazmundadir. Ularga yoshlarni qiziqishi juda katta.

Dunyoda globallashuv jarayoni davom etayotgan, ta’lim-tarbiyada axborot kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) keng joriy etish masalasi nihoyatda dolzarb masala bo‘lib turgan sharoitda yoshlarga bu imkoniyatlardan foydalanishni ta’qiqlab qo‘yishni iloji yo‘q. Biroq, bir vaqtning o‘zida “ommaviy madaniyat” va turli yot g‘oyalarga qarshi kurash olib borish, bu sohadagi ishlar samaradorligini yanada oshirish talab qilinmoqda<sup>174</sup>.

Dunyodagi taraqqiy parvar mamlakatlar rivojlanishida axborotning o‘rni alohida bo‘lgani haqida qator adabiyotlarda asoslab berilgan. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon matbuot va boshqa ommaviy axborot vositalari jamiyatda o‘ziga xos ijtimoiy institut sifatida shakllandi. Matbuot chinakam hayot ko‘zgusi, “to‘rtinchchi hokimiyyat” darajasiga ko‘tarilmoqda. Axborot davlat va jamiyat rivojlanishining muhim omiliidir. Axborot asrida jamiyat axborotsiz yashay olmaydi. Dunyo yagona axborot makoniga aylagan bir pallada undan “holi” bo‘lish ham mumkin emas.

Shu ma’noda ma’naviy tahdidlardan shaxs axloqini himoya qilish yo‘lining eng samarali usuli shaxsda axloqiy immunitetni hosil qilishdir. Bunday immunitet shaxs axloqida ideal darajadagi sifat va fazilatlarni shakllantirishni taqazo etadi.

Eng avvalo yoshlarda mafkuraviy immunitetni hosil qilish, ularda ona vatanga muhabbat, o‘z yurtiga sadoqat xislatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar, eng avvalo Vatanga e’tiqodli, urf-odat va qadriyatimizga sadoqatli qilib tarbiyalansagina, istalgan buzg‘unchi axborotlarga nisbatan o‘z axborot immunitetlari shakllanadi.

Dunyo axborot makonida ba’zi qudratli davlatlar hukmronlik qilishga intiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar esa ko‘proq o‘zini himoya qilishga majbur bo‘ladi. Aks holda, o‘sha mamlaqat katta

<sup>174</sup> Orifxo‘jaev Ayubxon. “Ommaviy madaniyat” – ma’naviy tubanlik targ‘ibotchisi /“Salohiyat-Mezon” ilmiy maqolalar to‘plami.-Namangan, 2014.-№4.-34 bet.

ma'naviy zarar ko'rishi hech gap emas. Bunday ma'naviy tahdidlarning oldini olish uchun eng samarali yo'llardan biri – axborot iste'molchilarida, ayniqsa, hali ongi to'la shakllanib ulgurmagan yoshlarda kuchli mafkuraviy immunitet hosil qilish va uni muttasil rivojlantrib borish zarur. Xorijiy radiolar orqali qilinadigan axborot hujumidan himoyalanish uchun eng samarali yo'l mahalliy OAVdan unumli foydalanishdir. Ya'ni, axborot xurujlariga qarshi milliy gazeta, radio va televide niemizdan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Jamiyatimizda tinchlik, totuvlik va barqarorlikni ta'minlash bugungi kunda mahalla ahllari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Oilada sog'lom turmush tarzining qaror topishi oilaning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, farovonligiga erishish, bilimli, aql-zakovatli barkamol insonni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Bunday oilalar axloqsizlik, e'tiqodsizlik, aqidaparastlik, xoinlik, giyohvandlik kabi illatlarni oldini olishga, ularni paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka o'z hissalarini qo'shadilar.

Umuman olganda oilada amalga oshiriladigan tarbiyaning mazmunini farzandlarda o'z ota-onasidan, oilasi, ajdodlari, tug'ilib o'sgan o'lkasi, vatani, millati, xalqi, tili, dini, an'analaridan g'ururlanishi hissini uyg'otishdan iborat.

Hozirga vaqtida g'oyaviy kurash va mafkuraviy tahididlari o'sib bormoqda. Bu holatda milliy mafkuraviy xavfsizlikka qarshi tayziqning avj olishi nafaqat yuzaga kelayotgan tahididlarni anglash, balki ularning oldini olish uchun amaliy faoliyatlarni kuchaytirishni ham taqozo etadi. Bu borada, ayniqsa, mafkuraviy immunitetni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mafkuraviy immunitet millatning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan intellektual salohiyatning mavjudligi, unga ehtiyojning ortib borishi va har qanday tashqi tahididlarga qarshi tura oladigan, ulardan kuchli hamda ustun bo'lgan milliy mafkuraviy imkoniyatdir.

Shuningdek, milliy mafkuraga kuch va qudrat bag'ishlay oladigan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy manbalarni to'g'ri aniqlab olish hamda ularni amaliyotga tadbiq etish bugungi kunda yechilishi zarur bo'lgan ustivor vazifalardan hisoblanishi lozim.

Jamiyatda yosh avlodni "axborot xuruji" kabi tashqi ta'sirlardan doimo asrash va ular qalbida "mafkuraviy immunitet"ni oshirgan holda Vatanga sadoqatli qilib kamolga yetkazish uchun juda katta ma'naviy zamin mavjud. Eng muhimi, ulug'vor ildizlaridan quvvat olgan nihollar misol barkamol avlodning ana shu ulug' zaminda chinakam kamol topa olishidir.

# O‘zbekiston taraqqiyotining “O‘zbek modeli”ni o‘rganish orqali yoshlар ongida milliy tarixiy tafakkurni va fuqarolik ongini shakllantirishning dolzARB muammolari

M. Nematova, G. Dadajonova

Farg‘ona pedagogika kolleji o‘qituvchilarini

Yurtboshimiz Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma‘ruzasida: “Sobiq ittifoq, SSSR degan imperiya parokanda bo‘lib, tarqalib ketganidan so‘ng, o‘ta tahlikali bir zamonda biz “shok terapiyasi” kabi modellarning nomaqbul shakllarida butunlay voz kechganimiz – shuni ta’kidlashimiz zarur – o‘ta muhim va hal qiluvchi qadam bo‘ldi.

O‘zbekistonimizga mos tarixiy, milliy, an'anaviy va iqtisodiy vaziyat va xususiyatlarni inobatga olmasdan turib, “Bozor iqtisodiyotining shiddatli girdobiga o‘zingni tashlasang, uning o‘zi ko‘zlangan manzilga olib chiqadi” degan hom xayollardan butunlay voz kechdik. Va bugungi kunda butun dunyoda tan olingan, “O‘zbek modeli” deb nom olgan jamiyatimizni tubdan isloh etish, erkinlashtirish, demokratik yangi davlat qurish, uni modernizatsiya qilish bo‘yicha puxta o‘ylangan taraqqiyot yo‘limizni tanlab oldik”, - deb ta’kidladi.

Bugungi millatning ma’nnaviy sog‘lomligi masalasi ham doimgidan ko‘proq e’tibor berishni talab qilayotir. Hech kimga sir emaski, yoshlarni o‘qitish, ularga bilim berish, erkin fikrlashga ko‘maklashish, kelajakda kasb-hunarni tanlashga yondoshish, shuningdek, ulardan milliy tarixiy tafakkurni shakllantirish, tarixiy va demokratik ongni tarbiyalash – bular barchasi biz, tarix fani o‘qituvchilarining ham qo‘lidadir.

Aynan, tarix fani darslarida, keng va rostgo‘y faktlarga suyanib, o‘quvchilardan milliy o‘z-o‘zini anglash, ularning ongini tarixiy boy materiallar bilan boyitish hozirgi globallashuv jarayonida ularda o‘z mavqeini topish, mafkuraviy immunitetni mustahkamlash va o‘zida fuqarolik ongni tarbiyalash imkoniyatlari kengayadi. Zero, tarixiy voqealarni to‘g‘ri va ob’ektiv baholash orqali o‘quvchi talabada quyidagi ongli va falsafiy sifatlar shakllanadi:

-jamiyatimizda kechayotgan o‘zgarishlarni chuqur o‘rganish orqali tarixiylik va tadrijiylik qonuniyatlarini anglaydi;

-o‘tmishimizni o‘rganish orqali ota-bobolar tarixini qadriyat darajasida ko‘tarishga, milliy qadriyatlarning “Ommaviy ma’nnaviyat” iskanjasiga tushib qolishiga yo‘l qo‘ymaslikka intiladi;

- tarixga, tarix fani darslariga o‘zlikni anglash jarayonining asosiy vositasi sifatida qarashni anglaydi;

- globallashuvning ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyotiga xavf solishi, kosmopolitizmning shakllanishi kabi tahdidlariga befarq bo‘lmaydi. Chunonchi, milliy o‘z-o‘zini anglash – bu, avvalo, milliy manfaatlar nimalardan iboratligini tushunib yetish, chuqur idrok etishdir.

Milliy manfaatlar – milliy tarixini to‘g‘ri tushunish uning jahon tsivilizatsiyasiga qo‘sghan hissasini, ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy manfaatlarini hozir va kelajakda himoya qilish yo‘llarini bilish va shu maqsadlar asosida birlashtirishdir. Shu bilan birga o‘tmishimizga chuqur nazar tashlasak, istiqlolimizning dastlabki yillardan, ayni Prezidentimizning “O‘zbekiston o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li”da ko‘rsatgan “O‘zbek modeli”, undagi buyuk va shaffof tamoyillari jamiyatimiz kishilar ongini tubdan o‘zgartirdi. Jamiyatimizda demokratik printsiplarning o‘rnashishga xizmat qildi. Darhaqiqat, jamiyat hayotining qaysi sohasini olmaylik barchasi “O‘zbek modeli”da aks ettirilgan demokratiya bilan uzviy bog‘liq holda taraqqiy etib boradi.

Albatta, har bir tarixchi-pedagogka shunisi ayonki hech bir o‘zgarishlar davri oson, silliq va hamma uchun birdek muloyim, foydali kechmagan. O‘zbekistonda kechayotgan o‘tish davri ham o‘zining murakkabliklariga, qiyinchiliklariga ega. Shuning uchun buyuk va tarixiy shaxs, Yurtboshimiz Islom Karimovning barcha nutqlari va asoslari “O‘zbek modeli” bilan uzviy ravishda o‘qisak, o‘rgansak, yoshlarga katta va bebaho xizmat qilgan bo‘lardik.

Yoshlarda quyidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar va xulosalar shakllanadi:

- “O‘zbek modeli”ni chuqur tushunish va anglash;
- Sobiq SSSR parchalanishining qonuniyatlarini kuzata olish;
- murakkab sho‘rolar davrida I. Karimovning tutgan ongli siyosatini anglay olish;
- hozirgi zamonda “Yoshlarga oid siyosatni amalga oshirish” dasturida faol qatnashuvchi bo‘lishga intilish;
- mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etishda o‘z hissasini qo‘sish;
- o‘zida fuqarolik printsiplarini tarbiyalash;
- demokratik tuyg‘ularni shakllantirish.

Albatta, O‘zbekiston taraqqiyotining “O‘zbek modeli” jamiyatimiz kishilarda ijtimoiy ongning turi sifatida huquqiy ong voqelikni tushunishga davlat, huquq, qonunchilik, siyosat, qonun ustivorligi, huquqiy madaniyat, iqtisodiyot siyosatdan ustunligi, davlat-bosh

islohotchi, kuchli ijtimoiy siyosat, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish, axloq kabi ustqurma elementlarning ijtimoiy munosabatlari sohasida tutgan o'rni to'g'risida tasavvurga ega bo'lishga yordam beradi. Demak, tarixchi-pedagog har darsida inson o'z yashayotgan jamiyatidagi o'rni, davlat o'z tomonidan har bir fuqaroga huquq va erkinliklarni ta'minlab berishi, shaxs esa o'z tomonidan fuqaro sifatida, inson sifatida davlatga nimani, qay shaklida qaytarib turishini so'rab-surishtirib turishi zarurdir.

Yoshlar ongida huquqiy madaniyat ko'nikmasini rivojlantirishda umummilliy g'oyada belgilab berilgan milliy qadriyatlarimizga asoslangan ta'lim-tarbiya bir qatorda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning fuqarolik burchini bajarishda faol ishtirokini ta'minlash ham samarali natijalar berishi shubhasizdir. Demak, hozirgi tarixchi-pedagog qaysi mavzuni yoritmasin, albatta, jamiyatda inson va shaxsning roli, qonunlar kuchi-mohiyati, mazmuni haqida alohida yondoshish shart. Zero, hozirda fuqarolik jamiyatning tarkibiy qismlari ham madaniy hodisalar bo'lib, ular ontologik holatlari bo'yicha, jumladan siyosiy partiylar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar, inson huquqlarini himoyalovchi institutlar va boshqalar jamiyatning siyosiy va huquqiy hayoti sohalarida, xususiy mulk asosidagi nodavlat tashkilotlar, shirkat, ijara, hissadorlik, moliyaviy jamg'arma kabi xo'jalik, jamiyat va uyushmalar, ishlab chiqarish korporatsiya, konsernlari va birlashmalari, tadbirkorlar uyushmasi, ekologik harakat va shu kabilar jamiyatning moddiy hayoti sohasida, oila va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari kabilar jamiyatning sotsial sohasida, ta'lim-tarbiya muassasasalari, diniy tashkilotlar, milliy-madaniy markazlar, ommaviy axborot vositalari va boshqalar jamiyatning tarixiy-ma'naviy hayoti sohasida joylashganlar. Bu yo'sinda mamlakatimizda qabul qilinayotgan yangi qonunlarni o'quvchilarga tushuntirib berish, ulardagi dolzarb qismlarga e'tibor qaratish, yoshlarda quyidagi fuqarolik tushunchalar shakllanar edi:

- jamiyatda kerakli kasb-hunarni egallahsga intilish;
- o'z bilimini huquqiy atvorda anglash;
- jamiyatda faol va sog'lom turmush tarzini qurish strategiyasini ishlab chiqish;
- jamiyatda nohush harakatlarga befarq bo'lmashlikka intilish;
- g'ayriqonuniy harakatlarga chidaslik;

o'z huquqiy madaniyatini sifatlashsga intilish va h. k.

# Ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarning tarbiyaviy ahamiyati

G'. Sotiboldiyev, NamMPI assistenti  
A. Asqaraliyev, NamMPI talabasi

Har qanday davlatning asosi bu uning ma'naviyatidir. Insonning boshlang'ich tarbiyasi oilada berilsada, jamiyatda kamol topib borishi va ma'naviy yuksalishi ijtimoiy hayot bilan uzviy bog'liqidir. Ma'naviy va ruhiy jihatdan tetik, bardam va sog'lom kishilargina ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotning haqiqiy sohiblari bo'la oladilar. Yurtboshimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek, "Biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi".<sup>175</sup> Demak, ma'naviyatni yuksaltirish shu kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib, uni yoshlar qalbi va ongiga singdirish ta'limg-tarbiyaning barcha jabhalarida barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratishni taqozo qiladi.

Tarbiya bu insonning o'zi va o'z xulqi haqidagi tasavvurining to'g'ri va xolis bo'lishini ta'minlovchi murakkab jarayon hisoblanadi. Inson kamolotga erishish jarayonida jamiyat ta'siri natijasida o'z tarbiyasi va dunyoqarashini ortirib boradi. Mavjud olamda inson ruhiy rivojlanish xususiyatga ega. Bu jihatdan Imom G'azzoliyning "Inson farishta va hayvon orasidagi mahluqdir. Hayvon rivojlanmaydi, chunki uning kamolot quvvati (tuyg'u-irodasi) yo'q. Farishta ham rivojlanmaydi, chunki uning o'zi pok, ilohiy nurdan iborat. Faqat insonda rivojlanish, ruhiy kamolot xislati mavjud"<sup>176</sup> deb aytilgan so'zlari inson ma'naviyati va tarbiyasi, uning kamoloti jarayonida ro'y beradigan o'zgarishlarga qaratilganidan dalolat beradi. Prezidentimiz I. A. Karimov o'z kitoblarida buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning tarbiya haqida "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir, "<sup>177</sup> degan fikrini esga olganlar.<sup>177</sup> Uning bu fikrini keng mushohada qiladigan bo'lsak, bugungi kunda ham yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor bilan yondoshishimiz zarur. Shu ma'noda ta'limg tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda zamonaviy interfaol uslub bilan o'zini oqlagan an'anaviy tamoyillardan foydalanish ijobiy natijalar beradi. Chunki, ta'limg va tarbiya, har bir darsda talabaga ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va

<sup>175</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-Toshkent: O'zbekiston, 1997 -B 137

<sup>176</sup> Komilov N. Tasavvuf. Ikkinci kitob.G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at hamda O'zbekiston, nashriyotlari.T.,1999,bet-149

<sup>177</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch.T , "Ma'naviyat",2009 62-bet

madaniy bilim berishning asosiy, tashkiliy jarayonidir. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, zamona viy ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy taraqqiyot o'zining nozikligi bilan avvalgi davrdan tubdan farq qilishi ijtimoiy fan professor-o'qituvchilar oldiga jahon siyosiy sahnasida va yurtimizda yuz berayotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy yangiliklarni ziyraklik bilan kuzatib borishni hamda ularni ta'lim va tarbiya jarayoniga o'z vaqtida tadbiq qilishga to'g'ri keladi. Shu bilan birga ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarni o'qitishda bir qator bahsli jihat va xususiyatlar ham fikrimizni tasdiqlaydi. Ijtimoiy gumanitar fanlar sohasidagi bir qator fanlarni o'tilishi o'sib kelayotgan yoshlar ruhiyatiga jamiyatni, oila, qadriyatlarni, millat, madaniy meros kabi tushunchalarni hamda ularni inson hayotidagi o'rni shaxs kamolotida asosiy axloqiy tamoyillar bo'lган insonparvarlik, vatanparvarlik kabi xislatlarni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati bugungi kun globallashuv jarayonida fuqarolarning xorijiy davlatlardagi ro'y berayotgan turli sohalardagi o'zgarishlar ham ta'lim tizimida jiddiy faollikni talab qiladi. Oliy ta'lim va tarbiya jarayoni, eng avvalo har tomonlama yetuk komil shaxsni tarbiyalash vazifasi bilan davlat siyosatining ustuvor maqsadini amalga oshiradi. Shu bilan birlgilikda ijtimoiy fanlarni o'rgatish jarayonida talabada yurtimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar jarayonidan xabardor bo'lish va bu jarayonlarni faol kuzatib borish hamda unga bog'liq fikr mulohazalarini mustahkamlaydi. Shuning uchun ijtimoiy fanlarda o'qituvchi o'zining xar bir mavzusi uchun o'ziga xos uslub va vositalardan foydalangan holda talabaga darsning maqsad va vazifasini yetkazish yo'lini to'g'ri tanlashi zarur bo'ladi. Ijtimoiy fanlarni o'tish jarayonida har bir talaba mavjud jamiyatda o'zining kimligini va o'ziga bo'lган jamiyat taraqqiyotida ajdodlaridan qolgan madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy meros haqidagi dunyoqarashi ortib boradi. Uning ma'naviy tarbiyasi va kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Beruniy falsafasiga ko'ra har qanday jarayon inson aql-idrokinining mahsulidir. Har qanday kishi o'z aql idroki doirasidagina faoliyat yuritadi va turmush tarzini uning chegarasida yo'lga qo'yadi. Har bir kishiga xos bo'lган bunday holat yaxlit bo'lganda umumiy jamiyat ma'naviy qiyofasini, intellektual darajasini belgilaydi. Shuning uchun ham Beruniy "Avom xalqning tabiatи sezgi orqali anglaniladigan narsalar bilan cheklanib, asosdan kelib chiqadigan shaxobchalarga qanoat qiladi, asosning tekshirilishini istamaydi"... Chunki "bilimsiz kishilarning ko'ngli xurofotga mayl bo'ladi", <sup>178</sup> -deydi. Bu bir tomonidan ma'rifat,

<sup>178</sup> Beruniy. A. 100 hikmat -Toshkent: Fan, 1993.-B.14.

madaniyat inson uchun qay darajada zarur bo'lsa, jamiyat uchun ham shu darajada ehtiyoj ekanligini ko'rsatadi. Jamiyatimizda ilg'or barkamol, ma'naviy yuksak kishilar qanchalik ko'p bo'lsa, millatning ma'naviyati ham shunchalik yuksak bo'lishi hech kimga sir emasdir. Ijtimoiy fanlarning o'tilishi va uni uzuksiz ta'lif jarayonida tarmoqlar asosida o'rgatilishi yoshlar tarbiyasi va dunyoqarashini bugungi jamiyat taraqqiyotiga oqilona munosabatda bo'lishida katta ahamiyatga egadir.

Umuman olganda, tarbiyaga oid insoniyatning boy ma'naviy xazinasidan munosib o'rinni olgan tarixiy, milliy, ma'naviy-madaniy merosimiz, urf-odatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlarimizdan ta'lif jarayonida muvaffaqiyatli foydalanish, o'sib kelayotgan barkamol shaxsni vatanparvar, fidokor, yuksak madaniyatli hamda ma'naviyatli qilib tarbiyalashning asosiy omillaridan biridir.

## Realia in translation

Dilmurod Djumabayev

*NamDU Lingvistika (ingliz til) yo'nalishi I-bosqich magistranti*

The Independence has served as the base for the establishment of special school of translating studies in Uzbekistan. Many theoreticians of translation have appeared in different branches of this school. Especially, the translation school established by Gaybullay Salomov, - an Honored Scientist of Uzbekistan, Doctor of philology, professor - has a huge contribution to this field. This school differs from others as it follows the traditions of world's translation studies.

In his book "There is no future without historical remembrance"<sup>179</sup> the president Islam Karimov states that "our land gave birth to many outstanding scientists, military leaders, great religious figures" and especially emphasizes that in order to lead Uzbekistan to the world scene we should learn the global ideas and the concepts of scientific schools.

There is a problem in translation theory that stems from its very beginnings. It has always been hard to convey national and historic singularity. Late in XX century as early 50's realia as marks of the national color got their share of scientific acclaim. But how is national singularity realized?

Such singularity is shown in actions of a representative of a certain nation reflecting his mindset, worldview, national customs and rituals, and above all, in the names for cities, animals, plants, dishes, clothes, hats, kitchen utensils, musical instruments, weight measures, proper names, nicknames, etc. Some ideas, occurrences, procedures associated with the environment, culture and way of life of a certain nation are absent within the others. The words naming such nationally specific traits were named realia by Bulgarian linguists S. Vlakhov and S. Florin<sup>180</sup>. Being the bearers of historic and national color, they do not have counterparts in other languages and therefore are hardly translatable by common and means require a specific approach. The word realia comes from Medieval Latin, in which it originally meant "the real things", i.e. material things, as opposed to abstract ones.

<sup>179</sup> I.A. Karimov. Tarihiy hotirasiz kelajak vo'q – T., "Sharq": 1998

<sup>180</sup> Vlakhov, S. Florin S. (1986). Neperovodimoe v perevode. Moskva: Vissnaya Shkola

Vlahov and Florin coined the modern sense of the word. They indicate that since *realia* carry a local overtone, they often pose a challenge for translation. *Realia* must not be confused with terminology: the latter is primarily used in the scientific literature to designate things that pertain to the scientific sphere, and usually only appears in other kinds of texts to serve a very specific stylistic purpose. *Realia*, on the other hand, are born in popular culture, and are increasingly found in very diverse kinds of texts. Fiction, in particular, is fond of *realia* for the exotic touch they bring.

The term *realia*, introduced by Vlakhov and Florin, is only one of many terms used to refer to this specific phenomenon. Other terms used in the literature include *culture-bound problems* (Nedergaard Larsen), *culture-specific items* (Franco Aixela), *allusions* (Leppihalme), *extralinguistic cultural references* (Pedersen), *culture-specific references* (Ramiere), and *culture-bound terms* (Diaz Cintas and Remael). Some differences between the terms may exist, mostly depending on the author's concept of what constitutes reality (Leppihalme) and how the author defines culture, but in many cases, the terms are practically synonymous.

According to G. Tomakhin, before starting translation, it is necessary to gain awareness of an unknown element of *realia*, included in the source text, we must determine its place in the given context, how the author tries to convey it and what methods he uses to make the semantic content and connotative meaning of the given element of *realia* understandable for the reader. Most often, it is foreign *realia* describing the reality unfamiliar to the target language that need to be processed thoroughly as it is described above. As for the national *realia*, they do not require any kind of processing, for example, "karnay", for the Uzbek reader does not require any explanation, as well as "mistral" – for the French reader and "Tower" – for the English reader. International *realia*, on the other hand, do not require as much effort to make them understandable as national *realia* do, because due to the range of their dissemination.<sup>181</sup>

Though *realia* are not usually translatable, there is no world that cannot be even descriptively, that is as a phrase, translated into another language. Therefore, the question is not in whether *realia* can be translated but in how they should be translated.

There are two obstacles in conveying *realia* in translation:

<sup>181</sup> Tomakhin, G. D. (1988) Realii-amerikanizmi posobie po stranovedeniui. Moskva Visschaya Shkola.

1. Lack of the translation of the counterpart of a realia in a certain language because of lack of the object designated by this realia;
2. Necessity to convey the historical and national color of the realia along with its objective meaning.

There are no strict rules in translating realia and the translator, considering basic theoretical propositions and using his language skills, general knowledge and, in the first place, contextual setting chooses the best way possible in every single case.

The notion of realia may seem relatively simple, but in fact it is not entirely unproblematic.

The first problem concerns certain intralinguistic elements such as idioms, metaphors and dialectal forms. These are not considered to be realia, even though they can be “culturally determined”<sup>182</sup>. Indeed, these elements can carry significant cultural value and can sometimes even be a greater source for communicating culture than realia. For example, in the *Yes, Minister* series, it is not only the British setting (and the references to it) that contributes to the series’ Brutishness. The characters’ ways of speaking – both their accents and their vocabulary – is also a large contributing factor. This is exemplified by the fact that even people who do not know any of the British realia, (or, even, people who do not know what living in Britain is like), still recognize the Britishness of the series. It must therefore be kept in mind that realia are certainly not the only source of cultural notions – not just in audiovisual texts, but also in any text type.

Secondly, the unclear boundaries of realia and the fact that there are unclear boundaries between cultures are not a bad thing as such. Indeed, they reflect the dynamics of the real world. What makes it problematic is that it also blurs the distinction between what constitutes a ‘normal’ word, which is not culturally bound, and what constitutes a culturally bound item. Take, for example, the translation strategy that Pedersen calls ‘official equivalents’. To him, these are standard, ‘official’ translations of culturally bound items, which are often the equivalent given in bilingual dictionaries<sup>183</sup>. This works for proper names: to use his example, *the Statue of Liberty* is always translated as *Frihedsgudinden* in Danish. However, words that are not proper names are more problematic. As Pedersen himself notes, some of such items

<sup>182</sup> Leppihalme, Ritva 2001. Translation strategies for realia/Mission, vision, strategies and values a celebration of translator training and translation studies in Kouvola, Helsinki: Helsinki University Press

<sup>183</sup> Pedersen, J. (2007) Cultural Interchangeability: The Effects Of Substituting Cultural References In Subtitling. In: *Perspectives: Studies In Translatology*, Vol. 15, No. 1

may have more than one dictionary translation and so there is not one single standard translation. Moreover, even if there is just one official equivalent, it may not carry the entire same meaning as the source item (unlike official equivalent proper names, which always refer to the same entity). For instance, Pedersen gives the example of the official equivalent of *second lieutenant* in Swedish, which is *fanrik*. The two are not likely to carry exactly the same meaning, simply because the two military ranking systems to which they belong are likely to differ, meaning that the ranks probably do not have exact equal status, and that a *second lieutenant* and a *fanrik* may have different duties. Indeed, Pedersen mentions that these are cases of cultural substitution. The question then arises as to what degree two concepts must be the same – or, in fact, different – in different cultures to be considered as (two distinct) culturally-bound items, rather than different words for the same concept. But the same question arises in Translation Studies with regard to ‘normal’ words: to what degree can translations of a source text word retain the exact same meaning of that source word?

Realia signify notions lacking in the target language and culture<sup>184</sup>. They are sometimes called untranslatable words<sup>185</sup> or ‘unfindable’ words<sup>186</sup>. Sometimes equivalent-lacking words are associated with realia, the Uzbek equivalent being *realia* (derived from Latin *realis*, pl. *realia*), or culturally loaded words. However, the term of *realia* is of narrower meaning than the term of *equivalent-lacking word*. Realia name an object peculiar to this or that ethnic culture (*karnay, palov; babyshower, Christmas yule log; kimono*).

What is most important in translating realia is the receptor’s perception and reaction. A translator should be aware of the receptor’s potential problems and, taking into account the receptor’s background knowledge, choose the best means of translation.

Before translating, it is necessary to check whether a loan word exists in the target language, whether its meaning corresponds to that of the source language word, and what its phonetic and graphic form is (care should be taken for the different spellings of a source language word and the loan word).

<sup>184</sup> И в а н о в А. О. Английская безэквивалентная лексика и ее перевод на русский язык. – Л.: Изд-во Ленингр. Ун-та, 1985.

<sup>185</sup> В л а х о в С., Ф л о р и н С. Непереводимое в переводе. – Междунар. отношения, 1980.

<sup>186</sup> Newmark P. A Textbook of Translation. – New York a.o.: Prentice Hall, 1988. – P.176

# Namangan o'zbek shevalaridagi qarindoshlik terminlarining lisoniy xususiyatlari

M. Saidova  
NamDU dotsenti

O'zbek tili leksikasining negizida aslida turkiy tillarning o'ziniki bo'lgan tub turkiy so'zlar tashkil etadi. Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili lug'at tarkibidagi ana shu lug'aviy fond turkologiyada umumturkiy so'zlar deb yuritiladi. Bu o'rinda E. Begmatovning "So'zning umumturkiy bo'lishi so'zning birdan ortiq turkiy tilda uchrashi emas, balki bu leksikaning aslida bitta turkiy manbagaga tegishli ekanligidadir. Umumturkiy so'zlar qadimgi bir manba til – umumturkiy til davri mahsulidair", degan fikrini keltirish joizdir. Demak, umumturkiy so'zlarning barcha turkiy tillarda uchrashi bir turkiy tildan ikkinchi tilga o'tganligini emas, balki ularning bu tillarda juda qadimdan asos til tufayli mayjudligini ko'rsatadi. Har bir tilning leksik qatlami uning fonetik va morfologik qurilishiga nisbatan o'zgaruvchan bo'lib, asrlar osha har bir davrga xos o'zgarishlarni o'zida aks ettira boradi. Lekin qon-qarindoshlik terminlari leksikaning boshqa terminlariga nisbatan turg'un va konservativ bo'lib, ma'nodagi siljishlar (torayish, kengayish)ni hisobga olganda, yaratilgan davrdagi shakllarini deyarli saqlab qolgan.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida saqlangan umumturkiy so'zlar orasida qon-qaringdoshlik terminlari ham bor. Ular qadimiy terminlar sifatida mavjud bo'lib, o'zbek tilida uzoq davrlardan beri qarindosh-urug'chilik munosabatlarini ifodalash uchun qo'llanib keladi. Bu atamalar badiiy asarlar tilida ma'lum vazifani bajarishga ko'ra muhim ahamiyatga ega.

Umumturkiy asosidagi qon-qarindoshlik terminlari ota(ata), ona (ana), o'g'il (og'u), qiz (qiz), singil (sinil), aka(aka), kuyov (kuyyagu), xotin (qatun), amaki (ama+aka), tog'a (tay+og'a), er (er) va boshqa bir qator atamalarni keltirish mumkin. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zbek tili taraqqiyoti jarayonida umumturkiy so'zlarning ba'zilari saqlangan bo'lsa, ko'pchiligi butunlay iste'moldan chiqib ketgan, ayrimlari esa o'zbek xalq shevalari leksiksida dialektal me'yorda saqlanib qolgan. Masalan, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk"ida hamda Alisher Navoiy asarlarida uchraydigan ko'pgina umumturkiy atamalar hozirda iste'moldan chiqqan. Chunonchi acha, aba, oboga, yezna, boldiz, uma, uta atamalari o'zbek shevalarida qo'llanib, hozirda o'zbek adabiy tilida eskirgan so'z hisoblanadi. Kuyov

atamasi kuyyagu shaklida qizning turmush o'rtog'ini ifodalagan. Hozirda bu atama kuyov ko'rinishida shakllanib, ma'no doirasida ham kengaydi. Qizning turmush o'rtog'i ma'nosi bilan birga, umuman, o'zidan kichik yoshdagi ayol qarindoshning turmush o'rtog'iga nisbatan ishlatalmoqda. Shuningdek, yangi uylanayotgan yoki uylangan yigitga nisbatan kuyov atamasi qo'llaniladi.

Hozirgi kunda ota, og'a (aka), ona atamalari o'z ma'nosida boshqa ma'nolarni ham ifodalash uchun qo'llaniladi. Sof o'zbek tili leksik qatlamiga o'zbek tilining mustaqil til bo'lib shakllangan davridan boshlab to bugungi kunga qadar yasalgan so'zlar kiradi. Bu so'zlar faqat o'zbek tilining o'zida paydo bo'lганligi sababli umumturkiy hamda o'zlashma so'zlardan farq qiladi. O'zbekcha so'zlar o'z ichki manbalari asosida yuzaga kelgan. O'zbekcha so'zlarnin umumturkiy so'zlar hamda o'zlashma so'zlardan farqli tomonlari bilan birga aloqador jihatlari ham bor. Chunki o'zbekcha so'zlar uchun manba material-negiz bo'lib turkiy va o'zlashma so'zlar xizmat qilishi mumkin. O'zbekcha so'zlarni yasash uchun xizmat qilgan yasovchi qo'shimcha o'zbek tilining o'z materiali yoki o'zga material bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra o'zbekcha qon-qarindoshlik atamalari ikki turga bo'linadi. 1. O'z materiali negizida hosil qilingan terminlar. 2. O'zlashma materiallar asosida hosil bo'lgan atamalar

O'zining ichki imkoniyatlari doirasida hosil qilingan o'zbekcha terminlarning o'zi ikki yo'l bilan yuzaga keladi. 1. O'zbek tilidagi qo'shimchalar yordamida o'zbek tilining o'zida yasalgan qarindoshlik atamalari. 2. Umumturkiy atamalar asosida yuzaga kelgan qon-qarindoshlik atamalari: katta ona, katta oyi, oppoq oyi, oppoq dada, opoqi, ich kuyov, o'gay ona, o'gay ota, o'gay bola, kelin oyi, vakil ota, vakil ona, qarshi quda, kelin bibi, katta aka, kichik singil, singil aba, bicha, buvicha, katta xotin va shu kabilar. Oppoq oyi, katta oyi atamalari tarixiy asarlarda ikki ma'noda qo'llanilgan: a) ko'p xotinlik davri mahsuli sifatida bir erkak nikohidagi bir necha xotinlarning eng kattasiga nisbatan qo'llanilgan., .

b) keksa ayollarni hurmat qilish uchun katta oyi, oppoq oyi deb murojaat qilingan. Hozirgi o'zbek tilida bu atamalar ona yoki otaning onasi ma'nosini kasb etib qolgan.

Ba'zi atamalar fors-tojik so'zlarga umumturkiy so'zlarni qo'shish orqali yangi karindoshlik nomlarini yasagan. Jumladan, xolavachcha, tog'avachcha, amakivachcha, nabira kuyov, nabira kelin kabilar. Mazkur atamalar o'zbek adabiy tili hamda uning shevalarida umumiylar ma'noga ega bo'lib, birinchi shaxsga ikkinchi shaxsning kim ekanligini aniqlash

zarur bo`lgandagina ishlatiladi. Murojaat etishda shaxs so`zlovchidan katta bo`lsa aka, opa kichik bo`lsa, singil, uka, jiyan hamda kelin, o`g`lim, bolam kabi so`zlardan foydalanadilar. O`zbek shevalaridagi qon-qarindoshlikka oid bunday atamalarning ma`nosini bilish ularni to`g`ri ishlatishga yordam beradi.

## **XX asr O`zbekiston tasviriy san'atining shakllanishi**

*D. S. Po`latov*

*Tasviriy va amaliy san'at kafedrasi dotsenti, san'atshunoslik fanlari nomzodi*

O`zbekistonga XX asr boshlaridan Yevropa ijodiy an'analariga asoslangan rus tasviriy san'ati kirib kela boshladi. Bu jarayonning ilk pallasida tasviriy san'atrivojini ta'minlovchi mahalliy ijodkorlar hali yetishib chiqmaganligi sababli uzoq vaqt milliy salmog'i yuksala olmadi. Milliy ijodkorlarning yetishib chiqishiga qadar Rossiya va uning tarkibidagi boshqa millatlarga mansub ijodkorlar faoliyati asosiyligi o`rin egallagan. O`sha paytlarda mamlakatda ijod qilgan rus rassom va haykaltaroshlari V. V. Vereshagin, N. N. Karazin, D. Kavkazskiy, O. Fedchenko, D. V. Velejev hamda boshqa millatga mansub rassomlar jumlasiga ukrainalik S. Svetoslavskiy, Gruziyalik G. Gabashvili, haykaltarosh Mikeshinlar nomini alohida qayd etish mumkin. Ular rangtasvirda Samarqand, Buxoro, Xo`jand, Toshkent kabi kadimiy shaharlarga, ularning obidalariga atab kartinalar ishladilar. Bu rasmlarning aksariyati yangi o`lka, odamlarining etnik ko`rinishlari, kiyinishi, maishiy hayoti, ularni qurshab turgan o`ziga xos muhit tasvirini tashkil etgan.

Shu xususda D. V. Velejev ijodida mansub Toshkentdagagi maschit va madrasalar, qo`rg`on, shahar chekkasi aks ettirilgan “Eski Toshkent ko`chasi”, “Eski Toshkentdagagi hovli” kabi grafik tasvirlarini misol keltirish mumkin. Bu asarlar o`zining kompozitsion badiiy ifodaviyligi, yorug`-soyaning o`ziga xos his qilinganligi hamda hayotiy lavhalardan foydalilanligani ko`zga tashlanadi.

XIX asr oxirida O`zbekistonda bo`lgan rassomlar orasida portret, manzara, natyurmortlar ustasi Tibilisi Badiiy Akademiyasi professori Gabashvili Georgiy Ivanovich ijodini ham e`tirof etish mumkin. U mamlakatning Samarqand va Buxoro kabi ko`hna shaharlarida bo`lib, mahobatli me`morlik obidalarining o`ziga xos ko`rinishlarini ishlagan. Uning 1897-yili ishlangan “Samarqanddagi bozor” asarini shu o`rinda ta`kidlash mumkin. Ko`hna me`morlik yodgorliklarini o`ziga xos

ulug‘vorligi, uning sharqona me’ morlik an’anasining yuksak darajadagi ko‘rinishini maroq bilan ishlagan va boy taassurod qoldirgan rassomlar orasida yana ukrainalik rassom S. I. Svetoslavskiyning «Bibixonim oldidagi bozor» (1910 y) kartinasи ham e’tiborlidir. Unda shunday viqorli tarixiy obida orqali o‘tmishi ulug‘ bo‘lgan yurtni aks ettirishga intilgan.

O‘rta Osiyo mamlakatlariga shu jumladan, O‘zbekistonga keluvchi rassomlar soni XX asr boshlarida yanada ko‘paydi. Masalan, rus rassomlari Pavel Kuznetsov, Petrov-Vodkin, Frans Rubo, haykaltarosh O. Mikeshinlarni ham shu o‘rinda misol keltirish mumkin. Ular ham bu o‘lkanning o‘tmish tarixi, boy madaniy merosi hisoblangan me’morlik obidalarini zo‘r ishtivoq bilan tasvirladilar.

XX-asr boshlaridagi O‘zbekiston tasviriy san’atining shakllanishida asr boshlarida Toshkent, Samarcand, keyinroq esa Farg‘onada rassomlik bilim yurtlarining ochilishi katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu bilim yurtlarda rus rassomlari mahalliy yoshlarga rassomlik sirlarini o‘rgata boshlagan. Natijada rus rassomlari bilan bir qatorda ijod qila oladigan o‘zbek rassomlari yetishib chiqa boshladi.

O‘sha paytlarda bosmaxonalar faoliyatining boshlanishi kitob grafikasi rivojiga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. “O‘zbekiston madaniy hayoti rivojida XIX asr o‘rtalaridan boshlab birin ketin tashkil etila boshlagan bosmaxonalar muhim o‘rin egalladi. shu davrdan boshlab, turli gazeta, jurnal va kitoblar nashr etildi. Bosmaxonalarning yuzaga kelishi bilan kitobot san’atiga, eng avvolo grafika san’atiga ehtiyojni yuzaga keltirdi. Bu omillar o‘z navbatida, mahalliy ijodkorlarni maydonga keltirdi”<sup>187</sup>

XX asr boshlariga kelib haykaltaroshlik namunalarini ham paydo bo‘la boshladi. N. Abdullaev bergan ma’lmotlarga<sup>188</sup> ko‘ra S. To‘xtaxo‘jaev, Abdurahim toshtarosh, Toshpo‘lat Arslonqulov tomonidan sodda haykaltaroshlik ishlari ijod qilindi. shaharlarning rivojlanib borishi natijasida favvoralarni bezashga xizmat qiluvchi bezakli haykallar, ishga dam olish joylari, bog‘-hiyobonlarga ham bezakli haykallar o‘rnatildi. ularning aksariyati animalistik janrda ishlangan haykallardir. Masalan, Buxorodagi Sitorai moxi xossa saroyi oldiga o‘rnatilgan ikkita dekorativ sherlar (toshdan ishlangan), Toshkentdagи knyaz Romanov binosining hovlisiga o‘rnatilgan kiyik va it haykallarini shu o‘rinda misol keltirish mumkin.

San’atshunoslik fanlari doktori, professor, O‘zbekiston badiiy Akademiyasi akdemigi Rafael Toqtosh O‘zbekiston haykaltaroshligi

<sup>187</sup> Abdullaev N. San’at tarxi. 2-t. Toshkent: San’at, 2001. - 167 b.

<sup>188</sup> Qarang. O‘sakitob 169 b.

to‘g‘risida ko‘plab tadqiqotlar olib borgan. U o‘z kuzatuvlarda “1930-1940-yillardagi shakllanish holatidan chiqib olganini hamda o‘zbek tasviriy san‘atining muhim sohasiga aylanganligini”<sup>189</sup> alohida qayd etgan. O‘zbekiston haykaltaroshligi ikkinchi jahon urushidan keyin asta jonlana boshlagan. mahobotli haykaltaroshlikda ishlangan yodgorliklar poytaxtdan tashqari boshqa joylarda ham barpo etilishi kuzatiladi. Shu bilan birga, haykaltaroshlik o‘zbekistonning uzoq hududlarigacha keng yoyilishi bilan ayrim badiiy-ijodiy muammolar ham yuzaga kelganligini ta’kidlash kerak. Masalan, “1950-1980-yillar davomida esa 100 dan ortiq mahobatli haykallar namangan shahar va tumanlarida qad ko‘targan. biroq, ulardagi o‘xshashlik va takrorlanish, umuman bir mavzugagina bag‘ishlanganligi haykaltaroshlikni qotib qolgan, o‘zgarmas, oddiy bir hunarga aylantrib qo‘yan. Ulardagi milliylik, o‘ziga xos uslub, betakrorlik yo‘q, borlari ham har o‘nta yoki yigirmatasi uchun bitta desak, mubolag‘a bo‘lmaydi”<sup>190</sup>. Bu shundan dalolat beradiki, haykaltaroshlikning boshqa san‘at turlarida erishilgan badiiy mukammallik, kasbiy mahorat darajasi pastroq bo‘lgan. XX-asrning ikkinchi yarmida boshlab o‘zbek haykaltaroshlarining yetishib chiqishi bilan asta-sekin haykaltaroshlikda ham ijobiy o‘zgarishlar sezila boshladi.

## Muqobilsiz leksemalar xususida

*M. Abdurahmanov*

*NamDU Ingliz tili va adabiyoti kafedrasи o‘qituvchisi*

Ayrim adabiyotlarda muqobilsiz leksikaga tarjima tilida bo‘Imagan narsa va tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar bo‘lmish realiyalarni kiritilgan<sup>1</sup> Bizningcha, bunday nazariy qarashlarga faqat bir tomonlama yondashilgan. Haqiqatdan ham, realiyalar muqobilsiz leksikaning asosini tashkil qildi. Biroq realiyalar muqobilsiz leksikaga xos bo‘lgan barcha xususiyatlarga ega emas.

Darhaqiqat, muqobilsiz leksikaga quyidagi kiradi: realiyalar, lakunlar, neologizmlar, ekzotizmlar.

Quyida muqobilsiz leksikaning ana shu ko‘rinishlarini alohida ko‘rib chiqamiz. Avvaldan ta’kidlab aytish lozimki, muqobilsiz

<sup>189</sup> Toqtosh R. Respublika ikkinchi haykaltaroshlik ko‘rgazmasi: izlanishlar, samaralar //Sovet O‘zbekistoni san‘ati.-Toshkent, 1979.-№7. - B. 6-7.

<sup>190</sup> Aminjonova S. Namangan haykaltaroshlik san‘atiga bir nazar //Tasviriy san‘at XXI-asrdi muammolar, yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi ma’ruzalari to’plami.-Namangan, 23-24 may, 2001 y.-B.-27.

<sup>1</sup> Ivanov I.O. Bez ekvivalentnaya leksika. Sankt-Peterburg: - 2002.

leksikaning yuqorida sanab ko'rsatilgan xillarining barchasi nisbiy xarakterga egaligi ham haqiqat. Gohida ularning aynan qaysi biri muqobilsiz leksika ekanligiga ham shubhalanib qolinadi. Masalan, ingliz tilidagi *stringer* so'zini olaylik. Lug'atlar ushbu so'zning aynan jurnalistikaga daxldorligi haqida aniq bir ma'lumot aytmaydilar. Bunga "Lingvo"deb atalmish elektron lug'at shunday izoh beradi: *shtatsiz muxbir*. Inglizcha izohli lug'atlarda esa shunday deyiladi: *a journalist employed part time by a newspaper or news agency to cover a particular (especially remote) town or area*. Unda bu jargon so'z ekanda? Yoki u avval boshqacha ma'no anglatib, hozirda maxsus ma'nodagi terminga aylanib qoldimikan? Biroq unda biror bir sohaga xoslik jihatlari unchalik ko'rinxaydi. Balki realiyadir. Unda o'rindoshlik bilan bir vaqtning o'zida bir necha agentlik yoki nashriyotlarda ishlaydigan muxbirlar yo'qmi? Birgina ushbu so'zning so'z birikmasi, bir necha so'zlardan tashkil topganligi, frazeologizmli vaziyatdan chiqishimizga yordam beradi. Ya'ni *stringer* so'zining asosida *string (of letters)- harflar qatori* yotadi. Demak, *stringer* - so'zi shtatdagi xodimlarning odatdag'i ish haqlari yoki gonorarlardan farq qilib, faqat yozgan narsasi, qatoriga qarab haq oladigan muxbirlarga aytildi. Buning ayni mohiyatiga yetib borish qanchalik mushkulligi ko'rinxib turibdi.

Muqobilsiz leksikalarning tildan tilga o'tishi turlicha bo'ladi. Jumladan, biz yuqorida misol keltirgan so'z bundan bir necha yillar avval o'zbek tiliga transkriptsiyalash vositasida o'girilib, unga albatta maxsus izoh ham berib borilgan. Endi esa uni shundayligicha qo'lanilaveradi. Chunki u allaqachon o'zbek tilining adabiy til me'yoriga kirib ulgurgan. Uni jurnalistlar shundayligicha tushunaveradilar.

Ammo har qanday muqobilsiz leksika tarjimasiga nisbatan ham shunday tamoyil qo'llab bo'lmaydi. Quyidagi qiyosga ahamiyat beraylik:

First came the long and narrow garden (concrete yard with wishing line, vegetable patch, bomb shelter) which petered out after seventy yards into wilderness of weeds and a tumbledown, rotted fence. Then there was a drop he couldn't see, like a *ha-ha*, and then a broad expanse of railway lines (*Harries R. Enigma*)

*O'zbekcha tarjimasi*: Avvaliga tor va uzun bo'lgan orqa hovli (kirlarni quritishga mo'ljallangan betonlangan maydoncha, ekin maydoni oldidagi bir parcha yer, bombardan saqlanish joyi) yetmish yarddan keyin ko'z ham ilg'amaydigan chiqindixona, tashlandiq hovli.

Keyinchalik *ariq yoki zovurga o'xshab ko'rinnmaydigan joy*, va undan so'ng temir yllar bilan ksib o'tilgan keng yalanglik.

Xo'sh, *ha-ha* ning o'zi nima? U ingliz hayotiga xos bo'lgan realiyami yoki semantik lakunmi? Yoxud, bog'-xiyobon arxitekturasiga xos bo'lgan terminmi? Inglizcha-o'zbekcha lug'atlardan ushbu so'zni topib bo'lmaydi. Ingliz tilining izohli lug'ati quyidagicha tavsif beradi: *a ditch or vertical drop often containing a fence, e. g. between a garden and surrounding parkland, forming a barrier without interrupting the view (French ha-ha)*. Bu kabi bog'larda qo'llaniladigan *ariqlar* avval ham juda kam holatlarda qo'llanilgan bo'lishi kerak. Shu bois uni alohida realiya deb ham atab bo'lmaydi. Ammo zamонавиу tillardagi lug'atlarda *ha-ha* ni topib bo'lmaydi.

Muqobilsiz leksikaning konkret ko'rinishlariga o'tishdan avval uning yana bir jihatiga e'tibor berish lozim. Uham bo'lsa, muqobilsiz leksikani tarjima qilish davriy, vaqtinchalik xarakterga ega ekanligidir. Bu ayniqsa terminlarga xos xususiyat. Madaniyatlarning o'zarо aloqalarining rivojla-nishi va texnologiyalar taraqqiyoti ko'plab muqobilsiz leksikalarning muqobilsizlik xususiyatining asta sekin yo'qolib borishiga olib keladi.

## **Turli tizimli tillarda «maqsad» kontseptini ifodalovchi vositalarning kognitiv va kommunikativ-pragmatik jihatlari**

**D. Yuldasheva**

*NamDU Ingliz tili kafedrasi katta o'qituvchisi*

Bugungi tilshunoslikda lingvokognitologiya, lingvokulturologiya, lingvopragmatika va hokazo yangidan-yangi fanlararo ilmiy yo'nalishlar shakllanmoqdaki, ushbu yo'nalishlarda til insonning aqliy (mental) strukturalari va tafakkuri jarayonlari bilan uzviy bog'liqlikda o'rganiladi.

Yuqorida zikr etilgan ilmiy yo'nalishlar orasida kognitiv tilshunoslik o'ziga hos istiqbolli, nisbatan mustaqil bir soha bo'lib, u inson tomonidan borliq dunyo voqeligini til orqali anglanishi, o'rganilishi, ya'ni kontseptlar vositasida uning in'ikos etilishi, his va idrok qilinishi kabi inson miyasida kechuvchi murakkab kontseptual jarayonlar bilan chambarchas bog'liqki, bunday omillar bevosita tilda gapiruvchining kontseptosferasini tashkil etadi. Qolaversa kognitiv tilshunoslik tilda mazkur kontseptlarni ifodalovchi vositalar, ya'ni verbalizatorlarni kategoriyalarga ajratib o'rganadigan va ularni ko'zlangan nutq hamda muloqat maqsadlariga muvofiq holda to'g'ri qo'llay olishlik masalalarini ham tahlil qiladigan tilshunoslikning sohasi

bo'lib, unda yuqorida keltirilgan omillar o'z navbatida so'zlovchi/yozuvchi, shuningdek tinglovchi/o'quvchining lingvokulturologik va lingvopragmatik jihatdan mavjud bilimlari va muloqot olib borish uchun layoqatliligi /kompetentsiyasi/ darajasini belgilaydi.

Tilda so'zlovchilar tafakkurida muloqot uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi shunday hodisalar, kontseptlar( fikrlar, g'oyalar, tushunchalar) va ular bilan bevosita bog'liq holda kechuvchi jarayonlar borki, ularsiz muloqotni tasavvur ham qilib bo'lmaydi, ular tilda barcha so'zlovchilar tafakkuriga xos bo'lgan kontseptlar bo'lib, har bir tilda o'z ifoda vositalariga ega, vaholanki ular turli tizimdagi tillarda turlicha shakl-shamoyilga ega bo'lib, ma'no va mazmun jihatidan bir biridan deyarli farqlanmaydilar. Shunday tushunchalar – kontseptlar qatoriga «maqsad» kontsepti ham kiradi, bunga sabab uning aynan muloqot uchun zarurligidir. Demak «maqsad» kontsepti universal tabiatga ega bo'lib, ham lisoniy, ham kognitiv kategoriya bo'lib sanaladi va har bir tilda o'z ifoda vositalariga ega. Quyida biz ingliz va o'zbek tillarida «maqsad» kontsepti va uni ifodalovchi vositalarning qiyosiy-tipologik tahlilini berishga harakat kilamiz.

Avvalam bor «maqsad» kontseptining lingvokognitiv tavsifiga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. «Maqsad» kontsepti tafakkur mahsuli bo'lib, muloqotdagi olingan aynan bir voqelikka bo'lgan gapiruvchi/yozuvchining maqsadi, orzu-umidlari, xohish-istiklarining ifodalanishidir. Masalan, *engliz tilida*: 1) We wrapped the instruments in oilcloth *lest* they should be damaged by sea water;2) I had no destination; 3) But I wish I were taller;4) Lizzie stood upon the causeway *that* her father *might* see her. (Dickens); o'zbek tilida: 1) Allaqachon bir to'htamga kelganman: ikkinchi chopishda "Gloriya"ga ganak tikaman. ("Tungi darbon" Irvin Shou. ); 2) Aniq bir maqsadim yo'q edi.

("Tungi darbon" Irvin Shou. ); 3)To'y ustiga to'y bo'lsin, hamma narsa mo'l bo'lsin...

4) Qiyinchiliksiz muvafaqqiyatga erishish mushkul va hokazolar.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, qiyoslanayotgan tillarida «maqsad» kontsepti turli xil til birliklari orqali ifodalanishi mumkin ekan, jumladan: 1) leksik birliklar (leksemalar): *engliz tilida*: 1) purpose; 2) goal; 3) ambition; 4) aim; 5) intention, to intend; 6) to hope; 7) wish; 8) will; 9) to plan... o'zbek tilida: 1) uchun; 2) deb; 3) maqsadida; 4) tufayli va hokazolar;

3)sintaktik birliklar(sintaksemalar): a) frazaema (so‘z birikmasi), masalan, *ingliz tilida*: 1) for my sake 2) with a view to; 3) for peace in; 4) for this purpose; 5) with the object of; *o‘zbek tilida*: 1); 2); 3); 4); 4); 5); 6); 7); 8); 9); 10); 11) va boshqalar;

b) sentensema(gap), masalan, *ingliz tilida* : 1) I want to go everywhere, I wish I were gipsy; 2) I shall give him my exercises *so that* he **may** correct them, 3) He tried to persuade me, but I wouldn’t listen to him; *o‘zbek tilida*: 1) U ketdi va qayerga ketayotganligini hech kimga aytishni xohlamadi (Drayzer); 2) Qizni ruhlantirish uchun yigit uning qo‘lidan tutdi; 3) Janob Osbornega aytincki men uni bu qo‘rqaqlig bilan yozilgan xatiga javob bermoqchi emasman; 4) Allaqachon bir to‘xtamga kelganman: ikkinchi chopishda “Gloriyaga”ga ganak tikaman. (“Tungi darbon” Irvin Shou. ); 5) “Bu haqida menga gapirma, men baribir aytmoqchiman”, -deb takrorladi Sayks).

4) frazeologik (yoki paremiologik) birliklar( frazeomalar), masalan, *ingliz tilida*: 1) Follow the river and you will get to the sea. (Daryoga ergashib dengizga chiqasan) Daryo chopar, chaqqon topar; 2) Wish is the father to the thought (Xohish – fikr otasi) Havas bilan g‘ayrat o‘lchanar. 3). If wishers were horses beggars might ride. (Agar xohishlar ot bo‘lganida, kambag‘allar unda ot chopar edi ); *o‘zbek tilida*: 1) Qo‘l qo‘lni yuvar, ikki qo‘l yuzni; 2) Uringan ish o‘rinsiz ketmas. ; 3) Qimirlagan qir oshar, tig‘izlagan tog‘ oshar; 4) Kumushdek ter to‘ksang, gavhardekkur olasan va hokazolar.

##### 5) tekste ma(diskursema):

*He didn’t come to the meeting. Perhaps he was busy? May be he was ill? We didn’t know what had happened to him.*

*U majlisga kelmadidi. Balki u band bo‘lgandir, balki tobi yo‘q bo‘lgandir. Biz unga nima bo‘lganini bilmadik?*

*On ne prishel na sobranie. Mojet bit, on bil zanyat? Mojet bit, on zabolel? Mi ne znali, chto s nim sluchilos.*

Ko‘rinib turibdiki, qiyoslanayotgan tillarda «maqsad» kontsepti bir qator til sathlari vositalari orqali ifodalanadi va ular o‘ziga alohida tizimni tashkil etadi. Shu bois mazkur kontseptning maydon tabiatiga ega ekanligini e’tirof etish joizdir<sup>191</sup>.

<sup>191</sup> Aynan kontseptni voqealantiruvchi vositalarning sinonimivasi, omonimiysi, antonimiysi masalasi xam shu o‘rinda ko‘rilishi kerak, chunki shunday birliklar birikib, kontseptni voqealantirishga xizmat qiladi va shunday yo‘sinda kontseptual maydon, xamda semantik maydon aniqlanadi. bunday xolatlarda kontsept butun tushunchalar majmuasi sifatida, tushunchalar esa tegishli tasavvurlar majmuasi sifatida olib qaralishi maqsadga muvosiq, ma’no esa kontseptning bir qirrasini yoki uni tashkil etuvchi biron bir tushunchani ifodalaydi

«Maqsad» kontseptual maydoni yadro. markaz va chekka(periferiya) ifoda vositalariga ega bo'lib, mazkur maydonning yadrosini yirik sintaktik vositalar - sintaksemalar, ya'ni sodda va qo'shma sentensemalar tashkil etsa, frazemalar uning markazini tashkil etadi, morfemalar va leksemalar esa shu maydonning chekka (periferiya)sini tashkil etadi.

Ingliz va o'zbek tillarida «maqsad» kontseptini ifodalovchi vositalar o'xshash (izomorfik) va noo'xshash (allomorfik) jihatlarga ega bo'lib. ularning o'xshash jihatlari mazkur tillarning umumlisoniy rivojlanish qonunlariga muvofiq sathlararo (morfologik, leksik, sintaktik va frazeologik) vositalar orqali ifodalanishi bilan tushuntirilsa, noo'xshash jihatlar aynan shu sathlararo vositalarning u yoki bu tilning mavjud modellari asosida shakllangan o'ziga xos, tegishli birliklari orqali ifodalanishi bilan izohlanadi.

## Sotsiolingvistik me'yorlar

*Rayhana G'ulomova*

*NamDU ingliz tili va leksika-stilistika kafedrasi o'qituvchisi*

Ma'lumki, sotsiolingvistika fani sotsiologiya va tilshunoslik fanlarining tutash joyida rivojlanayotgan soha hisoblanadi. Ushbu bobda sotsiolingvistika tilshunoslik yo'nalishidagi fan ekanligi, u ijtimoiy munosabatlarda tilning tutgan o'rnni, til taraqqiyotini va tilning funktsional jihatlarini hamda jamiyat til uchun, til esa jamiyat uchun xizmat qilishi muammolari bilan shug'ullanishi to'g'risidagi olimlarning qarashlari ochib berildi.

Tilni jamiyat boyligi (E. Dyurkgeym), ijtimoiy hayot ko'rinishi (A. A. Leontyev) inson ruhiyatining oynasi (G. Leybnits) sifatida e'tirof etiladi.<sup>192</sup>

Aytish mumkinki, horijiy tilni yaxshi o'rganish yoki shu tilda fikrni erkin ifoda eta olish uchun tilni his qilish, nutqiy intuitsiyani o'stirish talab etiladi. Chunki, har bir til o'z til kodiga ega. Ya'ni, horijiy til o'rganuvchi tili o'rganilayotgan mamlakat tili va madaniyatiga hos elementlarni yetarli darajada tushunmasligi yoki, anglamasligi muloqot jarayonida umumiy fikrga kela olmaslikka olib kelishi mumkin.

Sotsiolingvistika til va jamiyat munosabatlarini tahlil qilar ekan, umumiy va hususiy qonuniyatlarga tayanadi. Umumiy qonuniyatlardan biri bu tilning tirik organizm emas, balki ijtimoiy vazifaga ega bo'lgan

B. A. Serebrennikov "Obshchiye vazikoznaniye. Formi sushestvovaniya, funksii, istoriya yazika" M. 1970, 417

aloqa vositasi ekanligini tilshunoslar quyidagicha izohlaydilar: "Yangi tug'ilgan go'dak hayotining takomili (nafas olishi, ko'rishi, ovqat yeyishi, asta sekin yurib ketishi va h.) tabiat qonunlariga muvofiq taraqqiy eta boradi, ammo til bunday hodisa emas. So'zlashish, fikrlash uchun jamiyatning bo'lishi shart".<sup>193</sup>

*Sotsiolingvistika* atamasi birinchi marta Tomas Kollen Hodsonning "Man in India" ro'znomasida 1939-yil chop etilgan "Sociolinguistics in India" sarlavhali maqolasida keltirilgan<sup>194</sup> bo'lib, biroq bu termin birinchi bora 1952-yil amerikalik sotsiolog German Karri tamonidan fanga tadbiq etilgan. Shuningdek, g'arb tilshunosligida ham bu atama 1960-yil AQShda William Labov, Angliyada Basil Bernstein tamonidan ham qo'llanilganligini ko'ramiz.<sup>195</sup> Ko'p olimlar William Labovni sotsiolingvistikaning asoschisi deb bilishadi, chunki u jamiyat vakillarining tilga turlicha ta'sirini ilmiy isbotlagan.<sup>196</sup>

Asrimizning boshlaridanoq Fransiya, Rossiya, Chexiya, Hindiston va AQShda sotsiolingvistika tilshunoslikdan ajralgan holda alohida fan sifatida o'qitala boshlandi. Bu fanning taraqqiy etishida I. A. Boduen de Kurtune, Ye. D. Polivanov, L. P. Yakubinskiy, V. M. Jirmunskiy, B. A. Larin, A. M. Selishev, G. O. Vinokur, F. Bryuno, A. Maye, P. Lafarg, W. Labov, T. Kollen, Sh. Balli, J. Vandries, B. Gavranek, A. Matazeus kabi olimlarning hizmati kattadir.

"Sotsiolingvistika" termini, ikki soha ya'ni sotsiologiya va tilshunoslik sohasi tutash nuqtasida yuzaga kelganligi bois, bu o'z navbatida fanlararo munosabatlarni rivojlantirishga muhim omil bo'la oladi. Ko'pgina tilshunos olimlar nazdida "sotsiolingvistika"ni falsafiy tilshunoslik deb qarashlar ham bu fanni boshqa fanlar bilan uzviy aloqadorligini anglatadi.

Tilshunoslarning ba'zilari sotsiolingvistikaning *ob'yektini* til tizimining jamiyatga moslashuvi ekanligini ta'kidlashsa, boshqalari tilning qo'llanilish jarayonidagi vujudga keluvchi holatlar deb ta'kidlashadi. Ikkala holatda ham jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar natijasida insonlarning tildan foydalanishlarida o'zgarishlar sodir bo'lishi sotsiolingvistikaning eng asosiy bo'g'ini ekanligi nazarda tutilgan. Sotsiolingvistikaning *predmeti* borasida ham turli qarashlar

<sup>193</sup> Xolmanova Z. T. Tilshunoslikka kirish. O'zMu. T. 2007. b. 4.


<sup>194</sup> Paulston, Christine Bratt and G Richard Tucker. "Sociolinguistics" The essential readings. Malden, Ma: Wiley-Blackwell 2003.

<sup>195</sup> Labov W (2001) "Principles of Linguistics, Changes: Social Factors" Malden, Ma: Blackwell Dublin.

<sup>196</sup> Paolillo, John C. Analyzing Linguistic Variation: Statistical Models and Methods CSLI Press 2001. Tagliamonte. Sali Analysing Sociolinguistic Variation Cambridge, 2006

mavjud bo'lib, ularning birida sotsiolingvistikaning predmeti inson va jamiyat deya qaralsa.<sup>197</sup> boshqasida esa, til va millat o'rtasida vujudga keluvchi ijtimoiy ta'siriga ega holatlardir deya ta'riflanadi. Fikrimizcha, til madaniyat va millat munosabatlari sotsiolingvistikada asosiy o'rGANIsh sohasi hisoblanadi va tildagi sotsiolingvistik hususiyatlarni ayni shu jabhada ko'proq kuzatishimiz mumkin.

Sotsiolingvistika ijtimoiy hayotning tilga bo'lgan har qanday ta'sirini madaniy normalar, til kontekstlari va sotsiolingvistik predmetlarni o'z ichiga olgan holda o'rGANADI. Bu holatda sotsiolingvistikani til sotsiologiyasidan farqlash lozim chunki, til sotsiologiyasi tilni ijtimoiy hayotga ta'siriga ahamiyat qaratsa, sotsiolingvistika buning aksi<sup>198</sup>, ya'ni til sotsiologiyasi va sotsiolingvistika o'rtasida ko'plab o'xshashliklar mavjud, ikkisi ham millat va til doirasida ish olib borishini, ikkisi ham munosabat va oqibatlarga tayanishini kuzatish mumkin. Til sotsiologiyasi biror millatga boshqa til ta'siri (boshqa millatning bosib olishi yoki ko'pmillatli xalqda biror tilning ustunligi natijasi)da kirib kelgan madaniyat hususiyatlarini tadqiq etadi. Sotsiolingvistikada esa ijtimoiy hayotning tilga bo'lgan ta'sirini o'rGANADI. Sotsiolingvistikada asosan chet tildan foydalanayotgan millatning milliy hususiyatlari, o'ziga hosliklari ahamiyatga ega. Sotsiolingvistika tildan foydalanayotgan millat va horijiy til o'rtasidagi madaniy, ilmiy munosabatlar, o'xshashlik va qarama-qarshiliklar majmui deb izohlashimiz mumkin.



(1- Diagramma)

Diagrammada aks ettirilgan ikki shardan birini horijiy til, birini milliy til deb olsak, ikki shar o'rtasidagi bo'lak, kesishuvni - sotsiolingvistika deb qabul qilishimiz mumkin.

Sotsiolingvistika til antropologiyasiga yaqin va bir bilan vaqtda rivojlangan fandir.<sup>199</sup> Hozirda, sotsiolingvistikaning predmeti va

<sup>197</sup> Universalnaya nauchno- populyarnaya onlayseniklopediya "Krugosvet" st 241

<sup>198</sup> John J. Gumperz "Studying language, culture, and society sociolinguistics or linguistic anthropology?" 2008. 532-545

<sup>199</sup> John J. Gumperz and Jenny Cook-Gumperz, "Studying language, culture, and society: Sociolinguistics or linguistic anthropology," Journal of Sociolinguistics 12(4), 2008: 532-545.

maqsadi aniq. shuning uchun ham. izlanuvchilar uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatiga ko'proq e'tibor qaratishmoqda. Agar jamiyat millati va davlatning o'z tilidan foydalansa bu ichki til (internal), agar jamiyat o'z ona tilidan tashqari ikkinchi va uchinchi tillardan ham foydalansa bu tashqi til (external) hisoblanadi. Masalan, ingliz tili yoki rus tili bizga tashqi til, o'zbek tili esa ichki til hisoblanadi. Sotsiolingvistika asosan millatga nisbatan til tashqi bo'lgan hollarda ahamiyatlidir, chunki, ona tili bo'limgan horijiy tilga jamiyatning tilga nisbatan ta'siri yuqoriroq bo'ladi. Sotsiolingvistikaning ahamiyati shundaki, jamiyatning tildan to'g'ri va o'rinni foydalanishini o'rgatadi, bu esa juda muhim. Misol tariqasida ingliz tilini olaylik, birinchi til sifatida juda ko'p davatlarda rasmiy til hisoblanadi, shuningdek, jahon tili sifatida butun dunyo bo'ylab o'rganilmoqda. Ammo, shuni aytish joizki, hamma jamiyatda ham ingliz tili bir hil ko'rinishga ega emas. Chunki, tildan jamiyat o'z ijtimoiy holatiga ko'ra turlicha foydalansa, bundan tashqari har bir mamlakat tashqi tilni o'ziga hos tarzda o'rganadi.

Tilshunoslikning boshqa bo'limlaridagi singari sotsiolingvistikaning ham, o'z atamalari mavjud. Masalan: til guruhi, til holati, ijtimoiy-kommunikativ tizim, ijtimoiy guruh, bilingvizm, diglossiya, ijtimoiy kod, til siyosati va boshqalar. Bularidan eng muhimlarining ma'nolarini ko'rib chiqamiz.

*Til guruhi* - ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ruhiy bir- biriga yaqin bo'lgan insonlar guruhi, ya'ni ular tildan bir hil normalar asosida foydalanishadi. Bunga misol tariqasida bir oila vakillarini tushunsak bo'ladi, chunki ular bir- birini juda tez tushunishadi.

*Til kodi* – psixologik jarayon hisoblanadi. Bu kodlarni tushunishda, qabul qilishda turli ta'sirlar mavjud. masalan: shovqin, tilni, madaniyatni bilmaslik, Shuningdek, ma'lum guruh tamonidan ishlataladigan va shu guruhga ma'lum bo'lgan so'zlashuv. Bunda terminlar, dialekt asosiy rol o'ynaydi. Masalan, shifokorlargagina tushunarli bo'lgan muloqot, yoki faqat bir til guruhigina ishlataladigan sheva.

*Bilingvizm* - ikki yoki undan ortiq tildan foydalana olishlik. Masalan: o'zbek tilidan tashqari rus. ingliz tillarini bilish va foydalana olish.

*Intenferensiya* - bilingvistlarda tillarning bir-biriga grammatis, semantik, fonetik ta'siri. Masalan: ingliz tili va nemis tilidan foydalanuvchilarda so'zlovchida fonetik ta'sir ko'proq kuzatiladi.<sup>200</sup>

<sup>200</sup> Bell R. Sotsiolingvistika: per. S ang. Moskva 1981

Ya'ni, nemis tilida so'zlardagi harflarning to'liq o'qilishi, yoki talaffuzdagi o'ziga hoslik, ingliz tilida so'zlashganda ham namoyon bo'lishi.

Sotsiolingvistikaning makro-, mikrosotsiolingvistikaga yo'nalishlari mavjud.

*Makrosotsiolingvistika* ijtimoiy faktorlarni o'zida jamlagan tildagi munosabat va vogeliklarni ko'rib chiqadi. Makrosotsiolingvistika keng ko'lamli ijtimoiy guruh ichida ro'y beruvchi til va jamiyatga taalluqli bo'lgan vaziyatlarni o'rganuvchi sotsiolingvistikaning muhim yo'nalishi.

Makrosotsiolingvistika bir davlat miqyosidagi katta ijtimoiy guruhlar ichidagi tilni ishlatishdagi sotsiolingvistik o'ziga hosliklarga e'tibor qaratadi. Tilshunoslar asosan aynan shu yo'nalishda uchraydigan tilning o'ziga hosligi, til bilan bog'liq aloqalar (madaniyatlararo), bu holatdagi muammolini vaziyatlar to'g'risidagi ko'proq ilmiy izlanishlar olib borishgan.<sup>201</sup>

*Demak, makrosotsiolingvistikada ayni jamiyat miqyosidagi katta guruhlar muloqot jarayoni asosiy o'rinni egallaydi va shu jarayon davomidagi til va mutq'hususiyatlari o'rganiladi.*

Har qanday zamonaviy kishilik jamiyatida jins, yosh, joy, ma'lumot, ijtimoiy sinf hususiyatlariga ko'ra turli guruhlar mavjud shu bilan birga har bir guruhning sharoit va maqsadga ko'ra o'ziga hos jihatlari farqlanadi shunga ko'ra ularning tildan foydalanish hususiyatlari ham turlichcha. Ayni shu holatga ko'ra, ijtimoiy til ko'rinishlari shakllangan. Shuning uchun til ham ijtimoiy hayot o'zgargani sari o'zgarib boradi va tarixiy ko'rinishidan bir muncha farq qiladi.<sup>202</sup>

*Mikrosotsiolingvistika* asosida inson va uning tildan foydalanish uslubi, shuningdek, oila, maktab, ish kabi ijtimoiy guruhlarda jamlangan insonlarning shu guruhdagi muloqot tarzi o'rganiladi va shu muloqot ko'rinishlari isloq etiladi.<sup>203</sup>

*Gender va sotsiolingvistik munosabatlari* termini, sotsiolingvistik va madaniy tamondan jinslarning tildan foydalanishlariga nisbatan ishlatalidi. Genderlar tildan hilma hil foydalanuvchilarning eng yorqin namunasidir. Tildan ijtimoiy qatlarning asosiy bo'lagi bo'lgan jins faktori, ayollar va erkaklarning qanday foydalanishi haqida juda ko'p izlanishlar mavjud.

<sup>201</sup> Belikov V. I. Krisin L.P "Sotsiolingvistika" M. RosGos gumanit 2001. st 240.

<sup>202</sup> "Yazik i kultura obsheniya". [www.litres.ru](http://www.litres.ru) Razdel 4

<sup>203</sup> "Slovar sotsiolingvisticheskix terminov" V. A. Kojemyakina, N. V. Kolesnik, T. B. Kryuchkova, O. S. Parfyonova, Yu. V. Trushkova, M. 2006. 113- 130 st

Aytishimiz mumkinki, ayollarning har biri o‘z individual til uslubiga va o‘ziga hos hususiyatga egadir. O‘ziga hos uslublar guruh ichida bir-biridan ajralib tursada, ammo umumiy holatda aytish mumkinki, erkaklar va ayollar til uslublari bir-biridan tubdan farq qiladi<sup>204</sup>.

Ayollar asosan standart va rasmiy til shaklini ko‘proq qo‘llashadi, bu kasb holatidan ham kelib chiqadi, chunki, ayollar ko‘pincha rasmiy til qo‘llanilishi zarur bo‘lgan, ya’ni o‘qituvchilik, shifokorlik, kotibalik kabi kasblarda ishlashadi va shuning uchun til uslublari standartlashgan. Erkaklar til uslubida esa asosan nostandard ko‘cha uslubi ya’ni jargonlar va slanglar ko‘proq kuzatiladi. Ammo, aytish mumkinki, ayollarga nisbatan erkaklar so‘zlashuvida aniqlik yaqqolroq ko‘rinadi.<sup>205</sup> Tildan foydalanish etikasiga albatta yuqorida aytib o‘tganimizdek, kasb, muhit va yosh holatlari yaqqol o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Kuzatadigan bo‘lsak, ayollar o‘z fikrlarini qanchalik chiroyli yetkazib berish va taassurotga qaratsa, erkaklar natijani tezroq namoyon qilishga shoshiladilar. Bir fikrni ayollar 15 ta so‘z bilan ifodalashsa, erkaklar 7 ta so‘z bilan kifoyalananadilar. Bir hil vaziyat haqidagi fikr, savollar tabiiyki, ayollar tamonidan ko‘proq va uzoqroq bo‘ladi.<sup>206</sup>

Til o‘rganuvchilarning sotsiolingvistik kompotensiyani rivojlantirish uchun ingliz tili darsliklarida nafaqat til materialiga oid (grammatik, leksik, fonetik) ma’lumotlar bilan, shuningdek, tili o‘rganilayotgan mamlakatlar madaniyati, urf-odatlari va bayramlari haqidagi ma’lumotlarning keltirilishi muhim sanaladi.

“Kompetensiya” tushunchasi haqida turli ma’luotlarni keltirishimiz mumkin. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida *kompetensiyanı* - (lotincha “*competo*” erishayapman, munosibman, loyiqliman) u yoki, bu sohadagi bilimlar, tajriba<sup>207</sup> ma’nosida, yana bir manbaada “*kompetensiya*” - (*kompetere* – loyiql) yuqori tajriba asnosida bilimni to‘g‘ri yo‘naltirish usuli sifatida keltirilgan. Manbaalarga asoslangan holda “*kompetensiya*” – layoqat deya ta’riflashimiz mumkin.

*Sotsiolingvistik kompetensiya* esa so‘zlarni kontekstga ko‘ra to‘g‘ri tanlash va qo‘llash mahorati<sup>208</sup>, yoki har kimga aynan unga munosib

<sup>204</sup> Aries, Elizabeth .1997 Women and Men Talking: Are They Worlds Apart? In Women, Men, and Gender, edited by Mary Roth Walsh, pp.91. Yale University Press, New Haven.

<sup>205</sup> Nichols, Patricia C .1983 Linguistic Options and Choices for Black Women in the Rural South. In Language, Gender and Society, edited by Thorne, Kramarae, and Henley, pp.54-68. Newberry House Publications, Inc., Rowley.

<sup>206</sup> Edelsky, Carol .1993 Who’s Got the Floor? In Gender and Conversational Interaction, edited by Deborah Tannen, pp.189-230. Oxford University Press, New York.

<sup>207</sup> O‘ZME, 1-jild, toshkent 2000.

<sup>208</sup> Solovova Ye. N. “Metodika obucheniya inostrannim yazikam” ( bazoviy kurs leksiv) M. Prosvetshenie, 2002. s 238.

muomalani qila olish, qachon sukul saqlash, qachon gapirish, qachon maqtash, uzr so'rashning ma'qul vaqtini bilish ko'nikmasiga ega bo'lish demakdir.<sup>209</sup>

Bundan ko'rinib turibdiki, til ta'lif jarayonida tili o'rganilayotgan mamlakatlar va milliy madaniyatni solishtirish ular orasidagi o'xhash va o'xshamaydigan tamonlarni aniqlashga, kommunikantlar madaniyatlararo muloqotga kirishganda umumiy hulosalarga tez kelishlariga hizmat qilar ekan. Shundan kelib chiqqan holda, Sotsiolingvistik kompotensiya - aniq bir millat til madaniyatining normasi, ijtimoiy mavqeiga mos keluvchi muloqot maqsadini tushunarli va aniq ifodalay olish layoqatidir deya e'trof eta olamiz.

*Sotsiolingvistik kompotensiya* - izga soluvchi jarayon hisoblanadi, so'zlovchining fikrlarini bir chiziqqa teradi va uning so'z tanlashdagi muhim qirralarini ochib beradigan jarayon deyishimiz, uni til o'rganishni boshlash bilanoq rivojlantirishga kirishish kerak, deya ta'kidlovchi fikrlarga qo'shilishimiz mumkin"<sup>210</sup>.

Ma'lumki, bugungi kunda ingliz tilini til materiali (grammatik, fonetik, leksik)ga oid ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, balki ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar madaniyati bilan tanishtirish va ularning shu mamlakat vakillari bilan muloqotga kirishishning o'ziga hosliklarini o'rgatishga kamroq ahamiyat qaratishmoqda, bu esa sotsiolingvistik muammolarga olib kelmoqda. Bunday qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun talabalarning sotsiolingvistik kompotensiyalarini ingliz mamlakatlarining urf-odatlari va til xazinasi (maqol, metal, ibora, ertak, she'r, hikoya)ni boyitish, so'zlashuv uslublarini yaxshi o'rganish va tili o'rganilayotgan mamlakat vakillari bilan ko'proq so'zlashish yoki shu muhitni yaratish orgali rivojlantirish mumkin. 211 Tili o'rganilayotgan mamlakat xalq og'zaki ijodiga dahldor bo'lган maqol, ertak, ibora, jargon yoki qo'shiqlarni darslarda qo'llash, shu mamlakat vakili bilan tez muloqotga kira olishga yordam beradi.

-

<sup>209</sup> David H. Broersma, Ph. D. Institute for Cross Cultural Training Wheaton College, Wheaton, the article "How do I learn sociolinguistic competence?"

<sup>210</sup> Berry, A. (1994). "Spanish and American Turn-Taking Styles: A Comparative Study." In Pragmatics & Language Learning Monograph Series, L. F. Bouton and Y. Kachru, (Eds.), 5, 180-190.

<sup>211</sup> David H. Broersma, Ph.D. Institute for Cross Cultural Training Wheaton College, Wheaton, the article "how do I learn sociolinguistic competence?"

# Fransuz tilidagi noaniq olmoshlaring stolistik qo'llanilishi

M. Boboxonov,

Nemis va fransuz tillari kafedrasi katta o'qituvchisi

N. Jurayeva,

Ingliz tili yo'nalishi 3-kurs talabasi

Gumon olmoshi deb yuritiluvchi On olmoshi amalda barcha shaxslarga tegishli bo'lgan kishilik olmoshi bo'lib namoyon bo'ladi. On olmoshi 3- shaxs birlikdagi kesim bilan qo'llaniladi. On olmoshi tilning rivojlanish jarayonida til grammatikasi bilan shug'ullanuvchi tilshunoslarning turlicha munozaralari bilan kengroq ifoda kasb eta boshladi. Masalan O'zbek tilida chop etilgan "Fransuz tili grammatikasi" qo'llanmalarida On olmoshi faqatgina 3-shaxsda mujskoy rodga tegishli kishilik olmoshi deb qaralgan bo'lsa, 1980-yillarda Lelingradda Raymond Piatrovskiy muallifligida chop etilgan "Ocherki po stolistike Frantsuzskogo yazyka" qo'llanmasida On kishilik olmoshi suxbatdoshga nisbatan xar ikkala jinsga mansubligi o'quvchi e'tiboriga havola etilgan. Xuddi shu fikr 1986-yilda Parijda chop etilgan "Guide Linguistique Francaise" qo'llanmasida ham e'tirof etilgan. Shu mazmuda bu olmoshni ce, cela, ca gumon olmoshlari qatorida "neutre", ya'ni sredney rodga mansub deb isbotlangan.

Masalan: Tu as gagne le match? On est content? yoki, Tue s'endimanchee Jozephina? – on est belle vtaiment. Yuqorida keltirilgan misollarda on olmoshi suxbatdoshga nisbatan har ikkala shaxsda mujskoy va jenskiy rod shakllarida qo'llangan.

Bu olmoshning darslarimizda e'tirof etilmaydigan yana bir nozik tomoni bor; On olmoshi ergash gapli qo'shma gaplarda ou yoki que bog'lovchilaridan keyin qo'llanganda L aniq qisqartma artikel bilan qo'shib yoziladi. Bu nafaqat talaffuzni osonlashtiradi, balki bosh gapdagi to'ldiruvchiga kuchaytirish ma'nosini beradi.

J'ai achete un livre ou l'on peut trouver tout yoki C'est un manuscript unique qu'on trouve dans ce catalogue. Lekin bu jarayon ko'proq yozma nutqda ifodalanadi.

Tabiiy savol tug'iladi: Kuchaytirish ma'nosи og'zaki nutqda ifodalanmaydimi?

-Og'zaki nutqda bosh gapdagi izohlangan bo'lak talaffuz oxangi bilan suxbatdoshga ta'kidlab o'tiladi;

C'est un seul manuscript qu'on trouve dans ce catalogue. On olmoshi ruscha yoki o'zbekcha ekvivalentlarga ega emas. Shuning

uchun bu olmosh bilan berilgan gaplar u yoki bu tilga tarjima qilinganda turli olmoshlar bilan turlicha tarjima qilinadi.

Masalan: On a frappe a la porte iborasi rus tiliga – V dver postuchali, o'zbek tiliga eshik taqilladi bo'lib tarjima qilinadi.

Bu gapning ruscha tarjimasida shakl 3-shaxs ko'plikdagi shaxssiz gap bilan ifodalandi. O'zbekcha tarjimada esa gap majhil nisbat bilan ifodalandi. Yuqoridagi namunadan ko'riniib turibdiki, on olmoshi ishtirok etgan gapni tarjima qilishda to'ldiruvchini egaga aylanishiga e'tiborni qaratish lozim. Bu olmoshning ko'p qirraligi shundaki, u ba'zan faqat ikkinchi shaxs birlikda tarjima qilishni taqazo etadi. Bu shakl asosan maqollarda o'z ifodasini topgan:

On recolte ce qu on a seme

Chto poseesh to i pojnesh

Nima eksang shuni o'rasan

Lekin bu o'rinda gap ketganda fel ikkinchi shaxs birlikda qo'llansada mantiq barcha shaxsda ifodalanayotgani ko'riniib turibdi. Demak shunday ekan, on olmoshi bilan tarjima qilinayotgandagi gaplardagi kesimga faqat 2-shaxs nuqtai nazaridan qaramaslik lozim. Maqolni maqol ekanligini, undagi ma'noni saqlab qolish uchun boshqa olmoshlarga xattoki boshqa so'zlarga murojat qilishga to'g'ri keladi:

On vivra on verra

Omon bo'lsak ko'ramiz

On batit Paris pas a un jour

Musulmonchilik asta sekim

Yuqoridagi maqollarda on olmoshini tarjimada 1-shaxs ko'plik biz va "musulmonchilik" so'zleri bilan berilishi maqollik xususiyatini saqlab qolishda aloxida o'rinn tutadi. Taxlillar shuni ko'rsatadiki on olmoshi maqollarda 2-shaxs birlik 1-shaxs ko'plik yoki milliy so'zlar bilan tarjimani nazarda tutsa, reklama va e'lonlarda majhul nisbat tarjimasi asl ma'noni saqlab qoladi:

- On vous offre des fromages de hautes qualités -

On annonce le vol de l'avion

kabi e'lonlarda tarjima aniqlik nisbati bilan berkiladigan bo'lsa e'lon o'z ma'mosini yo'qotib mantiqsiz darak gapga aylanib qoladi.

On olmoshi fel shakllari bilan qo'llanib turg'un tarjimani ham namoyon etadi:

On voit- ko'riniib turibdiki

On sait- ma'lumki

On peut- mumkin

On veut- maqsadga muvoſiq, ayni muddao

On ne sait pas- hali noma'lum

Ko'rinib turibdiki yuqorida aytib o'tilgan misollar fikrimizni yaqqol dalilidir. Badiiy asarlarda on olmoshi yana quyidagi sakllarda namoyon bo'ladi:

-so'zlovchi o'zi haqida kamtarlik bilan gapirganda:

On veut bien se resoudre a souffri son hommage

O'z qadr qimmatim xususida o'ylab ko'rsammikan

-erkin o'zlashtirma gapda 1-shaxs birlik o'rniда vositachi bo'lib keladi:

On met de l'ordre par habitude, je vais a mon bureau

Odatdagiday o'zimga bir qarab oldimda ishxonaga ravona bo'ldim (L. Aragon)

-Suxbatdoshlar o'rtasida shubhali vaziyatni ifodalash uchun:

-Qu est – ce qu on fait, soufflé Victor

-Je crois qu on va pouvoir essayer, repond Raymond

-Nima qilsak ekan, xo'rsindi Viktor

-Yana bir urunib ko'rsammikan, javob qaytardi Reymond (Laffitte)

Yuqoridagi satrda 1-shaxs birlikni ifodalab kelayotgan on olmoshi asar qaxramonlarining holati mas'uliyatli va keskin ekanligini ham keng ifodalab kelgan.

Laffitning quyidagicha davom etadi:

-Si tu as peur, j'irai seur

-Marche, je te suis

-Qo'rqayotgan bo'lsang o'zim boraman

Bu satrarda on olmoshi qaxramonlarning o'zligini ifodalovchi 1-shaxs birlikda ifoda etila boshladi. Bu ifoda vaziyat yengillashganini va qaxramonlarning o'zida ishonch paydo bo'lganini ko'rsatadi. Bu o'rinda on olmoshining so'zlovchi shaxsiga farqli o'laroq qo'llanishi (ya'ni biz olmoshning o'rniga qo'llanishi ) qaxramonlarning muammoli vaziyatidan chiqib keta olmay bosq qotirayotganliglarini aks ettiruvchi uslubiy, stilistik vosita bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari on olmoshi kinoya, xazil va kesatish ma'nolarini ifodalash uchun ham keng qo'llanadi:

On dort? – Uxlayaptilarmi?

On va partir – Ketarmiz ham

On est venu, enfin? – Xayriyat keldingizmi?

Agarda yuqoridagi misollarda suxbatdosh shaxsiga tegishli olmosh qo'llansa ifoda qilinadigan xis tuyg'u o'z aksini topmaydi.

Fransuz axloq-odobi nuqtai nazaridan qaraganda on olmoshi nutq. muomala madaniyatini ifodalovchi sifatida buyruqdagi qat'iyatni yumshatib keladi.

Rus va o'zbek tillaridagi qat'iy buyruq bilan berilgan Ne kurit! yoki chekmang! kabi shakllar fransuzchada qat'iyatni yumshatish uchun Ne sumez pas! o'rniga On defend de fumer. Bunday shakllar ta'qiq bildirilayotgan shaxsga nisbatan bildirilgan xurmatni ko'rsatadi. Bu xildagi shakllar jamoat joylarida ko'plab qo'llanadigan quyidagi buyruqlarda ham o'z aksini topadi:

Ne xodit po gazonam!

Maysazor ustidan yurmang!

On pri de ne pas marcher sur le gazon!

On olmoshining ma'no doirasini chuqur tahlil qilish, uning uslubiy jihatlarini bilih. bu olmosh ishtirok etgan gaplarni o'zbek tiliga to'g'ri tarjima qilish imoniyatini beradi.

## **Abdulla Oripovning bahor mavzusidagi she'rlarining lisoniy tahliliga doir**

*Matluba Ulkanboyeva*

*Filologiya fakulteti 2-kurs magistranti*

Borliqni yaratishdan maqsad – inson edi! She'r yaratilar ekan, yozuvchi o'zini she'rdan tashqarida qoldirolmaydi. Istasa, istamas, uning orzu-xayoli, o'yłari, dunyoqarashi misralarda aks etaveradi. Bir ijodkorning butun she'riyati – bosh qahramoni bitta bo'lgan yaxlit dramadir.

A. Oripov ijđining individual xususiyatlardan biri tabiat tasvirini mohirlik bilan lirik qahramonning mushohadalari tomon bura olishi va tabiat-inson uyg'unlashgan poetik g'oyani bera olishidir. Ayni shu hol shoirning bahor mavzusidagi she'rlerida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Shoir bahorni ham poetik obraz darajasiga ko'taradi, uning timsolida o'zining orzularini ko'radi.

Shoirning bahor mavzusida yozilgan she'rлari orasida "Sen bahorni sog' inmadingmi?",<sup>212</sup> she'ri o'ziga xos o'rin egallaydi. Har gal tabiat qaytadan ko'z ochadigan fasl – bahor kelishi bilan ana shu she'r, albatta, jarang sochadi. Shoir bu she'rda faqat bahor tarovatini she'rga solishni maqsad qilmagan. U o'lkada bahor kezganda ham mavjud bo'limgan,

shoir qidirib topolmagan “kimdir”, yoxud “nimadir” haqida yozmoqchi. She’rning quadrati “sen” olmoshining qo’llanishi va lirik qahramonning noma’lum tinglovchi tomon yuzlanishidir. “Sen” olmoshining lingvopragmatik tahlili. she’rning yaxlit talqini tomon olib boradi. M. Hakimovning “O’zbek pragmalingvistikasi asoslari” mongrafiyasida deskriptiv(indekativ) bo’lmagan so’zlar haqida shunday deydi: “Faqat kontekst ichida, muayyan nutq vaziyatiga bog’liq ravishda ochiladi. Shuning uchun bunday so’zlar ma’nosi kontekst va nutq vaziyati bilan uzviy bog’liq, ya’ni shartlangan bo’ladi”<sup>211</sup>. Olim ana shunday deskriptiv bo’laman so’zlar qatoriga olmoshlarni kiritadi va lingvopragmatikaning alohida o’rganish obyekti ekanini ta’kidlaydi<sup>212</sup>.

“Sen” olmoshining sirini ochish uchun bu turkum haqidagi xulosalarni yodga olishimizga to’g’rin keladi. U haqdagi qarashlar o’zbek tilshunosligida deyarli bir xil. Jumladan, “Olmosh predmet yoki belgini konkret ko’rsatib bermaydi. Olmoshlarning qaysi so’z turkumi o’rnida qo’llanishi grammatik bog’langan nutq jarayonida konkretlashadi”<sup>213</sup>. “Olmoshning ma’nosi noaniqroq, umumiyroq bo’ladi. Olmoshlar predmet, uning belgisi va miqdorini anglatmay, faqat ularni ko’rsatish, ularning mavjudligini bildirish uchun xizmat qiladi. Olmoshning qaysi so’z turkumi o’rnida kelganligi ko’pincha kontekstdan, oldingi gaplardan anglashiladi. Olmoshlarning ko’plari alohida olinganda juda umumiy, abstrakt xarakterga ega bo’ladi”<sup>214</sup>. Barcha tilshunoslik nazariyasiga oid kitoblarda shu va shunga o’xhash qoidalar keltirilgan. Demak, olmoshning ma’nosi noaniq va u kontekstdan anglashiladi. Kontekstda ana shu anglatadigan, olmosh bilan shartlangan jumla bo’lmasa-chi? U holda uning ma’nosi nimaligi, kim yoki nima nazarda tutilayotganini aniqlash biroz mushkul. She’rning birinchi baytini keltiramiz:

Uyg’onguvchi bog’larni kezdim,  
Topay dedim qirdan izingni  
Yonog’ingdan rang olgan dedim –  
Lolazorga burdim yuzimni,  
Uchratmadim ammo o’zingni,  
-Sen bahorni sog’inmadingmi?

Baytda “sen” kim yoki nima(she’riyatda jonsiz narsalarga murojaat qilish mumkin) ekanligi haqida ma’lumot beradigan jumla yo’q. U kim.

<sup>211</sup> Hakimov M. O’zbek pragmalingvistikasi asoslari – Toshkent: Akademnashr, 2013. 14-bet.

<sup>212</sup> Bu haqda qarang. Ko’rsatilgan monografiya 42-53-betlar.

<sup>213</sup> Hozirgi zamон о’zbek tili - Faxri Kamol tahriri ostida. Toshkent, 1957. 385-bet

<sup>214</sup> Tursunov U. va boshqalar. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – Toshkent: 1965. - 46-bet.

yoki nima ekanki, uyg'onguvchi bog'lar unga begona? Bepayon qirliklar bag'rida ham u yo'q. Asli u bor, mavjud. Lolazorga rang bergen ham u. qirlarga sarhadsizlik baxsh etgan ham u. uyg'onguvchi bog'lar bag'riga vashiringan ham u! Ammo topib bo'lmaydi. "Sen"ning sirini anglash uchun tafakkur jilovini qo'yib yuborishga to'g'ri keladi. Ko'pchilik kitobxonlar lirik qahramon go'zal yorga murojaat qilyapti deb o'ylaydilar. Zero tasvir bir qarashda, birinchi o'ylaganda go'zal qiz degan tasavvur uyg'otadi. Bu matnda ekspiltsit namoyon bo'lib turgan mazmun. Implitsit tarzadagi mazmun nima haqda? Shoир haqiqatdan ham go'zal yorga murojaat qilmoqdami? Matnning tub mohiyatida nima vashiringan? Buni anglash uchun she'rnинг keying baytlariga ham diqqat qilishimizga to'g'ri keladi:

*Uzoqlarda zalvorli tog'lar  
Xayolimi keldilar bosib.  
Kechdi qancha intizor chog'lar.  
Vasling menga bo'lindi nasib,  
Sensiz men ham, bahor ham g'arib.  
Sen bahorni sog'inma dingmi?*

Bu baytda "zalvorli tog'" ijtimoiy – pragmatik konsept (M. Hakimov iborasi) "sen" sirini anglashga ochqich bo'ladi. Xayolni bosib keladigan, tafakkurni bosib keladigan, doim intizor qiladigan, yurak-yurakdan sog'intiradigan, vasli hech qachon nasib bo'limgan, lirik qahramonni ham, bahorni ham g'arib aylagan kim u? Nima u? "Zalvorli tog'lar" bizningcha, o'zbekning buyuk o'tmishi! O'zbek xalqining fan va turmushi gullab yashnagan chog'lari. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro zamonlari, Navoiyning zalvorli she'riyati, Boburning betakror jozib olami – zalvorli tog'day taffakkurni bosib ketguvchidir. Shundan keyingi misradan boshlab lirik qahramon yakka shaxs emas, endi u butun millatni birlashtiradi. O'zbek xalqiga uzoq vaqt nasib etmagan visol nima ekan? 1963-yil. Xalqimiz dilining tub-tubida nimaning sog'inchi yashar edi? Ozodlikning! Erkning! Mana "Sen" deb murajaat qilinayotgan sirli tinglovchi, shoир chorlayotgan orzu! Shoир boshqa bir she'rida "Nimanidir axtaraman – she'rdan ham ulug'", Nimanidir axtaraman – nondan azizroq"<sup>217</sup> deb yozganida ham, aynan ana shu erkinlikni, hurlikni izlagan edi! O'ylaganini yozmoqni. his etganini kuylamoqni xohlagan edi. Ammo hurlik uzoq yillar intizor qildi, visolini nasib etmadidi. Bahorni ham, lirik qahramonni ham, o'zbek elini ham g'arib ayladi u.

<sup>217</sup> Ko'rsatilgan she'riy to'plam. "O ylarim" she'ridan. 129-bet

*Ungurlarda sakraydi ohu.  
Na'matakda sa'va mittijon.  
Qorliklardan siphqorilgan suv.  
Daralarda uradi javlon.  
Nigohimda faqat sen pinhon,  
- Sen bahorni sog'ionmadingmi?*

Yana sohir tabiatning tengsiz tasviri va yana u lirik qahramonning tuyg'ulari tomon evriladi. "Nigohida faqat ugina pinhon". Axir, bu sirni ocholmaydi. Sirning ochilishi – umrning zavot bo'lishi, tug'ilajak she'rlarning qurbon bo'lishi demakdir. Shoир nigohidagi pinhonni yashirishga keyingi misralarda ham urinadi:

*Mana, bugun navro zi olam.  
Do'stlarimga gullar tutarmam.  
Qaylardasan, sevgili erkam...  
Qo'linda gul seni kutarmam,*

Baytning shu joyigacha, yana aldamchi tasavvur uni go`zal ayol qiyofasida ko`radi. Keyingi misrada esa shoир o'zining tub g'oyasiga lisoniy ochqich tashlab ketishni unutmeydi.

*Umrim bo'yи chorlab o'tarman:  
- Sen bahorni sog'ionmadingmi?*

Shoир umr bo'yи chorlab o'tadigan orzu - Ozodlik! Hurlik! Erk! A. Oripovning uslubini har bir she'riga singib ketgan shaxs sifatidagi konsepsiysi belgilaydi. Uning eng birinchi e'tiqodi esa - Vatan mustaqilligi, inson erkidir. She'rning o'ziga xosligi "sen" olmoshining qo'llanishi va murajaat egasining noma'lumligida. Chunki ayni shu so'z she'rning sirliligini oshiradi. Uni bezaydi. Qadrini baland qiladi. Chunki hamma zamonlarda ham insoniyat jumboqni yechishga qiziqqan.

She'r – kashfiyot! Har bir she'r insoniyat, hayot, borliq haqidagi yangi kashfiyot bo'lishi lozim. She'r – ibodat! Shoир har bir she'ri bilan yuksaklikka bir pog'ona ko'tarilishi, nafaqat o'zi, balki muxlislarini ham komillik sari boshlomog'i lozim. Chunki hamma ham she'r yoza olmaydi. Alloh hammaga ham insoniyatning botiniy olamini tushunishi, his etishi uchun shoirlilik "dard"ini yuqtiravermaydi. Buni ste'dod deb ataydilar. Ammo badiiy olamga oshufta bo'lish ko'pchilik uchun xos. Demak, ijod ahli har bir asari bilan komillashib borishi va ortidan uning muxlislari ham ergashishlari kerak. Ana shuni adabiyot deydilar.

## Viktor Gyugo ijodini o'rganib

H. Tursunov

Nemis va frantsuz tillari kafedrasi katta o'qituvchisi

N. Usmonova

Ingliz tili yo'naliши 204-guruh talabasi

Viktor Gyugo Frantsyaning zo'r iste'dodli shoiri, dramaturgi, romannavisi va publisistidir. U ijodining takomili davomida frantsuz taraqqiyarvar romantizmining yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan yirik san'atkordir. Viktor Gyugo 1802-yili Bezanson shahrida ofitser oilasida tug'ildi. Otasining harbiy xizmati tufayli Gyugolar oilasi bir shahardan ikkinchisia, bir mamlakatdan, ikkinchi mamlakatga ko'chib yurishga majbur edi. Bo'lajak yozuvchi yoshligida oilasi bilan Italiyada, Ispaniyada. Frantsyaning bir qancha shaharlarida bo'ldi.

Viktor Gyugo yoshligidan boshlab frantsuz ma'rifatparvar yozuvchilar va faylasuflari Volter, Russo asarlari ta'sirida bo'ladi. U litseyda fizika, matematika, falsafadan dars tinglaydi. O'quv yillarida adabiy qobiliyati tez o'sadi. 20 yoshli Viktor Gyugo "Qasidalar" nomli birinchi she'riy to'plamini nashr qildiriadi. Gyugo bu davrdagi she'rlarida mustabid tuzum tarafdoi bo'lib chiqadi. Faqat 1827-yili o'zining birinchi dramatik asari "Kromvel"ni yaratib, bunga kengaytirilgan muqaddima yozadi. Bu muqaddima Gyugoning taraqqiyarvar romantiklar lageriga o'tganligidan darak berar edi. Gyugo dramasiga yozgan so'zboshisida adabiy asarlarning voqealarini konrast usulida yoritishni ilgari surdi. Adabiy asarlarda keng mubolag'alar, grotesk usulida foydalanishni yoqladi. Klassitsizmning dogmatik qonunlariga qarama-qarshi o'laroq, Shekspir ijodidagi hayotiylikni quvvatladi. Klassitsizmning joy birligi, vaqt birligi printsiplariga, yuqori tabaqa vakillarining balandparvoz nutqiga qarshi Gyugo san'atda yozuvchining mutlaqo erkin bo'lishini talab qilib chiqdi.

U o'z asarlarida frantsuz xalq tilining boyliklaridan unumli foydalandi, frantsuz she'r tuzilishini yangi vaznlar, xilma-xil qofiya, milliy kolorit, keng xalq lug'ati bilan boyitdi. Viktor Gyugoning "Kromvel" dramasiga yozgan muqaddimasi taraqqiyarvar romantizm adabiyotining amaldagi manifiesti, programmasiga aylanib qoldi. O'zi ilgari surgan nazariy qarashlarini amalda isbotlash uchun Gyugo 1830 yildagi Iyul revolyutsiyasi arafasida "Marion Delorm" (1829), "Ernani" (1830) kabi romantik dramalarini yaratdi. "Marion Delorm" dramasining suyjeti XVII asr tarixidan olingan bo'lib, qiroq Lyudovik XIII va uning

ministri Kardinal Rishele davrini tasvirlash bilan zamonasidagi restavratsiya va qirol Karl X ning hajviy karikaturasini chizib beradi.

“Ernani” dramasida oddiy qaroqchi Ernani bilan qirol Karlos obrazlarini bir-biriga qarama-qarshi qo‘ydi. Asarda yuqori tabaqa vakili bo‘lgan qiroldan qaroqchi Ernani har jihatdan ustun ekanligi ko‘rsatiladi. Ernani oljanob, jasur, sevgida barqaror. Shuning uchun ham yuqori tabaqa vakili Donya Sol qiroldan ko‘ra Ernanini afzal ko‘radi va uni sevadi. Gyugoning romantik dramasi “Ernani” iyul inqilobi kunlari Parij sahnasida qo‘yilib, keng shuxrat qozondi va yangi adabiy yo‘nalishning g‘alabasini mustahkamlashga xizmat qildi.

“Parij Bibi Maryam ibodatxonasi” romanı (1831), “O‘g‘limga xukm qilingan kishining oxirgi kuni” (1829). “Klod Gyo” (1834) kabi qissalarida Gyugo ijtimoiy mavzuga murojaat qilib, restavratsiya davrining qonxo‘rligini fosh etdi. Endi yozuvchi ijodida oddiy xalq hayoti, demokratik mavzu yetakchi o‘rinni egallay boshladi. 1830-yildagi iyul revolyutsiyasi voqealari Gyugo ijodida ijtimoiy masalalarga nisbatan qiziqishni kuchaytirib yubordi. Roman mavzuini Gyugo XV asr Frantsiya tarixidan oldi. Inson tarixida dinning mash’um rolini burttirib ko‘rsatish maqsadida diniy bo‘yoqlarni quyuqlashtirib chizish uchun XV asr Parij hayoti yozuvchiga juda keng ijodiy imkon beradi.

Yozuvchi insonning dinga qarshi olib borgan kurashini tasvirlash uchun “Parij Bibi Maryam ibodatxonasi” romanini, shaxsning jamiyatning adolatsiz qonunlariga qarshi kurashini tasvirlash uchun “Xo‘rlanganlar” romanini, nihoyat, insonning tabiat ofatlariga qarshi kurashini ko‘rsatish uchun “Dengiz zaxmatkashlari” nomli romanini yozadi.

“Parij Bibi Maryam ibodatxonasi” romanida butxona atrofida ro‘y bergen voqealar aks etadi: ibodatxonaning ruhoniysini Klod Frollo o‘z umrini din yo‘liga tikkан, bu dunyo quvonchlaridan voz kechgan, mutaasib, odam. Butun umrini ibodatxonada o‘tkazgan bu odamning o‘zi ham din kabi juda sovuq kishiga aylanib ketgan. Ammo yoshi bir joyga borib qolgan bo‘lishiga qaramay, Klod Frollo Parij ko‘chalarida o‘yinga tushib, shu orqali tirikchilik o‘tkazib yuruvchi go‘zal Esmeraldani sevib qoladi. Esmeralda yosh, go‘zal va xushchaqchaq qiz. U tabiiyki, Klod Frollonning sevgisini rad qiladi. Ammo Klod Frollo qizni ta’qib etish fikridan qaytmaydi. Kunlardan birida, qorong‘ida qolgan qiz Esmeraldani Klod Frollo bilan ibodatxonaning qo‘ng‘iroqchisi Kvazimodo o‘g‘irlamoqchi bo‘ladilar. Esmeraldaning najot so‘rab qichqirgan tovushini eshitib, qirol armiyasining ko‘cha patrullari yetib keladilar. Klod Frollo bilan Kvazimodo ko‘zdan g‘oyib

bo'lishadi. Ko'cha tartibini saqlovchi ofitser Febni Esmeralda yoqtirib qoladi. Shaharning markazida yuz berayotgan bu to'palonni qrolli askarlar kelib bartaraf etadilar. Shu kuni tunda Esmeralda ham ibodatxonadan g'oyib bo'ladi. Klod Frollo yana bir bor qizga o'z sevgisini majburan o'tkazishga urinadi. Ammo befoyda. Natijada chiqmagach, ruhoniq qizni jallodlar qo'liga topshiradi. Esmeraldani Grev maydonida dorga osib jazolaydilar. Kvazimodo bunga sabachi bo'lgan Klod Frolloni o'ldiradi. O'zi ham ibodatxonani tark qilib, Esmeraldaning jasadi yonida jon beradi.

Yozuvchi asarda romantik bo'yoqlardan keng foydalanadi. Asarda har bir voqe, har bir personaj, o'rta asr ibodatxonasi, "mo'jizalar saroyi" tasviri romantik kaysiyat bilan hikoya qilinadi. O'rta asr me'morchiligining, halq dahosining ajoyib obidasi bo'lmish ibodatxona roman voqealari markazida turadi. Asar qaxramonlarining deyarli ko'pchiligi taqdiri ibodatxona bilan bog'langan. U O'rta asrchilik, feodalizm, dinning qo'rg'oni, zulm, adolatsizlik maskani sifatida tasvirlagan.

Ibodatxona vakili bo'lgan Klod Frollo o'zida oddiy kishilarga yet bo'lgan diniy aqidani mujassamlashtirigan. Uning sevgisini ham xech kimga yaxshilik, quvonch bag'ishlamaydi, aksincha, atrofdagilarga o'lim urug'ini sochadi. Klodning sevgisi undagi mutaassiblikning, tarkidunyochilik aqidasining inqirozga yuz tutganidan darak beradi. Klod Frollo go'zal qiz Esmeraldaga zidlashtirib berilgan. Qiz sodda, halq vakili. Unda diniy mutaassiblikdan uzoq, hayot quvonchlari, chinakam go'zallik, samimiylilik barq urib turadi. Xalq farzandi Esmeralda barchaga xursandehilik, zavq, quvonch bag'ishlaydi. U, o'zi singari, jamiyatning eng kambag'al, qashshoq vakillari orasida yashaydi. Qiz o'z atrofidagilarga sidqidildan, samimiyl munosabatda bo'ladi. Esmeralda bu olifta yigitni chin dildan sevadi. U o'z muxabbatiga oxirigacha sodiq bo'lib qoladi. Ammo kapitan Feb kuchli ehtiros egasi emas. U Esmeraldaning cho'ng sevgisiga arzimaydigan, ichki dunyosi qashshoq bir dvoryan. "Mo'jizalar saroyida" yashovchi qashshoq aholi, tashlandiq saroyda istiqomat qiluvchi odamlar ibodatxonaga qarama-qarshi qo'yilgan.

Aslida bular feodal jamiyatining adolatsizligidan azob chekadilar. Ular ibodatxonani zulm va adolatsizlik maskani deb tushunadilar. Shuning uchun Esmeraldani qutqarish maqsadida ibodatxonaga xujum qilgan olomon obrazi Bastiliyani ag'darib tashlagan revolyutsion xalqni eslatadi. barrikada janglari tasviri Viktor Gyugo ijodining chinakam demokratizmini namoish qiladi. Xo'ilanganlar romani yozuvchi

dunyoqarashidagi ziddiyatlarga qaramay keng ijtimoiy masalalarni o'rta ga tashladi. Gyugo o'z asarida oddiy kishilar jabrdiydalar xo'ranganlarning himoyasi bo'lib chiqdi. Yozuvchining demokratik va insonparvarlik qarashlari ayniqsa Gavrosh kurashayotgan mehnatkash Parij xalqining timsolidir. Bu bola frantsuz xalqining milliy xarakterini o'zida mujassamlashgan.

## Types of learning styles

*Botirova Z.*

*NamDU Filologiya fakulteti ingliz tili va adabiyoti o'qituvchisi*

*Abdullahayev Sh.*

*NamDU ingliz tili yo'naliishi 1-kurs talabasi*

There is no doubt that, learning foreign language is still complex process. Therefore, most people have difficulty in learning Englizh. It is fact that, anyone who wants to know foreign language, should know how learner they are. It is regarded very vital aspect of learning language. If you know that which way is best for you will help you to make the learning something. Everyone processes and learns new information in different ways. There are three main cognitive learning styles: visual, auditory, and kinesthetic. The common characteristics of each learning style listed below can help you understand how you learn and what methods of learning best fits you. Understanding how you learn can help maximize time you spend studying by incorporating different techniques to custom fit various subjects, concepts, and learning objectives. Each preferred learning style has methods that fit the different ways an individual may learn best.

Learning styles refer to a range of competing and contested theories that aim to account for differences in individuals' learning. These theories propose that all people can be classified according to their 'style' of learning, although the various theories present differing views on how the styles should be defined and categorised. A common concept is that individuals differ in how they learn. The idea of individualized learning styles originated in the 1970s, and has greatly influenced education. Proponents recommend that teachers assess the learning styles of their students and adapt their classroom methods to best fit each student's learning style. Although there is ample evidence that individuals express preferences for how they prefer to receive information, few studies have found any validity in

using learning styles in education. Critics say there is no evidence that identifying an individual student's learning style produces better outcomes. There is evidence of empirical and pedagogical problems related to the use of learning tasks to "correspond to differences in a one-to-one fashion. "Well-designed studies contradict the widespread "meshing hypothesis". that a student will learn best if taught in a method deemed appropriate for the student's learning style.

Up to now, there are a number of scientists have tried to explore types of learning styles. One of them is David Kolb. David A. Kolb's model is based on the Experiential learning Theory, as explained in his book *Experiential Learning*. The ELT model outlines two related approaches toward grasping experience: Concrete Experience and Abstract Conceptualization, as well as two related approaches toward transforming experience: Reflective Observation and Active Experimentation. According to Kolb's model, the ideal learning process engages all four of these modes in response to situational demands. In order for learning to be effective, all four of these approaches must be incorporated. As individuals attempt to use all four approaches, however, they tend to develop strengths in one experience-grasping approach and one experience-transforming approach.

### **NASSP Learning Style Model**

Learning style is a gestalt that tells us how a student learns and prefers to learn. Keefe (1979) says that: "Learning styles are characteristic cognitive, affective, and physiological behaviors that serve as relatively stable indicators of how learners perceive, interact with, and respond to the learning environment."

There are three broad categories of learning style characteristics:

- Cognitive styles are preferred ways of perception, organization and retention.
- Affective styles represent the motivational dimensions of the learning personality; each learner has a personal motivational approach.
- Physiological styles are traits deriving from a person's gender, health and nutrition, and reaction to school physical surroundings, such as preferences for levels of light, sound, and temperature.

Styles are hypothetical constructs that help to explain the learning (and teaching) process. Because learning is an internal process, we know that it has taken place only when we observe a relatively stable change in learner behavior resulting from what has been experienced" (Keefe, 1979). Similarly, learning style reflects underlying learning behavior.

We can recognize the learning style of an individual student only by observing his or her behavior.

There are three Learning Modalities adapted from Barbe, Swassing, and Milone:

1. Visualising style
2. Auditory style
3. Tactile (Kinesthetic)style

#### Common Characteristics

##### **Visual**

- Uses visual objects such as graphs, charts, pictures, and seeing information
- Can read body language well and has a good perception of aesthetics
- Able to memorize and recall various information
- Tends to remember things that are written down
- Learns better in lectures by watching them

##### **Auditory**

- Retains information through hearing and speaking
- Often prefers to be told how to do things and then summarizes the main points out loud to help with memorization
- Notices different aspects of speaking
- Often has talents in music and may concentrate better with soft music playing in the background

##### **Kinesthetic**

- Likes to use the hands-on approach to learn new material
- Is generally good in math and science
- Would rather demonstrate how to do something rather than verbally explain it
- Usually prefers group work more than others

#### Descriptions of Learning Modalities:

Visual	Kinesthetic	Auditory
Picture	Gestures	Listening
Shape	Body Movements	Rhythms
Sculpture	Object Manipulation	Tone

## moyil yozuvchi

***Saidakbar MUTALOV***

*NamDU filologiya fakulteti 3-kurs talabasi*

***Ilmiy rahbar: Obidjon KARIMOV,***

*NamDU katta o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi*

O'zbek xalqi azal-azaldan so'zga ustaligi, hozirjavobligi va o'zining hazil-mutoyibaga moyilligi bilan boshqa qardosh xalqlardan alohida ajralib turadi. Afandi latifalari-yu askiyalar, chandishlar\*-u laparlar asrlar mobaynida insonlarning kulgidan bahramand bo'lib kelganligini, turmush jarayonida jamiyatdagi kulguli jihatlarni nozik ilg'ay olganligini va eng asosiysi, buning natijasida xalq og'zaki ijodida hajviyaning taraqqiy etishiga zamin yaratganini ko'rsatadi.

Ma'lumki, adabiyotshunoslikda hajv tushunchasi (arabcha "ustidan kulmoq" ma'nosini bildirib, *biror shaxsni tanqid qilish, ayovsiz qoralash, kamchiliklarini sanab, ayblastish maqsadida yaratiluvchi asar, adabiy janr*)<sup>218</sup> serqirra ma'no kash etish bilan birga katta tarixiy davrni ham o'z ichiga oladi. Hajv arab she'riyatida keng qo'llangan. O'zbek mumtoz adabiyotida "hajv" (hajviyot), satira va yumorni o'z ma'nosini ostida birlashtiradi va unga bir umumiylab adabiy tur sifatida qaraladi. "Satira (gr. *satura* - turli, aralash so'zidan) – ijtimoiy hayotning ma'lum tomoni yo ayrim guruh va shaxslarning yaramas salbiy xislatlaridan aqchehq kulib va uni tanqidiy tasvirlab yozilgan hajviy asar"<sup>219</sup>. Satiraning jamiyatda g'oyat katta ahamiyat kasb etishida ham aynan ana shu mavjud salbiy holatlar, tuban narsa-hodisalarini fosh qilish va yo'qotish orqali yaxshi narsalarini ulug'lash muhim omil bo'ladi.

"Yumor (lot. *Humor-namlik* ma'nosidagi so'zdan) – birmuncha yengil tanqidga asoslangan kulgili asar. Yumoristik asarda yozuvchi turmushdagi va ayrim kishilardagi ba'zi bir kamchiliklardan kulib, uni tanqid qiladi."<sup>220</sup> Ta'kidlab o'tkanimizdek, hajviyot rivojiga xususan satira va yumorni taraqqiy etishiga tarixan katta davr mobaynida ko'plab

<sup>218</sup> Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati.-T.: Akademnashr, 2013.-B.397.

<sup>219</sup> Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati.-T.: Akademnashr, 2013.-B.273.

<sup>220</sup> Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati.-T.: Akademnashr, 2013.-B.378

ijodkorlarning mehnati singan. Jumladan, o'zbek adabiyotida satira rivojiga Turdi Farog'iy, Maxmur, Muqimiylar va Zavqiylar salmoqli hissa qo'sha bilganlar. XX asrga kelib o'zbek adabiyotida hajvianing ijtimoiy ahamiyati yanada ortdi va ta'sirchanligi alohida ko'zga tashlandi. Ayniqsa, Abdulla Qodiriy, Sadreddin Ayniy, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Ne'mat Aminov kabi yozuvchilar o'z asarlari orqali hajvni bor bo'y-basti bilan namoyon qila oldilar.

Yuqorida nomlari zikr etilgan mashhur ijodkorlardan Said Ahmad hajviyotini alohida e'tirof etish lozim. Bu yil tavallud topganiga 95 yil to'ladigan adib hikoyalarda "Oybekning psixologik ta'sir mahorati, G'afur G'ulom yumori, Abdulla Qahhor bayonidagi lakonizmi mujassamdir"<sup>221</sup>. Ustozlar ijodidan quvvat olgan bu insonning yaratgan nodir asarlari vaqtlar o'tibdi hamki o'z ta'sirchanligini yo'qotmay kelmoqda. Adibning hajviy asarlarini bir bor o'qigan inson kulgining, kulgi bo'lganda ham o'rinni kulgining tarovatidan mosuvo bo'lishi turgan gap. U o'z hajviy hikoyalarda davr nuqtai nazaridan yondashib, taraqqiyotimizga to'siq bo'layotgan ayrim bema'ni urf-odatlar va ayrim nobakor kishilar ustidan kulish asnosida ularni tanqid qiladi, muhimmi, ma'naviy-tarbiyaviy masalalarni o'rtaga qo'yadi.

Uning "Xandon pista" (1994) hajviy to'plamida keltirilgan hikoyalari kitobxonning yuziga tabassum yogurtirish bilan, yuzaga kelgan kulguli ho'lat ustidan chuqur mulohaza yuritishga undaydi. Kitobdag'i "Hindcha qo'shiq" hikoyasi ham yuksak yumoristik mahorat bilan yozilgan bo'lib, insonga xos soddalik va uning oqibatidagi tang ahvolni ko'rsatish bilan hayratomuz kulgu qo'zg'ay oladi. Yozuvchi yaratgan Farmon obrazidagi lo'li yigit o'zining bechorahol, go'yoki yetimlik tufayli jabr chekkan va shu bilan birga andishali qiyofasi ortidan ko'zlagan g'arazli maqsadiga yetishini ifoda etgan. Bunday kamtar va kamsuqum lo'lining qiyofasi uning manfaatiga nomuvofiq kelgani holda, asar qaxramonlari bo'lmish sodda, "to'g'ri" Qosimjon va Anziratni chuv tushirgani, Farmon va uning iti Gebbelsga ko'rsatilgan mehr-muruvvat qimmatga tushgani o'quvchida kinoyali kulgu uyg'otish ila achinish hissini yuzaga keltiradi.

"Bir siqim xandon pista" hikoyasidagi satirik tasvirda esa Parpivoyning kuyovi bo'lgan "Mo'ylovli kishi" ning bemavrid xattiharakati keskin tanqid ostiga olinib, oilaviy tarbiyadagi kamchiliklar va farzandlar xulq-atvorigagi nuqsonlar ustidan g'azabli kulishni maqsad qilingan. Qolaversa, Parpivoy obrazi bilan jamiyatda mavjud illatlar, xususan o'g'rilik, "kemiruvchilik" va manfaatparastlikni o'ziga hunar

<sup>221</sup> Bu haqda qarang: S.Mirvaliev. O'zbek adiblari.-Toshkent: Yozuvchi, 2000.-B.95.

qilib olgan pastkash insonlar keskin fosh etilishini yozuvchining quyidagi jumlalarida ko'rishimiz mumkin. "... *Bazada men u kishiga smenshikman. Uyda bitta novvos, yigirma oltita qo'y, to'rtta biya bor. Yemdan qiyalmaymiz. Bazada bari bor. Yem devsizmi, kombikorm deysizmi serobgarchilik.* "Jiguli"ning yukxonasida kuniga ikki maria shahar hovliga yem opkelishimiz bor. Buni qarang, mustaqillik sharofati bilan biz bechoralarning ham yelkamizga oftob tegib qoldi. Shu deyman, hukumat melisalarni ham yo'q qilsa edi, ishlari yurishib ketardi"<sup>22</sup>.

Shuningdek, Said Ahmadning mazkur to'plamidan o'rinni olgan barcha hikoyalarda, ayniqsa, "Napoleon Mamajonov" va "Ekolo'giva va biz" hajviyasida chinakam satirik ustaligi yorqin namoyon bo'ladi. Unda keltirilgan qahramonlar qiyofalari va voqealar rivojining grotexs va mubolag'ali qilib tasvirlanishi yozuvchining kuchli fantaziyasidan dalolat beradi. Bu kabi satirik jarayonni "Napoleon Mamajonov" hikoyasidan keltirilgan ushbu kichik parcha ham isbotlab turibdi: "... *Mahallamizda Mamajon lo'mboz degan devdek kishi ho'lardi. Bo'yin unchalik daroz emasdi-ku ammo eniga qarichlab o'lchasa ikki gazdan oshiq chiqardi. O'tirganda dumbasi quymoqqa o'xshab yoyilib ketib uch gazcha doira yasardi. Qorni shu qadar osilib ketgandiki, o'tirganda yerga yozsa bir ko'rpachalik joyga nari ketib golardi. Kindigi qichiganda qo'li yetmay, otashkurak bilan qashlardi*"<sup>23</sup>.

Haqiqatan ham, Said Ahmadning ijodiy faoliyati juda sermahsul, hajvlari mazmun va kulguga to'yingan, o'zi ham aytish mumkinki, hajvgaga moyil yozuvchidir. Asarlarida tasvirlaydigan har bir voqealari, har bir qahramondan, o'quvchiga ma'naviy ozuqa berishni, chuqur tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan jarayonlarni lirik ta'sirchanlik bilan ifodalashni va badiiy tasvirlarning xilma-xilligiga erishishni niyat qilgan va bunda erishgan san'atkori desak ayni haq gapni aytgan bo'lardik. Zero, Ozod Sharafiddinov ta'biri bilan aytganda, *Said Ahmad san'ati inson harakteriga, uning ruhiyat olamiga chuqur kira borishdan, uning milliy ranglarini ilg'ab olishdan, uni ezzulik va yaxshilik, ahillik va oljanoblik sari undashdan, hajviyotni ulug'lashdan tarkib topuvchi san'atdir*.

Umuman, xalqimizning sevimli yozuvchisi, O'zbekiston Qahramoni Said Ahmadning hajvgaga boy asarlarida mubolag'a (ayniqsa, grotesk va giperbol'a), parodiya, hozirjavoblik, kulgi, so'z o'yinlari, qahramon ismlariga ramziy-ironik ma'no yuklash yoki laqab qo'yish (O'rik domla, Sotti,...), sir saqlash kabi o'ziga xos yumoristik holatlar

<sup>22</sup> Said Ahmad. Xandon pista -Toshkent, 1994 -39-bet  
<sup>23</sup> Said Ahmad. Xandon pista.-Toshkent, 1994.-25-bet.

ko'zga yaqqol tashlanib turadiki, bu yozuvchining faqat o'ziga xos uslubini ta'minlaydi. Bu jihatlarni yanada chuqur tadqiq qilish galdeg'i vazifamiz bo'lib qolaveradi.

## Barkamol inson tarbiyasida ma'naviy-axloqiy merosning o'rni

*Sotiboldiyev Abbasxo'ja*

*O'zbek filologiyasi 403-guruh talabasi*

Ijtimoiy hayot va jamiyatning barqarorligi, go'zalligi, sermazmunliligi, insonning ijodiy mehnat faoliyati, odobi, xatti-harakati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab jarayondir. Shu jihatdan qarasak, insonni yuksak martabaga eltadigan vosita faqat mehnat va ijtimoiy faollilikgina bo'lib qolmasdan, balki uning odobi, axloqi, barkamolligi, kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqoti bilan bog'liq ijtimoiy muhit hamdir. Yuksak madaniyatli, ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash muammosi insoniyat ma'naviy-axloqiy merosining eng ko'hna mavzularidan.

U shaxs kamoloti va barkamol insonning ijtimoiy, siyosiy madaniy, ruhiy hamda axloqiy sohalari bilan bog'liq bo'lgan muammolar yechimini topish uchun harakat qilib kelgan. Bashariyat tarixiga nazar tashlasak, inson va uning hayoti, ma'naviyati, axloqi, barkamollik darajasi odamlar o'rtasidagi turli xildagi ijtimoiy munosabatlar majmuasidan iborat ekan. Hozirgi bizning yangilanish jarayonini o'tayotgan jamiyatimizda ham hayotning hamma sohalarida hukm surayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy barqarorlikni ta'minlash muammosi hamda uning yechimini topish zarurati yuqorida qayd etilgan muammolar asosida vujudga kelgan.

Yangilanish davrini boshidan kechirayotgan mustaqil respublikamiz fuqarolari ongi va qalbida umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik g'oyasini singdirish eng muhim vazifalardan biri.

Zero, umuminsoniy qadriyatlar barkamol inson tarbiyasi uchun barcha zamonlarda ham ahamiyati cheksiz bo'lgan. U jamiyat ma'naviy extiyojini qondirish uchun zaruriyat bo'lib kelgan. Hayotiy zaruriyat bo'lib kelgan qadriyat azal-azaldan xalq og'zaki ijodida, ertaklarida, pandnomalarida, dostonlarida asosiy mavzulardan biri hisoblangan. Shuning uchun bo'lsa kerak, uni nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlar tushunchasiga kiritib, barkamol inson axloqiy tarbiyasi uchun muhim bo'lgan vosita deb bilganlar.

Qadriyatlar inson ma'naviy kamolotining muhim omili, inson ma'naviy faoliyatining mahsuli, uning moddiy dunyoga bo'lgan

munosabatining ifodasi bo'lish bilan bir qatorda katta tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. U kishilar tomonidan yaratilib, o'zlashtirilib, fuqarolar ongi, qalbi va e'tiqodiga singib, faoliyatiga asos bo'lgandagina katta ijtimoiy kuchga aylanadigan hodisa.

U jamiyat ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotining zaruriy maxsuli. Shunga ko'ra, qadriyat hamma zamонlarda ham dolzarb mavzu bo'lib kelgan. Bu mavzu, ayniqsa, jamiyat bir bosqichdan ikkinchisiga o'tayotgan, ijtimoiy-siyosiy tartiblarga kishilar "ko'nikib" qolgan zamonlar o'zgarib borayotgan davrda dolzarb muammoga aylanadi.

Qadriyat - qadr-qimmat degan tushunchani anglatadi. Bunday davrlarda fuqarolarning qadriyatlarga munosabati, ular bilan bog'liq maqsad va ideallari o'zgaradi. Eski qadriyatlar fuqarolar ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirmay qo'yadi. Bunda yangi qadriyatlarga ehtiyoj tug'iladi va uni shakllantirish zaruriyatga aylanadi.

## **Milliy-ma'naviy meros**

*Xurshid Mirzaxmedov*

*Namangan davlat universiteti o'qituvchisi*

*Sabora Eshonxo'jayeva*

*Namangan davlat universiteti talabasi*

Har bir davlat xalq tarixida milliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan shonli sanalar bo'lishi muqarrar 1989-yil 21 oktyabr "O'zbekiston Respublikasining davlat tili to'g'risida" gi qonun qabul qilingan kun xam xalqimiz uchun ana shunday muhim ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ega sana sifatida tarix zarvaraqlarida muhrlandi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi O'zbekistonning mustaqillk uchun tashlangan ilk qadamlaridan biri bo'ldi. Sobiq tuzumi istibododi davom etayotgan bir paytda Yurtboshimiz raxnamonligida xalqimiz ziylolarining tashabbusi va ulkan ma'naviy jasorati evaziga qabul qilingan mazkur qonun hukmron mafkura ta'sirida cheklanib, ikkinchi darajaga tushib qolgan o'z zaminimizda kamshitilgan ona tilimizning davlat tili sifatida obro'-e'tibor qozonib, ijtimoiy mavqeい mustahkamlanishi va rivojlanishiga zamin yaratdi.

Asosiy qonunimizning 4 moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. (Qoraqalpog'stonda bunday maqom qoraqalpoq tiliga ham berilgan). O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadi.

O'zbek tili leksikasi yil sayin boyib bormoqda. Xususan O'zbekistonning tashqi dunyo bilan integratsiyalashuvi, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy aloqalarining jadallahuvi bunga sabab bo'lyapti. Ona tilimizning nusuzi xalqaro miqyosida oshib faol muloqot vositasiga aylanmoqda. Turli darajadagi rasmiy uchrashuvlar muzokaralarida tilimiz keng qo'lanayotgan xorijdagi qator ta'lif dargoxlarida, ilmiy muassaslarda o'zbek tili markazlari tashkil etilib, ularda ona tilimiz o'rganilayotgani qalbimizda faxr-iftixor tuyg'ularini jo'sh urdiradi. Xususan, xalqaro sport musobaqalarida milliy kurashimizga oid "yonbosh", "chala", "halol", "g'irrom" kabi atamalnring baralla jaranglashi milliy qadriyatlarimiz qanotida tilimizning ham jahonga chiqib borayotganidan dalolat beradi.

O'zbek tilining ijtimoiy ahamiyatini oshirishga ulkan e'tibor qaratilmoqda. Istiqlol yillarda islam dining muqaddas manbasi bo'lmish Qur'oni Karim hamda buyuk Vatadoshimiz Imom Buxoriy tomonidan tartib berilgan 4 jilddan iborat sahifalar to'plamining o'zbek tiliga o'girilishi ulkan ma'naviy hodisa bo'lish bilan birga, tilimiz taraqqiyotida ham o'ziga xos yuksalish bosqichini boshlab berdi. 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" 12 jilddan iborat "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", "O'zbek tilining etimologik lug'ati" kabi benazir til yodgorliklari vujuda keldi. Tilimizga oid darslik va o'quv qo'llanmalari chop etildi.

Ona tilimizni davlat hokimiyati organlari, muassasalar, korxonalar va tashkilotlar tili, qonun chiqarish, ijro etish va sud hokimiyatlarda ish yuritish, mакtablar, o'rta maxsus va oliv o'quv yurtlarida ta'lif berish uchun rasmiy til sifatida belgilanishi uning mavqeini oshirdi.

Mustaqillik yillarda qayta tiklangan tarixiy: devonxona, vazirlik, hokim, tuman, viloyat kabi so'zlar ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib kelayotgan ona tilimizni asrab-avaylash, uni boyitish bo'yicha qilingan xayrli ishlar samarasidir.

O'zbek tilining bugungi rivojlanish bosqichida kompyuter lingvistikasini takomillashtirish dolzarb vazifalardandir. Globallashuv jarayonida «Jahon o'rgimchak to'ri» - internetda mamlakatimiz o'z dominiga (. uz) ega bo'ldi. Shu bois milliy internet nashrlariga rioya etilishi, axborot texnalogiyalariga xos iboralarning o'zbekona ekvivalentlarini veb-sahifalarga yuklash, qolaversa, ona tilimizga oid ma'lumotlarni internet tarmog'iga ko'proq kiritish orqali o'zbek tilini keng targ'ib qilish imkoniyatlaridan unumli foydalanishimiz zarur.

Ajdodlardan meros ona tilimizni asrab-avaylash, yosh avlod qalbida unga hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirish, muhimi, tilimizning

muloqot doirasini kengaytirish har birimizning farzandlik burchimizdir. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab – avaylash, boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ish olib borishimiz darkor.

## She'riyatda badiiy obraz talqini

*Obidjon Karimov,*

*NamDU katta o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi*

*Saidakbar Mutalov,*

*NamDU filologiya fakulteti talabasi*

Olamni metaforik obraz orqali tushunishga intilish shu bugunning mevasi emas, albatta. qadim "Kul tegin", "Tunyuquq" yodnomalarida, Bilka qoonning jang tasvirlari, "Qutadg'u bilig" (Yusuf Xos Hojib) dagi majoziy obrazlarda istioraviy bo'yoqlarning quyuqligi orqali ma'lum bir voqeanning, tabiat hodisasining ta'sir quvvatini, esda saqlanishini yana ham oshirishda kompozitsion usul sifatida qo'llanilgan.

Obrazning metaforik xususiyati badiiy asarda, xususan, she'riyatda tasvir tabiat, xos uslub bilan bog'liqdir. Demak, obrazning ko'p ma'noliligi – metaforik tabiatini Abdulla Oripov ijodi misolida tekshirishda badiiy obrazni tasvir tabiatiga ko'ra xillash orqali yondashish,nazarimizda, maqsadga muvofiqliqdir.

Shoir ijodida badiiy obrazning xillanishlarini<sup>224</sup> ijod jarayoni-ning ma'lum bir davri asosida bo'lib olishimiz esa poetik obraz ma'no doirasining kengayib borishini,demakki,istioraviy bo'yoqlarning quyuqla-shib borishini ko'rsatib beruvchi dalil bo'la oladi.

Abdulla Oripov ilk she'rlarini 50-yillarning oxirida yoza boshlagan. "Minorai kalon tepasidagi laylak" she'rinin 60-yillarning oxirida – 1968-yilda yozgan. Bu vaqtida shoir endigina adabiyot olamiga, she'r ixlosmandlari qalbiga kirib kelayotgan edi. Lekin shuni ham unutmasligimiz kerakki, ko'plab shov-shuvlarga, bahs-munozaralarga sababchi bo'lgan "Sen bahorni sog'inmadingmi", "Buloq", "Giyoh", "Burgut", "Bulut", "Dorboz", "Yuzma-yuz", "Tilla baliqcha", "Chol va "kommunizm" qissasi", "Jannat" va yana o'nlab she'rlari shu vaqtida yozilgan<sup>225</sup>. Biz ko'plab maqola va tadqiqotlarimizda yuqorida nomlari aytilgan she'rlari haqida batafsil to'xtalganmiz.

<sup>224</sup> Бу хакда карант Акрамов Б. Шеърият гавхари. Тошкент, 1979. 145-167-бетлар

<sup>225</sup> Бу хакда карант Мелиев С. Тилла базикчанинг фожиаси Узбекистон адабиёти ва санъати -1989-23 июни; Мелиев С. Лирик фожиеси. Узбек тили ва адабиёти - Т. 1991 - 3-сон: Қосимов Я. Тилла

Abdulla Oripovning “Minorai kalon tepasidagi laylak” she’ri har xil qarash va talqinlarga imkon beradigan, o’z vaqtida shoirga turli malomatlar keltirgan metaforik xarakterdagи she’rlardandir. Shu o’rinda aytish kerakki, biz sho’ro davrida adabiy asarlardan “g’oyaviv xato” izlashni go’yo yo’q erdan ayb izlash, shunchaki tирnoq ostidan kir qidirish deb tushunamiz. Bu to’g’ri emas. Chunki haqiqatan ham sho’ro davrida yaratilgan ko’plab asarlarda, jumladan, A.Oripov asarlarida jamiyatdagi mayjud holatdan norozilik ohanglari bo’lgan. Norozilikni esa sho’ro davri ijodkorlari obraz qatiga yashirib ifodalashga majbur edilar. Demak, haqiqatda mafkura himoyasiga otlangan tanqidchilar obrazdagi ko’plab ma’nolardan birini ochishgan va uni mafkura nuqtai nazaridan qoralaganlar. Jumladan, “Minorai Kalon tepasidagi laylak” she’rini o’qisak, unda iyhom san’atidagi kabi yaqin va uzoq ma’nolar borligini ko’rish mumkin. Uch bandli she’rning birinchi bandida shoir bunday deydi:

*Tashlab ketdi bu shaharni beklar, amirlar,*

*Tashlab ketdi bu shaharni islom shavkati.*

*Tashlab ketdi bu shaharni shayxlar, kabirlar,*

*Tashlab ketdi mahmadona Mang’it davlati<sup>226</sup>.*

Ushbu satrlar sho’ro mafkurasiga mos, chunki undan “Buxoroni “qora kuchlar, tekinox’r ekspluatatorlar tashlab ketdi” degan ma’no chiqaveradi. Lekin ikkinchi bandning dastlabki ikki misrasi ma’noni boshqa o’zanga burib yuborishi mumkin:

*Bulbullar ham ketdi bundan ko’zini yoshtag,*

*Tovuslar ham qaylargadir asta yo’qoldi... (I,149)*

Adabiy an'anamizda bulbulning ijod, zavq-shavq, ishq-muhabbat, tovusning esa go’zallik ramzi sifatida o’rin olganini eslasak, birinchi band bilan semantik ziddiyat yuzaga kelganini ko’ramiz. Keyingi ikki misrada:

*Faqat hir qush bu shaharni ketmadi tashlab,*

*Faqat laylak Buxoroda manguga qoldi, –*

deyilgani xuddi bulbul va tovus obrazlari o’zgacha ma’no ifodalash uchun emas, balki qarshilantirish orqali laylakning sadoqatini bo’rttirib

баликчанинг толеи. Шарқ юздузи -1-1986 - 12 сон -182-184-б.: Касимов Я.Ўйғониш садолари - Т.:1991

Орипов Абдулла, Ташибанган асарлар. Түрт жилдлик. I-жилд - Т.: Адабиёт ва санъат, 2000 - Б.149: бундан кейин шу нашрдан кўчирима олинишанда кавс ичидаги рим раками билан жилд. араб раками билан саҳифани курсатамиз.

ko`rsatish uchun ishlatalgan degan tasavvur hosil qiladi. Ya`ni bu hol haqiqatda ifodalash ko`zda tutilgan ma`noni yana yashiradi:

*Men bu holga hayron bo`lib boqdim har safar,  
Bir she'r izlab Buxoroni kezarkan uzoq.  
Ajab, qushning oyoqlari g`o`zaga o`xshar.  
qanoatlari esa uning paxtadek oppoq. (l. 149).*

Ikkinchi bandda laylakning sadoqati bo`rttirilgani sababli bundan “paxta ham yurtimizga shunday sadoqatli” degan mafkura nuqtai nazaridan “ijobiy” ma`noni ham eplab chiqarish (aniqrog`i, men shunday demoqchiman deya o zni oqlash) mumkin. Ikinchi tomondan, qulog`i bor odam bulbul va tovus — zavq-shavq bilan yashash. ijod, go`zallik kabi ezguliklar o`rnida birgina paxta qoldi, paxtadan boshqa hech vaqomiz qolmayapti degan tashvishli bongni ham eshitda oladi. She`rning bunday qurilishi, aslida, sho`ro davri sharoitida, ya`ni mafkura tazyiqi ostida turib ham yurakdagini aytish ehtiyojini qondirishga intilish tufayli shakllangan uslub xususiyatidir. Bunday uslubda yozilgan she`rlar sho`ro davrida ijod qilgan Cho`Ipon, Oybek, Shayxzoda, Mirtemir kabi ijodkorlardan tortib mustabid tuzumning so`nggi yillarida qo`liga qalam olgan shoirlar ijodida ham uchraydi. Zero, sho`ro sharoitida metafora, jumladan, she`rmetafora ko`ngildagini ifoda etishning ehtimol yagona yo`li bo`lib qolgan. Chunki poetik obraz faqatgina shakl bo`lmay, balki lirik qahramon tuyg`u tafakkuri orqali yangi ma`no kasb etib kengayib va murakkablashib boruvchi badiiy jarayon hamdir. Obrazli qilib aytadigan bo`lsak, bu davrda she`r-metafora shoir A.Oripov “Eski quduq” she`rida etishmayotganidan noligan “quduq” vazifasini bajargan, deyishimiz mumkin.

## **Milliy tarbiyaning milliy g`oya rivojidagi o`rni**

*Sotiboldiyev Abbosxo`ja  
O`zbek filologiyasi 403-guruuh talabasi*

Mamlakatimizda “Ta`lim to`g`risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi olamshumul ahamiyatga ega bo`ldi. Mazkur qonun va dastur davlatimiz taraqqiyoti, uning dunyo hamjamiyatiga bozor tizimi orqali integratsiyalanishi, dunyoning rivojlangan mamlakatlari safiga qo`shilishiga imkon yaratadi.

Zamonaviy kadrlarsiz esa sanoat, qishloq xo`jaligi, tadbirkorlik va ijtimoiy hayotni rivojlantirishni tasavvur qilish qiyindir.

Ilm-fan jadal taraqqiy etayotganligi tufayli turli fan sohalarida erishilgan yutuqlar tez yangilanib bormoqda. Bilim o'sish omildir, uni vaqt talabi darajasida texnika o'sishidan bir necha barobar tez yangilab borish kerak. Shuning uchun yangicha fikrlaydigan, zamonaviy kadrlarni tayyorlashda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish davr ehtiyyotidan kelib chiqmoqda.

Ayniqsa, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy fanlarning mohiyati, mafkuraviy jihatdan yangilanib zamonaviylash-ganligi va ko'pgina masalalarning eskirganligi bu sohaga yangi kuchlarning kirib kelishini yanada dolzarb masalaga aylantiradi. Sobiq sovet tuzumi dinimiz, tilimiz, milliy urf-odatimiz, qadriyatlarimizni tahqirladi. Abdulla Qodiri, Cho'lpon, Usmon Nosir kabi ziyo'lilarimizni qatag'on qildi. Sho'rolar tuzumi davrida milliy madaniyatni mensimaslik, milliy, diniy qadriyatlarni buzishga qaratilgan siyosat natijasida ming yillar davomida shakllangan, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va avloddan-avlodga meros bo'lib kelgan, o'ziga xos sharqona milliy ruh, ma'naviy barkamollik ko'p jihatdan zaiflashdi. Bu esa yoshlar tarbiyasi, xulqi, oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sir etishiga olib keldi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni to'g'ri tashkil etish, yoshlar ongiga milliy o'zlikni anglashni singdirish bu salbiy hodisalarning oldini olishga katta imkoniyat yaratadi.

Xalqimizning ma'naviy dunyoqarashi ortishi milliy istiqlol mafkurasi bilan umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini taqozo etadi. Bunga erishish uchun o'tmishimizni bilishimiz va targ'ib qilishimiz lozim. Mustaqillikdan keyin esa, yurtboshimiz aytganidek "Hayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish, yangi jamiyat qurish yo'lida xalqimizning ma'naviy yuksalishini o'z oldimizga qo'ygan olajanob maqsadlarga etishda hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosda ish olib borish biz uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib kelganini va bugun ham e'tiborimiz markazida turganini ta'kidlash lozim"<sup>227</sup>.

O'quvchi-talabalarga puxta, zamon talablari darajasida bilim berish barobarida, ularda ona-Vatanga sadoqat, mustaqilligimizga, tariximizga hurmat, milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash tuyg'ularini tarbiyalash hamda milliy istiqlol mafkurasini ularning ongiga singdirishdir. Bularni amalga oshirish, ya'ni o'quvchi-talabalarga ma'naviy-ma'rifiy tarbiya berish, o'quvchi-talabalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni, o'tkaziladigan tadbirlar rejasining (ma'naviy-ma'rifiy ishlarni bo'yicha rektor yoki direktor muovinining yillik ish rejasi) tuzilishiga, mazmuniga bog'liq. Chunonchi, rejadagi g'oyaviy-siyosiy va

<sup>227</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008 -B.7.

mafkuraviy tarbiya, huquqiy tarbiya, ekologik tarbiya, nafosat tarbiyasi, mehnat va kasb tanlash tarbiyasi, voyaga etmaganlar bilan ishslash, diniy ekstremizm va terrorchilikka nisbatan o'quvchilarda ogohlilik va hushyorlikni tarbiyalash, giyohvandlik va uning oldini olish, jismoniy tarbiya va sport, oilaviy, ekologik, jinsiy tarbiya kabi bandlarda o'quvchi kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan ma'naviy – ma'rifiy jihatdan tarbiya berish vazifasining mazmun va shakllari o'z ifodasini topadi. Sog'lom va barkamol avlodni voyaga etkazish orzusi aynan mustaqillik bilan bog'liq ezgu intilish bo'lgani bois istiqlolning birinchi kunlaridan boshlab uni amalga oshirish eng ustivor vazifalarimizdan biri bo'lib kelmoqda. Yurtimizda 2008-yilga "Yoshlar yili" deb nom berilishi va shu munosabat bilan maxsus davlat dasturining qabul qilinishi bu borada amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlarning yangi va yanada yuksak bosqichi bo'lishi mumkinligi shubhasiz.

Bugungi kunda mamlakatimizda o'ttiz yoshgacha bo'lganlar 17 million sakson ming nafarni yoki aholining 64 foizini tashkil etadi. Aholimizning aksariyat qismini tashkil etadigan ana shu ijtimoiy qatlarning echilishi lozim bo'lgan muammolarga e'tiborni jalb qilish, yoshlarni hayotimizda haqiqatan ham hal qiluvchi bunyodkor kuchga aylantirish bilan bog'liq keng ko'lamli vazifalarni amalga oshirish ushbu dasturning asosiy maqsadidir.

## Buyuk qalb sohibi

*Otabek Yuldashev*

*NamDU o'zbek tili yo'nalishi 4-kurs talabasi*

Qadimi yurtimiz necha-necha buyuk bunyodkor shaxslarga beshik bo'lgan. Ana shunday insonlardan biri mumtoz shoир, mutafakkir, tarixchi va davlat arbobi, markazlashgan davlat va boburiylar sultanati asoschisi, buyuk podshoh, nazariyotchi adabiyotshunos, tilshunos, san'atshunos, etnograf, hayvonot va nabotot olamining bilimdoni sifatida ko'p qirrali faoliyat yuritgan iste'dod sohibi, o'ziga "Yo'lbars" taxallusini tanlagan Zahiriddin Muhammad Boburdir. U Amir Temurning beshinchini avlodi, Farg'ona hukmdori Umarshayxning farzandi edi.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayot yo'lini yoritib beruvchi "Boburnoma"ni varaqlar ekanmiz, taqdir bu buyuk insonni naqadar og'ir sinovlardan o'tkazganligining, uni goho omad taxtiga o'tqazib, ko'klarga ko'targanligi, goho taxtu baxtdan judo etib, sarsonu sargardon

aylaganining guvohi bo'lamiz. Hayot har qancha ikkiyuzlamachilik qilmasin, buyuk qalb sohibi irodasini buka olmaydi. Ana shunday murakkab voqealar 1500-1501-yillarda ham yuz beradi. Samarqandni Shayboniyxon egallaganidan so'ng Bobur mirzo "shahar va viloyattin mahrum, borur turari noma'lum". g'oyat tang ahvolda qoladi. U bor yo'g'i 240 kishisi bilan Xisravshohdan iltifot kutadi va uning huzuriga bormoqchi bo'ladi. Chunki Xisravshoh o'zining saxovat va karami bilan g'oyatda ma'lum va mashhur bo'lgan, Badiuzzamonga va Boqi tarxonga beqiyos inoyatlar ko'rsatgan edi. Lekin Bobur mirzoga kelganda "saxovat bila mashhur bo'lg'on el xasis..., muruvvat bila mazkur bo'lg'on elning muruvvati..." unutiladi. Xisravshoh Boburni kutib olgani kelmaydi. Bu holatdan afsusga tushgan, hattoki bir navkarchalik qadr topmaganidan o'kingan Bobur quyidagi baytlarni bitadi:

**Kim ko'rbdur, ey ko'ngul, ahli jahondin yaxshiliq,**

**Kimki ondin yaxshi yo'q, ko'z tutma ondin yaxshiliq...**

Shayboniyxon Samarqandni ishg'ol etgan, biroq Samarqand ahli unga to'la bo'yin egmagan edi. Shayboniyxonning o'zi uch-to'rt ming navkari bilan Xoja Diyord shahrida, Samarqand hokimligini Jonvafo mirzoga bergen edi. Buni bilgan Bobur qadimiy shaharni ikkinchi marotaba qo'lga kiritishga harakat qiladi, Firuza darvozasini yashirin yo'l bilan ochirib, 240 kishi bilan shaharni egallaydi. Boburni shahar ahli qo'llab-quvvatlaydi, Shayboniy askarlarini tosh va tayoq bilan ayovsiz urib, ulardan to'rt yuz-besh yuztasini o'ldiradilar. Taqdir Boburga kulib boqa boshlaydi: To'ng'ich farzandi Faxrunniso dunyoga keladi; askarlari soni bir necha barobar ortadi; ota-bobolari yurti Samarqandni obod qilish ishlarini boshlab yuboradi; Binoiy, Xoja Abulbaraka Firoqiy kabi shoirlar ham uning huzuriga keladilar. Biroq, bu hol uzoq davom etmaydi. Taqdir sinovlarini davom ettiradi. Samarqandni Shayboniyxon qamal qiladi. Xaloyiq shu darajada nochor bo'lib qoladiki, hatto it va eshak go'shtini yeya boshlaydilar. Shayboniy sulh taklif qiladi. Hech qanday chora qolmagan, Bobur noiloj sulhga rozi bo'ladi. Shayxzoda darvozasi orqali onasini ham olib shaharni tark etadi. Singlisi Xonzoda esa Shayboniy qo'liga tushadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur yana bir necha bor Andijon, Farg'ona, Samarqand shaharlari sari qadam tashlaydi, biroq taqdir unga Kobul orqali Hindiston mamlakati yo'llarini ochadi. Vatanida amalga oshirolmagan buyuk ishlarini shu mamlakatda ro'yobga chiqarish imkonini beradi.

Bobur Hindistonda temuriylarga xos ulug' bunyodkorlik an'analarini davom ettirdi. Muhtasham qasrlar tiklash, ariq-kanallar

qazish, bog'-rog'lar bunyod etish, adabiyot, ilm-fan rivojiga homiylik qilish, elni adolat bilan boshqarish singari fazilatlar keyinchalik Hindistonning buyuk farzandlari tomonidan chinakam ijobiy baholandi. Hindistonning buyuk donishimand farzandi, davlat arbobi Javoharla'l Neru o'zining "Hindistonning ochilishi" va "Jahon tarixiga bir nazar" asarlarida Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ushbu fikrlarni izhor etgan: "Bobur - dilbar shaxs. Uyg'onish davri hukmdorining haqiqiy namunasidir. U mard va tadbirdor odam bo'lgan. Bobur o'ta madaniyatli va jozibali insonlar orasida eng yetuk insonlardan biri edi. U mazhabparastlik kabi cheklanishdan va mutaassiblikdan yiroq edi. Bobur san'at va ayniqsa, adabiyotni sevardi".

Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida buyuk qalb sohibining samimiyligi, vatanparvarligi, hayotsevarligi, rostgo'yligi yaqqol namoyon bo'lib turadi va o'quvchini ham shunday tuyg'ular bilan yashashga chorlaydi.

Nº	Mundarija:	Bet
----	------------	-----

## **MILLIY G`OYA, MA`NAVIYAT VA MAFKURA**

1.	Ilmiy-tadqiqot va xalqaro aloqalar. M. Qodirxonov NamDU Ilmiy ishlar bo'yicha prorektori	3
2.	Yoshlar tolerantlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning roli. Xurshid Mirzaxmedov, Umida Boyzaqova	7
3.	Diniy ekstremizm va terrorizm – yoshlar kelajagiga tahdid. Djo'raboyeva Gulshanoy, Xojiboveva Muqaddas	10
4.	Yuksak ma`naviyat – insoniyat haloskori. Umida Boyzaqova	12
5.	Beparvolik. S. Norqo'ziyev	14
6.	Ulug`lik odobi. S. Norqo'ziyev	15
7.	Yoshlarda milliy armiyaga hurmat ruhini shakllantirish - mustaqilligimizning, tinch va osoyishta hayotimizning mustahkam kafolatidir. Valiveva Nafisa	18
8.	Globallashuv davrida jamiyat va zamonaviy yoshlar. Xurshid Mirzaxmedov, Boyboeyev Dilmurod	22
9.	Axborotlashayotgan jamiyat. Xurshid Mirzaxmedov, Gulmira Abdusalomova	24
10.	Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida milliy dunyoqarashni tarbiyalashda milliy qadriyatlarni o'mi. D. Asqarova	29
11.	Ma`naviy barkamollikda milliy qadriyatlarning o'mi. Z. Botirova	32
12.	Diniy ekstremizm va terrorizm – vayronkor g'oyalarga to'yingan illat. Saidakbar Mutalov	34

## **SIYOSAT VA HUQUQ**

13.	O'zbekiston Respublikasida "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunni takomillashtirish mohiyati. O. Chuboyeva, I. Ismonov	39
14.	Selektsiya yutug'i muallifining huquq va majburiyatları. Akayeva Marapat	45
15.	Ma`muriy-huquqiy munosabatlar. J. Umarov	50
16.	Xalqaro molivayi lizingning o'xshash munosabatlardan farqli jihatlari. Yuldasheva To'tixon	53
17.	Jahon XXI asrda: kelajak va insoniyat taqdiri. Tojiboyev Azizbek	55
18.	Barkamol avlodni voyaga yetkazish masalalari. M.Irgasheva	57
19.	Fuqarolik huquqida da'vevo muddatini amal qilishining o'ziga xos jihatlari. Adashaliyev Adhamjon	59
20.	O'zbekiston Respublikasida lizing munosabatlarini huquqiy tartibga solinishi. Yuldasheva To'tixon	65
21.	Intellectual mulk ob'ektlari tizimida selektsiya yutuqlarining	68

	ixtirolardan farqli va o'xshash jihatlari. Akayeva Marapat	
22.	Huquq tizimi. J. Umarov	71
23.	Parlament so'rovi-jamiyat taraqqiyoti omili (Parlament nazorati). Jahongir Homidov, O. Chuboyeva	74
24.	Islom Karimov milliy davlatchiligidan mumtoz namunasi haqida. O. Mamatov	78

### ISLOHOT VA IJTIMOIY HAYOT

25.	Sog'lom avlod ma'naviyatini oilada shakllanishida jismoniy tarbiyaning ta'siri. Hamidjanov Abdulaziz, B. Tillayev	83
26.	Kichik biznes va tadbirdorlik sohasini rivojlantirishda yoshlarning o'rni. Topildiyev Odiljon. Zoidov Abbos	86
27.	Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining tizimi va uning jamiyat hayotidagi o'rni. Tillayev Bobomurod	91
28.	Barkamol avlod – jamiyat taraqqiyotining poydevori. B. B. Ibrahimov, A. Zaidov	94
29.	O'zini-o'zi boshqarish organlari vazifalarini amalga oshirishda davlat boshqaruvi organlari bilan ijtimoiy munosabatlarning ahamiyati. B. Tillayev	96
30.	Mahalla - tolerantlik madaniyati o'chog'i. Xurshid Mirzaxmedov, Shaxnoza Maxkamova	99
31.	Роль семьи, махалли и образовательных учреждений в воспитании молодежи. Топилдиев Одилжон	101
32.	Buxoro amirligi Qushbegi arxivsi. B. Abbosov, M. Mirzaabdullayeva	105
33.	Bugungi kun yoshlariga e'tibor. A. Asqaraliyev, as. D. Xakimova	107
34.	Oila - mustahkam ma'naviyat makonidir. Xurshid Mirzaxmedov, Shahlo Qo'chqorova	111
35.	Yoshlar dunyoqarashi va globallashuv jarayonlari. D. A. Raximboyeva, S. Mutalov	113

### TARIX VA ETNOGRAFIYA

36.	Jadidchilik harakati tarixshunosligi. Tohirjon Qozoqov	117
37.	Rossiya tomonidan Xiva xonligi bozorlarining egallanishi. Abdulboqiyev Faxriddin, Atamirzayeva E'zoza	121
38.	Somoniylar davlatida boshqaruv va huquqiy munosabatlari. Mamasaidov Lutfullo	124
39.	O'zbekistonda Avtomobil transporti tarixi. Mamadaliyev Shohruh	127
40.	XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Andijon hunarmandchiligi tarixi. Mavlonov Adhamjon	129
41.	Etnopedagogika va milliy madaniyat. B. To'xtaboyev,	132

	B.B.Ibrohimov	
42.	Sergey Pavlovich Tolstov "Qadimgi Xorazm" asarining O'rta Osiyo tarixi manbashunosligida tutgan o'rni. Jahongir Tojiboyev, Doniyorbek Erkinov	136
43.	Buxoro amirligining ag'darilishi va unda temiryo'l transportining ishtiroti (1917-1920 y. y.) B. Jalolov	139
44.	Xiva xonligi iqtisodini Rossiya mansaftalariga bo'ysundirilishi. Abdulboqiyev Fahriddin, A. Asqarov	146
45.	G. A. Gerasimenko asarlarida Rossiya shahar dumalari va zemstvo muassasalari haqida ma'lumotlarni yoritilishiga doir. Yo. T. Boltaboyev	150
46.	Farg'onadagi jadid tashkilotlari. Tohirjon Qozoqov	154
47.	Namangan viloyatidagi diqqatga sazovor "madaniy meros ob'ektlari" haqida. Baxtiyor Ro'zinov	157
48.	O'zbekiston qurolli kuchlarining vujudga kelishining huquqiy asoslari. Muzaffar Xo'jamov	161
49.	Mavlono Lutfulloh va tasavvuf-tariqatlari taraqqiyotiga qo'shgan hissasi. Mirxakimova Feruza	165
50.	Farg'ona vodiysi ipakchilik tarixidan. Patxiddinov Ruxiddin	170

## TA'LIM

51.	Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganayotganlar uchun og'zaki nutqni o'stirish. Zebo Botirova, Shavkat Abdullayev	174
52.	Deviant xulq-atvor sotsiologiyasining mohiyati. Muydinova Moxira, Abdulboqiyev Faxriddin	176
53.	Globallashuv jarayonlari va yoshlarda mas'kulaviy immunitetni shakllantirish masalalari. Boyzoqova Umida	178
54.	O'zbekiston taraqqiyotining "O'zbek modeli"ni o'rganish orqali yoshlar ongida milliy tarixiy tafakkurni va fuqarolik ongini shakllantirishning dolzarb muammolari. M. Nematova, G. Dadajonova	182
55.	Ta'lif tizimida ijtimoiy fanlarning tarbiyaviy ahamiyati. G. Sotiboldiyev, A. Asqaraliyev	185

## ADABIYOT VA SAN'AT

56.	Realia in translation. Dilmurod Djumabayev	188
57.	Namangan o'zbek shevalaridagi qarindoshlik terminlarining lisoniy xususiyatlari. M. Saidova	192
58.	XX asr O'zbekiston tasviriy san'atining shakllanishi. D.S.Po'latov	194
59.	Muqobilsiz leksemalar xususida. M. Abduraxmanov	196
60.	Turli tizimli tillarda «maqsad» kontseptini ifodalovchi	198

	vositalarning kognitiv va kommunikativ-pragmatik jihatlari. D. Yuldasheva	
61.	Sotsiolingvistik me'yorlar. Rayhona Gulomova	201
62.	Fransuz tilidagi noaniq olmoshlarining stilistik qo'llanilishi. M. Boboxonov, N. Jurayeva	208
63.	Abdulla Oripovning bahor mavzusidagi she'rlarining lisoniy tahliliga doir. Matluba Ulkanboyeva	211
64.	Viktor Gyugo ijodini o'rganib. H. Tursunov, N. Usmonova	215
65.	Types of learning styles. Botirova Z., Abdullayev Sh.	218
66.	Hajvgga moyil yozuvchi. Saidakbar Mutalov, Obidjon Karimov	221
67.	Barkamol inson tarbiyasida ma'naviy-axloqiy merosning o'rni. Sotiboldiyev Abbosxo'ja	224
68.	Milliy-ma'naviy meros. Xurshid Mirzaxmedov, Sabora Eshonxo'jayeva	225
69.	She'riyatda badiy obraz talqini. O.Karimov, S.Mutalov	227
70.	Milliy tarbiyaning milliy g'oya rivojidagi o'rni. Sotiboldiyev Abbosxo'ja	229
71.	Buyuk qalb sohibi. Otabek Yuldashev	231

2015-yil -22 mayda terishga berildi.  
2015-yil 10-iyulda bosishga ruxsat etildi.  
Bichimi 60x84. Hajmi 15 bosma taboq.  
Ofset usulida bosildi. Buyurtma - 28.  
Adadi 150 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

**«Namangan» nashriyoti**  
Namangan shahri, Navoiy, 36

**Nashriyot litsenziya raqami AI-156**  
2009-yil 14-avgustda berilgan.

---

**«AI Ikrom print» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.**  
Manzil: Namangan shahri, 5-kichik tuman, G'alaba ko'chasi, 19

Lucky  
Digital inkjet

L

ISBN 978-9943-05-1



9 789943 051